

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Anvar ERQO‘ZIYEV

«BUXORO XONLIGI TARIXI»
(o‘quv qo‘llanma)

Namangan – 2018

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustda va 2015 yil 10 yanvardagi "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma ma'lumotlaridan 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'tiladigan "Buxoro xonligi tarixi" fani bo'yicha dars mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Buxoro xonligining tashkil topishi va yuksalishi, tanazzuli sabablarini o'rganish, bu orqali Buxoro xonligi tarixidan bir tizimli ilmiy asoslangan bilimlar berish, jumladan xonlik aholisining hayoti, ularning mashg'ulotlari, davlatchilik va me'morchilik tarixi, bosqichlari, o'zaro diplomatik va elchilik aloqalari, savdo munosabatlari bo'yicha dastlabki bilimlar, ko'nikma va malakalar berishni belgilab beradi.

Mas'ul muharrir

Agzamova Gulchehra Azizovna
tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar

Sarimsoqov Abdilatip Abdirahimovich
tarix fanlari nomzodi, dosent

G'ofurov Nizomjon Oktyabrovich
tarix fanlari nomzodi

Mazkur o'quv qo'llanma Namangan davlat universiteti Kengashining 2018 yil 7 noyabrdagi 3-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

A. A. Erqo'ziyev.

Buxoro xonligi tarixi (o'quv qollanma). – Namangan, 2018. – 200 b.

© Namangan davlat universiteti, 2018 yil

Kirish

O'zbek xalqining asriy orzulari ham ro'yobga chiqqaniga chorak asrdan oshdi. Bugungi kunda O'zbekiston xalqi erk va ozodlik davrida hayot kechirmoqda. "Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotganligi – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad, prinsip va normalarning hayotbaxsh samarasi desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi".

Mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston o'tgan yigirma yetti yil ichida o'ta mashaqqatli va sharaflı yo'lni bosib o'tdi. Buni oldindan yaxshi bilgan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda "O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir", deb aytgan so'zlari zahirida qanchalik chuqur hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz.

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini o'rganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazinasi va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Aynan ushbu ma'naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash hamda rivojlantirishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek "...tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasorati tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda". I.Karimov tarixiy xotira to'g'risida fikrini davom ettirar ekan – "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi," – deya haqli ravishda qayd etgan. Yoshlarimizni Vatan tarixi bilan doimo mukammal tarzda qurollantira borsakkina, kelajagi buyuk davlatni qura olamiz.

O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol ruhda tarbiyalash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Buxoro xonligi yohud xonligi XVIII asr o'rtalaridan va XX asrning 20 – yillarigacha yashagan O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan uchta yirik xonliklardan biridir. Buxoro hukmdorlari O'rta Osiyodagi boshqa hukmdorlarga nisbatan mashhur va qudratli edilar. Bunga asosiy sabab sifatida davlat boshqaruvi an'analarini har bir hukmdor doimo davrida yangilanib borganligi, xonlarning davlat boshqaruvidagi o'rni benihoya ulkanligi bilan baholanadi. Buxoro hukmdorlarining barchasi haqida bunday fikr bildirish to'g'ri emasdir, ammo xonlik qudratini boshlab bergan xodisa ham, davlat taraqqiyotining asosi ham hukmdorning shaxsiy fazilati edi. Buning natijasida mamlakat siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan. Buxoro xonligi aholisining farovonligi oshgan. Abdullaxon II, Imomqulixon, Shohmurod, Amir Nasrullo hukmronlik davrida boshqaruv, pul va harbiy sohalarida ko'plab islohotlar o'tkazdiki ular mamlakat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Buxoro hukmdorlari, ularning tarixiy shaxsiga baho berish maqsadida ular haqida bugungi kunga qadar ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Ayniqsa, mustamlaka davri adabiyotlarida Buxoro hukmdorlari shaxsi qora bo'yoqlar orqali faqatgina tanqid ostiga olinib, go'yoki ular xech qanday tadbirni amalga oshira olmaydigan kaltabin, qonxor hukmdor sifatida tasvirlangan. Aslida ham sobiq sovet tuzumining tarixni qora ranglarda tasvirlashdan maqsadi ham, millatni o'zligini yo'qotish, uning ajdodlariga bo'lgan mehrini so'ndirishdan iborat edi

Buxoro xonligi tarixi bo'yicha 1920 yilgacha yozilgan asar va maqolalarda, garchi bir tomonlama fikr va mulohazalar bildirilganligi, hamda o'sha davr Rossiya imperiyasi istilochilik kayfiyatini aks ettirgan bo'lishiga qaramay, mavzuni o'rganish borasidagi ahamiyati kattadir. Zero, tarixning jonli guvohi sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etgan mualliflar asarlari Buxoro xonligi tarixi haqida ayrim qimmatli ma'lumotlar bera oladi.

XXI asrning yigirma yili ortda qolayotgan bir davrda, O`rta Osiyo xonliklari tarixi, xususan, Buxoro xonligi tarixini o`rganish yangi bosqichga ko`tarildi. Bunga birgina misol sifatida, Buxoro davlat universitetida 5120300-Tarix. Buxoro tarixi bakalavriat yo`nalishini ochilganligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, Namangan davlat universitetida 2012-2013 o`quv yildan boshlab o`zbek xonliklari – Qo`qon, Xiva va Buxoro xonliklari bo`yicha maxsus kurslar tashkil etilib, bugungi kunda Qo`qon va Buxoro xonliklari bo`yicha mashg`ulotlar olib borilmoqda. Maxsus kurslar orqali berilayotgan ma`lumotlar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o`tmish ajdodlarimizning boshqaruv sohasidagi fazilat va tashabbuskorliklaridan, ularning ma`naviy dunyosidan ibrat olish hissini uyg`otishi shubhasiz.

BUXORO XONLIGI TARIXI HAQIDA MANBALAR

Reja:

- 1. Buxoro xonligi tarixi haqida mahalliy tarixchilarning asarlari**
- 2. Buxoro tarixi haqida yevropalik sayyoh va elchilarning esdaliklari**
- 3. Buxoro-Rossiya munosabatlarining o`rnatilishi va Rossiya xonligi haqida to`plangan ma`lumotlar**
- 4. Buxoroda ingliz josuslarining faoliyati va ularning maqsadlari**
- 5. XX asrda sovet tarixshunislrigida Buxoro xonligi masalasi**
- 6. Mustaqillik yillarida Buxoro tarixini o`rganilishi**

Buxoro xonligi tarixi haqida mahalliy tarixchilarning asarlari.

Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Movarounnahrda fan va madaniyat rivoj topdi. Shayboniyxon hayotligi chog`idayoq yozilgan turli manbalarda Muhammad Solihning chig`atoy – turkiy tilidagi “Shayboniynoma”, Fazulloh ibn Ro`zbexonning forsha “Mehmonnomayi Buxoro”, Kamoliddin Binoiyning forsha “Shayboniynoma” asarlarida Jo`ji avlodlarining Movarounnahr taxtini egallashi, o`zaro ikki mintaqa o`rtasidagi o`zaro aloqalar qayd etilgan. Shayboniyxon haqida yozilgan ushbu asarlarning mazmuni shindaki, uning madaniyatga homiylik qilgani o`zi ham o`qimishli o`tkir badiiy va ijodiy did egasi bo`lganligi tufaylidir.

Ma`rifatparvar xonlar saroyida to`plangan olimlar shoir va yozuvchilar ilm fanining turli yo`nalishlari bo`yicha ijod qiladilar va yozgan asarlari bilan jahon tarixi va madanyati xazinasiga munosib hissa qo`shdilar. XV asr oxiri va XVIII asrlar davomida tarix ilmi bobida juda kata monumental asarlar yaratiladi. Muhammad Haydar yoki Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Ma`sud Ibn Usmon Ko`hisoniyning “Tarixi Abulxayrxoniy” Muhammad Solihning “Tavorihi Gurida” asarlari shular jumlasidandir.

Muhammad Solih (1455 - 1535) o`zbek shoiri tarixchi davlat arbobidir. Dastlabki ta`limni Xorazmda olgan 1499-yildan e`tiboran Shayboniyxon saroyida xizmatda bo`lgan. Shayboniyxon unga “amir ul-umaro”, “malik ush-shuaro” unvonlarini bergan. Shayboniyxonning harbiy yurishlarida birga bo`lgan. Shu davrda u “Shayboniynoma” asarini yozgan. Keyinchalik ushbu asar boshqa tillarga tarjima qilinib jahon tarixi adabiyotiga taqdim etildi.

Zayniddin Mahmud Vosifiy (1485-1556) uning asarlari orasida o'z davrining tarixiy shaxslari qatorida Alisher Navoiyning hayotidan ba'zi lavhalar ham keltirilgan. Saroy shoiri sifatida Vosifiy hukmdorlar amaldor to'ralar va savdogarlarga atab madhiyalar va qasidalar yozgan. Ularning buyurtmalari asosida she'rlar ijod qilgan. Farmonlar va yorliqlarning matnlarini tuzgan.

Saido Nasafi (1637-1710) "Ubaydullanoma" muallifining iborasi bilan aytganda Buxoro shoirlari taxtida sulton deb nom chiqargan shoir va yozuvchidir. U tojik adabiyoti va tojik adabiy tilining rivojlanishida o'ziga xos o'rnini bo'lgan mutafakkirdir.

Turdi Farog'iy (XVIII asrning birinchi yarmi taxminan 1701-yil) va Bedil (asl ismi Mirzo Abdulqodir 1644-1721) birgalikda Buxoro tarixini yoritishda sezilarli iz qoldirganlar. Ushbu tarixchilar mutafakkirlarning qoldirgan boy merosidan V.V. Bartold, A. Yakubovskiy, S.Ayniy va boshqa ilmiy tadqiqotchilar o'z davrida foydalanganlar. Keyinchalik esa o'zimizning yosh tarixchilarimiz tomonidan tadqiq etilib o'rganilgan.

XVI-XVII asr davri haqida aynan Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi haqida va hukmdorlarning shaxsiy fazilatiyu olib borgan islohotlari to'g'risida Yaqin Sharq va Uzoq Sharq davlatlari yozma hujjatlarida uchraydi. Eron va Hindiston bilan olib borilgan diplomatik aloqalari natijasida qoldirilgan hujjatlar ham bunga guvohlik beradi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar Ashtarxoniylar ilm, madaniyat, san'at va me'morchilikka homiylik qilganlar. Shuning uchun ham Shayboniylar davrida rivoj topgan fan va madaniyat o'z an'analari bo'yicha ashtarxoniylar davrida ham davom etdi. XVII asrda ijod qilgan ilm ahli shoirlar va tarixchilar ilgaridan kam bo'lmaydi. 1692-yilda Muhammad Badiy Samarqandiy tomonidan bitilgan tazkirada shu asrda yashagan 165 nafar ijodkorning nomi tilga olinganligi bu fikrning isbotidir. Bundan tashqari xonlikda bir yuz ellikdan ortiq madrasa bo'lgan.

Qonuniy bilim sohibi Mahmud Ibn Vali o'zining 1636-yilda yozilgan "Bahr ul- asror" asarida Samarqand Buxoro shaharlarida yashagan 20 nafar olim haqida ma'lumot beradi. Olim tilga olgan shoirlar Saido Nasafi, G'ofur Samarqandiy, Kufiniy, Vohibiy, Buxoriy shular jumlasidandir.

Mirzo Sodiq Munshiy ashtarxoniylar sulolasi xonlarining kirdikorlarini fosh qiluvchi "Dahmayi shoxon" manzumasni yozgan.

Muhammad Balxiy “Subxonqulinoma” masnaviysini bayon etuvchi Muhammad Amin Buxoriyning “Muhid ut-tavoriy” (Tarixlar dengizi), Abdurahmon Tolening “Abul Fayzxon tarixi”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Muqimxon tarixi” Xojamqulixon Balxiyning “Qipchoqxon tarixi” asarlari shu davrning mashxurlaridan hisoblanadi. Subxonqulixonning zamondoshi shoir Turdi (1702-yilda vafot etgan) ning ijodi o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. U Subxonqulixon va uning rolini amaldorlariga qarshi ko’tarilgan xalq qo’zg’oloni qatnashchisi, she’rlarida xalqni zulmga qarshi birdamlikka, birlashishga da’vat etgan jasur shoirdir.

Ashtarxoniylar zamonida Boboraxim Mashrab (1640-1711), So’fi Olloyor (1644-1723) va boshqa tasavvuf namoyondalari ijodi xalq mehrini qozonadi. Tariqat namoyondalari insonni ulug’lab uning xaqqa yetishuvini tashviq qiladilar.

Xoja Samandar Termiziyning “Dastur-ul mulk” asari Subxonqulixon davri davlatchiligi tarixi va tuzimi haqidagi asardir. Mutribiyning “Tazkirot ush shuoro”, Maleho Samarqandiyning “Muzkkir ul-ashal” (1602), Mulla Sodiq Samarqandiyning “Riyoz ush-shuoro” kabi asarlarida davrning muhiti tarixiy jarayonlar asosida yoritib berilgan.

Ahmad Donish Mahdum ibn Nosir (taxallusi Kallo) (1827-1897). O’z davrining yirik marifatparvar olimi va faylasufi, yozuvchisi va astronomi, tarixchisi va arxitektori musavviri va musiqa nafisi bol’ib, bizgacha yetib kelgan asarlari jumlasiga “Nomus al-azam” (Ulug’ qonun), “Muntahab al-azam” (Tanlangan qarorlar) “Navodir ul-vaqol” (Noyob voqealar) va “Risoli muxtasari va tarixi saltanati xonadoni amironi Mang’it” (Mang’it amirlari xonadoni saltanatining qisqacha tarixi)lari kiradi. Buxoro amiri elchisining kotibi sifatida 3 marta Rossiyada bo’lgan. Ahmad Donish har tomonlama Rossiyaga nisbatan orqada bo’lgan amirlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzimni tanqid qiladi. Rus madaniyatini omma o’rtasida tinmay targ’ib qiladi va undan o’rganishga chaqiradi. Uning asrlarida oddiy mehnatkash xalqqa munosabat yaxshi Donish xalqni ma’rifatli qilish uning madaniyatini oshirish yo’li bilan “adolatli” monarx hokimiyati rahbarligida mavjud bo’lgan nohaqlik va adolatsizlikni yo’qotib baxtli hayot qurish mumkin deb hisoblardi.

Muhammad Yusuf Bobojonbek o’gli Bayoniy (1840-1923) o’zbek adabiyotining yirik tarjima va hadot tibbiyot ilmining bilimdan kishilaridan biri sifatida tanilgan. Uning turli tildagi asarlarida Xorazm, Buxoro, Qo’qon xonliklarining tarixi madaniyati va xorijiy davlatlar bilan

munosabatlari to'g'risida ishonarli va muhim fikrlar bayon etilgan. Bayonining tarixiy asarlarini o'rganish materiallar tarixiy voqealar, adabiyot, madaniyat ahlining hayoti va ijodi tanishtirish ham katta ahamiyatga egadir. Bayoniy Mavlono Darvesh Ahmad tomonidan 1092- (1681) yilda arab tilida "Shohoiful ahbor", Ali Muhammad al-Xivaqiyning "Shayboniynoma", Abu Zafar Zarrat Taboriyning arab tilida yozilgan umumiy tarixga oid "Tarixa Taboriy" va boshqa asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ushbu tarjima asarlari bilan birga Bayoniy "Shajarai Xorazmshohiy" asarlar ham ijod etadi.

Bundan tashqari Buxoro xonligi tarixnavisligida Xiva, Qo'qon xonliklarida yashab ijod qilgan olimu fuzalolari ham o'z hissalarini qo'shishgan. Jumladan Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Muhi Hoqandiy, Bezdaq va boshqalar shular jumlasidandir.

XX asr boshlaridan boshlab Turkistonda ish boshlagan Yosh Buxoroliklar tomonidan yozilgan kitoblar va davriy nashrlar ham xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar beradi. O'zining kitoblarini yaratgan Avloniy, Cho'lpon va boshqalar shular jumlasidandir.

Ashtarxoniylar sulolasi davridagi Buxoro xonligi tarixi "Tarixi Muqimxoniy", "Ubaydullonoma" "Tarixi Abulfayzxon" asarlarida bayon qilinadi.

"Tarixi Muqimxoniy" asarining muallifi - Muhammad Yusuf munshiy ibn Xo'ja Baqo (XVII asr) dir. Muallif maqsadiga ko'ra «Tazkirai Muqimxoniy» ikki qismdan iborat bo'lishi zarur edi. Asarning birinchi qismida Ashtarxoniylardan Muhammad Muqimxonning Balx taxtiga o'tirishi 1109 yil (1697 yil 15 noyabr') dan boshlab, 1704 yil bilan tugagan. Muallif so'ziga ko'ra, «agar uning hayot sha'mini charxning telba shamoli o'chirib qo'ymasa va umrining chopqir oti-ni yo'qlik dengizi to'lqinlari o'z domiga tortib ketmasa», u 1704-1705 yillardan keyin Balx va Buxoroda sodir bo'lgan voqealarni yoritishga ahd qilgan edi. Aftidan, bu orzusini ro'yobga chiqarish muallifga nasib etmagan.

Muhammad Yusuf Xo'jabek balxlik tarixchi olim bo'lib, ashtarxoniylardan Subxonqulixon (1681-1702) Muhammad Muqimxon (Balx hokimi 1702-1707) saroylarida munshiy bo'lib xizmat qilgan. U Muhammad Muqimxonga bag'ishlangan. Muqimxon tarixi ("Tarixi Muqimxoniy" 1697-1704) asarida Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etadi. Bu muqaddima va 3 bobdan iborat bo'lib, 1-bobda shayboniylar davrida

Movarounnahrning umumiy ahvoli tasvirlanadi. Asarning 2-3-boblari original bo'lib, unda Buxoro xonligi va Balxning Hindiston, Eron, Turkiya va Qashqar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari, Buxoro va Balx o'rtasidagi qurolli kurash (1702-1704) xususida so'z boradi. Asarda so'fiylik tariqotlarning rahbarlari, nufuzli eshonlar, hukmdorlar (Balx hokimlari Jalix Xo'ja, Mahmudbiy otaliq, Badashxon hukmdori Miryorbek), xattotlar, shoirlar, shuningdek, Orinduz (Qatag'on), Termiz (Qo'ng'iro't), Balx (Qurama), Lag'mon (olchin) da yashovchi o'zbek qavmlari hamda saroy manbalari va harbiy unvonlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Asarning ikkinchi qismi nomalum sabablarga ko'ra yozilmay qolgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar «Muqimxon tarixi» ni XVI asr oxiri - XVII asr boshidagi O'rta Osiyo tarixchiligining muhim manbalari qatoriga kiritadilar. SHuning uchun hozirda asarning mamlakatimiz, Angliya, Frantsiya qo'lyozma xazinalarida (ular 60 dan ortiq) saqlanayotgan nusxalari XIX asrda ko'chirilgan. 1860-1861 yillarda ular o'zbek tiliga, I. I. Senkovskiy tomonidan qisman frantsuz tiliga, A. A. Semyonov, N. G. Mallitskiylar tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

Ashtarxoniylar tarixini o'rganishda muhim manba sanalgan bu asar "Ubaydullonoma" va "Abulfayzxon tarixi" asarlari uning mantiqiy davomi hisoblanadi va XIX asrning 20-yillarida Rossiya orqali Yevropaga tarqaldi. Asardan parchalar fransuz tilida bosildi (1824), to'la ravishda eski o'zbek tiliga 1861-yilda tarjima qilindi. 1956-yilda to'liq ruscha tarjimasi A.A. Semyonov tomonidan chop etilgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar "Muqimxon tarixi"ni XVI asr oxiri - XVII asr boshidagi O'rta Osiyo tarixchiligining muhim manbalari qatoriga kiritadilar. Shuning uchun asarning hozirda mamlakatimiz, Angliya, Fransiya qo'l yozma xazinalarida 60 dan ortiq saqlanayotgan nusxalari mavjud.

"Tarixi Muqimxoniy" Silvestr da- Sasi, Karl Zitler, German Vamberi kabi yevropalik tarixshunoslarning doimiy nazarida turgan. V.V. Bartoldning aytishicha, u uzoq vaqtlar yevropaliklar uchun Buxoro xonligi tarixi bo'yicha yagona manba bo'lib qoldi.

"Ubaydullonoma" XVII asrda o'tgan Mir Muhammad Amin Buxoriy asaridir. U o'qimishli va fozil kishilardan bo'lib, 1645-yilda Buxoroda tug'ilgan, vafot etgan yili ma'lum emas. Hayoti haqida ma'lumotlar deyarli saqlanmagan. Ashtarxoniylardan Subhonqulixon davrida saroydan chetlashtirilgan. Keyinchalik Ubadulloxon II saroyida

bosh munshiylik lavozimida xizmat qilgan. Ubaydulloxonning safarlarida hamroh bo'lib, o'z davrining fozil kishisi sifatida tanilgan.

“Ubaydullonoma” Buxoro xonligining 1702-1716-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qiladi. Asar 1716-yildan keyin yozilgan, muqaddima, asosiy 80 bob va xotimadan iborat.

Muqaddimada muallifning hol-ahvoli, ya'ni Subxonqulixon hukmronligining so'nggi yillarida xizmatdan chetlashtirilib, og'ir ahvolga tushib qolganligi va Ubaydulloxon xizmatiga qabul qilinishi, Abdulazizxon va Subxonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan.

1-80-boblarda Buxoro xonligining qariyb 15 yillik (1702-1716) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yozilgan. Muallif mazkur asarida kata yer egaligi, aholidan yig'iladigan soliq va jarimalar, Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi tarqoqligining kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning ayrim sabablari kabi masalalarga keng o'rin bergan. Asarda geografik va etnografik ma'lumotlar ko'p. Shuningdek asarda Balx, Termiz, Hisori Shodmon, Shahrisabz kabi mahalliy viloyatlar hokimlari o'zboshimchaligiga qarshi Ubaydulloxonning olib borgan kurashi va qat'iy markazlashtirish siyosati, pirovardida, uning o'ldirilishi o'z aksini topgan. Ubaydulloxonning o'limidan so'ng Buxorodagi islohotlarga ham barham berildi. Mahalliy bek va hokimlarning o'zboshimchaligi va ayrimachiligi kuchaygan. Buxoro xonligining katta qismiga Qo'qon xonligi tashkil topdi. Asarda so'nngi o'rta asrlarda Buxoro xonligidagi unvon, daraja va mansablar turkiy qavmlar va urg'ular haqida nodir ma'lumotlar bor.

Xotimada muallif bilan zamondosh bo'lgan va Buxoroda istiqomat qilgan olimlar, shoirlar, masalan, Said Nasafiy, Qosimxo'ja, Mulla Sarfarozi, Fitrat, Muham, mashhur qozilar haqida qisqacha, lekin e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan. “Ubaydullonoma” asarining Toshkent, Dushanbe, Sankt-Petrburgda 10 dan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud. Asar A.A. Seymonov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1957-yilda Toshkentda nashrda chiqarilgan.

“Tarixi Abulfayzxon” asarini Ubaydulloxon va Abdulazizxon (1711-1717) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir va tarixchi olim

Abdurahmon Davlat yozgan. Muallif ko'proq Abdurahmon Tole nomi bilan mashhur.

Mazkur asar hajm jihatidan kuchli, 161 varoq bo'lib, "Ubaydullonoma" ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711-1723-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli zaiflashadi va ulus boshliqlarining, ya'ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan kurashi kuchaydi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarqand markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'ydilar, Farg'ona XVIII asr boshlarida 1709-yili Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqdi va o'lkada mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topdi. 1722-yili Samarqand ham mustaqillik e'lon qildi va Rajabxon ismli kimsani xon qilib ko'tardilar (1722-1728), o'zaro urushlar boshlanib ketdi. "Tarixi Abulfayzxon" asarida mana shu masalalar keng yoritib berildi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi va o'zbek xalqining etnik tartibi haqida ham ayrim, diqqatga sazovor dalil va ma'lumotlar bor.

"Tarixi Abulfayzxon" ning to'liq ruscha tarjimasi, zarur izohlar bilan 1959-yili A.A.Semyonov tomonidan Toshkentda nashr qilingan.

Ashtarxoniylar davri tarixiga oid yana bir muhim asar Ho'ji mir Muhammad Salim qalamiga "Silsilat us-salotin" ("Buyuklar silsilasi")dir. Uning qo'lyozma nusxalari juda kamyob bo'lib, bir nusxasi Angliyaning Oksford shahridagi Bodli kutubxonasida saqlanmoqda.

Asarda Ashtarxoniylar davri tarixi, Eron va Hindiston bilan olib borgan diplomatik munosabatlari xususida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari asarda Balx va Badashxon, Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, Shohjahonning Balx va Buxoro xonligi ichki ishiga qurolli aralashuvi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asar 1731-yilda yozilgan bo'lib, muqaddima va to'rt qismdan iborat.

O'rta Osiyo tarixining tarixshunoslik jihatidan to'la o'rganilmaganligiga sabab tarixiy manbalarning yo'qligi emas, balki, aksincha, ularning xilma-xilligidir. Nima bo'lganda ham O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrdan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan hayoti tariximizning eng kam o'rganilgan davrlaridir. Inqilobgacha bo'lgan davrda bu masalaga juda kam e'tibor berilgan. Rossiya sharqshunoslari asosiy e'tiborni Amir Temurgacha va temuriylar davrini o'rganishga qaratishgan. Sovet davrida esa, keyingi 30 yilda bir qator qimmatli tadqiqotlar paydo bo'ldi. Biroq, XVI-XIX asrlardagi O'rta Osiyo xalqlari

tarixining mufasssal, ko'p sonli tarixiy manbalarga asoslangan tahlili juda kam. Ular jumlasiga B. A. Ahmedov, B. G'. G'afurov, E. A. Davidovich, H. Z. Ziyoev, R. G. Muqminova, A. M. Muxtorov, O. D. Chexovich va boshqalarning bir qator asarlarini kiritish mumkin.

O'rta Osiyo qadimgi tarixiga doir ma'lumotlar to'plangan ilk kitob 1984 yilda nashr etilgan edi. 1988 yilda esa «O'zbekiston tarixiy manbalarda» degan navbatdagi kitob bosmadan chiqdi. Undan O'rta Osiyo tarixi bilimdoni sharqshunos B. V. Lunin to'plagan, XVI-XIX asrlarning sayohatchilari, geografiya olimlari qoldirgan ma'lumotlar o'rin olgan. Muallif kitobning kirish qismida Samarqand va Buxoro barcha asrlarda dunyoga ma'lum va mashhur bo'lganini ta'kidlaydi. Qadimda aynan shu O'rta Osiyo orqali Uzoq Sharq mamlakatlari, Osiyo va Yevropaga boradigan asosiy savdo yo'llari o'tgan edi. Biroq dengizda suzuvchilarning XV asrda Amerikaga, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochganlari bois, O'rta Osiyoda asta-sekin yirik savdo-sotiq ishlari va xalqaro madaniy aloqalar susaya boshladi.

XVI-XIX asrdagi O'rta Osiyo xalqlarining tarixshunosligi bo'yicha ma'lumotlarni jamlagan B.A.Ahmedov tomonidan yozilgan asarning ikkinchi bo'limida rus va chet el elchilari - Antoniy Jekinson, I. D. Xoxlov, aka-uka Pazuxinlar, Floriya Beneveni va Novopat-ros mitropoliti Xrisanfning XVI-XIX asrlardagi O'rta Osiyo to'g'risidagi, uning o'sha davrdagi Rossiya bilan aloqalari haqidagi ma'lumotlari keltiriladi. Bu ma'lumotlar fors-turk, arab tillaridagi manbalarning ma'lumotlari bilan taqqoslanib, ancha tarixiy faktlar aniqlashtirildi.

Eng muhimi, B.A.Ahmedov ilk manbalar bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar ishini yengillatadigan ish qildi voqea va faktlarni aniqlashga intilib, tarixshunoslikning muhim sharti - qiyoslash va bor ma'lumotlarni jiddiy, tubdan qayta tekshirish qoidasiga amal qilgan holda ushbu asarni yaratgan. Buning uchun B. Ahmedov o'z tahliliga muayyan bir davr bo'yicha bir necha asarlarni kiritgan. Bular «Tavorixi guzida» («Nusratnoma»), «Fatxnoma», «Shayboniynoma», «Mehmonnomai Buxoro», «Zubdat-ut-tavorix», «Badoe`ul-vaqoe» dir.

Shu bilan bir vaqtda muallif bu asariga ilgari bosilgan manbalarga oid tarixshunoslik lavhalarini ham kiritgan. «Tavorixi guzida»- «Nusratnoma», «Mehmonnomai Buxoro», «Dastur-ul-muluk», «Tarixi Muqimxoniy», «Ubaydullanoma» va «Tarixi Abdulfayzxoniy» shular jumlasidandir.

XV asrning ikkinchi yarmida Dashti Qipchoqda ko'chmanchi feodal boylar va oliy hokimiyat o'rtasida keskin kurash bordi. Abulxayrxonning (1428-1468) o'limidan so'ng ayniqsa, bu qonli o'zaro urush yanada kuchaydi. Hokimiyat tepasiga uning nabirasi - Abulxayr Shayboniy (1451-1510) kelganidan so'ng o'zbek feodallarining nizolari barham topdi. U ko'pchilik o'zbek urug'larini birlashtirib, temuriylarga qarshi chiqdi. XV asr oxiri, XVI asr boshlarida ko'chmanchi o'zbeklarning O'rta Osiyoning madaniy hududlariga tomon harakatlanishi avj oldi. «Nusratnoma»da o'sha davr tarixiy sharoitning qanchalik murakkabligi, Movarounnahr xalqining noroziligi kuchayishining, Samarqand, Buxoro, O'sh, Axsi, Andijon, Qarshi, Qorako'l va O'rta Osiyoning boshqa ko'plab shahar va mintaqalaridagi qo'zg'olonlarning sabablarini tushunish uchun ko'plab qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Shuningdek, o'zbek xalqi etnogenezi, XV-XVI asrlardagi O'rta Osiyo aholisining etnik tarkibi bilan shug'ullanayotgan etnograf ham bu kitobdan juda qiziqarli ma'lumotlar olishlari mumkin.

Kitob xronologik tarzda tartblangan bo'lib, barcha turk va mo'g'ullarning afsonaviy bobosi hisoblangan O'g'izxon sulolasi tarixi «Tavorixi guzida»ning birinchi qismini egallaydi. Ikkinchi qism esa Chingizxon va uning avlodlari tarixini, Shayboniyxonning tug'ilishidan, to Samarqand taxtiga o'tirgunicha o'tgan davrni o'z ichiga oladi. Uning 909 (1503-1504) yilgacha butun Movarounnahr hududini egallagani tarixi kitobning uchinchi qismidan joy olgan.

«Tavorixi guzida»-«Nusratnoma» asari dunyo miqyosida ikki nusxada topilgan. Birinchi qo'lyozma Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Leningrad bo'limida va ikkinchi qo'lyozma Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Qo'lyozmaning ikkala nusxasi ham qoniqarsiz ahvolda - mazmunda chalkashliklar, xatolar bor. A. Akramov o'z asarida bu kamchiliklarni tuzatishga urinsada, hanuz, ba'zi varaqlar o'rni chalkashgan, ba'zi voqealarning qaytarilishi uchraydi.

«Nusratnoma» hanuzgacha to'liq tarjima qilinmagan. S. K. Ibrohimov va V. P. Yudin bu asarning ba'zi parchalarini o'zbekchaga o'girishgan. «Tavorixi guzida»-«Nusratnoma» dan tadqiqotchilar B.V. Bartol'd, A.A.Semyonov, S.K.Ibrohimov, R.G.Muqminova, S.A. Azimjonova, K.E.Petrov, B.A.Ahmedov va A.M.Akramovlar o'z ilmiy izlanishlarida ancha keng foydalanishgan.

Sharqshunos A. Mirzayevning aytishicha, Binoiy (uning to'liq ismi Ali ibn al-Muhammad al-Hiraviy) 857 (1453) yilda me'mor

Muhammadxon Sabza oilasida tug'ilgan. 1495 yilda Binoiylar Samarqandga ko'chishadi. Uning zamondoshlari Navoiy, Bobur, Xondamir va boshqalar Binoiy iste'dodi xususida juda yaxshi fikr aytgan edilar.

Balxlik olim (XVII asr) Muhammad Toxirning yozishicha, Binoiy 866 (1481 yilda otasi bilan birga Balxda to'rtinchi xalifa Ali ibn Tolibning qabri ustida gumbaz qurishda qatnashadi. Muhammad Tohirni yozishicha, binolar qurilishi va ilm-fanda mashhur me'morlar ustози mavlono Binoiy rahbarligida bu muqaddas qabr qurilganiga 170 yil bo'lgan bo'lsada, bu binoda bironta darz mavjud bo'lmagan.

Binoiy Samarqandda yashayotganida beixtiyor 1496-1500 yilgi tarixiy voqealar guvohi bo'ladi. Bobur va Shayboniychon o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash o'z davrining ilg'or tafakkur va bilim egalari uchun kurash bilan uyg'unlashib ketgan edi. Ular jumlasiga Mahdumi A'zam Kosoniyni, Xoja Ahror vafotidan so'ng O'rta Osiyo musulmon dindorlarining bosh vakillaridan biriga aylangan uning o'g'li Yahyoxonni, Binoiy, Xondamir va boshqalarni kiritish mumkin. Samarqandga kelgach, Binoiy dastlab Shayboniychonga, so'ng Bobur Samarqandni boshqargan yuz kun davomida temuriylarga xizmat qiladi. 1498 yilning fevral oyida Bobur Samarqandni tashlab chiqqanida Binoiy ham uning qo'shini bilan ketadi. Biroq Samarqandda hokimiyat uchun kurash davom etardi. Shu orada Binoiy yana Boburning ittifoqchisiga aylanadi. 1501 yilning o'rtalarida yuz bergan jang Binoiy va Mahdumi A'zam Dahbediyning taqdirini hal qildi. Ular to umrlarining oxirigacha o'z vatanlarida yashab qoldilar. Shundan so'ng Binoiyning yozishicha, u Shayboniychon saroyi solnomachisiga aylanadi va xonning hukmdorligi va g'olibona yurishlari tarixini yozish to'g'risida maxsus topshiriq oladi. Binoiy bu vazifani a'lo uddaladi. Biroq, o'zaro feodal urushlar Shayboniychonning ham, Binoiyning ham o'limiga sabab bo'ldi.

Binoiy «Shayboniynomasi» tadqiqotchilar (E. G. Braun, K. G. Zaleman, A. N. Samoylovich, M. A. Sal'e, A. A. Semyonov, A. N. Boldirev, R. G. Muqminova, A. M. Mirzayev, S. K. Ibrohimov, B. A. Axmedov va boshqalar) tomonidan keng foydalanilmoqda.

Binoiyning yozishicha, hatto 1494-1500 yillarda ham Ko'hak etagida, Obirahmat arig'i bo'yida Ulug'bek rasadxonasi buzilmagan holda qad ko'tarib turgan. Bu ma'lumot Boburning Ko'hak tepaligi joyida Mirzo Ulug'bekning yulduzlar jadvalini tuzish uchun zarur asboblarni joylashgan rasadxonani ko'rgani haqidagi gaplarga mos keladi. Demak, Ulug'bek

rasadxonasi asboblari XVI asrda ham saqlangan. Shu bois rasadxonaning Ulug'bek o'limidan so'ng (853 yil) ramazon oyining 8 kuni (1449 yilning 25 oktyabri) talon-toroj qilinib, buzib tashlang'ani haqidagi fikr tarixiy manbalarga to'g'ri kelmaydi.

Shu yerda boshqa «Shayboniynoma» muallifi Muhammad Solih haqida ham to'xtalib o'tish kerak. Tarixiy manbalarga qaraganda Muhammad Solih oldin Amir Temur, keyin Shohruh Mirzoning eng kuchli amirlaridan bo'lgan Mirzo Ulug'bekning ustози Shoh Malikning nabirasi edi. Boshqa chig'atoy beklari kabi uzoq yillar Mirzo Ulug'bek xizmatida bo'lgan Muhammad Solihning otasi Nur Saidbek ham shahzoda Abdullatifga, keyin temuriy Sulton Abu Saidga (1414-1469) bo'ysunishdan bosh tortib, Nurota tog'lariga chiqib ketdi. U Samarqand va Buxoro agroflariga muntazam hujum qilib turdi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha katta siyosiy mavqega ega Xoja Ahror, bir necha bor Nur Saidbekni, keyin uning ittifoqchisi, Ulug'bekning nabirasi Muhammad Jo'qiyning qurolni tashlab, kelishuvga undagan. Qurolni topshirgach 1462 yil 5 oktyabrda Muhammad Jo'qiy zindonga tashlangan, Nur Saidbek esa ilgari otasi hukmdor bo'lgan Xorazmga hukmdor etib tayinlangan, lekin bu ko'pga cho'zilmadi. To'rt yildan so'ng, 1466-67 yillarda Sulton Husayn Xorazmga bostirib kirdi. Nur Saidbek esa Hirotga chaqirib olinib, «qo'rqqoqlik qilgani uchun» qatl etildi.

«Qomus al olam» lug'ati muallifi Shamsiddin Somiyning yozishicha, Muhammad Solih Abdurahmon Jomiyning eng iqtidorli shogirdlaridan biri edi.

Binoiy 1494-1495 yillarda Samarqandga kelgan va Muhammad Solih bilan birga Xoja Ahrorning o'g'li Xoja Yodgor qo'lida xizmat qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Binoiy va Muhammad Solih Hirotni bir yilda, ya'ni 1496 yilgacha tark etishgan. Biroq, ularning Muhammad Yahyoga xizmati ham qisqa bo'ldi. Chunki Xoja Ahror o'limidan so'ng Xoja Yahyo uning barcha huquq va hisobsiz boyligining yakka xo'jayini bo'lib oldi. Muhammad Yahyo o'n to'qqiz yoshli Bobur Sultonning hamfikri edi va uning Movarounnahr hukmdori bo'lishini istardi. Biroq, 1501 yilning aprelida Samarqand yaqinida bo'lgan jang Shayboniynon g'alabasi bilan tugadi va Bobur Samarqandni butunlay tark etishga majbur bo'ldi. Shayboniynon lashkari ikkinchi bor, bu gal hech qanday to'siqsiz Samarqandni egalladi. Shayboniynon Samarqandni birinchi bor egallaganidayoq shahar himoyachisi tashkilotchilarini, jumladan Muhammad Yahyoni ham asir olgan edi. O'zbek amirlari uni qatl etishni

talab qildilar. Biroq Shayboniyxon marhum Xoja Ahror (1404-1494) obro'sini e'tiborga olib Muhammad Yahyoga Makkaga hajga borib kelishni taklif etadi. Shayboniy amirlaridan bir guruhi til biriktirib go'yo xondan beruxsat Xojani yo'lda o'ldiradilar. Haqiqatda esa Shayboniyxon Xoja Ahror avlodining behisob boyliklariga ega bo'lishga qiziqqan. Bunga Xojaning yer-suvlari va boyliklarini amirlarning bo'lib olishiga oid hujjatlar guvohlik beradi. Bu boyliklarning katta qismi Shayboniyxonning mulkiga aylangan.

Muhammad Solih 1501 yildan to umrining oxirigacha shayboiylarga xizmat qildi va 941 (1534-1535) yilda Buxoroda vafot etdi. Muhammad Solihning she'riy solnomasi chamasi 1505 yillarda yozilgan bo'lib, Kamoliddin Binoiy asariga mos keladi.

Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asari kam. Uning ikki nusxasi Vena kutubxonasi hamda LDD ilmiy kutubxonasining sharq bo'limida saqlanadi va shu qo'lyozmalarga asoslangan ikki nashr (G. Vamberining 1885 yildagi nashri, P. M. Melioranskiyning 1908 yildagi nashri) saqlanmoqda. Hozirgi davrda bu asar shoir va filolog Nasrullo Davron tomonidan 1961 yilda o'zbek tilida nashr etilgan.

Muhammad Kozimning «Nomai Olamaroi Nodiriy» asari XVIII asr fors tarixshunosligining noyob yodgorligidir. Asar muallifi diqqat markazida afshariylar dinastiyasi asoschisi, eron shohi Nodirning (1736-1747) Movarounnahr hududiga bostirib kirishi, bu bosqinchining Buxoro xonligiga ashtarxoniylar hokimiyatining butunlay qulashiga sababchi bo'lishi bilan bog'liq voqealar yotadi.

Muhammad Kozim 1133 (1720-1721) yilda tug'ilgan. Uning otasi Marvlik bo'lib, afshar urug'ining Xurosondagi tarmog'iga mansub edi. Nodirshoh butun Eronning hukmdori bo'lishdan ancha oldin u bilan aloqada edi. 1728-1729 yillarda muallifning otasi Nodirshohga xizmat qilayotgan edi, u 1732-33 yillarda shoh buyrug'iga binoan G'azna shahri qabristonini, mashhur Bandi Sulton to'g'onini tiklash va boshqa qurilish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Yaxshi ishlagani uchun Nodir tomonidan 50 tuman pul bilan taqdirlangan.

Muhammad Kozim 1730 yilning iyul, avgust oylarida Mashhadda yashab, madrasada Saidamir Shamsiddin Ali Mazondoroni qo'lida o'qigan. Biroq bo'lajak tarixchi yaxshi ma'lumot, bilim ololmagan.

1736 yili u Ozarbayjon hukmdori Nodirshohning akasi Ibrohimshoh xizmatiga kiradi. Muallif 1740 yilgacha bo'lgan hayoti haqida hech narsa yozilmagan. 1740 yilning 10 iyunida Nodirshoh Hirotga keladi va O'rta

Osiyoga yurishga hozirlana boshlaydi. Muhammad Kozim bu yurishda ko'chma devonxona kichik amaldori sifatida qatnashgan. 1744-1747 yillarda esa Nodirshoh shaxsiy devonxonasi xizmatchisi bo'lib, 1747 yildan boshlab Marvda qurol-aslaha omborlari vaziri bo'lib xizmat qiladi. Bular uning so'nggi mansablari edi. U 1766 yilda vafot etgan.

«Nomai Olamaroi Nodiriy» muallif rejasiga ko'ra, uch jilddan iborat: daftar, jild va mumallad. Muhammad Kozim asarining birinchi jildini yozishni 1749-50 yillarda boshlab, 1752-1753 yillarda tugatgan. Qo'lyozmaning ikkinchi jildi ko'chirmasida vaqti ko'rsatilmagan. Uchinchi jild qo'lyozmasi oxiri yo'qolgan. Biroq mutaxassislarning fikricha, ikkinchi va uchinchi jildlar 1752-1753 yillargacha yozib tugatilgan. Birinchi jildda 1689-1736 yillarda Eronda yuz bergan asosiy voqealar qalamga olinadi. Bu Nodirshohning tug'ilganidan tortib, Eron shohi etib saylanganigacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Ikkinchi jildda Nodirning toj kiyishidan, 1148 yil shavval oyining 24 kuni, ya'ni 1736 yilning 8 martidan, to uning 1743 yili Shirvonda soxta Sam Mirzo qo'zg'olonini bostirishgacha bo'lgan davrda Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Shimoliy Hindiston va boshqa mamlakatlarda yuz bergan voqealar tasvirlangan. Uchinchi jildda 1743-1747 yillar orasida Eron, O'rta Osiyo, Turkiya va Kavkaz ortida yuz bergan voqealar bayon qilingan.

Umuman, XVIII asrning birinchi yarmidagi O'rta Osiyo to'g'risidagi ma'lumotlar asosan II-III jildlarda jamlangan. Asarda tarixiy voqealarning yoritilishi bilan bir qatorda Eron, O'rta Osiyo va Afg'onistonning og'ir iqtisodiy ahvoli, ayniqsa Nodirning bosqinchi lashkarlari zabt etgan mamlakatlardagi aholining og'ir ahvoli, xalq harakatlariga doir ko'plab qiziqarli ma'lumotlar o'rin olgan. Shu jihatdan Muhammad Kozimning bu asari XVIII asr fors tarixshunosligi yodgorliklari orasida munosib mavzu egallaydi.

«Nomai Olamaroi Nodiriy» haqida ko'plab tadqiqotlar nashr etilgan. Uning Rossiya Fanlar Akademiyasi SHarqshunoslik instituti Leningrad bo'limida saqlanayotgan qo'lyozmasi 1919 yilda fanga ma'lum bo'ldi. Akademik V. V. Bartol'd ikkinchi va uchinchi jild qo'lyozmasi mazmuni yoritilgan maqolasini e'lon qildi. va o'shanda asar Fanlar Akademiyasining Leningraddagi Osiyo muzeyiga berilgan edi. Birinchi jildning qo'lyozmasi, keyinroq, 1939 yildagina Moskvadan topildi. U to'g'ridagi matbuot nashr-lari ma'lumotlari 1945 yildagina paydo bo'ldi va qo'lyozma Leningradga yuborildi.

O'rta Osiyo xalqlarining XVIII asrning ikkinchi yarmi-XIX asr birinchi yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli juda murakkab edi. Bu davrda Movarounnahr hududida O'rta Osiyodagi feodal tarqoqligini bartaraf etolmagan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Hali Movarounnahrning ulkan ko'chmanchi turkman va qozoq urug'lari yashaydigan hududlari mustaqil uluslar sifatida yashamoqda edi. Buning ustiga Shahrisabz, Kitob, Orolbo'yi, Jizzax, O'ratepa, Toshkent, Qorategin, Darvoz Vahon, Sho'g'non kabi uluslar mustaqil feodal hukmronligi erlari sifatida mavjud edi.

Bu uchlasidan Buxoro xonligi kuchli va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangani edi. Buxoro xonligining iqtisodiy markazi Samarqand va xonlik poytaxti Buxoro bo'lgan Zarafshon vodiysi edi.

Shunday qilib, XVI-XVIII asrning birinchi yarmi manbalarning rang-barangligi, ko'pligi bilan ajralsa, XVIII asr oxiri-XIX asr birinchi yarmiga tarixiy manbalarning ozligi xosdir. Shunga qaramay e'tiborga loyiq bir necha asarlar bor. Ulardan biri «Tuhfat ul-Xoniy» asaridir.

«Tuhfat ul-Xoniy» 1722-1782 yillardagi Buxoro xonligi tarixiga bag'ishlangan asar bo'lib, XVIII asr O'rta Osiyo tarixchiligida «Tarixi Rahimxoniy» degan nom bilan ham ma'lum. Sharqshunos B. Ahmedovning fikricha, asar muallifi Oxund mulla Muhammad Vafo ibn Muhammad Zokir Karminaviy (1685-1769) va Nasaf (Qarshi)lik domullo Olimbek Niyozqulibek eshondir. Buxoro xonligining 1134 (1722-1182) 1768 yillar orasidagi tarixi qariyb 50 yillik voqealarni Muhammad Vafo, qolgan davr (1183) 1768-1196/1782 yillar voqealari va mang'itlardan chiqqan ikkinchi hukmdor Muhammad Doniyol hukmronligi yillaridagi (1172/1759-1199/1785) voqealar Niyozqulibek tomonidan «Tuhfat ul-Xoniy» asari «Tarixi Abulfayzxoniy» tarixiy asarining tabiiy davomidir. «Ubaydullanoma» ning muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha 1118/1196 yillarda qori Vafo Ubaydullaxonning kitobdori bo'lgan. Aftidan u bu vazifada Abulfayzxon davrida ham va hatto dastlabki mang'it hukmdorlari davrida ham ishlagan.

«Tuhfat ul-Xoniy» tarixchilik nuqtai nazaridan shunisi bilan qimmatliki, unda o'quvchi O'rta Osiyo xalqlarining xo'jalik, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid boy faktlarni topadi. Jumladan, unda ko'chmanchi turk-mo'g'il urug'larining etti yil (1722-1729) davomida Zarafshon vohasining o'troq rayonlariga bosqini natijasida farovon joylar huvillab qolgani yoritilgan.

Mulla Mahammad Vafo Eron shohi Nodirning yangi mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxonga u Buxoro xonligi hududida o'z hukmronligini o'rnatayotganida bergan katta ko'magini keng bayon etadi.

«Tuhfat ul-Xoniy» jahonda ko'p (mamlakatimizda 23 ta, Angliyada 1, Saudiya Arabistonida 1 ta) nusxada bo'lishiga qaramay, juda kam o'rganilgandir. Muhammad Rahimxonning Seraxs yaqinida 1160/1747 yilda qizilboshlar bilan to'qnashuvn aks eggan ruschaga o'girilgan parchani hisobga olmaganda, asarning na bayoniy, na tarjima nashri yo'q.

Shunday qilib, O'rta Osiyoning XVI asr-XIX asrning birinchi yarmidagi tarixini yoritgan tarixiy asarlarning barchasida o'xshash kamchilik bor. Mualliflar shohlar va ularning atroflaridagi amaldorlarga xushomad qilib, voqealarni bejab yozadilar, ko'z oldilarida yuz bergan voqealar mohiyatiga chuqur kirib bora olmaydilar. Oqibatda xalq noroziligi, ularning ko'tarilishlari sabablarini, siyosiy hayotning asl qiyofasini to'g'ri yorita olmaydilar. Ular ham feodalizm tarixchilariga xos bo'lgan o'ta an'anaviy madhiyabozlikdan qutila olmaganlar. Ammo bunday nuqsonlar Sovet davri tarixchiligida ham uchraydi. Shunga qaramay, yuqoridagi asarlar o'sha davrlar tarixiy voqealarini o'rganishda qimmatli ilmiy manbalar hisoblanadi.

Buxoro tarixi haqida yevropalik sayyoh va elchilarning esdaliklari. Buxoro xonligi tarixi haqida Yevropada tarixiy yozma manbalarning paydo bo'lishi okeanlararo jahon savdosining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Chunki, mustamlakalar uchun kurashdan ispan va portugallardan ortda qolishni xohlamagan inglizlar hali Yevropa uchun no'malum bo'lgan shimoli-sharqiy dengiz yo'li bo'ylab Hindiston va Xitoyga borib yetish umidida edilar. Shimoli-sharqiy yo'nalishda Xitoy va Hindistonga borish istagida bo'lgan inglizlar 1553 yil mayida Richard Chensler va Xyu Uilloubi boshchiligidagi uchta karavellani Shimoliy dengizdan Sharq sari yo'lga chiqardi. Bu ekspeditsiya kutilmagan natija berib, Angliya va Moskva davlatlari O'rtasidagi savdo aloqalari o'rnatilishiga va Moskva davlati haqida aniq ma'lumotlarning yevropada yoyilishiga xizmat qildi.

Yangi yo'lning ochilishi va Sharq mamlakatlari bilan savdoda tranzit hamkor topilganidan ruhlangan inglizlar 1555 yilda paychilik shaklida «Dengiz yo'li bilan borilmagan noma'lum yerlar, davlatlar, o'lkalar. mamlakatlar va orollarni izlovchi-savdogarlar jamiyati»ni tuzdilar. Angliya hukumati tomonidan tasdiqlangan bu jamiyat shimoli-sharqiy

yoʻnalishda Xitoy va Hindistonga yangi savdo yoʻli ochishi va Moskva davlati bilan aloqalarni mustahkamlashi zarur edi. Shu asnoda inglizlar shimoli-sharqiy yoʻnalishda Sharq mamlakatlari bilan olib boriladigan savdo aloqalarida Moskoviya yerlaridan foydalanishni maqsad qilgan holda, kompaniyaga «Moskva» (Rus, Misteriya) savdo kompaniyasi deb nom berdilar.

Savdo kompaniyasi dastlabki yirik aksiyadorlar kompaniya boʻlib, Angliyada rivojlangan tadbirkorlikning oʻziga xos turning dastlabki vakili boʻlib, mashhur shaxslar Generiy Gudzon va Uiliyam Bavfinni birlashtirgan edi.

Moskva savdo kompaniyasi 1698-yilga qadar Angliya va Moskva oʻrtasidagi savdoda monopoliya oʻnatgan va kompaniya 1917-yil Rossiya inqilobiga qadar mavjud boʻlgan. 1917-yildan beri kompaniya hayriya jamgʻarmasi sifatida faoliyat koʻrsatmoqda.

Kompaniya savdogarlarining yangi yerlarga sayohatlari Moskva kompaniyasining 1551-yilda Richird Chensler, Sebastyan Kabot va Hyu Uillobi tomonidan amalga oshirilgan.

Antoniy Jenkinson (1529-1610) Leychesterda tugʻulgan. Rossiya davlati, xususan, Oʻrta Osiyo davlatlari haqida Yevropaga maʼlumotlar yetkazgan dastlabki Britaniyalikdan biri Antoniy Jenkinson Moskva Kompaniya va ingliz toji nomidan nomidan siyosatchi va tadqiqochi sifatida faoliyat koʻrsatgan. U Moskva va Rossiyaga sayohatlari davomida bir necha marta Ivan IV bilan uchrashgan. U sayohatlari haqida bir necha esdaliklar yozib qoldigan.

Antoniy Jenkinsonning otasi Uilyam Jenkinson badavlat shaxslardan hisoblangan. Antoniy Jenkinson yoshligidanoq savdo ishlar bilan shugʻullangan. 1568-yildan Moskva Kompaniyaning asosiy tadqiqotchisi boʻlib qoldi. 1568-yil 26-yanvarda Jenkinson Jon Marshning qizi Indiy Marshga uylanadi. Jon Marsh yirik tadbirkor boʻlib, Kompaniyaning asoschilardan hisoblanadi. Jenkinsonning 5 oʻgʻli va 5 qizi boʻlgan. 1606-yildan Ashtonda yashagan oila, xotini vafotidan soʻng shu shaharda yashab qoldi. Jenkinson 1611-yil 16-fevralda vafot etdi va u Tiegdagi muqaddas Tretsa cherkoviga dafn etildi.

1558-yil Antoniy Jenkinson Moskvada boʻldi. U oʻz sayohatini Volga va Oka daryolaridan janubga qarab boshlaydi. Qozon xonligi (1552-yil Rossiya tomonidan bosib olingan) orqali oʻtib Astraxan (1556-yil bosib olingan) shahriga yetib boradi. Uning jamoasi sayohatni Kaspiy dengizi boʻylab janubiy-sharqiy Saraxs tomon davom etiradi. Ular

savdogarlar karvoniga qo'shilishdi va bir necha oy mobaynida No'g'ay o'rdasidagi tatar yerlari bo'ylab sayohat qilishdi. Cho'lda qaroqchilar bilan jangdan so'ng Buxoroga yetib borishdi. Ular Xitoy va Hindistonga yo'lni bilishsada, yo'ldagi urushlar qaroqchilik tufayli yo'lda davom etisha olmasdi. Mahalliy hokimiyatning dushmanligi ularni qolishini imkonsizlantirdi va oxir oqibatda uylariga qaytishga majbur bo'ldilar. Taminot bilan bog'liq qiyinchiliklardan keyin ular Kaspiy dengizini qayiqda kesib o'tishdi. Ular Moskvaga 1559-yilda qaytib kelishadi.

1560-yil bahorida dengiz yo'lini ochilishiga qadar Angliyaga qaytib kelisha olmadilar. Bu sayohatda Jenkinson Rossiya va Tatar hududlarning xartasini tuzishga muvaffaqiyatli bo'ldi. Lekin u bu xaritada Orol dengizini Kaspiy dengizini ko'fazi deb tahmin qilgan edi. Uning xartasi Abraham Orteliyning "Tyaturum Orbus Feraturm" nomli atlasga kiritilgan.

Rossiyaga uyushtirigan birinchi ekspeditsiyasidan qaytib kelgandan keyin Jenkinson darhol ikkinchi ekspeditsiyani boshlab yubordi. Uning maqsadi Rossiyaga sayohat qilish va sayohatni Eronda davom ettirish edi. U Moskvaga Ivan IV bilan savdo munosabatlari xususida suhbatlashish maqsadida 1561-yil avgustda yetib keldi, shunga qaramay u 1562-yil martgacha podshoh qabuliga kira olmaydi.

Podshoh qabulidan so'ng Jenkinson Rossiya bo'ylab janubga Kaspiy dengizi va Eronga sayohat qildi. Qazvindagi Shoh Taxmasp saroyiga borib yetadi va Moskva Kompaniyasi foydasiga imtiyozli savdo bitimlari tuzishga erishadi. Bu bilan u Fors ko'fazidagi Ormuz orolini bosib olib Hind okeandagi savdoni va O'rta yer dengizidan Suriya orqali yo'lni qo'lga olib ingliz tovarlarini cheklayotgan Venetsiyaga zarba beradi. Shuningdek, ekspeditsiya davomida Moskva Kompaniyasining savdo huquqlari kengaytirishga erishadi.

O'rta Osiyo va Eronga sayohatlarida Jenkinson podshoh bilan o'zaro foyda uchun aloqalarini o'rnatadi. Podshoh foydasi uchun mahsulotlarni sotib olib, Ivan IVning tavsiyanomalaridan Qozon va Astraxanni qo'shib olinishi bilan Rossiyaning ta'siri kuchayganligi sababli katta foyda ko'rdi. 1564-yil iyulda Jenkinson Londonga qaytib ketadi.

Jenkinson Rossiyaga uchinchi marta avvalgi sayohati davomida Rossiya tomonidan Angliyaga berilgan imtiyozlarni nisbatan ko'paytirish buyrug'i bilan jo'natildi. Omadli muzokalar natijasida savdo imtiyozlarni qo'lga kiritgach Angliyaga qaytadi. Shuning evaziga unga Rossiyaga Ivan IV urushlarda yordam berish uchun harbiy mutaxassislar olib kelishini

buyuradi. Bu sayohat orqali Jenkinson 1566-yil sentyabrda Rossiya Angliya bilan yangi savdo bitimlarni imzolashga muvaffaq bo'ladi.

Podsho Ivan IV Jenkinsonning 1566-yil qo'lga kiritgan savdo imtiyozlarini boyorlarning tayziqi va oprichnina sababli bekor qiladi. Shundan so'ng, qirolicha nomidan Jenkinson savdo aloqalarni qayta tiklash uchun jo'natiladi. 1571-yil iyulda Jenkinson Rossiyaga to'tinchi marta va so'nggi ekspeditsiyaga jo'natiladi.

Vabo tufayli Xolmagoriyada 6 oy ushlanib turgach, 1572-yil may oyida Jenkinson Moskvaga yetib kelishga muvoffaq bo'ladi. 23-iyuldan Jenkinson Moskva davlati bilan hamma savdo imtiyozlarini tikladi.

Jenkinson tomonidan amalga oshirilga sayohatlarning ikkitasi muhum sayohathisoblanib, ularning birinchisi, Moskva orqali Xitoyga yetib olishga urinish edi. Lekin bu sayohat Buxoroda yakunlandi.

Ikkinchi sayohati esa 1562 va 1579-yillarda amalga oshirilib, Rossiya va Eron o'rtasida savdo yo'llarini ochdi. Garchi Jenkinson Eronga quruqlikdan yol ochishni isbotlagan bo'lsa-da, bu yo'l hududidagi turli qiyinchiliklar sababli 1573-yildan etiboran chetda qolib ketdi. Yo'l 1741-yil parlament tomonidan qayta tiklanganga qadar faoliyat ko'rsatmadi.

Antoniya Jenkinson sayohatlari sarhisobi, Buxoro xonligining xalqaro va ichki savdo imkoniyatlari bayon etilgan "Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat" nomli esdaliklarida bayon etilgan.

Yuqorida qayd etiganidek, 1734-yili Angliya bilan Rossiya o'rtasida Rossiya orqali sharq mamlakatlari bilan tranzit savdo yo'llaridan foydalanish haqidagi bitim tuziladi. Bitim imzolangach, darhol, Rossiya kompaniyasining ingliz vakillari Rossiya orqali Eronga boradigan qulay savdo yo'llarini qidira boshlaydilar va shu maqsadda O'rta Osiyo, Ozarbayjon va Eronga bir necha xufiya ekspeditsiyalari tashkil qildilar.

Shu maqsadda, 1739-yili "Rus kompaniyasi"ning vakillari Djon El'ton va Mungo Gremlar Xiva va Buxoroga jo'natilgan edi. Lekin Nodirshoxning O'rta Osiyoga hujumi xavfi haqidagi xabarni eshitgach, ular Astraxandan to'g'ri Eronga ketishni afzal ko'rishgan. Bu boshlangan ishni yakuniga yetkazish maqsadida 1740-yil fevralda "Rus kompaniyasi" Xiva va Buxoroga yangi ekspeditsiya uyushtiradi. Uning tarkibida Georg Tompson va Regnal'd Xogg kabi josuslar bor edilar. Ular Xiva va Buxoroda savdo-sotiq sharoitlarini o'rganishlari kerak edi. Mazkur ekspeditsiya Rossiyaning janubi-sharqiy chegaralari va Qozog'iston

cho'llari orqali yo'lga tushadi. G.Tompson va R.Xogglarning kundaliklari Eronda bo'lgan "Rus kompaniyasi" savdogari Jonas Xonvey kitobida nashr qilingan. Bu kitobdan, muallifning va XVIII asrning birinchi yarmida Eronga kelgan boshqa yevropaliklarning yo'l kundaliklari o'rin olgan. Ushbu kitobdagi ma'lumotlar XVIII asrning 30 – 40-yillarida O'rta Osiyo shaharlari, Ozarbayjon va Erondagi ichki va tashqi savdoning ahvoli, shaharlar hunarmandchiligi to'g'risidagi xabarlardan iborat. G. Tompson va R.Xogg 1740-yili 9-sentyabrda Yoyiq shahri orqali Qozog'iston cho'llari, Orol dengizining shimoliy-g'arbiy qirg'oqlari orqali o'tib Xivaga kirib kelishgan. Ingliz josuslari Xivadagi ichki savdoning holatini tahlil qilib, ular faqat Buxoro va Eron bilan savdo qiladilar, hayvon, mo'yna va terilarni qirg'iz (qozoq) va turkmanlardan oladilar deb, xabar qiladi.

Yevropa sayohatchilari ichida Buxoro haqida kengroq ma'lumot qoldirgan, o'z davrining mashhur manbasi bu Aleksandr Byorns tomonidan yozilgan kitob edi.

Kapitan Ser Aleksandr Byorns (1805–1841) Shotland millatiga mansub bo'lib, Montrous (Shotlandiya) da tavallud topgan. 16 yoshida Ost-India kompaniyasida harbiy xizmatga qo'shilgan. Hindistonda xizmat davomida hind va fors tillarini mukammal o'rgangan. 1822-yilda u Surat shahrida tarjimonlik xizmatiga tayinlangan. 1826-yilda Kutchga siyosiy agentga yordamchi sifatida jo'natilgan.

Bu sayohatning asoschisi Hindiston general-gubernatori bo'lib, maqsad savdo va siyosiy masalalarni ko'zlagan holda uyushtirilgan. 1830-yil Hindistonning buyuk daryolari bo'yida yashovchi aholining yashash tarzini o'rganish uchun Aleksandr Byorns "Ost Indiya" kompaniyasi tomonidan tanlab olinadi. Bu holatda Byornsning o'zi ham Afg'oniston va O'rta Osiyo haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun Dehlidan Qobul va Buxoroga borish uchun ruxsat so'raydi.

A.Byornsning O'rta Osiyoga uyushtirgan sayohati, ingliz missiyasining bir bo'g'ini bo'lib, „O'rta Osiyoga musulmon savdogarlari tomonidan ingliz tovarlariga nisbatan qo'llanishi kutilayotgan agressiya"ni yengillashtirish maqsadida amalga oshirilgan edi. Shu masala yuzasidan va boshqa maqsadlar bilan O'rta Osiyoga V. Murkroft, B. Trebek (1819-1825), D. Vud (1837) va boshqalar turli yillarda O'rta Osiyo xonliklariga tashrif buyurganlar.

1831-yilda Aleksandr Byorns Afg'oniston haqida juda katta ma'lumot to'plab, Qobulga kelgan. 1832-yil iyul oyida Byorns Qunduz,

Balx va Qarshi orqali Buxoroga keladi. Buxoroda ikki hafta turganidan keyin u karvon bilan sayohatini Mashhad sari davom ettirdi. 1832-yil oktabrda u Tehronga yetib bordi. Keyin Sheroz va Busher orqali Hindostonga qaytadi.

Byornsdan so'ng Buxoroga kelgan P. I. Demezoning ta'kidlashicha, oxirgi sayohatning maqsadi Buxoroda Ost-Indiya savdo kompaniyasining savdo uyini ochish edi. Byorns tomonidan yozilgan kitob Rossiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlari aholisi o'rtasida keng qiziqish uyg'otdi. Umuman, ushbu kitob Byornsning „Qobul, Tatariston va Fors (Turkiston va Eron)“ mamlakatlariga uyushtirilgan sayohatning hisoboti bo'lib, ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan.

Butun dunyoga mashhur tabiiy fanlar olimi, nemis geografi va sayohatchisi A. Gumbolt (1841) ning ta'kidlashicha, „Leytenant Byornsning mehnatlari o'z ichiga boy qadriyatlarni mujassam etgan“ligi bilan alohida o'rin tutib qolmay, akademik V. V. Bartold „Aleksandr Byornsning sayohati“ni fan uchun katta ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi.

Tarixchi G. A. Hidoyatovning fikricha, „O'rta Osiyoni o'rganish bo'yicha eng e'tiborli ish, uning iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlaridan savdo yo'llari va strategik kommunikatsiyasi ingliz armiyasi leytenanti A. Byorns tomonidan ishlab chiqilgan ediki, u O'rta Osiyoni o'rganish bo'yicha ajoyib tadqiqotchi, Ost-Indiya kompaniyasi a'zolari ichida eng mohir, uddaburon, capital kiritgan eng zo'r mutaxassisi edi“.

Byorns tomonidan yig'ilgan dalillar Britaniya razvedkasini ham befarq qoldirmagan. Bundan tashqari, uning ma'lumotlaridan O'rta Sharqni kolonial iqtisodiy siyosiy boshqarishda foydalanilgan. Shu sababdan, u 1837-1838-yillarda Qobulga qilingan ingliz missiyasi tarkibiga kiritilgan. Uning xulosalaridan ingliz hukumati Angliyaning Afg'onistonni mustamlakaga aylantirish siyosatida foydalanishga intilgan. Aleksandr Byorns 1839-1841-yillarda Afg'onistonda Qobul gubernatori va Angliya armiyasi shtabi qoshida siyosiy maslahatchi lavozimida faoliyat olib bo'rgan va 1841 yilda inglizlarga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'aloni davrida gubernator qaroagohida o'ldirilgan.

Aleksandr Byornsning sayohat kundaligi „Buxoroga sayohat“ va „Qobul“ nomlari bilan savdogar T.V.Golubkov (1786-1854) tomonidan rus tiliga tarjima qilgan. Golubkov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan nashrida yozilishicha, XIX asrning 40-yillarida Buxoroliklarni inglizlarga nisbatan ruslar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari kuchli bo'lgan.

Buxoroda Byorns bozorlarni unchlilik xafsala bilan yozmagan, chunki Buxoro bozorlarida ingliz mahsulotlariga qaraganda rus mahsulotlari ko'p edi. Bu esa Byornsga yoqmagan. Shuningdek, buxoroliklar inglizlarga nisbatan ruslarga do'stona munosabatda bo'lganliklarini qayd etadi. "Buxoro bozorida siz Ost-Indiya kompaniyasini barcha mahsulotlarini ko'rishingiz mumkin. Ruslar mahsulotlari uchun esa xaridorlar juda ko'p. Buxoro bilan savdo va do'stlik aloqalarini yaxshilash uchun Kaspiy va Volga daryosi bo'ylab Bokuga olib boradigan kemalarni bepul xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yish kerak", degan xulosaga keladi.

Xullas, Yevropada Buxoro xonligi haqidagi manbalarning vujudga kelishi, buyuk geografik kashfiyotlar yutuqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lish bilan birga, insoniyatning yer sayyorasi haqidagi geografik tafakkur dunyoqarashini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, ushbu esdalik va hisobotlarda Buxoro xonligi, umumiy holda O'rta Osiyo xonliklarining iqtisodiy hayoti, tashqi siyosati, shaharlari haqida qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin.

Buxoroda ingliz josuslarining faoliyati va ularning maqsadlari.

Buxoro shahri Buyuk ipak yo'lida ustidagi tranzit savdoda yetakchilik roli, shaharning sharq savdogarlarining eng ko'p tashrif buyuradigan markazi ekanligi, muhimi, o'sha davrda Buxoroning siyosiy hihatdan mintaqadagi kuchli ta'siri, strategik qulay hududda joylashganligi sababli Buyuk Britaniya imperiyasi tomonidan josuslik maqsadlarida bir nechta missiyalar yuborilgan.

Ost-Indiya kompaniyasi tomonidan doimiy yurishlar inglizlar uchun O'rta va sharqiy Osiyo mamlakatlari aholisi va bozori, savdo joylari bilan tanishishi uchun zaruriyat tug'dirar edi. Mana shu maqsadda quyida nomlari keltirilgan sayohatchi va savdo agentlari Ost-Indiya kompaniyasi tomonidan qurol qilib ishlatilgan. Leytenant Abbot, Artur, Konnoli, Stoddart, Mak-Katen va Byorns kabilarning hammasi tashkilotning qurboniga aylangan.

1821–1825-yillarda Buxoroga josuslik maqsadida kelgan Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari U. Murkroft va D. Trebek Lahor, Shrinagar, Ladak, Kobul va Qunduz orqali o'tadigan yo'lni bosib o'tgan edilar. Ular o'zlari bilan 5 ming funt sterling qiymatdagi savdo mollarini keltirganlar. Ular bilan kelgan ingliz savdogarlari 70 kishidan iborat bo'lib, 80 sandiq turli Yevropa sanoat mollarini Buxoro qushbegisiga tortiq etganlar. Bu mollarning katta qismini koshenil tashkil

etgan. Shuningdek, bu savdogarlar Buxoroning mashhur ot bozorlaridan golland dukatlariga arg'umoqlar sotib olganlar. Shu yo'l bilan ham golland dukatlari va grek draxmalari O'rta Osiyoga kirib kelgan.

1819–1825-yillarda Hindistondan Buxoroga Britaniya hukumati tomonidan maxsus topshiriqlar bilan V. Murkroft va G. Trebek ekspeditsiyasi yuboriladi. Ekspeditsiyaning rasmiy maqsadi Ost-Ind kompaniyasining otliq askarlari uchun “zotli otlar axtarishdan” iborat edi. Haqiqatda esa, u Amurdaryo vodiysiga inglizlarning bosib kirishi mumkinligini aniqlash uchun yuborilgan razvedka qiluvchi ekspeditsiya edi. Ingliz josuslarini O'rta Osiyo hayvonot dunyosi emas, balki uning bozorlarida Angliya hukmronligini o'rnatish qiziqtirardi V. Murkroftning olib kelgan hujjatlarini nashr etgani Vilson to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatadiki, ekspeditsiyaning maqsadi O'rta Osiyoda Rossiya savdosini butunlay bitirish to'g'ri kelmagan taqdirda, qisman bo'lsa-da, chek qo'yishdan iborat edi.

Villiyam Murkroft (1767 – 1825) ingliz sayohatchisi bo'lgan. U Ormskirk (Lenksheyr) da tavallud topgan. Murkrofting bolaligidanoq hayvonlarga qiziqishi tufayli mahalliy katta yer egasi tomonidan Lionga veterenarlikdan tahsil olish uchun yuborilishiga sabab bo'lgan. U birinchi ingliz veterenar jarrohi bo'lgan. U o'qishni tamomlab, Angliyaga qaytadi va Londonda otlar uchun kasalxona ochadi. Britaniyadagi birinchi veterinariya kollejiga asos solinishiga ham yordam bergan. U hayvonlarga shu qadar qiziqqanki, xatto 1795-yilda otlarni da'voloash uchun yo'riqnoma ham tuzgan.

1803-yilda Murkroft harbiy hizmatga chaqirilgan. Ost-India kompaniyasi direktori Edvard Perry Murkroftning ish samarasini ko'rgach, uni Bengaliyadagi otlarni zotini yaxshilash markaziga yuborgan. 1808-yilda Murkroft Kalkuttaga yetib kelgach, Hindistondagi Britaniya askarlari otlarining zoti pasayib ketganligini payqagan. 1811-yilda Murkroft Banorasga sayohat qilib, urchitish uchun mos keluvchi yaxshi ot izlagan. U bu yerdagi otlardan qoniqmagan. Ammo, Banorasdaligida Buxoroning “Dunyodagi eng katta ot bozori” ekanligi haqidagi mish-mishlarni eshitib qolgan.

V.Murkroft Mir Izzatullo nomli eroniyni 1812 yilda Buxoroga zotli otlar bozorini topish yo'lidagi maqsadini amalga oshirish uchun safarga yo'llagan. Shu maqsadda avval Murkroft Mir Izzatullo bilan birga zotdor otlarbo'lishi mumkin bo'lgan Tibetga boradi, ammo, u yerdan zotdor ot nasli topilmagan. Tibet bo'ylab sayohat qilib yurgan kunlaridan birida

unga ikkita it tashlanib qoladi. Murkroft veterinar bo'lgani bois, bu ikki itlarni Yevropadan keltirilganligini darrov fahmlagan. Keyinchalik aholidan surishtirib, bu itlar rossiyaliklar tomonidan ancha avval olib kelinganligini eshitgach, Kalkuttadagi Ost-India kompaniyasi ma'murlarini Rossiyaning Markaziy Osiyoga intilishi haqida ogohlantirgan. Rossiyaning birinchi bo'lib Markaziy Osiyo xonliklariga keyin, Hindistonga yurish qilish niyatida ekanligiga ishongan.

Murkroft bundan qariyb 500 yil avval Marko Polo tomonidan ta'rif berilgan Ahal Tekin otlarining tezlik va chidamdagi dovrug'i haqida eshitgan edi. Murkroft 1816-yildayoq Buxoroga ot sotib olish uchun yo'lga chiqishni rejalashtirgan. Ammo, Ost India kompaniyasi ma'murlari unga ruxsat bermagan. Murkroft o'z fikrida qattiq turib olgach, 1819-yil may oyida Ost India kompaniyasi siyosiy va maxfiy xizmatlar bo'yicha boshlig'i Charlz Metkalf unga Buxoroga sayohatga ruxsat bergan.

Murkroft Rossiya tomonidan Buxoroga yuborilgan elchi N.Muravyov bilan bir yilda (1819-yil) ushbu davlatga yuborilgan. Murkroft g'arblik tarixchilar tomonidan ingliz – rus raqobati davrida Angliya tomonidan yuborilgan "Birinchi o'yinchi" edi. Rossiyalik tarixchilar tomonidan esa Ingliz diplomatiyasi 1558-yildayoq yuborilgan Antoniy Jenkinson Buxoroga elchiligini ko'rsatib, razvedka hizmati ancha avvaldan olib borilgan deb ta'kidlasalarda, Jenkinsonning faoliyati ingliz-rus raqobati davriga to'g'ri kelmasligi va uni Rus podshosining o'zi tomonidan yuborilgani sababli, uni josus sifatida tan olib bo'lmaydi.

Murkroft boshqa Rossiya elchilari Negri, Meyendorf va olim Eversman bilan bir paytda Buxoroda bo'lgan. Ost-Indiya kompaniyasi vakili Metkalf Murkroftdan siyosiy josus sifatida ham foydalanmoqchi bo'ladi. Murkroft sayohatga tayyorgarligi bir yilga cho'zilgan bo'lib, uning hamrohlari yaqindagina Kalkuttaga kelgan 19 yoshli Jorj Trebek va Jorj Gutri edi. Ekspeditsiyada 16 ot va 4000 funt sterling qiymatiga tovarlar, dori-darmonlar va qurollar bor edi. Bu tovarlar pichoq, to'pponcha va boshqa eng nodir mollardan iborat ediki, u rus mollarini ortda qoldirishini isbotlashi kerak edi. Negaki, Murkroftning maqsadi faqatgina ot olib kelish bo'libgina qolmay, balki Britaniya uchun imkon qadar shimolroqda bozorlar ochilishiga erishish ham edi. Biroq, Britaniya vakillari tomonidan Murkroftga hech qanday rasmiy maqom berilmagan. Agarda muammolar chiqqudek bo'lsa, Sankt Peterburg orqali hal etilishi lozimligi haqida aytilgan edi, xolos.

Murkroft kutilmaganda Buxoroga Afg`oniston orqali emas, balki Buxoroning sharqi orqali kirib kelishni ko`zlaydi. Negaki, bu paytda Afg`onistonda fuqarolar urushi kechar edi. Bundan tashqari, Murkroft shu orqali Hindistonning shimolidagi Ladakh va Sharqiy Turkistonga ham borishni va savdo imkoniyatlarini kengaytirishni ko`zlagan. U 1820-yil 24-sentabrda Ladakh markazi bo`lgan Lahor shahriga yetib kelib, uni hukmdori bilan savdo shartnomasini imzolaydi. Bu shartnoma Britaniyaga Markaziy Osiyo uchun to`liq yo`l ochishga imkon beradi. Murkroft Ladakhda deyarli ikki yil turadi. U Ladakhda Transilvaniyalik Aleksandr Ksoma bilan uchrashgan. U bu yerda Tibet tilidan Vengriya tili o`zaklarini izlayotgan tadqiqotchilagini aytgach, unga Murkroft o`zining Tibet tili lug`atini bergan. Ksoma hech qachon o`z ilmiy ishini tugata olmagan bo`lsada, bu inson birinchi tibetshunoslikka asos solinishiga sababchi bo`lgan. Shu paytda kelib chiqishi eronlik bo`lgan Og`a Mehdi ismli Rossiya nomidan ish ko`ruvchi savdogar Sharqiy Turkiston va Ladakh hududida savdo karvonlarini tadqiq qilayotganligini eshitgach, Murkroft Ladakhda ko`p qolmaydi. Og`a Mehdi Sankt Peterburgga borib, Aleksandr I qabulida bo`lgan va unga ruscha Rafailov familiyasi berilib, Rossiya nomidan Kashmir va Ladakhga yuborilgan edi.

Murkroft sayohatini davom ettirib, 1822-yil 3-noyabr kuni Kashmirga, 1824-yil 4-iyun kuni Jalolobodga yetib kelgan. U Amudaryodan o`tgan birinchi ingliz edi. Murkroft Amudaryodan Qarshigacha bo`lgan masofaga 5 kun sarflaydi. U Qarshida amirning uchinchi o`g`li shahar noibi shahzoda Nasrullo (1803-1860) bilan uchrashadi. Ajablanarlisi shundaki, Murkroft Nasrulloga kamdan kam beriluvchi ta`rifni bergan. U juda oz suhbatida shahzodaning yuzidagi doimiy kulgusi va jozibali mehmondo`stligini va samimiy inson ekanligini qayd etgan. 1825-yil 25-fevral kuni Buxoroga kelgach, "Markaziy Osiyoning eng muqaddas shahri Buxorodagi minoralarning bexato tizim chizig`i" dan hayratlangan. U Buxoroga kirib kelar ekan, o`z kundaligida shunday so`zlarni yozgan: "Biz besh yildan beri xavf-xatarlarimiz va darbadarligimiz sababchisini topdik. Biz shaharga kirib kelishimiz bilan xavotirlangan mahalliy bolalar bizni o`rus, o`rus (ruslar, ruslar) deya chaqirishdi". Murkroft keyin bilishicha, bundan to`rt yil avvalroq ruslarning elchilari sovg`a salomlar bilan kelishgan va savdo imkoniyatlarida yutuqlarni qo`lga kiritishgan. Buxoro amiri Haydar (1800-1826) uni yaxshi kutib olgan bo`lsada, Murkroftning Buxoroga tashrifi samarasiz bo`ldi. Bozorlar allaqachon rus tovarlariga to`lib ketgan edi.

Inglizlar o'zlari bilan olib kelgan 80 sandiq turli mollar Buxoro qushbegisiga ko'rsatganlar. Bu mollarning katta qismini koshenil tashkil qilgan. Shuningdek, bu savdogarlar Buxoroning mashhur ot bozorlaridan golland dukatlariga arg'umoqlar sotib olganlar. Shu yo'l bilan ham golland dukatlari va grek dahmalari O'rta Osiyoga kirib kelgan.

Ammo, Murkroft o'zi orzu qilganidek otlarni Buxorodan topa olmagan. A. Muhammadjonovning fikriga ko'ra, u Amurdaryo vodiysiga inglizlarning bosib kirishi mumkinligini aniqlash uchun yuborilgan razvedka qiluvchi ekspeditsiya edi. Ingliz josuslarini O'rta Osiyo hayvonot dunyosi emas, balki uning bozorlarida Britaniya hukmronligini o'rnatish qiziqtirardi. Murkroftaning olib kelgan hujjatlarini nashr etgan Vilson to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatadiki, ekspeditsiyaning maqsadi O'rta Osiyoda Rossiya savdosini butunlay bitirish to'g'ri kelmagan taqdirda, qisman bo'lsa-da, chek qo'yishdan iborat edi.

Murkroft o'zi orzu qilgan otlarni Buxorodan topa olmagach va Buxoroning rus tovarlariga to'lib ketganidan so'ng uni xafsalasi pir bo'lib, tezda Buxorodan ketgan. Afg'oniston orqali ortga qaytishda, Balxda Jorj Trebek va Jorj Gutrini qoldirib, janubi-g'arbdagi bir qishloqqa ot sotib olish uchun so'ngi umid bahonasida ketib, shu bilan qaytib kelmagan. Keyinchalik Murkroft bergan ma'lumotlariga ko'ra, Jorj Trebek va Jorj Gutri 1825-yil 27-avgustda Afg'oniston shimolida kasallikdan vafot etganlar.

Biroq 1840-yil oxirlarida ikki fransuz missionerlari - Huk va Gabe Lhasaga tashrif buyurganlarida mahalliy aholidan qandaydir Murkroft ismli noma'lum kelib chiqishli insonni bu hududda o'n ikki yildan beri yashaganligini eshitib qolganlar. Ular Murkroftga tegishli 10000 dan ziyod qo'lyozmalar, Markaziy Osiyo va Tibet xaritalarini topib olishgan. Fransuzlar bu paytga qadar Murkroft haqida eshitmagan edilar. 1841-yilda Murkroftning qo'l yozmalari Osiyo Jamiyati tomonidan topilib H.Vilson muharrirligida chop etilgan. Murkroft qo'lyozmalari Londonda nashr etilgach, kutilmagan sensatsiya bo'ladi. Uzoq yillik tortushuvli tadqiqotlardan so'ng, tadqiqotchilar Murkroft sayohati tarkibida bo'lgan kashmirliklardan biri Murkroft vafot etgach, uni kundaliklarini o'zi bilan shu yerga olib kelganligi aniqlandi. Ammo, ko'pchilik olimlar Murkroft olti yil davom etgan va ko'plab mablag' sarflangan Buxoro sayohati samarasiz yakun topgach, shuncha mablag' sarflangan sayohatni tashkillashtiruvchilar oldiga qaytib borishga g'ururi yo'l qo'ymagan, deb hisoblaydilar. Shu sabab, Murkroft yashirinchalik Tibetga ketib, bu yerda

o`zini kashmirlik deb tanishtirgan va o`n ikki yil davomida, ya`ni to o`limiga qadar savdo bilan shug`ullangan.

Murkroftning urinishlari Shimoliy Hindistonda samarali kechgan bo`lsada, Buxoroni ingliz mollari bilan to`ldirish va bu yerdan zotdor otlarni olib kelish rejasi muvaffaqiyatsiz yakun topgan.

XIX asrning 20 – 30-yillarida O`rta Osiyo xonliklari Britaniya Hindistoni orqali yuborilgan maxsus missiyalar tomonidan juda sinchiklab o`rganila boshlaydilar.

Bu vaqtlarda O`rta Osiyo xonliklariga yuborilgan ingliz ekspeditsiyalari oldiga qo`yilgan asosiy vazifalar: birinchidan, mamlakatning geografiyasini, iqtisodiy ahvolini hamda savdodagi umumiy holatini o`rganish bo`lsa, ikkinchidan esa, u yerlarda o`z ta`sirini kuchaytirish uchun mamlakatning siyosiy hayotida katta ta`siri bo`lgan kishilar bilan qanday qilib bo`lmasin yaqinlashib, savdo shartnomasini bog`lashdan iborat edi.

XIX asrning 20 – 30-yillarida inglizlar, asosan, O`rta Osiyo bozorlarini Angliya ta`siriga olish, u yerdan Rossiyani siqib chiqarishni o`z oldilariga maqsad qilib qo`ygan bo`lsalar, 40-yilga kelganda ular O`rta Osiyo xonliklarida o`zlarining siyosiy jihatdan to`la hukmronliklarini o`rnatish va Rossiyaga qarshi uch xonlikdan iborat koalitsiya tuzishga harakat qildilar.

Bunday yurishning muhim bosqichlaridan biri 1831 – 1833-yillarda Hindistondan ingliz-hind harbiy va siyosiy razvedkasining agenti Aleksandr Byornsning Kobulga va Buxoroga yuborilishidan boshlanadi. A. Byornsga harbiy va geografik ma`lumotlar to`plash va Kobul hamda Buxoro hokim doiralari bilan savdo va diplomatik aloqa bog`lash topshirilgan edi.

Ost-Indiya kompaniyasi leytenanti Aleksandr Byorns 1829-yilda Hind daryosiga sayohat qilgan. 1831-yil 21-yanvarda u Ser Charlz Metkalf va Lord Elenborou tomonidan Lahorga qirol Villiam IV tomonidan sovg`a qilingan otlarni roja Ranjit Singhga topshirish uchun yuborilgan. Negaki, Byorns o`sha paytda fors, arab, hind va Hindistondagi mahalliy kichik tillarni ham o`rganib olgan edi. Britaniyaliklar otlarni Sind daryosida kemalarda Lahorga olib kelganlar. Roja Ranjit Singh zotdor otlar va sovg`alarni ko`rib, Britaniya kompaniyasiga Lahor orqali Afg`oniston va Turkistonga o`tib savdo qilishga ruxsat bergan.

Aleksandr Byorns endi avval Afg'onistonga, so'ngra u yer orqali Hindikushga o'tib, u yerdan Buxoroga bormoqchi bo'ladi. Ammo bu paytda Britaniyada hokimiyatni qo'lga olgan Vigilar partiyasi hukumati Yuqori Osiyoni Rossiya ta'zyiqidan saqlab qolib bo'lmasligi fikrida turar edilar. Shunga qaramay Ser Villiam Bentik Byornsga elchilikka ruhsat beradi.

Josuslik missiyasiga O'rta Osiyo bilan savdo aloqasini kuchaytirish va O'rta Osiyo savdogarlarini Rossiya ta'siridan Britaniya ta'siriga tortish uchun Hindistondan O'rta Osiyoga yangi savdo yo'li ochish, shuningdek, Rossiyaning Nijegorod yarmarkasiga o'xshagan savdo punktini ochish uchun eng qulay joyni belgilash yuklangan edi.

Ekspedisiya tarkibiga ingliz doktori Jeyms Jerrard va ikki hind - Muhammad Ali va Mohan Lallar kiritiladi.

1832-yil 17-martda Panjobdan o'tib Afg'onistonga kirar ekan, Byorns va uning jamoasi ikkinchi qiyofasiga kiradilar. Barcha kiyimlarini afg'on kiyimlariga aylantirib oladilar. Negaki, o'sha vaqtlarda aholi tomonidan hech qanday xorijlik sayohatchi kelganligi to'g'risidagi mish-mishlar bo'lmasligi va qaroqchilar tomonidan talanmaslik kerak edi. Byorns o'zi yozganidek, hatto qo'lga osiyoliklarniki kabi taqinchoq ham taqib olgan edi. Byorns o'zining Ost India kompaniyasi vakili ekanligi haqidagi hujjatlar va xatlarni qo'lga, oltinlarni esa belidagi kamariga bog'lab olgan. Hatto doktor Jerrardga ham aholi ko'z o'ngida hech qanday dori darmondan foydalanmaslikni, bundan tashqari diniy mutaassiblik yuqori bo'lgan Afg'onistonda xristianlikni hech qanday belgisini olib yurmaslik, diniy marosimlarni qilmaslik va cho'chqa go'shti istemol qilmaslikni buyurgan.

30-aprel kuni Qobulga kirib, mehmonxonada qolish chog'ida ularning yuklari tekshiruvdan o'tkazilgan. Ammo, Byornsning sekstanti va doktorning preparatlarini tekshirganlar ularni zamonaviy texnika ekanligini payqay olmaganlar.

Qobulda ekspedisiya Do'stmuhammadxon qabulida bo'ladilar. Afg'on amiri Byornsga o'z dushmani bo'lgan Ranjit Singhga qarshi kurash uchun birlashish taklifini beradi. Ammo, Byorns Ranjit Singh Britaniyaning hozirgi kundagi do'sti ekanligini aytgan. Do'stmuhammadxon undan Yevropadagi davlatlar haqida, ularning mudofaasi haqida surishtirgan. Hatto Britaniyaning Afg'onistonga da'vosi bor yo'qligini ham so'ragan. Byorns Do'stmuhammadxonni Britaniyaning Afg'onistonga hech qanday agressiyasi yo'qligiga ishontirgan. Do'stmuhammad Byornsni Buxoroga

jo`nashini eshitgach, u o`tdigan Balx hududlari eng xavfli yo`llar ekanligini aytgan. Byorns bir necha yil avval shu hududda halok bo`lgan Murkroft taqdirini yaxshi bilgan va bu haqda o`z kitobida Murkroft va Trebeklar Balxdagi devorlardan biriga suvab yuborilgan deb yozgan edi.

Byorns jamoasi Balxdan Amudaryoga osonlikcha yetib olgan. Hindistondagi ingliz rasmiylariga Amudaryoning navigatsiya qobiliyati haqida xat yuborgan. Byorns shuningdek, kundaligida Amudaryoning strategik qobiliyatiga to`xtalib: “Daryo flot harakatlanishi uchun juda qulay, tekkis yo`nalishda oqib, qoyalar va girdoblar yo`q”. degan ma`lumot qoldirgan. Bundan tashqari, Byorns daryoning eng chuqur joylari, uning deltasi va Orol haqida ham ma`lumotlar bergan.

U xavfsizlikni yanada kuchliroq ta`minlagan. U shunday yozadi: “Meni qaroqchilar ta`lamasligi uchun, jami bo`lib bir funtga teng kiyim kiyib oldim. Qobuldaligimda esa, eng arzon libosni atayin sotib oldim. Men Buxoro libosidaman va soch soqolimni ham huddi fors shoirlaridek o`stirdim. Ovqatni ham sanchqida emas, qo`limda yeyman. Ko`pincha daraxt tagida uxlayman. Agar biron kishi uyiga taklif qilsa, men forschani o`z ona tilim kabi gapira olamanki, hech kim yevropalik ekanligimni sezmaydi. Hatto, Islomni ibodatlarini ham o`rganib olganman va ularni amalga oshira olaman. Negaki, men kompaniyaga (Ost Indiyaga) kirayotganimda qo`limni yuragimga qo`yib ont ichganman. Mahaliy insonlar meni Aleksandrning sharqcha ismi Sekundar (Iskandar) deb atashadi.

1832-yilning 27-iyun kuni Byorns bir karvonga qo`shilib olib, Buxoro darvozalariga yetib keldi. Musulmon va sharq an`analarini bilgan Byorns Buxoro arkida otdan tushib, piyoda kirib kelgan. Arman savdogari niqobi ostida Buxoroda bo`lgan A. Byorns zimmasiga yuklatilgan vazifalardan biri Buxoro hukumatidan bu yerda Angliya Ost-Indiya kompaniyasi savdo uyini ochishga ruxsat olishdan iborat edi. Kompaniyaning Buxoroda savdo uyi ochishga bo`lgan harakatlari zahirida siyosiy manfaatlar yashiringan edi. Savdo uyi faoliyati kompaniya josuslarini O`rta Osiyoga yuborish va shu orqali mintaqaning avvalo, iqtisodiy so`ngra siyosiy qaramligini Britaniya manfaatlariga bo`ysundirishdan iborat edi.

Uni Buxoro qushbegisi kutib olgan va o`zaro suhbat olib borgan. Byorns qushbegiga sovg`alarni taqdim etgan, shu sabab qushbegi bilan o`rnatilgan yaqinlik Byornsga Buxoro shahrida erkin yurish imkoniyatini beradi.

A.Byorns o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish uchun har xil va'dalar, hamda, vaqti kelganda, "ochiqqo'llik" bilan oltin ulashish kabi yo'llarni qo'llaydi. U Buxoroda xonlikning ingliz hokimligiga bo'ysundirish uchun kerak bo'lgan har xil iqtisodiy, siyosiy va harbiy ma'lumotlarni to'playdi. Buxoroda u O'rta Osiyo savdosi to'g'risida, savdo yo'llari va markazlari, hamda chiqariladigan va olib kelinadigan asosiy mollar to'g'risida turli ma'lumotlar to'playdi.

Ayniqsa, uni O'rta Osiyoga Rossiyadan keltiriladigan sanoat mollari qiziqtirar edi. Hatto, Buxoro bozorlariga olib kelingan rus sanoat mollarining ro'yxatini ham olgan edi. Bu dalillardan ma'lumki, inglizlar O'rta Osiyo bozorlaridan Rossiyani tamoman siqib chiqarish uchun, avvalo, u bozorlardagi holatni o'rganganlar. Chunki, bu bozorlarda Rossiyaga raqib bo'lish uchun, birinchi navbatda, bu yerga keladigan rus mollarini va ularning narxlarini bilish lozim edi. A. Byorns O'rta Osiyo savdogarlarini Rossiyaning Nijegorod yarmarkasidan tortish uchun kelgusida tashkil etiladigan yangi ingliz yarmarkasiga Hind daryosining o'rta oqimidagi Derag'ozixon mavzesini belgilagan edi.

Shunday qilib, A. Byorns Buxoroda, umuman O'rta Osiyoda juda chuqur razvedka olib bordi va inglizlarning O'rta Osiyoning eng ichkari hududlariga bosib kirishi va O'rta Osiyo xalqlarini qul qilish rejalarini amalga oshirishi uchun juda kerakli ma'lumotlar bilan Britaniya hukumatini ta'min etadi.

Byorns Buxorodagi binolar, dorga osish marosimlari, qul, bozorlariga sayohatlar qilgan. Amirlik tarixini o'rgangan. A. Byorns o'z hisobotida Amir Husayn (amir Nasrulloning katta akasi) o'limi tafsilotlarini jahon tarixshunosligida ilk marta yoritib, amirning Hakim Qo'shbegi tomonidan taomga qo'shib berilgan og'udan zaharlanish natijasida o'lganligini aytadi.

Byorns Buxoro xonligining harbiy qudratiga o'z kundaliklarida alohida bob ajratadi. U shunday yozadi: "Amir musulmon davlatlari orasida eng qattiqqo'l tartiblarni o'rnatgan. U Turkiya, Xitoy, Rossiya va Afg'onistondan kelgan elchilarni muntazam qabul qilib turadi. U mullalar va shu turdagi ruhoniylarga tayanib, o'zining mutlaq imkoniyatlarini mustahkamlagan.

Buxoro harbiy qo'shini viloyatlardan yig'ib kelinadi, qat'iy intizom mavjud emas. Jami 20000 ot va 4000 piyoda qo'shından iborat. 41 ta artileriya ham mavjud. Bundan tashqari "Eljar" nomli militsiya qo'shini ham mavjud. Balxdan 20000 qo'shin olib kelinadi. Amudaryoni janubidagi hududlardan yana 10000 qo'shin yig'iladi. Bundan tashqari turkmanlardan

ham qo'shin yig'ish imkoniyati bor. Ammo, bu qo'shin faqat o'z qo'mondoniga bo'ysunadi. To'lov esa ularni qo'mondoniga yer, askarlarga esa don berish bilan to'lanadi. Asosan qilichlar bilan qurollanishgan. O'zbeklarda o't ochuvchi qurollar juda kam. O'zbeklar hind va afg'onlardan farqli ravishda doimo qinida pichoq taqib yuradilar. Ular dushmanlardan qo'rqmaydilar, balki juda ham jasur va dovyurakdir. Ammo askarlikda no'noqlar. Artileriya bo'yicha mutaxassis yo'q. To'plar o'zining xarakatlanish vositalaridan ajralib yotadi". Byorns o'z kundaligida har bir viloyatda qanchadan qo'shin borligi haqida jadval ham bergan.

Byorns Buxoroning diplomatik munosabatlari haqida ham ma'lumotlar to'plagan holda, Buxoroni qo'shni Xiva va Qo'qon xonliklari bilan munosabati yomonligini, ular jiddiy raqiblar ekanligini qayd etgan. Shuningdek, A. Byornsning o'zbek xalqi xususida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir: "O'zbeklar muomalada kamtar va samimiy. Ular mening kim ekanimni bilmaganliklaridan, barcha narsalar xususida, hukmdorlari va siyosatdan tortib, bozordagi ahvol haqida ham tortinmay so'zlashdilar".

Bir oyga yaqin vaqt mobaynida amir Nasrullo Aleksandr Byornsni qabul qilmagan, shu sabab barcha kelishuvlar qushbegi bilan olib borilgan. Byorns Xiva xonligiga sayohati qushbegining Xiva xonligi chet elliklar uchun juda xavfli ekanligi haqidagi ma'lumoti tufayli qoldirilgan, natijada Byorns Marv va Astrobod orqali Eronga ketgan.

1833-yil 18-yanvarda Fors ko'rfazi orqali Bombeyga, 20-fevralda Kalkuttaga yetib kelib, boshidan o'tkazganlarini hisobotini tayyorlagan.

Uning 1834-yilda Angliyada nashr qilingan sayohat kundaligi mashhur bo'lib ketgan va London, Parij geografiya jamiyatlari tomonidan ko'p nusxada nashr qilingan. 1835-yilda Hindistonga qaytgach, 1836-yilda Qobulga elchi qilib yuborilgan. 1839-yildan to o'limiga qadar Qobulda muntazam siyosiy agent vazifasini bajargan.

Inglizlar o'zlarining bunday o'taketgan tajovuzkor rejlarini amalga oshirish uchun qilayotgan harakatlarini berkitishda boshqa xalqlardan ayrim kishilarni yollab, O'rta Osiyoga yuborar edilar.

"Tarixi Turkiston" asarining muallifi Mulla Olimning bergan ma'lumotlariga qaraganda, 1834-yilda Eron orqali Buxoroga Abdulsamad Tabriziy nomli kishi yuboriladi.

Abdulsamad birinchi marta Eronda ingliz agenturasi tomonidan yollanib, Hindistonda maxsus harbiy va siyosiy josuslik maktabini o'qib

bitirgan va Afgʻoniston orqali Buxoroga yuborilgan edi. Bu ingliz razvedkachisining faoliyati ingliz agressorlari Oʻrta Osiyoda olib borgan qoʻporuvchilik ishlarining qanchalik chuqur va oʻtkir ekanligini koʻrsatadi.

Abdulsamad Buxoroga kelgach, ingliz agenturasi tomonidan topshirilgan vazifalarni bajarishga kirishdi. Tez orada u Buxoro amiri Nasrulloning ishonchini qozonib, Buxoroda Yevropa tartibida muntazam qoʻshin tuzishga kirishadi. U muntazam qoʻshin uchun hatto ikki yuzga yaqin Eron asirlarini ham sotib oladi. Abdulsamad ingliz namunasidagi toʻplar quyish uchun maxsus korxonalar tashkil qiladi. Bu korxonalarda toʻplardan tashqari har xil qurollar va harbiy aravalar tayyorlattirdi. U shaxsan oʻzi qoʻmondonlik qilish uchun otliq askar va toʻpchilar otryadini uyushtiradi.

Abdulsamad asta-sekin amir Nasrullo oldida shunchalik obroʻga ega boʻladiki, xatto 1842-yilda Buxoroda boʻlgan N. Xanikov, birdan-bir Abdulsamadgina xonlikda taʼsirga ega boʻlgan kishi, deb yozgan edi. Shu vaqtlarda Buxoro amiri Nasrullo esa unga noiblik vazifasini beradi. U Buxoro xonligining butun harbiy qoʻshini ustidan qoʻmondonlikni oʻz qoʻliga olib Buxoro amirining yurishlarida ishtirok qila boshlaydi. Uning toʻplari va yangi tartibdagi otryadlari vositasi bilan Xoʻjand, Oʻratepa shaharlari, Shom va Mahram qalʼalari bosib olinadi. Ammo, oradan koʻp oʻtmasdan, Buxoroda Abdulsamadning haqiqiy basharasi ochilib qoladi. Chunki, u, bu vaqtlarda Buxoroga kelgan ingliz agentlari bilan yaqin aloqada boʻlib, ingliz agenturasi foydasiga ish olib bormoqda edi. N. Zalesov, 1842-yilda Buxoroga borgan rus elchisi K. Butenev Abdulsamadning huzuriga kirgan vaqtida uning polkovnik Stoddart bilan suhbat qilib oʻtirganini uchratganligi toʻgʻrisida yozadi.

Mulla Olim ham oʻz asarida, keyingi vaqtlarda Buxoroda Abdulsamad toʻgʻrisida turli gaplar koʻpayib ketganligi sababli, u oʻziga tegishli kishilar bilan Buxoroni tashlab qochib ketganligini bayon qiladi. Lekin Abdulsamad qoʻlga tushirilib, Buxoro amiri tomonidan avval zindonga tashlanadi va keyinchalik osib oʻldiriladi. Shunday qilib, Abdulsamad Buxoro xonligiga ingliz taʼsirini oʻrnatish uchun Oʻrta Osiyoga Britaniya agenturasi tomonidan yuborilgan birdan-bir ham siyosiy, ham harbiy jihatdan qurollangan ingliz razvedkachisi edi.

1838–1840-yillarda Britaniya agenturasi Rossiya va Xiva xonligi oʻrtasidagi diplomatik aloqalarning keskinlashganligidan foydalanib, Oʻrta Osiyo xonliklari ustidan Angliyaning siyosiy hukmronligini oʻrnatish va

ularni birlashtirib, Rossiyaga qarshi qo'yish uchun Abbot, Shekspir, Stoddart va Konolli kabi razvedkachilarni yuboradi.

Ingliz razvedkachilari va diversantlarining eng ko'zga ko'ringanlaridan biri polkovnik Stoddart Angliya Tashqi Ishlar ministri Palmersonning buyrug'i bilan Buxoro xonligidagi "rus qullarini ozod etish" bahonasi bilan 1838-yilda Buxoroga kelgan edi.

Haqiqatda esa, Stoddartning asosiy vazifasi Buxoroning hokim amaldorlari bilan Rossiyaga qarshi birgalikda kurash olib borish uchun shartnoma tuzishdan iborat edi.

"Tarixi Turkiston" asarida inglizlarning Buxoroda olib borgan agressiv va qo'poruvchilik ishlari to'g'risida juda qimmatbaho ma'lumotlar keltiriladi. Asarda berilgan ma'lumotlarga qaraganda, ingliz razvedkachisi Stoddart amir Nasrullo tomonidan ikki marta qabul qilinib, quyidagi masalalar yuzasidan muzokaralar olib borilgan edi:

"Elchi bo'lib kelgan Stoddartning maslak va muddaosi inglizlar tarafidan biror turli yomon niyat, zarar keltirmaslikka amirni ishontirib, boshqa davlatning, ya'ni Rossiyaning bu mamlakatlarga qasd va tajovuzidan saqlanmoqni va mudofaa etmoqni xohlaganidan iborat edi. Buning ila baravar, agar amir xohish qilib, munosib ko'rsa, Buxoro askarlarini jadid va tezotar to'plar ila salohlantirmoq va askariy muallimlar bermoq va Rossiyaning xuf'ya harakat va muddaosidan Buxoro hukumatini xabardor qilmoq edi".

Buxoroda Stoddart o'zining diplomatik vazifalari bilan kifoyalanmasdan, ingliz agenturasi uchun kerakli ma'lumotlar to'plash uchun shaharda ertadan-kechgacha sanqib yurar edi. U, Buxoroda shunchalik surbetlik va qo'pollik bilan ish olib borgan ediki, hatto Buxorodagi odatlarga rioya qilmasdan, xonning saroyi oldidan ot ustida o'tgan edi.

Bu voqea inglizlarning agressiv maqsadlarini sezib qolgan amir Nasrulloga Stoddartni zindonga tashlash uchun yetarli bahona bo'lgan edi. Lekin Mulla Olim o'z kitobida bu voqeaga Stoddart faqat Sharq urf-odatini buzganligi uchun zindonga tashlangan, deb bayon qiladi.

Stoddartning takliflariga amirning qiziqib qaramasligi hamda uning Buxoro xonligi poytaxtida olib borgan amaliy harakatlarining buxoroliklar tomonidan kuzatib borilishi, shuningdek, oxirida Stoddart tutilib, zindonga tashlanishi Angliyaning Buxoroga nisbatan qo'pol bir g'arazda ekanining amir Nasrullo tomonidan payqalishi natijasi edi. Angliyaning Afg'onistonga nisbatan olib borayotgan agressiv muomalasi Buxoro

hukmron doiralarining ko'zini ochmasligi mumkin emas edi. Shuning uchun ham Rossiya bilan Buxoroning iqtisodiy munosabatlari tarixida ochiqdan-ochiq agressivchilik g'arazlarining yo'qligi va Buxoroning iqtisodiy o'sishi, Rossiya bilan tarixiy bog'lanib qolganligi bu aloqalarga xalaqit beradigan har bir harakatga Buxoro hokim doiralarining shub- ha bilan qarashiga majbur etardi.

Inglizlarning Afg'oniston poytaxti Kobulgacha bosib kelishi (1839) va Angliya hukumati Stoddartni ozod etishni so'rab Buxoro amiriga xat yuborishidan xavfsiragan amir Nasrullo elchini ingliz josusini zindondan bo'shatishga majbur etadi.

Ammo Stoddart o'z qabih maqsadlarini amalga oshirmasdan Hindistonga qaytishni istamaydi. Stoddart Hindiston hokimlaridan biriga: "Men bu yerda biroz qolishga qaror qildim, yer sharining bu qismidagi mamlakatlarda Britaniya mamlakatining zo'r ta'sirini joriy qilish uchun qo'limdan kelgan barcha chorani ko'raman", degan mazmunda xat yozgan edi. Ammo, Stoddart Britaniya agenturasi uchun Buxoroda deyarli hech qanday ish qilishga ulgurmasdan, yana ikkinchi martaba zindonga tashlandi, uning to'plagan ma'lumotlari esa Buxoroda qolib ketdi.

Kolonel Charles Stoddart 1838-yil 17-dekabrda Buxoroga keladi. U o'z oldiga Amir Nasrullo bilan Biritaniya Ost Indiya kompaniyasi o'rtasida Rossiya imperiyasiga qarshi ittifoq tuzish rejasini qo'ygan edi.

A. Leman o'z asarida XIX asrning 40-yillarida inglizlarning Buxoro xonligida olib borgan tajovuzkorlik ishlariga oid ma'lumotlar ham keltiradi. Ayniqsa, bu vaqtlarda Buxoroda bo'lgan ingliz agentlari: Stoddart va Konollilar va ularning Buxoro hukmron doiralari bilan olib borgan muzokaralari to'g'risida ko'p qiziq ma'lumotlar berilgan. Uning yozishicha, ingliz agentlari amir bilan uchrashuvda Buxoroga faqat ilmiy maqsadlar bilan kelganliklarini bayon qilishlariga qaramasdan, amir Nasrullo ularning haqiqiy maqsadlarini bilishga harakat qilgani sababli, ularni bir necha marta ketma-ket qabul qilgan. ("Qabul" esa, kun bo'yi va kechasi bilan davom etar edi). Xatto amir Nasrullo Konolli ingliz hukumatining haqiqiy agenti ekanini va Buxoro uchun xavfli maxfiy bir maxsus yo'riqnoma bilan kelgan bo'lishi kerak, deb gumon qilayotganini to'g'ridan-to'g'ri aytgan edi.

Inglizlar O'rta Osiyo xonliklari bozorlarini o'z sanoat mollari sotiladigan bozorga aylantirish yo'lida turli usullardan foydalanganlar. Xususan, ular ayrim buxorolik savdogarlarni o'z tomonlariga og'dirish usulini qo'llaganlar. 1854-yilda Bombayga savdo ishi bilan borgan

buxorolik yahudiy Isoq Yusufov o'g'li Venyamin Isoqov bilan ingliz fuqaroligini qabul qilgan. 1867-yilda esa Parijda bo'lgan chog'ida Venyamin ukasi Yaqub Mamanni ham Angliya fuqaroligiga o'tkazgan. Ingliz hukumati shu yo'l bilan ham O'rta Osiyoda mustahkamlanib, mustamlakachilik to'rini bu hududga ham yoyishni maqsad qilgan edi.

Yuqorida qayd qilinganlar asosida, XIX asrning 30 – 40-yillarida inglizlarning o'z sanoat mollari bilan O'rta Osiyo bozorlariga kirib kelishga zo'r berib qilgan harakatlari Rossiya hukmron doiralari hamda rus savdogarlari o'rtasida bezovtalik tug'dirgan bo'lsa ham, lekin Rossiya va O'rta Osiyo, jumladan Buxoro xonligi o'rtasidagi savdoning umumiy holatiga aytarlik ta'sir etgan emas, degan xulosaga kelish mumkin.

XX asrda sovet tarixshunislighida Buxoro xonligi masalasi. XX asrga kelib, O'rta Osiyoda mustamlaka manfaatlarini mustahkamlashga intilgan sovet hukumati Buxoro xonligi tarixini o'rganish tadqiqotlariga asosiy e'tibor qaratdi. Bu bir tomondan mustabid tuzumning manfaatlarini ifoda etishga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bir yoqlama bo'lsada, Vatanimiz tarixini chuqur, ilmiy asosda tadqiq etilishiga katta yo'l ochdi.

Bu davrda amalga oshirilgan tadqiqotlar sirasiga I.A.Remezning “Внешняя торговля Бухары до мировой войны: опыт историко-статистический обзор внешней торговли ханства вне сферы таможенных объединений его с Российской империй”, A.A.Semyonovning “Очерк земельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского ханства”, V.Bartoldning “История культурной жизни Туркестана”, Sadridin Ayniyning “Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар”, F.Xo'jayevning “К истории революции Бухаре и национального размежевания в Средней Азии”, A.X.Namroyevning “К вопросу земельно-водных отношениях в Бухарском ханстве XIX веке”, A.Muhammadjonov va T.Ne'matovning “Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар”, O.Suxarevaning “К истории городов Бухарского ханства”, B.Iskandarovning “Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и западный Памир в первой половине XIX века”, L.Shekning “Победа Народной Советской революции в Бухаре”, A.Majlisovning “Каратегин накануне установления советской власти”, N.Kislyakovning “Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX века – начале XX века”, M.Vahobovning “Формирования узбекской

социалистической нации”, A.Ishanovning “Бухара в период первой русской революции”, N.Xalfinning “Политика России в Средней Азии (1857-1868 гг)”, “Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX века)”, A.Bekmuhammedovning “Народное движение в 1910 года в Бухаре”, A.Bobocho`jayevning “Происки британского империализма в Средней Азии и позиции Бухары в 1918-1920 гг”, I.Mo`minovning “Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане в конце XIX и начале XX вв.”, A.Fomchenkonning “Русские поселения в Бухарском эмирате”, B.G`ofurovning “История таджикского народа”, B.V.Luninning “Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении”, T.To`xtametovning “Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX века”, A.Ryabinskiyning “История колониального порабощения Бухарского ханства царской Россией”, M.Abduraimovning “О некоторых категориях феодального землевладения и положения крестьян в Бухарском ханстве в XIX – начале XX века”, T.Fayziyevning “Бухоро хонлигида кул савдоси”, O.Chexovichning “Об актовых материалах по истории Бухары”, K.Muhsinovaning “К истории выступления Бухарских крестьян против налогового гнета в конце XIX века”, L.Levteevaning “Присоединение Средней Азии к Россией в мемуарных источниках”, N/Norqulovning “Тарихи Салимий-ценный источник по истории Бухарского эмирата (1860-1920 гг)”, G.Ahmadjonovning “Советского историография присоединения Средней Азии к России”, M.Vekselmanning “Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX начале XX века)”, G.Mixalevaning “Торговые и посольские связи со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторя половина XVIII-первая половина XIX века)”, F.Qosimovning “Советские историографы Бухарской революции” ва H.Ziyoyevning “Ўрта Осиё ва Сибирь” асарларини киритиш мумкин.

Mazkur asarlarning deyarli barchasida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro xonligi tarixi bo‘yicha ba’zi bir jihatlarini yoritishga harakat qilinib, yangi faktik materiallar jalb qilinganiga qaramay, ushbu davr mualliflari o‘z asarlarida tarixiy voqeyelikni yoritishda o‘sha davr va hukmron siyosat nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yoritishga majbur bo‘lganlar.

Buxoro xonligining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixi, chor Rossiyasining Buxoro xonligiga qarshi harbiy harakatlari, ular o‘rtasidagi tinchlik shartnomasining tuzilishi, Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro

xonligiga nisbatan olib borilgan siyosiy, iqtisodiy, va harbiy munosabatlar tahlili hamda Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro xonligini o'ziga qaram qilish siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil etishga bag'ishlangan sovet tarixshunosligidagi ilk asarlar XX asrning 20-yillaridan boshlab nashr etila boshlandi.

XX asrning 20-yillarida S.Ayniy, I.Remez, A.Semyonov, V.Bartold tomonidan yozilgan asarlar tarixiylik, xolisona baholash, haqqoniylik mezonlari asosida tarixiy voqyealarga yondashilganligi va ilmiy tahlil etilganligi bilan bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan asarlar majmuasiga kiradi. I. Remezning asari xonlikning tashqi savdosiga bag'ishlangan bo'lsa, A.Semyonovning asarlarida ilk bor mahalliy manbalarni chuqur o'rganilganligi va ularni tahlil etish asosida Buxoro xonligi tarixi yaratilganligi bilan katta ahamiyatga ega.

S.Ayniy tomonidan yaratilgan asarlar Buxoro xonligining XIX asr oxiri –XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganish va tahlil etishda muhmi o'rin tutadi.

XX asr 30-40 yillarida Buxoro xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlar va tadqiqotlar nisbatan kam amalga oshirildi. A.M.Ryabinskiy, O.Chexovich, A.X.Boboxo'jaev, A.X.Hamroev, B.G'ofurov, N.Proxorovlarning asarlari, X.Bekmuhamedov va L.Shek tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalar ham ushbu davrning kam sonli tadqiqotlari doirasiga kiradi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab, Buxoro tarixiga bag'ishlangan ilmiy asarlar yaratishga qiziqish tobora ortdi va ko'plab asarlar chop etildi hamda ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

XX asrning 50-yillarida yaratilgan asarlar jumlasiga A.I.Eshonov, I.Mo'minov, A.P.Fomchenko, A.X.Hamroev, A.R.Muhammadjonov, T.Ne'matov, A.Semyonov, O.A. Suxareva, B.I. Iskandarov, L.Shek, A.Majlisov, T.To'xtametov va K.Muhsinovalar tomonidan yaratilgan asarlarning qimmatli tomoni shundaki, ularda qo'lyozma asarlar va arxiv materiallaridan juda unumli foydalanilgan hamda ilk marotaba ular tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan.

T.Fayziev Buxoroda ijtimoiy hayot masalasi, qul savdosi, A.Majlisov va B.Iskandarovlar esa xonlikning agrar holati, boshqaruv tizimi asoslari haqida qalam tebratganlar.

N.Kislyakov, A.Hamroev va A.Fomchenkoning tadqiqotlari esa xonlik aholisining turmush tarzi, xo'jaligi, yer-suv munosabatlari hamda

xonlik hududida rus manzilgohlarining paydo bo'lishi, ularning xonlik hayotiga ta'siri yoritib berilgan.

Sovet tarixshunosligining eng muhim yutug'i xonlik tarixi bo'yicha tizimlashgan tadqiqotlarning paydo bo'lishi, unda yoritilgan ma'lumotlar o'z davri nuqtai nazaridan Buxoro davlatchiligi tarixi bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlarni berishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida Buxoro xonligi tarixini o'rganilishi. XX asrning 80-yillari oxiri – 90-yillari boshlariga kelib, mamlakatimizning mustaqillik tomon yo'l tutishi va kommunistik tuzumning yemirila boshlashi, xalqimizning ijtimoiy-siyosiy va ma'anaviy hayotida ijobiy o'zgarishlarning paydo bo'lishi, o'z navbatida avvallari davr mafkurasi asosida yoritilgan mavzularni yangicha tadqiq etish, yondashuvlarni oshkora e'lon qilish imkoniyati tug'ildi. Shu davrda tarixchi olimlar H.Ziyoev, H.Bobobekov, A.G.Ahmadjonov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari yaratildi. Ularning ishlarida Rossiya imperiyasi istilosi, uning mustamlaka siyosati, mahalliy aholi vakillarining rus mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakatlari masalalari ilk bora yangicha qarash va uslub hamda xolislik va ilmiylik asosida yoritish tomon yo'l tutildi.

H.Ziyoev, A.G.Ahmadjonov, Sh.Vohidov, G.A. Agzamova, K.Hakimova, F.Qosimov, Q.Rajabov, O.Masalieva, F.Ochildiev, A.Xoliqulov, M.Hamidova, B.Ergashev, Sh.Yusupov, A.Odilov, R.Xoliqova va boshqa mualliflarning ilmiy tadqiqotlari mustaqillik davri mahsuli hisoblanib, ular yaratgan asarlar va maqolalarda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro xonligi tarixining ayrim jihatlariga taaluqli masalalarga to'xtalib o'tilgan.

Xususan, Sh.Vohidov Buxoro xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlarida Buxoro xonligidagi unvon va mansablar, ularning vazifalari, davlat boshqaruvining ayrim jihatlarini yoritib bergan bo'lsa, H.Ziyoev esa Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoroni yarim mustamlakaga aylantirilishi, uning sabablari, Rossiya tajovuziga qarshi milliy ozodlik harakatlari masalalari qalamga olingan.

G.A.Agzamovanning asarlari Buxoro xonligining shaharlari, ularning xonlik siyosiy-ijtimoiy tuzumidagi o'rni, xonlik infratuzulmasidagi hissasi, iqtisodiy taraqqiyoti, arxitekturasini hamda iqtisodiy imkoniyatlari haqida keng ma'lumotlar olish uchun xizmat qiladi.

A.Odilov asari Buxoroda Rossiya imperiyasi bosqini va unga qarshi xalq harakati, bu harakatda amir Muzafarxonning (1860-1885) o'g'li

Abdumalik Katta To'ra hamda Kitob, Shahrisabz hokimlari Bobobek va Jo'rabeklarning faoliyatiga bag'ishlangan.

Buxoro xonligi tarixi bo'yicha mustaqillik yillarida buxorolik tarixchilar F.Qosimov, Sh.Hayitov, Q.Rajabovlar katta ishlarni amalga oshirdilar. F.Qosimov xonlik hukmdorlarining o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rni masalasiga e'tibor qaratgan bo'lsa, Sh.Hayitov o'zbek muhojirligi tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordilar.

Bugungi kunda tarix fanlari doktori, professor Q.Rajabov Buxoro tarixi bo'yicha bir necha loyihalarni amalga oshirib, o'z tadqiqotlarini xonlik tarixining ochilmagan sahifalariga bag'ishlamoqda. Jumladan, xonlik hukmdorlarining shaxsiy hayoti, ularning avlodlari taqdiri, xonlik hududida sovet mustamlakachilariga qarshi qurolli qarshilik harakati tarixi, uning yo'l boshchilarining shaxsiy hayoti haqida ko'plab maqola hamda risolalar e'lon qilib kelmoqda.

Quvonarlisi, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab, Buxoro davlat universitetida 5120300-Tarix. Buxoro tarixi bakalavriat ta'lim yo'nalishining ochilishi xonlik tarixini o'rganishni yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Tayanch iboralar.

Dashti Qipchoq, saroy tarixchilari, Shayboniyxon, "Shayboniynoma" va uning nusxalari, "Mehmonnomai Buxoro", "Sharafnomai shohiy", "Ubaydullanoma", "Bahr ul-asror", "Tarixi Muqimxoniy", "Tarixi Abulfayzxoniy", Antoni Jenkinson, "Moskva" savdo kompaniyasi, Byorns, Konolli, Stoddart, Mir Izzat Ulla, Buxoro xonligi tarixi xususida sovet tarixshunosligi, mustaqillik yillarida Buxoro tarixini o'rganilishining yangi bosqichi.

Nazorat savollari.

1. Buxoro xonligi tarixiga oid mahalliy tarixchilarning asarlarida qanday xususiyatlar yetakchilik qiladi?
2. Yevropada Buxoro xonligi tarixi haqida ma'lumotlar to'planib borish jarayonining sabablari nimada?
3. Buxoro xonligiga Yevropadan amalga oshirilgan ilk elchilik haqida ma'lumot bering.
4. Sovet davri tarixshunosligida Buxoro xonligi masalasi qanday yechimlarga ega bo'lgan?
5. Mustaqillik yillarida Buxoro xonligi tarixini o'rganishning ustuvor yo'nalishlarini sanab bering.

BUXORO XONLIGI DAVLAT BOSHQARUVI VA MANSABLAR

Reja:

- 1. Buxoro xonligining tashkil topishi haqidagi nazariyalar**
- 2. Buxoro xonligi davlat boshqaruvi. Xon rutbasi**
- 3. Mang'itlar hukmronligi davrida davlat boshqaruvi va mansablar**

Buxoro xonligining tashkil topishi haqidagi nazariyalar. XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq tomondan ko'chmanchi o'zbeklar davlati xukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy (1451-1510) hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yilda Xisor viloyatini, 1504-1505 yillarda Urganchni, 1506-1507 yillarda Xuroson poytaxti Xirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Astrobod va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg'ona, Sirdaryo va Xorazm yerlari Afg'onistonning Qandahor, Zamindovur viloyatlari egallandi va Muhammad Shayboniyxonga qaram bo'lib qoldi. Shayboniyxonning Xurosondaligidan foydalangan qozoq sultonlari Movarounnahrda bir necha marta bostirib kirib, uni talon-taroj qiladilar. 1506-1509 yillarda Shayboniyxon Xurosondan qaytib kelib, qozoq sultonlariga zarba beradi va Dashti Qipchoq ichkarisiga quvib boradi. Bu yurishlar natijasida Sig'noq, Yassi, Savron shaharlari qayta qo'lga kiritiladi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasi xukmronligi qaror topdi. Muhammad Shayboniyxon «Imom uz-zamon, xalifat ur-raxmon» unvonini olib o'z qo'lida dunyoviy va diniy hokimiyatni birlashtirdi. Shayboniyxon janubda Eronning ichki viloyatlariga yurish qilgan chog'da, Mashhad va Tus shaharlarini egallab, orqaga qaytadi. Eron shohi Ismoil Safaviy katta ko'shin bilan yetib keladi. Shayboniyxon Movarounnahrdan yordamchi ko'shinlar kelishini kutmasdan jangga kirishga majbur bo'ladi. 1510 yilda Marv yaqinida bo'lgan jangda Shayboniyxon qo'shinlari yengiladi, xonning o'zi ham halok bo'ladi. Taxtga Shayboniyxonning amakisi, Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sulton boshlab o'g'li Ko'chkunchixon (1510-1530) chikdi. Biroq shayboniy sultonlar, beklar jipslashib Ismoilshohga qarshi kurashish o'rniga Shayboniyxon tirikligidayoq suyurg'ol sifatida taqsimlab berilgan viloyatlar va yerlarga egalik qilish bilan o'ralashib qoldilar, ular o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bundan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm

o'lkalarini, Shimoliy Afg'onistonni bosib oldi. Poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahrda esa shayboniylar xukmronligi saqlanib qoldi.

Hozirga qadar yaratilgan adabiyotlarda shayboniylar davlatining vujudga kelishi, uning mavjud bo'lgan davri xususida turlicha yondashuvlar, tarixiy faktlarni o'qish mumkin. Ammo, adabiyotlarda ilgari surilgan g'oyalar shayboniylar davlatining umumiy g'oyaviy jihatdan to'la shaklini aks ettirsa-da, umumlashma holda yagona to'xtamga kelishni taqozo etadi.

Shayboniylar davlatining Movarounnahrda mustahkam o'rnatilib qolishiga quyidagi sabablar muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Chunonchi, birinchidan, aslida shayboniylar va temuriylar Jo'ji hamda Chig'atoy naslining davomchilari hisoblanib, merosiy jihatdan qarindoshlik asosida bir-birlarining hududlariga egalik qilishga haqli edilar. Ikkinchidan, o'zaro munosabatlar qurol kuchiga tayanib hal etilguniga qadar shayboniy hukmdorlari temuriylar saltanatining siyosiy-ijtimoiy hayoti haqida mukammal ma'lumotga ega edilar. Uchinchidan, temuriy shahzodalar o'rtasidagi o'zaro urushlardan bezigan mahalliy xalqning yangi hukmdorlarga xayrixoh edilar, shu sababdan shayboniy sulolasi vakillariga qarshi ko'tarilgan harakatlar tarixda kuzatilmaydi. To'rtinchidan, Shayboniyxon tiriklik paytidan mamlakat raqnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalarini tez orada namoyon bo'lishi yoxud bu islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy tabaqalarning vujudga kelganligi edi.

Movarounnahrda Shayboniylar sulolasining o'rnatilishi bilan davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotida vujudga kelgan o'zgarishlar davlatchilik taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Xususan, ijro hokimiyati vakillarining xon o'rdugohida doimiy tarzda hozir bo'lishi, ijro masalasida mukammallik va tez fursatlarda vazifalarni bajarish imkoni bergan. Shuningdek, har bir ijro hokimiyatining maxsus ular bajaradigan vazifalar bo'yicha nomlar bilan nomlanishi, davlatchilikda mansablar terminologiyasini paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Ma'naviy hayotdagi tashabbus va yetakchilik hukmdorlar, yuqori tabaqa vakillari orasiga o'tishi xalq orasida ularning obro'si yuksalishiga, xalq ishonchining ortishiga xizmat qildi. Shayboniylar taxtga egalik qilish masalasida yangicha yondashuvni amalga oshirdilarki, bu odatga oz muddat amal qilingan bo'lsa-da, taxt uchun o'zaro urushlarga barham bergan.

1500 yilda Buxoroni egallagan Muhammad Shayboniyxon ukasi Mahmud Sultonga ushbu viloyatni suyurg'ol sifatida taqdim etib, uni

boshqarishni topshirgan edi. Temuriylarning dunyoga dong'i ketgan Samarqand esa, Shayboniylar davlatining dastlabki poytaxti vazifasini bajargan. Chunki, Shayboniylar ayrim sohalarda temuriylarning davomchilari hisoblanishgan, shu bilan birga Samarqandda poytaxt infratuzilmasi tizimli tarzda tashkil etilgan edi. Shu sabab, Shayboniyxon (1501-1510), Ko'chkinchixon (1510-1530) va Abu Said (1530-1533) shu shahardan turib, mamlakatni idora qilgan. Ammo, taxtga urug'lari orasida eng yoshi ulug'i bo'lgan Ubaydullaxonning 1533 yilda taxga kelishi bilan, poytaxt masalasi uzil-kesil hal etilgan, Ubaydullaxonning amri bilan poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chiriladi. Bunga sabab sifatida yuqorida o'zaro urushlardan uzoqroq bo'lish maqsad qilingan bo'lsa, ota meros bo'lgan shahardan ajdodlar tajribasiga tayangan holda mamlakatni boshqarish Ubaydullaxonning yuksak ma'naviyat egasi bo'lganligidan dalolat beradi. Poytaxtning ko'chirilishi bilan o'zbek davlatchiligida Buxoro xonligining vujudga kelishiga zamin yaratdi va shu nom bilan atalgan davlat keyingi asrlarda o'z kuch-qudratini namoyon etdi.

1533 yildan boshlab Buxoro shahri va uning atroflarini mustahkamlanishi, shahar asosiga qurilgan yangi davlatga qo'shni hududlarni birlashtirilishi bilan adabiyotlarimizda zikr etilayotgan Buxoro xonligi tashkil topgan. Davlat nomining kelib chiqishi shu jarayon bilan bog'liq bo'lib, davlatning mustahkamlanish jarayonlarini davomiylik holati birinchi yondashuv uchun xizmat qiladi.

Ubaydullaxon hayotlik paytida o'zaro urushlarga barham bergan bo'lsa-da, uning vafoti bilan ichki ziddiyatlar yana kuchaydi. Hokimiyat uchun kurashlar boshlanib, Shayboniyxon avlodlarining har biri taxtga alohida-alohida davogar edilar. Ularning har biri o'zi ota meros bo'lgan hududlarda mustaqillikka intilar, imkoni bo'lsa, xonlik taxtini egallash ishtiyoqini edilar. Buning natijasida Ko'chkinchixonning o'g'li Abdullaxon 1 ning qisqa vaqt hukmdorligidan so'ng mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi, ya'ni davlatda ikki hukmdor paydo bo'lgan.

Biri Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon Buxoroda, ikinchisi-Ko'chkinchixonning o'g'li Abdulatifxon Samarqandda hukmdorlik qila boshladilar. Mamlakat bir necha hokimliklarga bo'linib ketdi, mamlakatda kuchli va qat'iyatli hukmdorga zarurat tug'ildi. Mamlakatda parokandalikka chek qo'yish uchun markaziy hokimiyatni yana qayta tiklash va kuchaytirish zarur edi. Ana shunday sharoitda kurash maydoniga Miyonqol hokimi Iskandar sultonning o'g'li Abdullaxon 2 (1534-1598)

chiqdi. U shayboniylar sulolasining yorqin vakillaridan biri bo'lib, Jonibek sultonning nabirasi edi.

XX asrning 90-yillarida yaratilgan adabiyotlarda aynan Abdullaxon 2 ning 1556 yilda Toshkent hokimi, bir paytning o'zida shayboniylardan bo'lgan hukmdor Navro'z Ahmadxon (1551-1556) ustidan Qarshi yaqinidagi jangda qozongan g'alabasi tufayli hokimiyat Iskandar sultonning qo'liga o'tdi. Aslida Miyonqol hokimi bo'lgan Iskandar sultonning hokimiyatga kelishi shayboniylar o'rnatgan tartib bo'yicha urug'ning yoshi ulug'i taxtga munosib baholangan odatga asoslangan edi. Tarqoqlikka barham berish, mamlakatni birlashtirish dolzarb bo'lib turgan bir paytda Abdulla sulton maydonga chiqqan, uni katta mavqyega ega bo'lgan jo'ybar shayxlari qo'llab-quvvatlaganlar. Abdullaxon Buxoro taxtini egallaydi. Abdullaxon (1557-1561 yillarda amakisi Pirmuhammad, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliy xukmdor deb e'lon kilingan bo'lsada, amalda xukmdor Abdullaxon edi). 1557 yilda Buxoroni davlat poytaxti, mamlakatning siyosiy-ma'muriy markaziga aylantiradi. Shu boisdan davlatning o'zi ham Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi. Bu holat ikkinchi yondashuv uchun asos bo'ladi.

1583 yilga qadar Abdullaxon 2 mamlakatda yirik o'zgarishlarni amalga oshirish bilan birga shayboniylar arkoni davlati qoidalariga ham qat'iy amal qildi. Otasi Iskandar sulton 1556-1561 yillarda, amakisi Pirmuhammad 1561-1583 yillarda yurt so'ragan paytda Abdullaxon 2 davlat sarhadlarini kengaytirish yo'lida harbiy harakatlar, mamlakat xo'jaligini tiklash bo'yicha islohotlarni amalga oshirdi. 1583 yilga kelib, yosh jihatdan shayboniylar orasida yoshi ulug'iga aylangan Abdullaxon 2 amakisi Pirmuhammad vafotidan so'ng Buxoro taxtiga munosib ko'rildi. Shu davrdan uning rasmiy jihatdan hukmdorlik davri boshlanishi uchinchi yondashuv uchun asos bo'ladi.

Shayboniylarga amakivachcha ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxanda hukmronlik qilganlar. 1556 yilda Astraxanni podsho Ivan IV (1533-1584) Grozniy tomonidan Moskva davlatiga qo'shib oldi. Astraxanning sobiq xoni Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindoshlar-urug'lari bilan Buxoroga keladi. Ularni Buxoro xoni Iskandarxon izzat-ikrom bilan kutib oladi. Iskandarxon qizi Zuhrebegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga turmushga beradi. U shu tariqa Buxoro xoni oilasining oilasining a'zosi bo'lib qoldi. Jonibek Sulton Zuhrebegimdan uch o'g'il ko'radi.

Jonibek Sulton va uning o'g'illari Buxoro xonligida yuksak mavqyega erishib, Buxoro xonligi viloyatlarida hokim vazifasida faoliyat yuritadilar.

Shayboniylar sulolasidan munosib taxt vorisi qolmagach, Jonibek Sulton xonlik taxtiga eng munosib nomzod bo'lib qoldi. Xonlikning nufuzli kishilari unga taxtni egallashni taklif etadilar. Lekin u o'g'li Din Muhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Shu jarayon turli adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Masalan, XX asr adabiyotlarida taxt ashtarxoniylarga merosiylik nazaridan topshirilgani aytilsa, yangi davr adabiyotlarida Samarqand hokimi Boqi Muhammadning (1601-1605) Buxoroga yurishi oqibatida yangi sulola qo'liga o'tganligi yoritilgan.

Shuningdek, ko'p sonli adabiyotlarda Ashtarxoniylar sulolasi boshqargan davrning o'zi Buxoro xonligi deb atalishi haqida fikrlar ustunlik qiladi. Chunki, ko'p hollarda bir sulola vakillarining boshqaruv davri alohida davlatchilik an'alarini vujudga kelishi, taraqqiyoti faqat bir davlat tajribalariga bog'lash odati hukmronlik qilganining dalolatidir.

Buxoro xonligi davlat boshqaruvi. Xon rutbasi. Shayboniylar hukmronligi yillarida oliy davlat idorasi dargoh deb atalgan. Uning tepasida xon turgan. XON - turkiy va mo'g'ul xalqlari hukmdorlari unvoni hisoblanib, dastlab qabila sardori, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va xorazmshohlar davrida xon unvoni viloyat, shahar hokimi yoxud darajasiga ko'ra amir yoki malik lavozimlariga nisbatan yuqori hisoblangan, ayni paytda, mamlakat boshlig'i sultonga tobe bo'lgan turkiy boshliqni bildirgan. Qoraxoniylar davriga kelib, xon arslon, bug'ra singari so'zlar bilan birikib qoraxoniylar davlati hukmdorlarini anglatgan. Mo'g'ul imperiyasiga asos solgan Temuchin«Chingizxon» unvonini qabul qilgan. Imperiya hududida tashkil topgan ulus hukmdorlari ham xon deb nomlangan. Chingizxon vafotidan so'ng, saltanat taxtiga o'tirgan chingiziylarga qoon unvoni berilgan. Mo'g'ul hukmronligi davrida Eronda nomusulmon hukmdorlar xon, musulmon hukmdorlar esa, sulton deb atalgan. Temuriylarda Chingizxon sulolasiga daxldor shaxslar Xon unvoni bilan yuritilgan.

XVI asrga kelib, Movarounnahrda kirib kelgan Shayboniylarda xon hukmdor yoki taxt vorisini, sulton esa shahzodani ifodalagan. Safaviylar davrida xon unvoni viloyat boshliqlari – amirlarga berilgan va ular o'z rutbalariga ko'ra, 3 tabaqali zodagonlar sifatida e'tirof etilgan.

Ayni vaqtda xon Eron va Afg'onistonning turli ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalari orasida qabila yoki urug' sardori unvoni tarzida shuhrat topgan. Qo'qon va Xiva xonligi hukmdorlari ham o'zlarini

xon deb atashgan. Bu nom ularning chingiziylar bilan qarindoshlik rishtalari mavjudligiga ham ishora hisoblangan. Eronda tashkil topgan Qojarlar davlatida (1796-1925) turli darajadagi harbiy va ma'muriy amaldorlar, Hindistondagi musulmon davlatlarida turli martabadagi mansabdorlar ham xon deb yuritilgan.

Shayboniylar davri davlat boshqaruv masalasida ushbu suloladan avval hukm surgan temuriylar va ayniqsa chingiziylar bosqinidan avvalgi davrlarga o'xshagan hokimiyatning davlat idoralararo taqsimotimavjud bo'lmagan. Bunga sabab, ushbu davr tarixi tadqiqotlarining ko'lami ozligi, shuningdek, yarim ko'chmanchi turmush tarzi an'analarning mustahkam Jo'chi ulusidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning shaybniylar faoliyatida saqlanib qolganligidir. Shayboniylarning Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga kirib kelishi bilan mazkur mintaqadagi mavjud ayrim an'analarning ham Turkiston markaziga tarqalishi uchun sharoit tug'ilgan. Xuddi shu sabab ham o'zbek davlatchiligining somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, anushteginiylar, temuriylar davrida mavjud bo'lgan davlat boshqaruv taqsimoti shayboniylar zamoniga kelib konservativ yo'nalishda rivoj topa boshlagan. Ya'ni, dargoh va uning atrofidagi xizmatlar mavqeyi kuchayib borib, ijroiya hokimiyatdagi devonlar tizimi faoliyati chegaralanib qolgan.

Shayboniylar an'analari asosida oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladagi eng ulug' yoshdagi namoyondaga o'tishi tartibi dastlabki shayboniylar davrida saqlangan bo'lsa, asosan XVI asrning 40-yillaridan boshlab sulola ichidagi oilaviy an'ana ustun chiqa boshlagan. Abdullaxon II davriga kelib esa bu holat aniq bir shaklga tushgan. Taxt vorisi shayboniylarda navvob, qug'ulxoniy, kichik xon deb ham atalgan. Abdullaxon II zamonida valiahdga Balx viloyati hokimligini topshirish an'anasi ham shakllanib borgan bo'lsa-da, ammo shayboniylarning faoliyatiga tez orada chek qo'yilishi sabab mazkur an'ana rivoj topmay qolgan.

Dargohda xondan keyingi muhim davlat vazifasi naqib hisoblangan. Tarjimada sardor, boshliq, ktakchi ma'nosini beruvchi naqiblik mansabi amalda ancha keng mazmun va vakolatga ega bo'lgan. Naqib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan hisoblangan. Rasmiy qabul marosimlarida uning oliy hukmdor chap tomonidan birinchi bo'lib joy olishi naqibning dargohda tutgan yuksak maqomidan dalolat beradi. Xonning farmoni, yorliqlarida ham naqib nomi birinchi bo'lib zikr etilgan. Davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarida oliy

hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Masalan, 1570 yili Buxoroda yana bir bor hokimiyatini tiklarkan, buxoroliklar tomonidan o'rtaga solingan mashhur Qosim shayx Azizon bilan muzokaraga Abdullaxon II o'z naqibini yuboradi. Harbiy yurishlar uyushtirish, davom ettirish, dushman harbiy imkoniyatlarini o'rganish yumushlarini ham xon naqibga yuklagan, uning maslahati bilan qaror qabul qilgan. Shuningdek, naqiblarga mas'uliyatli elchilik vazifalari ham yuklatilganki, ularning muhim jihatlaridan biri shuki, ular albatta, payg'ambar avlodlari hisoblanmish sayyidlar xonadoniga mansub kishilar bo'lishi talab etilgan. Bu holat siyosat va mafkura nazoratini dargoh doirasida tutib tutish, mafkuraviy hayot tizginini butunlay tariqatlar ixtiyorida mujassamlashishining oldini olish bo'lgan.

Davlat ahamiyatiga molik mansablardan yana biri otaliqdir. Otaliq qilmoq, otasining o'rnini bosmoq mazmunini beruvchi mazkur lavozim markaziy hokimiyatning joylardagi, ya'ni viloyatlardagi siyosatini bnelgilashda katt ahamiyat kasb etgan. Oliy hukmdor viloyatlarni sulola namoyondalari shahzodalararo taqsimlab berar ekan, ularga otaliq, ya'ni o'z nazoratchisini, ishongan kishisini tayinlagan. Ayniqsa, balog'at yoshiga yetmagan shahzodalar viloyatlarga tayinlangan hollarda, ular to ulg'ayib mustaqil faoliyat ko'rsatish darajasiga yetgunliklariga qadar, davlat ishlarini boshqarishdek og'ir yuk xuddi mana shu otaliqlar zimmasiga yuklatilgan. Bunday hollarda olatiq butun viloyat taqdirini, uning markaz bilan munosabatlarini qanday bo'lishini hal etib berganlar. Otaliqlarning asosiy vazifasi joylar bilan bog'liqligi viloyatlar taqdirida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Oliy hukmdor chiqargan hukmlar, yorliqlar va boshqa rasmiy hujjatlarni o'z egalari, mas'ullarga, ijrochilarga yetkazish tadbirlariga parvonachi javobgar bo'lgan. Urush paytlarida esa ular harbiy yetakchilik vazifalari bilan shug'ullanganlar.

Dargohga tushgan arizalarni qabul qilish, javobini berish mamlakatdagi ijtimoiy adolat tartiblariga rioya etishning nazorati dodxoh mutasaddi etib belgilangan. Shuningdek, u elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarini tashkil etish va hatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlaktlarga borib kelish kabi tadbirlarni ham amalga oshirgan.

Dargohdagi yana bir muhim lavozimlardan biri bu ko'kaldosh hisoblangan. Mazmunidan ham ko'rinib turganidek, ular oliy hukmdorga va rasmiy sulolaga eng yaqin kishilardan bo'lgan. Ko'kaldoshning ijtimoiy mohiyati rasmiy sulolaning biron vakili bilan bir onani emganlik bilan

tushuntiriladi. Demak, ko'kaldosh dargohning eng ishonchili kishilaridan hisoblanib, unga topshiriladigan vazifalar ham shu qadar nozik va mas'uliyatli bo'lgan. Ko'kaldosh vazifasi mamlakatda oliy hukmdor olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga kishilarning munosabatlarini aniqlash bilan bog'liq yumushlardan iborat bo'lgan. Abdullaxon II va Abdulmo'min o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishda, Abdulmo'min harakatlari va maqsadlarini oldindan bilib, xonga to'g'ri ma'lumot berishda asosiy o'rinni Qulbobo ko'kaldosh asosiy rolni o'ynagan. Shu sabab taxtga chiqqan kuniyoq dastlabki qilgan ishlaridan biri Qulbob ko'kaldoshni qatl etish bo'lgan.

Sulola ichki munosabatlariga oid tadbirlar, oliy hukmdor va shahzodalar o'rtasidagi aloqalar tegishli tartib asosida yo'lga qo'yish ishini xon yasovuli olib borgan. Shahzodalarni xon tomonidan qabul qilish, ularning peshkashlari, arzlari, iltimoslarini yetkazish kabi tadbirlar shular jumlasidandir.

Dargohdagi xaovfsizlik, tartib, keldi-ketdidan xabardorlik kabi tadbirlar eshikog'aboshi boshliq xizmat bo'ynida bo'lgan. Chap eshikog'asi, o'ng eshikog'asi, katta eshikog'asi kabi ichki taqsimotlar bo'lgan bu xizmat vakillari urush paytlarida oliy hukmdorning eng muhim harbiy topshiriqlarini ham bajarib borganlar.

O'sha zamonlarga mos ravishda davlatning biron-bir xizmat idorasi, xizmat turi namoyondalari urush paytida o'zlarining to'g'ridan-to'g'ri vazifalariga qo'shimcha ravishda harbiy faoliyat bilan ham shug'ullanib kelganlar. Harbiy harakatlar paytida miroxo'r (oliy hukmdorning yilqi, ot-ulov, ularning ta'minoti mas'uli), shig'ovul (chet el elchilarini qabul qilish bo'yicha mas'ul), qushbegi (podshoh ov tadbirlarini uyushtiruvchi), chuhraboshi (maxsus harbiy qism boshlig'i), bakovulboshi, dasturxonchi kabi lavozimlar yuzaga keladi.

Dargoh bilan bog'liq yana qo'rchiboshi (quro-aslaha xizmati xodim), uning amaldorlaridan bo'lmish jibochi, jarchi, tavochi, qorovulbegi, xazinachi, mehtar kabi lavozimlar ham mavjud bo'lgan.

Dargoh faoliyatida katta mavqyega ega bo'lgan lavozimlardan yana biri shayxulislom bo'lib, davlat va jamiyatdagi mafkuraviy hayotda uning o'rni favqulodda edi. Din peshvolari va muassasalari nafaqat ijtimoiy hayotda, balki iqtisodiy munosabatlarda ham o'z mavqyeini yo'qotmaganlar. Shu sababdan vaqf mulklari bilan shug'ullanuvi maxsus xizmatlar joriy etilgan bo'lib, ularning mamlakat miqyosida bosh sadr, joylarda esa sadrlar boshqarganlar.

Sud ishlariga kelganda, mamlakat miqyosida tizimda bosh qozi yetakchilik qilgan bo'lsa, harbiylar hayotida yuz beradigan huquqiy masalalarni qoziaskar hal etib borgan. Shu bilan birga harbiy qozi ham, mahalliy qozilar ham bosh qoziga bo'ysunganlar. Mamlakatdagi ahloqiy normalarga rioya qilish ayniqsa amaldorlar, hatto, din peshvolari orasidagi shu masalaga munosabatni bilib borish ishi bilan muhtasib (rais) shug'ullangan.

Shayboniylar davrida devonbegi va qutvolning ish faoliyati va vazifasi ko'lam jihatidan ancha keng bo'lgan. Chunonchi, devonbegi mamlakatning muhim ishlaridan, mol-mulk, ya'ni moliya, soliq, yer-suv masalalari, viloyatlar bo'ylab amaldorga ish taqsimlash, mansablarga tayinlash va bularning barchasi haqida hukmdorga har kuni hisobot berib turgan. Qutvol esa shayboniylar davrida qal'a boshlig'i vazifasini bajargan bo'lsa-da, keyinchalik u shahar hokimi maqomini ham kasb etgan.

Ashtarxoniylar davriga kelib davlat boshqaruvida bir holat yaqqol ko'zga tashlanadi: hokimiyat markazda ham, viloyatlarda ham asosan bir idora – dargohda mujassamlashib borgan. Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida ham naqib, otaliq, parvonachi, dodxoh, devonbegi, qushbegi, chuhraboshi, miroho'r, yasovul, inoq, qo'rchi, bosh qozi, harbiy qozi, shayxulislom, a'lam, rais, bosh muftiy va boshqa lavozimlar mavjud edi. Ushbu lavozimlarning davr o'tishi bilan vazifalarida sifat o'zgarishlari yuz bergani aniq. Otaliqning vazifasi XVI asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lsa, ashtarxoniylar zamonasida, otaliqning markazdagi, ya'ni poytaxtdagi mavqeyi kuchayib borgan. Masalan, Abdulazizxon Buxoro taxtiga chiqqach, poytaxtdagi otaliq vazifasini Yalangtushbiy Bahodirga, ya'ni o'sha davrdagi eng zarabrdasi amirga tavsiya etgan. Otaliqning mavqeyi Subhonqulixon davrida ham baland bo'lib, eng muhim hamrbiy ishlar otaliqqa yuklatilgan. Bunday holat Ubaydullaxonning dastlab hukmronlik yillarida ham saqlanib qolgan. Bu paytda otaliqqa nisbatan shunday ta'rif ishlatilgan – umdat ul-umaro, ya'ni barcha amirlar tabaqasining tayanchi. Shundan bilsa bo'ladiki, otaliqlar shu davrda barcha amirlarning hurmatini qozona olganlar. 1707 yilda Udaydullaxonning ming urug'idan bo'lgan Odilbiyni Balx viloyati mulklarini bosh otalig'i deb e'lon qilinishi bu lavozimning mavqeyini belgilab beradi.

Ashtarxoniylar, xususan, Ubaydullaxon va Abulfayzxon zamonlarida qushbegining ham mavqeyi o'sganligini ko'rish mumkin. Ya'ni ushbu mansabdagi shaxsning mavqeyi ko'tarilishi bilan u egallab turgan

lavozim ahamiyati ham yuksalgan. Xususan, To'raqul qushbegiboshi mansabga tayinlash va unvon berish, xon yorlig'isiz shaxsan yozma ko'rsatmalar tarqatish, oliy qabullarda o'z xohishiga ko'ra ishtirok etish kabi imtiyozlarga ega bo'lgan. Alalxusus, qushbegiboshi amirlarning eng ulug'i edi.

Xullas, sharoiti va vaziyatiga qarab u yoki va bu davlat lavozimining e'tibori o'zgarib boravergan. Ko'rinib turganidek, bu holat asosan oliy hukmdorning u yoki bu shaxsga, uning hokimiyat uchun tegadigan nafiga, jamiyatda tutgan o'rniga qarab munosabatda bo'lishiga bog'liq edi. Shuning uchun, Ubaydullaxon saroyida Muhammad Rahim otaliq mavqeyi baland bo'lgan bo'lsa, 1707 yil uni Qarshi viloyati boshqaruviga tayinlaydi.

Shuningdek, viloyat hokimligiga parvonachi, otaliq kabi lavozimdagilarning tayinlanishi tabiiylikka aylanib bordi. Bu bilan lavozimga tayinlanayotganda shaxsning ijtimoiy mavqeyi birinchi o'rinda bo'ldi.

Ashtarxoniylar davridagi dargoh xizmatlaridan yana biri - saroy qutvoli bo'lib, bu xizmat mamlakat xazinasini hisobidan amalga oshiriladigan qurilish, obodonchilik ishlariga javobgar bo'lgan. Masalan, 1709 yilda Ubaydullaxon saroy qutvoli Xoja Boltuga poytaxt atrofida chorbog' barpo etishni buyuradi. Xoja Boltu ishga kirishib, muhandislar, me'morlar, ustalar, mardikor, hasharchilarni jalb qilib, katta chorbog' va uning o'rtasida ajoyib, hashamatli saroy ham qurilishiga boshchilik qiladi. Mablag'ni ham oliy hukmdor o'z xazinasidan sarflagan.

Milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganishga jiddiy e'tibor berilayotgan bugungi kunda Buxoro xonligining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari, oliy tabaqa amaldorlar va quyi ma'muriy birliklardagi mansabdor shaxslar hamda harbiy-ma'muriy va diniy amaldorlarning davlat boshqaruvidagi o'rniga doir ilmiy asarlarga ehtiyoj kattadir.

Buxoro xonligida oliy harbiy-ma'muriy amaldorlar, mahalliy boshqaruvdagi asosiy mansabdorlar mang'it urug'iga mansub bo'lgan kishilardan tayinlangan. Shu bilan birga, bu davrda mang'itlarga va boshqa o'zbek urug'lariga mansub bo'lmagan kishilarning ham davlat boshqaruvida yuqori amallarni egallash holati ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda, davlatda amirdan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan qushbegi mansabiga forslar orasidan tayinlangan kishilarning borligiga ham e'tiborni qaratish lozim.

Buxoro xonligida markaziy boshqaruv quyidagi asosiy idoralar orqali amalga oshirilardi: amir – davlat boshlig‘i; qushbegi – bosh vazir; otaliq; moliya idorasi; vaziri harbiy; qozilik mahkamasi.

Buxoro amiri hokimiyati cheklanmagan bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida diniy va dunyoviy hokimiyat boshlig‘i edi. Shu bilan birga, amir – davlatning oliy bosh qo‘mondoni, amirlik yerlarining oliy egasi hisoblangan.

Mang‘itlar sulolasining uchinchi vakili bo‘lmish Shohmurod (1785-1801) amirlik unvonini qabul qilgan. Amirlik unvoni ilgari asosan qo‘shin boshliqlari va joylardagi turli harbiy vakillarga berilgan bo‘lsa, Muhammad Rahim davriga kelib amir unvoniga ega bo‘lgan birorta mansabdor shaxs qolmagan. Ushbu unvon ilgari amalda bo‘lgan amir-beklik unvonidan farqli o‘laroq, xalifalik maqomi - “amir – ul-mo‘minin” sifatida talqin etilgan. Aynan ushbu davrdan Buxoro xonligi Buxoro xonligi deb yuritila boshlangan.

Amir davlatni mansabdor shaxslari, ya'ni amir xizmatchilari orqali boshqarardi. Ushbu mansabdor shaxslar davlatning boshqaruv apparatini tashkil etgan. Buxoro amirlari o‘z shajaralarini Muhammad payg‘ambardan boshlaganliklari sababli ularning unvonlariga “said” so‘zi qo‘shib aytilgan. Amir yonida doimiy ravishda uning shaxsiy yozishmalarini olib boruvchi ikki nafar kotibi bo‘lgan.

Mang‘itlar hukmronligi davrida davlat boshqaruvi va mansablar. Markaziy davlat boshqaruvini bir qator idoralar majmuasi tashkil etib, davlatning oliy boshqaruv organi – oliy davlat mansabi hisoblangan qushbegi tomonidan boshqariladigan davlat devonxonasi (qushbegi devonxonasi) hisoblangan. Qushbegi mansabi ilgaridan mavjud bo‘lgan bo‘lsada, XVII asrga kelib “otaliqlik” unvoniga nisbatan uning ahamiyati va vakolat doirasi ancha toraygan.

XVIII asrning o‘rtalariga kelib qushbegi mansabi yetakchi o‘ringa chiqib, u davlat apparatining asosiy bo‘g‘ini sifatida barcha boshqaruvning asosiy funksiyalarini o‘z qo‘lida to‘play borgan. Qushbegi mahalliy beklar orqali markaziy davlat boshqaruvini amalga oshirish bilan bir qatorda, chet mamlakatlardan keladigan mol-mulklardan olinadigan boj to‘lovlari ustidan nazoratni amalga oshirgan.

Qushbegi lavozimiga davlatning tajribali, ishbilarmon, siyosatdon kishilaridan tayinlanib, nomzod avval devonbegi mansabida faoliyat yuritgan bo‘lishi lozim bo‘lgan. U saroydagi eng yuqori unvon egasi sifatida davlatda amirdan keyin turgan. Turklardagi ulug‘ vazir yoki

Yevropadagi davlat kansleri singari, qushbegi amirning eng yaqin maslahatchisi va ishonchli kishisi bo'lgan. Qushbegi bir vaqtning o'zida amirning shaxsiy muhrini saqlash, boshqa davlatlar bilan aloqalarni nazorat qilish, shuningdek moliya ishlarini boshqarish kabi mas'ul vazifalarni ham amalga oshirgan.

Buxoro xonligida savdo-sotiqdan olinuvchi barcha bojxona to'lovlari boshqaruvi ham qushbegi qo'lida bo'lishi bilan bir qatorda, u yer solig'ini yig'ish va yer-mulklarni berishni ham nazorat qilgan. Bulardan tashqari unga amir saroyi xavfsizligini nazorat qilish vazifasi ham yuklatilgan. Aynan mana shuning uchun ham amir shahardan boshqa joyga ketgan paytda u saroy darvozaxonasining unga maxsus qurilgan joyida amir shaharga qaytguncha kutib o'tirishga majbur bo'lgan. Har kuni kechqurun shaharning kechasi qulflanadigan darvozasi kaliti qushbegiga olib kelib berilgan va ertasiga ertalab esa kalitlar yana darvozabonlar boshlig'iga qaytarilgan. Shuningdek, qushbegi Buxoro shahar hokimi bo'lish bilan birga, barcha beklarning oliy boshlig'i ham edi. Uning mahkamasidan markaziy hokimiyatning ko'rsatmalari va qarorlari chiqib turgan. Qushbegi barcha ishlarni bevosita amirning roziligi bilan qilgan va har kuni qilingan va qilinayotgan ishlar to'g'risida amirga yozma yoki og'zaki axborot berib turgan.

Otaliq – amirlik markaziy boshqaruvida o'ziga xos vakolatga ega bo'lgan, mang'it hukmdorlarining tayanchi hisoblangan va ularning hurmatiga sazovor bo'lgan mansab egasi. Unga Buxoro shahri va Samarqanddan Qoraqo'lgacha bo'lgan hududlarda suv taqsimotini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. O'z navbatida otaliq Shohrud kanali mirobligi vazifasini ham bajargan.

Buxoro xonligida ahamiyati bo'yicha uchinchi pog'onada moliya idorasi – moliyaviy devonxona turgan, ushbu davlat idorasini oliy moliyaviy amallardan biri sanalmish devonbegi boshqarib, u davlat boshqaruv tizimida ikkinchi mansabdor shaxs hisoblangan. Devonbegi davlat xazinasini, zakot (xorijiy mamlakatlardan keladigan mol-mulklardan tashqari) hamda soliqlarga nisbatan umumiy davlat boshqaruvini amalga oshirgan.

Amirlikda markaziy idoralardan biri mudofaa va harbiy masalalar bilan shug'ullanuvchi vazirlik bo'lib, ushbu idora bevosita to'pchiboshiyi lashkar (harbiy vazir) tomonidan boshqarilgan. To'pchiboshiyi lashkar davlatdagi barcha otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan qo'shinni

boshqargan. U mahalliy hududlarni harbiy masalalarda amalda yordam beruvchi maxsus vakillari orqali nazorat qilgan.

O'z navbatida amirlik markaziy boshqaruvida boshqa bir qator mansab va unvonlar bo'lib, ulardan to'rtta asosiy va yuqori darajadagi lavozim egalari hukumatga aloqasi bor shaxslar hisoblangan. Jumladan,

Birinchisi, shayx ul-islom – diniy unvonlardan biri bo'lib, diniy ishlarni boshqargan va nazorat qilgan. Qozi askar – harbiy masalalar va harbiy jinoyatlarni ko'rib hal qiluvchi mansabdor;

Ikkinchisi, a'lamlar – davlatda fiqhiy masalalar bo'yicha fatvo chiqaruvchi shaxslar. Harbiy muftiylar – harbiylar uchun fatvo tuzuvchi, ayniqsa, davlat boshlig'ining boshqa bekliklarga safari chog'ida va harbiy yurishlari paytida harbiylar uchun fatvo chiqaruvchi vakil hisoblangan;

Uchinchisi, muhtasib – aholini shariat ta'qiqlagan harakatlardan tiyilib turishiga va yaxshilikka oid harakatlarni qilishiga undash bilan shug'ullangan.

To'rtinchisi, tarbiyachi-mudarrislar – ushbu mansab egalariga amirlikda katta e'tibor berilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi talabalarga ilm berish va ularni shariat yo'li asosida tarbiyalash bo'lgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bo'lajak qozilar, beklar va boshqa mansabdor shaxslar ularning tarbiyasini va ilmini olishi shart bo'lgan. Undan tashqari yana to'rt mansab mavjud bo'lganki, ularni amir bevosita saidlik obro'-e'tiboriga ega bo'lgan fuqarolarga in'om etgan.

Davlatda yana to'rt turdagi lavozim mavjud bo'lib, maxsus tayinlov asosida faoliyat yuritmasdan, balki ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar ushbu mansablarga har qanday shaxs tayinlanishi mumkin bo'lgan. Aniqrog'i, amirga ma'qul bo'lgan olimlar, saidlar, xojalar, o'zbeklar va boshqalardan biriga topshirilgan mir asad, fayzi, sadr va sudur deb nomlangan lavozimlar.

Agar fayzi olim yoki said bo'lsa, unga muqaddas Buxoro shahrining tashqi qismi muxtasibligi topshirilgan. Agar mirasad olim yoki said bo'lsa, unga saidlar o'rtasida rabot(kichik shaharcha)da bir farsang oralig'ida muxtasiblik vakolatini amalga oshirish yuklatilgan. Sadr – Buxoro shahri rabot ichidagi bir farsang masofada joylashgan vaqflar hisob-kitobini yuritgan bo'lsa, sudur rabot tashqarisidagi vaqflarni boshqarish masalasi bilan mashg'ul bo'lgan.

Amirlik markaziy boshqaruvida davlat boshlig'ining tashkiliy-ijrochilik ishlarini olib boruvchi bo'limi mavjud bo'lib, unda quyidagi to'rt asosiy mansabdor shaxs o'ziga belgilangan vakolatni amalga oshirgan.

Jumladan, devonbegi – tanxo masalalarini qayd etuvchi daftarni yuritish mudiri; mushrif – hukmdor tomonidan taqdim etilgan ashyolar, kiyim-kechaklar, qalqonlar, sovutlar va boshqa sovg'alarni yozib qoldirish ishlari bilan shug'ullangan; daftardor – tanho yoki suyurg'oldan foydalanish bo'yicha tasdiqlangan yoxud rad etilgan shaxslarning ma'lumotini yuritgan; tanobchi devon – bahor va kuz oylarida xiroj yerlaridan tushadigan tushumlarni yurituvchi lavozimda xizmat qilgan.

Davlat boshlig'i mahkamasining ikki asosiy maxsus xodimi bo'lib, ular amirning kundalik ish yurgizish masalalari bilan bevosita mashg'ul bo'lgan. Parvonachi – amir farmonlari va boshqa qarorlarini beklarga hamda boshqa mansabdor shaxslarga yetkazish masalalari bilan shug'ullangan. Dodhoh – davlat boshlig'iga turli masalalar bo'yicha kelib tushadigan ariza va shikoyatlarni qabul qilib, unga yetkazish hamda berilgan javoblarni o'z egalariga qaytarish vazifasi yuklatilgan.

Markaziy boshqaruvida boshqa bir qator mansablar ham mavjud bo'lib, ular asosiy vazifa bilan birga qo'shimcha vakolatlarga ham ega bo'lgan. Masalan, to'qsabo – amir majlisi dasturxonini nazorat qilish bilan birga, Xarkanrud tumanining hokimligi va mirobligi ham uning qo'lida edi. Shu bilan birga, to'qsabo harbiy harakatlar chog'ida amir bayrog'ini ko'tarib yurgan. Eshikog'aboshi esa, davlat boshlig'i o'z saroyida bo'lgan vaqtda uni qo'riqlash bilan bir qatorda Shofirkon tumanini boshqarish va bu hududlarda suv taqsimotini nazorat qilgan.

Miroxur – amir otxonasida ishni tashkil etish bilan birga Komi Abu Muslim tumani mirobligi va obodonlashtirish masalasi bilan shug'ullanar edi. Yana uchta mansab mavjud bo'lib, ushbu mansablar harbiy-ma'muriy xarakterga ega edi. Ulardan birinchisi, qo'rchiboshi deb atalib, amir miltig'i va boshqa quroli sozligi uchun javobgar bo'lgan. Udaychi esa, harbiy harakatlar jarayonida naqibning ko'rsatmasiga binoan navkarlar va qo'shinning taqsimlanishi va joylashuvini kuzatish vazifasini bajargan. Qorovulbegi – soqchilar va qorovullar boshlig'i sanalib, davlatning asosiy ichki va tashqi xavfsizligi masalalarini nazorat qilib turgan.

Amirlikda shig'ovul, miroxo'rboshi, mirshab kabi amallar bo'lib, ular ham o'ziga xos ravishda tegishli vazifalarni ado etganlar. Masalan, shig'ovul – davlat vakillari va elchilarni qabul qilib, ularning faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullangan. Miroxo'rboshi – hukmdorga tegishli bo'lgan otlarga yem-xashak yetkazish masalasini tashkil qilib, nazorat ostiga olgan. Mirshab esa, shaharni qo'riqlash vazifani bajargan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, markaziy boshqaruvda o'sha davrda o'zga davlatlarda amalda mavjud bo'lmagan tartib, ya'ni harbiy yig'inlar paytida mahalliy boshqaruv vakillari markaziy boshqaruvda bevosita ishtirok etganlar. Chunonchi, chandavul, qorovul, yo'lchi va josus kabi.

Davlat mahkamasida boshqa bir qator xizmatchi xodimlar bo'lib, ular faqatgina tegishli xizmat vazifalarini bajarganlar. Ular qatoriga jibachi, sadaqko'rchi, qilichko'rchi, mo'zabardor, oftobachi, ro'ypokbardor, qurutbardor, tarkashbardor, gulobi, mufarrix, dastorband, jig'oband, tamakisoz, otashbardor, to'g'bichi, shukurchi, nayzabardor, jilovchi kabilar. Masalan, jibachi harbiylar uchun maxsus kiyim tiksa, mo'zabardor amirning oyoq kiyimlarini saqlagan.

Markaziy boshqaruvda har bir sohani, aniqrog'i savdo-sotiq, hunarmandchilik, ishlab chiqarish kabi masalalarni boshqarib turuvchi vakillar tayinlangan. Masalan, sharbatdor amirlikda turli ichimliklarni tayyorlash va yetkazishni tashkil etgan bo'lsa, zargarboshi zargarlar faoliyatini nazorat qilib turgan. Me'morboshi esa, shaharning bosh me'mori hisoblanib, shaharni bezash va qurilish ishlariga umumiy rahbarlikni amalga oshirgan.

O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, amirlikda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, fuqarolarni yo'llarda o'g'ri, talonchi, bosqinchi va turli isyonchilar hujumidan himoya etish maqsadida bir qator mansablar joriy etilgan edi. Ular qatorida zindonband, jilband, jallod va bandiband kabi amaldorlarni sanab o'tish mumkin.

Amir yoki uning vakolati doirasida tayinlangan mansabdor shaxslar, ya'ni amirning joylardagi vakili, mahalliy boshqaruvchilar hamda beklar davlatning mahalliy boshqaruv organlari hisoblangan. Beklar yuqori tabaqa vakillaridan bo'lib, asosan yirik yer egalari orasidan tayinlangan.

Qoida bo'yicha mansablar qarindoshlik asosida berilgan, ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, oddiy fuqaro ham bek bo'lishi yoki aksincha bek oddiy fuqaroga aylanib qolishi mumkinligi o'z navbatida beklik boshqaruvini mas'uliyatli vazifa ekanligidan dalolat beradi.

Mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan beklar ko'p hollarda boshqaruv masalasida markaziy boshqaruv tartibini joriy etishga harakat qilar edilar. Shuning uchun amirlikning ayrim hududlarida vaqti-vaqti bilan mavjud hokimiyatni tan olmaslik holatlari kuzatiladi. Har qaysi bek o'zining saroyiga, mansab va unvoniga ega bo'lgan. Beklarning ishlarni

boshqarish va tashkillashtirish bo'yicha kotiblari bo'lib, hududlardan tushadigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni nazorat qilgan. Xo'jalik ishlarini dasturxonchi deb nomlangan xazinabon boshqargan.

Buxoro xonligida beklilar huquqiy maqomi bo'yicha bir-biridan farq qilgan. Masalan, Samarqand bekligi nufuzliligi, Qarshi bekligi ko'p hollarda davlat boshlig'i merosxo'ri hokimligi bilan, Chorjo'y bekligi esa urug' davomchilariga, Buxoro bekligi esa qushbegining o'zi tomonidan boshqarilganligi tufayli keng imtiyozlarga ega bo'lgan. Umuman olganda beklilarning maqomi ularning davlat va jamiyatga keltiradigan foydasi miqdoriga bog'liq bo'lgan. Beklar asosan rentadan daromad olganlar, chunki ular amirdan hech qanday moyana haqi olmaganlar, o'z navbatida ular aholidan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni yig'ish ishlariga boshqosh bo'lganlar. O'z o'rnida beklar amirning amaldorlari sanalib, amir tomonidan farmon asosida tayinlanganlar hamda amirga hududiy birliklar bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalar yuzasidan hisob berib turganlar. Yuqoridagi xususiyati bilan beklar ilgarigi, ya'ni xonlik davridagi bek-amir lavozimidan keskin farq qiladi. Beklik mansabi Buxoro xonligi tomonidan belgilab qo'yilgan "Unvonlar ro'yxati" bo'yicha mansablik unvoni tizimida 9 (to'qqiz) darajadagi unvonlar toifasiga kirgan.

Biz ko'rib chiqayotgan davrda amirlik ma'muriy-hududiy jihatdan 27 ta beklilik (viloyat) va 11 tumanga bo'lingan bo'lib, har bir beklilik, o'z navbatida amlokdorliklarga bo'lingan va bek tomonidan tayinlanadigan, lavozimidan ozod etiladigan amlokdor tomonidan boshqarilgan. Amlokdorliklar esa, bir necha qishloqlardan tashkil topgan, ularni qishloqning yoshi ulug' va tajribali oqsoqollari boshqargan. Har bir amlokdorlik uch asosiy mansabdor, ya'ni mirob, zakotchi va dorug'aboshilar orqali boshqarilgan. Mirob – hududning sug'orish tizimini kuzatish va suvni taqsimlash vazifasini bajargan bo'lsa, zakotchi soliq va yig'imlarni nazorat qilib turgan.

Beklik lavozimi meros tariqasida qolmasdan, balki har qanday holatda amir tomonidan almashtirilishi yoki lavozimidan ozod etilishi mumkin bo'lgan. Bek vafot etgan holatlarda uning barcha mol-mulklari davlat xazinasiga topshirilib, uning merosxo'rlari qolgan merosga nisbatan hech qanday egalik huquqiga ega bo'lmay, balki keyinchalik markaziy boshqaruvda xizmat qilgan. Bekliklarda yuzaga kelib turadigan kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida ayrim hududlarni

birlashtirishga yoki aksincha ajratish hollariga ham to'g'ri kelgan. Beklik boshqaruvi saroyida ko'plab mansab egalari mavjud bo'lgan.

1890 yillarga kelib Darvoz bekligi ma'muriy-hududiy jihatdan 11 ta amlokdorlikka bo'lingan bo'lib, beklik Darvoz asoschisi Xudoynazar-Otaliqning nevarasi Muhammad Nazarbek tomonidan idora etilgan. U har yili amirga belgilangan tartibda sovg'a-salom qilib turishi lozim edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, beklik mahalliy boshqaruvida 5 biy, 5 eshikog'asi, 3 to'qsabo, miroxo'rlar, qorovulbegi, jevachi, mirzaboshi, chiroqog'asi va navkarlar ishtirok etishgan.

Sharqiy Buxoro hududidagi Hisor bekligi mahalliy boshqaruvida amal qilgan ma'muriy tuzilishini tahlil etish barobarida Buxoro xonligidagi mahalliy boshqaruv tizimini o'rganib chiqadigan bo'lsak, ushbu hududda qoidaga binoan bek lavozimini amirning yaqin qarindoshlaridan biri, ya'ni amir Abdulahadning tog'asi Ostonaqulibek egallagan edi. Hisor bekligi Buxoro xonligining eng boy hududlaridan biri va bek amirning yaqin qarindoshi sanalganligi sababli unga o'lim jazosiga mahkum etish huquqi berilgan edi.

Ostonaqulibek ixtiyorida bir qator mansabdor shaxslar bo'lib, bu hududda ham barcha amaldorlar o'zga bekliklar kabi mahalliy aholidan yig'iladigan soliqlar hisobiga yashaganlar. Bek tomonidan beriladigan moyana amaldorlar daromadining ma'lum bir qismini tashkil etgan. Ostonaqulibek beklikni o'zining qushbegisi va katta yasovulboshisi orqali boshqargan. Undan tashqari beklikda maxsus devonxona bo'limi mavjud bo'lib, ushbu bo'lim yetti kotib tomonidan idora etilgan. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruvda turli vazifalarni bajaruvchi 25 ta yasovul ham ishtirok etgan.

Hisor bekligida boshqaruvni qulay yo'lga solish maqsadida beklik amlokdorlar tomonidan boshqariladigan 23 ta amlokdorlikka bo'lingan edi. Amlokdorlar bekning qarindoshlaridan tayinlansada, lekin hech qanday moyana haqi olmaganlar. Ular asosan qishloqlardan yig'iladigan daromadlar hisobiga yashar hamda hududdagi aholidan jarimalarni qabul qilib olar edilar.

Har bir amlokdor 10 tadan 200 tagacha navkarga ega bo'lib, ular asosan harbiy xizmatni o'tash, bek va amlokdor saroyini qo'riqlash hamda qamoqqa mahkum qilinganlarni nazorat qilib, qamoqxonalarga yuborish vazifasini bajarganlar. Navkarlarning ijtimoiy tarkibi turli-tuman bo'lib, hatto navkarlik xizmatiga ayrim yirik yer egalari ham qabul qilingan. Navkarlarning mansab darajasi ularning mulkiy holatiga qarab

belgilangan. Undan tashqari xizmat vazifasini a'lo darajada bajargan navkarlarga bek tomonidan qo'shimcha ravishda ayrim qishloqlardan to'lovlarni qabul qilib olish huquqi berilgan.

Amlokdorliklarda navkarlarning soni bir xil bo'lmagan. Masalan, Esonxo'ja amlokdorligida 195 ta, Bodroqlida – 90, G'ozimalikda – 80, Qoratog' va Regarda 25 tadan, Xonakida – 24, Sarijo'yda – 18, Sho'rkonda – 13, Dashnobodda – 11, Sariosiyoda – 8, Hisorda – 7 tadan navkar bo'lgan.

Ko'lob va Qorategin bekliliklarida mahalliy boshqaruvga aloqasi bo'lmagan doimiy qurollangan zambarak otuvchi qo'shinlar mavjud edi.

Denov va Qo'rg'ontepa bekliliklarida esa, amirning doimiy armiyasi bo'lmay, balki beklar boshqaruvni mahalliy harbiy kuchlarga tayanib amalga oshirganlar.

Bekliklarda mahalliy boshqaruv tashkil etishda diniy-huquqiy masalalarni hal etuvchi qozi, rais, muftiy va mirshab kabi amaldorlar ishtirok etganlar.

Bekliklar qozilari to'g'ridan-to'g'ri Buxorodan tayinlangan va o'z faoliyatida bekdan mustaqil bo'lganlar. Ular odatda bekning harakatlari haqida maxfiy ravishda Buxoroga xabar berib turganlar. Diniy amaldorlar mamlakatdagi sud hokimiyatini, shuningdek, ta'lim va tarbiya maskanlari bo'lgan madrasalar, boshlang'ich maktablarni, kundalik hayotda katta o'rin tutgan masjidlar va boshqa shu turdagi ijtimoiy muassasalarni o'z nazoratlari ostiga olgan edilar.

Shahar jamoat tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan. Buxoro shahri mirshabboshisiga bir vaqtning o'zida amirlikdagi boshqa barcha shaharlar mirshablari ham bo'ysungan. Hukumatga tegishli vazifalar mir rasas, ya'ni mirshab qo'lida bo'lib u shahar muhofazasining ma'muri hisoblangan. Davlatning mahbuslari uning ixtiyorida bo'lib, amirning shig'ovullari, xudaychilari (udaychilar) o'z ixtiyorlari bilan biror ishni qilmaganlar, faqat amir buyrug'iga bo'ysunganlar.

Tarixchi R. Xoliqovanning ma'lumotlariga ko'ra, "Buxoro shahri ikki dahaga, dahalarning har biri esa olti jaribga bo'lingan. Har bir dahani dahaboshi boshqargan. Jaribni esa bobo boshqargan bo'lib, uning mahkamasi boboxona deyilgan. Uning ixtiyorida faqat tunda ishlaydigan maxsus qo'riqchilar bo'lib, ular shabgardlar deb atalgan. Shabgardlar (tunda kezuvchi) – fors-tojik tilidan olingan bo'lib, "shab" – kechqurun, tun va "gard"- kezmoq, kezuvchi ma'nolarini anglatadi".

Shabgardlarning asosiy vazifasi tunda shaharni kezib yurish va barcha shubhali shaxslarni aniqlash bilan bir qatorda ehtiyojsiz ravishda shaharda yurgan shaxslarni ushlab tegishli tartibda chora ko'rish bo'lgan. Ushlangan shaxslar dini va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, shahar ko'chalari va hammomlarni tozalash ishlariga jalb qilingan.

Buxoro xonligi mahalliy boshqaruvi tizimida o'ziga xos o'rinni rais mansabi egallardi. Ushbu amal yarim diniy, yarim tartibotchi usulda bo'lib, raisning majburiyatiga eng avvalo, aholining yurish-turishi va hulgini nazorat qilish kirgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, Buxoro xonligi 11 tumandan tashkil topib, barcha tumanlar Buxoro shahri atrofida joylashgan edi. Bulardan ikki asosiy tuman – Shohrud kanali atrofida bo'lib, ushbu tumanlarning qolgan 9 tumandan asosiy farqi shunda ediki, tumanlarning ma'muriy markazi mavjud emas edi. Shimoliyi Rud va Janubiyi Rud tumanlaridan soliq yig'ish vazifasini Buxoro shahar sadr-rajs xizmatchilari amalga oshirganlar. Qolgan 9 ta tumanni ma'muriy jihatdan tuman qozilari boshqargan. Ko'pgina tumanlar aholi zich joylashgan tuman markazlarining nomi bilan ham ikkinchi nom sifatida yuritilgan. Masalan, Xarkan Rud yoki G'ijduvon tumani kabi. Undan tashqari A. R. Muhamadjonovning ma'lumotlariga qaraganda, Kamat tumani Vobkand, Somejon tumani Romitan deb atalgan.

Amirlikda barcha beklklar ma'muriy markazi bir xil nom bilan atalgan. Aholi yashash joylari sonining ko'pligiga qarab sharqiy beklklar yuqori mavqega ega bo'lgan. Masalan, Boljuvonda 1420, Hisorda 1200, Qorateginda 700, Ko'lobda 635 taga yaqin aholi yashash joylari mavjud edi. Hozirgi Turkmaniston hududidagi beklklarda esa, aholi yashash joylari soni eng kam darajada, ya'ni O'stida 15, Burdaliqda 14, Kelifda esa 24 tadan aholi yashash joylari bo'lgan.

Buxoro xonligida beklklar va tumanlar ma'muriy-hududiy jihatdan turli xil shaklda bo'lingan. Ko'pgina beklklar bir necha qishloqlardan iborat bo'lgan amloklardan iborat bo'lgan. Bir qator tuman va beklklar mavzelarga bo'lingan. Masalan, Dexnav, Pirmast, Xutfar, O'sti va boshqa hududlarda. Xususan, Xutfar tumanidagi mavzelarga kiruvchi bir qator qishloqlar mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, u yoki bu tuman va viloyatning hududi amlok, mavze, guzar va masjid deb atalgan. Har bir mavze 10 dan ortiq masjid deb nomlangan hududiy birliklardan iborat bo'lgan.

Karki bekligi bir necha mavzedan iborat bo'lgan bo'lsa ham, lekin ular bekcha deb nomlangan hududiy birliklardan tashkil topgan.

Nurato bekligi guzarlarga, guzarlar esa qishloqlarga bo'lingan. Shu bilan bir qatorda, Qorategin bekligi rabovlarga, ular esa mavze va qishloqlardan iborat bo'lgan. Sho'g'non va Ro'shon bekligi hududlari oqsoqolliklarga bo'lingan. Undan tashqari Boljuvon bekligining 60 dan ortiq, Qorategin bekligining 30 dan ortiq va Ko'lob bekligining 22 dan ortiq aholi yashash joylari daha deb nomlangan hududiy birliklardan iborat bo'lgan.

Buxoro xonligi davlatchiligi masalalari bilan shug'ullangan xorijlik olimlar amirlik markaziy va mahalliy boshqaruvi massalasida deyarli bir xil fikr bildiradilar. Xususan, J.Kunits bu haqda, "amirning hokimiyati mutloq edi. Turli muassasalar boshliqlari, hokimlar u tomonidan tayinlanar va faqat unga mas'ul edi", - deb yozadi.

Bundan tashqari, muallif mamlakat ma'muriy birlashmalar – viloyatlar, tumanlar va qishloqlarga bo'linishini hamda ma'muriy amaldorlar beklar, amlokdorlar, oqsoqollar deb atalishini ham ta'kidlab o'tadi. Yana "Islom odatiga ko'ra har bir beklikda raislar va unga itoat etuvchilar mavjud edi. Moliyaviy bo'lim esa zakotchilar – markaziy va mahalliy soliq yig'uvchilar tomonidan boshqarilardi. Har qaysi beklik o'zining sud apparatiga ega bo'lib, u bosh qozi va unga bo'ysunuvchi qozilardan, shuningdek muftidan iborat edi. Hamma idoralar amir nazorati ostida edi", - deb ta'kidlaydi.

Angliyalik olim Meri Xoldsvort Buxoro xonligining siyosiy ahvoli, markaziy va mahalliy boshqaruv masalalariga alohida to'xtaladi. M.Xoldsvort "Buxoro va Qo'qonda amirlik yoki xonlik bekliklardan iborat bo'lib, ular viloyatlar deb nomlangan hamda xon yoki amir oilasi bilan qarindosh hokimlar yoki beklar tomonidan boshqarilardi. Viloyatlar Buxoroda tumanlarga, Qo'qonda esa bekliklarga bo'linib, har qaysisi mahalliy hukmdor oilalaridan chiqqan beklar qo'l ostida edi. Oqsoqol yoki miroblar mahalliy amaldorlar bo'lib, ular ijro etuvchi shaxs edilar".

Yana bir ingliz olimi G. Uiler Buxoro xonligida markaziy va mahalliy boshqaruv masalalariga oid quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Buxoro xonligining ma'muriy tizimi temuriylar va abbosiy xalifalik qo'l ostida bo'lgan Movarounnahrning eron-arab ma'muriyatidan meros qolgan". G. Uiler ma'muriy boshqaruv masalasida boshqaruv oddiy va erkin bo'lib, ko'proq soliq va o'lponlar undirishga asoslangan edi, - deb ma'lumot beradi.

Shu bilan birga, Tojikistonlik olim B.Shamsoning mang'it urug'i vakillarini ko'chmanchi xalq sifatida va amirlik boshqaruvining Safaviylar boshqaruvi tizimiga o'xshab ketadi hamda mang'it vakillari faqatgina boshqaruvda ayrim turkiy atamalarni qo'llaganlar degan xulosalariga qo'shib bo'lmaydi. Safaviylar davlatida sadr lavozimi shariat sudi qaroriga ko'ra barcha vaqflarni boshqarish, saidlar, ulamolar, shayx ul-islom va mudarrislariga umumiy rahbarlik qilgan. Devonbegi nomusga tegish va tan jarohati yetkazish bilan bog'liq ishlarni tergov qilgan. Mutavalliy esa, kutubxona, dorixona, oshxona, mexmonxona va boshqa xizmat ko'rsatish sohasini boshqargan.

"Tuhfat ul xoniy"da belgilanishicha, davlat mansablariga eng avvalo, mang'it, xitoy-qipchoq, bahrin, saroy, kenagas, jaloir, o'tarchi urug'larining vakillari tayinlanardi. Muhammad Rahimxon davrida Davlatbiy mang'it (xonning tog'asi) Buxoroning parvonachisi; Xo'jamiyorbiiy (xitoy qipchoq) xonning otalig'i va bosh amiri (amir al umaro); G'aybullabiy bahrin - Miyonqoldagi ettita urug'ning vakili - devon begidir Doniyolbiy mang'it - (xonning katta tog'asi) Mirasadni (xon maslahatchisi), Jahongirbiy-xon jibachisi (moliya va xazina ishini boshqaruvchi), uning o'g'li-Ulug' o'roqchi (hosilning bosh yig'uvchisi); Barotbiy mang'it - (xonning akasi) Samarqand va viloyat hukmdori, Imomquli mang'it-Yakkabog' hukmdori va parvonachi; Nizomiddin Ma'sud- bosh hushbegi; Xudoyor kenagas- Buxoro dodhosi (shahar boshlig'i) etib tayinlandilar va hokazo.

Diniy mansablar quyidagicha taqsimlandi: Mahdumi A'zam Kosoniyning avlodidan bo'lgan Isxoqxo'ja o'runi shohnishin (musulmon dindorlari boshlig'i); Muhammad Islom avlodidan Nasrullo xoja-Shayhulislom; Muhammad Xoja Sayyid Atoiy - naqib; Nizomiddin Husayniy-Buxoro va viloyatning qozi kaloni; Xoja Ahrorning avlodi Shahobiddin Xoja Samarqand va viloyatning shayhulislomi etib tayinlandi va hokazo.

Buxoro xonligining markaziy va mahalliy boshqaruvi bilan bog'liq tarixiy-huquqiy manbalarni tahlil qilish natijalari quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini beradi: birinchidan, amirlik davlat tuzumi sharqiy monarxiya boshqaruviga asoslangan; ikkinchidan, markaziy va mahalliy boshqaruv idoralari o'rtasida muayyan tizim amal qilib, vakolat va vazifalar doirasi aniq belgilangan bo'lgan; uchinchidan, amirlikning turli hududlarida mahalliy boshqaruv o'zini-o'zi boshqarish tartibida amalga oshirilgan; to'rtinchidan, boshqaruvda asosiy yo'nalishlar bo'yicha

mansabdor shaxslarning oʻzga faoliyatga aralashishiga yoʻl qoʻyilmagan; oltinchidan, millatidan qatʼiy nazar barcha fuqarolar davlat boshqaruvida ishtirok eta olgan; yettinchidan, mahalliy boshqaruvda ham markaziy boshqaruv singari muayyan tizimga asoslanilgan; sakkizinchidan; mahalliy boshqaruvdagi oʻzini-oʻzi boshqarish amaliyotidan bugungi kunda tarixiy amaliyot sifatida foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tayanch iboralar

Xonlikning tashkil topishi haqidagi yondashuvlar, Dargoh, xon rutbasi, ijroiya hokimiyati, dunyoviy mansablar, diniy mansablar, joʻybor shayxlari, otaliq, naqib, saroy qutvoli, qushbegi, qoʻshbegi.

Nazorat savollari

1. Buxoro xonligini idora qilgan uch sulola davrida davlat boshqaruvi va mansablar masalasida qanday oʻzgarishlar boʻldi?
2. Davlatning nomlanishi undagi hukmdor lavozim yoki unvoniga aloqadorligi bormi?
3. Joʻybor shayxlarining davlatni idora etishdagi faoliyati haqida maʼlumot bering.
4. Ijroiya hokimiyat vakillari qanday imtiyoz va huquqlarga ega boʻlgan?

BUXORO XONLIGIDA HARBIY ISH VA QOʻSHIN

Reja:

1. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida harbiy ish
2. Mahgʻitlar davrida qoʻshinning ahvoli va Nasrulloxon davrida harbiy islohotlar
3. Qoʻshin tarkibi

Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida harbiy ish. Dashti Qipchoqda Abulxayrxon (1428-1468) boshchiligidagi davlatning parchalanishi tufayli tarqalib ketgan harbiy qoʻshinlar oʻzaro urushayotgan temuriylarga katta mablagʻ yoki mukofot evaziga yordam berishga tayyor edi. Bu harbiy qoʻshinlarga Dashti Qipchoq sultonlari boshchilik qildilar.

Ular oʻz harbiy kuchlari bilan Movarounnahrda temuriylarga yollanib, oʻzaro kurashlarni yanada avj oldirdilar. Masalan, Abulxayrxonning amakivachchasi Baxtiyorning oʻgʻillari – Hamza Sulton va Mehdi Sulton oʻz harbiy guruhlari bilan avvaliga andijonliklarning Samarqandga yurishida yosh Boburga, keyin esa boshqa temuriyzoda –

Boysunqur Mirzoga, undan keyin esa yana o'sha davrda kuchayotgan Dashti Qipchoqdagi Shayboniylar xizmat qilganlar. Umuman Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda kirib kelgan boshqa ko'plab yollanma qo'shinlar keyinchalik Shayboniylarning Movarounnahrda qilgan harbiy harakatlarida faol qatnashib, unga katta yordam berganlar.

Ko'chmanchi qo'shinlar o'ziga xos jang olib borish taktikasini ishlab chiqqan edilar. "Dushmanni o'rab olish" ularning urush olib borishdagi strategik usullaridan biri edi. "Dashti Qipchoqlarning buyuk harbiy san'atlaridan biri "o'rab olish" edi, - deb xabar beradi Bobur, - ularning biror bir muhorabasi o'rab olishsiz bo'lmaydi". Chekinganda esa, qo'shinlar turli tomonlarga tarqalib ketganlar va shu yo'l bilan ta'qib qilayotgan dushmanni to'zitib yuborishga erishganlar.

Yollanma harbiy qo'shinning yetakchisi o'z sarkardasini ilk mag'lubiyatidayoq almashtirishi va kelajakda yangi lashkarboshi qo'l ostida xizmatni davom ettirishi mumkin edi.

Yozma manbalarda qayd etilishicha, eng asosiy jang qurollari o'q va kamon bo'lgan. Oddiy kamon yoy shaklida egilgan yog'ochning ikkala uchini mustahkam ip bilan tarang qilib bog'lash orqali yasalgan. Bu davrda kamoning asosi tashqi tomondan chandir, ichki tomondan silliq muguz yopishtirilgan yog'ochdan iborat bo'lgan. Ba'zida tutqichining o'rtasi va oxiri suyak bilan qoplangan. Bu kamoning o'qi uzoqqa otiladigan alohida, murakkab turi edi. Shu bilan birga, murakkab tuzilishga ega kamonlarning turlari ham turlicha bo'lgan.

Siyosiy qudrati ko'p jihatdan qurolli kuchlarga bog'liq bo'lgan Shayboniylar davlatining poytaxt hisoblangan Samarkandda XVI asrning birinchi yarmida qurol-yarog' yasash ishlari sezilarli darajada rivojlangan. Qo'shin va harbiylashgan qismlar uchun qilichlar, xanjarlar, oyboltalar, jangovar boltalar, sovutlar, dubulg'alar, qalqonlar va turli xildagi qurol-yarog'lar tayyorlangan.

Shayboniylarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan qo'shinda ko'chmanchilarga xos unsurlar yetakchilik qila boshlaydi, chunki ular qo'shinining o'zagini ko'chmanchilar tashkil qilar edilar. Otliq qo'shin tarkibining negizi bo'lgan jangchilar, odatda lashkarlikka qurollangan holda kelishlari kerak edi. XVI asr boshlarida ikki siyosiy dushman temuriylar va shayboniylar qo'shini o'rtasidagi to'qnashuvlarni yoritgan har ikki tomonga mansub muarrixlar o'z asarlarida ular orasida alohida tafovutlar mavjudligini qayd etishmaydi. Har ikki qo'shin ham kamon va

o‘q, qilich va qalqonlar bilan qurollangan. Tanasining turli qismlari sovutlar bilan muhofaza qilingan.

Qurol-aslahalar odatda, mahalliy ustalar tomonidan yasalgan, shuningdek, boshqa, mamlakatlardan ham keltirilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning qayd etishicha, Darbanl qurol-aslahalari ortilgan bir necha tuya Moskvadan Buxoroga kelgan.

Yozma manbalarda XVI asr oxirida Samarqandda qurol-aslahalar tayyorlashga ixtisoslashgan bir qator ustalar tilga olinadi. Bolalarni usta hunarmandlarga shogird tushish munosabati bilan tuzilgan “Majmuai vasoyiq” deb atalgan bitimlar to‘plamida jibatob usta va shogirdlar orasida tuzilgan shartnomalar mavjud. Bu bitimlar Samarqandda imzolangan Mazkur bitimlarning biriga muvofiq, Mulla Temur Mulla Jonmuhammad o‘g‘li o‘z ukasi Ibodullani ikki yil ichida shu soha mutaxassislari uning muvaffaqiyatlarini e’tirof etadigan darajadagi “yarog‘ aslaha tayyorlash san’ati”ni o‘rganishi uchun Ustoz Muhammad Mo‘min jibatobga shogirdlikka beradi. Ikkinchi bitimga muvofiq, Ustoz Navro‘z jibatob to‘rt yil ichida o‘z hunarini Shohmuhammad Ustoz Ramazon o‘g‘li degan bolaga o‘rgatishi kerak edi. Samarqandlik jibatoblarning mahsulotlari mahalliy aholining badavlat toifasiga mansub harbiylar, shuningdek, boshqa shaharlar aholisi tomonidan sotib olingan.

Harbiy anjomlar sifatida ko‘rsatish mumkin bo‘lgan aslahalardan biri harbiylarning boshini himoya qiladigan dubulg‘ani sanash mumkin. Dubulg‘a turli shaklda, kigizdan tikilgan, shuningdek, sovut to‘ri osilgan yoki osilmagan metallardan yasalgan bo‘lishi mumkin.

Lashkar yo‘lboshchilari jangovar otlarining tanasi zirh bilan himoya qilingan. Ularning bir qismi O‘rta Osiyoga yevropadan keltirilib, “farangiy” – “yevropalik” deb yuritilgan. Metallga o‘ralib, yevropacha zirh yopilgan otga askar viqor bilan o‘tirgan.

O‘tochar qurollarning keng yoyilishi va takomillashuvi bilan chopadigan va otadigan qurollarning xususiyati ham o‘zgarib bordi. O‘q kiyim-boshni nisbatan oson teshib o‘tgani tufayli uning shakli bir necha marta o‘zgargan. Lekin XVI asrda ham oldingi asrlarda ma’lum bo‘lgan qurol va qalqonlardan foydalanishda davom etganlar. Yoy-andozlar esa, miltiq qo‘llanila boshlagandan keyin ham qo‘shinning asosiy tayanchi bo‘lib qolavergan.

Jangda, shuningdek, zarba berish uchun qo‘llaniladigan qadimiy qurol-cho‘qmordan ham foydalanilgan. U bir uchida tasma yoki zanjir

bilan osilgan metall soqqa, ikkinchi uchida qo'lga taqiladigan ilmoq bo'lgan qisqa tayoq shaklida edi.

Nayza-yog'ochdan yasalgan uchlik uzun qurol, tarqoq va zich hujum vaqtida qo'llanilgan. Nayzalar uzun va qisqa dastali bo'lgan. Otliq nayzabardorning harakati ko'p jihatdan otning kuchiga bog'liq edi.

Harbiy janglarda, yurishlarda otlar va otliq qo'shin muhim rol o'ynagan. XV asr oxiri XVI asr boshiga mansub mualliflar so'nggi temuriylar hukmronligi davridagi ba'zi bir amirlarning ko'plab "zotli", "xonzodi" otlari bo'lganligi to'g'risida xabar beradilar.

Janglarda qilichning ahamiyati katta edi, shu bilan birga yaqin masofadagi jangda jangovar boltadan ham foydalanilgan. "Tarixi guzidai nusratnoma" asarida yozilishicha, Shyboniixon o'g'li Muhammad Temurga bolta olib, kofirlarga qarshi urushga otalanishni buyugan.

XVI asr birinchi choragidagi ko'plab harbiy to'qnashuvlarning ishtirokchisi va qahramoni Zahriddin Boburning ma'lumotlariga qaraganda o'tochar qo'l quroli – to'fang o'sha paytda Bajour (Afg'oniston) aholisiga ma'lum bo'lmagan. Ular bunday qurolni hech qachon ko'rishmagan va jang boshlanganda, to'fang ovozini eshitib ham parvo qilmay, o'qning ro'parasida turishda davom etgan. Faqat Ustoz Ali Quli va boshqa ba'zi jangchilar to'fangdan o't ochib, o'nga yaqin bajourliklarni yer tishlatganidan keyingina, boshqalar dushman ochayotgan o'tdan o'z boshlarini qutqarish payiga tushadilar. Afg'onistonning ba'zi joylarida to'fang faqat 1519 yilda Bobur qo'shini bilan birga paydo bo'lganligidan kelib chiqsak, mazkur o'q otar qurol bu yerda keng tarqalmaganligi ma'lum bo'ladi.

O'rta Osiyoda harakat qilgan lashkarlarning to'fangni doimiy ravishda qo'llashi XVI asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, bu davrga kelib, stvoli misdan qilingan to'fanglar haqida ma'lumotlar beriladi. Masalan, Buxorodagi viloyat hukmdorlaridan Said Burxon lashkari otryadlaridan biri shunday to'fanglar bilan qurollangan edi. Manbalarda shu davrga oid temir alvonli to'fanglar haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularga ko'ra, bunday qurollar bilan "rumiylar" qurollangan edilar.

XVI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran qo'lda olib yuriladigan o'q otish qurollarini texnik jihatdan takomillashtirish qo'shinni, shu jumladan, yollanma lashkarlarni ham qurollantirishda ham muhim rol o'ynay boshladi. Jumladan, Samarqand hokimi bo'lib turgan Shayboniy Navro'z Ahmadxon (Baroqxon), shuningdek, uning o'g'li Bobo Sulton qo'shinlari

tarkibida miltiqdan o't ochuvchilardan tashkil topgan yollanma askarlar guruhi xizmat qilgan.

To'fangdozlar otgan o'q qalqon, sovut, ba'zida qalqon va sovutni ham baravariga teshib o'tgan. Boburning jang sharoitida alohida ajralib turadigan ba'zi bir zamondoshlari, jumladan, zambarak yasash bo'yicha usta-ustoz Ali Quli to'fangdan yaxshi otgan.

Keyinchalik o'q otar qurollarning takomillashishi va keng tarqalishi bilan urushda asosiy jang vositasi bo'lgan kamon faqat ba'zi mintaqalardagina ikkinchi o'ringa o'tgan.

O'rta Osiyo xonliklari qurolli kuchlari tarkibida kamonchilar mavqeyi keyinchachlik ham salmoqli bo'lgan. XVII asrda ham kamon yengil otliqlarning ot ustida turib nishonga uruvchi tezotar qulay qurol bo'lib qolavergan.

Xulosa qilib aytganda, XVI-XVII asrlarda harbiy ish va qurol-yarog'lar holatida Amir Temur davridagi an'analar saqlanib qolindi. Ayni paytda Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan ko'chmanchi harbiylar taktikasi o'zlashtirildi, shuningdek, ayrim yangi qurollar – to'p, zambaraklar paydo bo'lib, qurol-yarog' yasash hunarlari takomillashdi. Ammo, markazlashgan davlatning barbod bo'lishi tufayli izchil harbiy islohotlar amalga oshirilmadi. Siyosiy tarqoqlik va ichki nizolar tufayli mustahkam muntazam qo'shin tuzish imkoni bo'lmadi, vaqtinchalik yollanma qo'shından foydalanishga zo'r berildi. Bu holat Amir Temur davrida rivojlangan harbiy an'ana va tartiblarni izchil davom ettirishga imkon bermadi.

Mahg'itlar davrida qo'shinning ahvoli va Nasrulloxon davrida harbiy islohotlar. Mang'itlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki yillarda amirlik o'zining muntazam qo'shiniga ega emas edi. Amirlikda mavjud bo'lgan oz sonli harbiylarning asosiy vazifasi amir va uning a'yonlarni qo'riqlash hamda shahar osoyishtaligini ta'minlash ishlari bilan xarakterlanar edi.

Urush vaqtlarida amir buyrug'i bilan xalq lashkarlari to'planib harbiy harakatlarga jalb etilgan. Buxoro xonligida qo'shin tuzilishiga kelsak, Temuriylarning saltanati parchalangandan to XIX asrning birinchi choragiga qadar bu masalada deyarli katta o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Amir Shohmurod hukumronligi davrida qo'shin ikki qanotdan iborat bo'lgan. O'ng qanotda mang'it, kenegas, keroit, do'rman, qo'ng'iroq, qiyot, qirg'iz, xitoy, qipchoq, o'taji, turkman, arlot, qalmoq, uyg'ur, mo'g'ul, qori, hofiz, o'g'lonlardan tuzilgan dastalar tashkil etgan.

Chap qanotda qatag'on, saroy, yabu-yabg'u, bahrin, jaloir, qang'li, yuz, ming, paymon, qarluq, berkut, qo'rchi, arg'un, og'lon, qalliq, fulodchi, qirq, olchin, mojar, chinboy, bedoyil, as, jibirg'in, qilgiy, timoy, masid, tar, bog'lon, iloji, tugut va shogirdpesha guruhlarini joylashgan.

Ta'kidlash joizki, sarbozlikka qabul qilinayotgan yuqorida aytilgan urug'-aymoqlardan qaysi biriga tegishligiga qarab mazkur guruhlariga qabul qilinib, ular aralashtirib yuborilmagan. Bunday urug'larga qarab qo'shin tuzish o'sha davrda hukm surgan Xiva va Qo'qon xonliklarida ham mavjud edi. Demak, XIX asrning boshlariga qadar xonliklarda qo'shin tuzishda urug' – qabilachilik an'analari yetakchilik qilib kelgan.

Mang'itlar sulolasi hukumronligida amir Haydar hukumronligi davriga (1800 – 1826) kelib dastlabki tub o'zgarishlar ro'y berib, ya'ni ma'lum ma'noda muntazam armiya tashkil etildi. Biroq, ba'zi tarixchilar bu fikrga to'la qo'shilmaydilar. Tadqiqotchi B. Ismoilova Buxoro xonligida armiya va harbiy ishlarni tashkillashtirishni ikki bosqichga bo'ldi va I bosqichni XIX asr boshlaridan XIX asrning 30-yillarigacha, ya'ni amir Haydar davrida hisoblab, bu davrni shu sohaga dastlabki asos qo'yilganligi, to'la muntazam armiyani tashkil etilganligini esa II bosqichida amir Nasrullo davriga (1827 – 1860) to'g'ri kelib to 1837 yilda oxiriga yetkazdi, deydi.

Amirlikning doimiy armiyasining tashkil etishga sababalaridan biri bu Rossiyadan 1826 yilda Negri missiyasiga hamkorlik qilib, kuzatib kelgan rus askarlari va kazaklarning Buxoroga kelishidir, degan taxmin bor.

Aslida amir Haydar davrida muntazam armiya tashkil etishga to'la erishilmadi. Chunki meros'ho'rlar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar, ichki nizolar, bo'ysunmas amaldorlarni jilovlash bu ish yo'lida katta to'sqinlik qildi.

Amir Haydar o'z doimiy armiyasini Qarshida tuzishga harakat qildi, chunki bu yerdagi harbiy garnizon eng kuchli edi. U tashkil etgan qo'shinda zobit va harbiy boshliqlar sarkarda maqomiga ega bo'lib, davlat hazinasidan maosh olar edilar. Oylik maoshlar qisman pul, qolgan qismi esa natural tarzda to'lanar edi. Panjsad boshi o'zining belgisiga – bayrog'iga ega edi. Mingboshining yonida doimo bundan kattaroq bayroq bo'lar edi va bu "tug'" deb yuritilgan. Bunday bayroqqa ming kishilik guruh haqli bo'lib, uning boshlig'i hurmatli sanalar, ark darvozasidan otda o'tishga haqli, boshqa zobitlar esa piyoda kirar edilar.

Amirlik artilleriyasi Eronda ishlab chiqarilgan bir necha to'plardan tashkil etilgan bo'lib, ularning uch-to'rttasi lafet (temir suyanchiq)ga ega edi. Qo'shin asosan mahalliy aholi vakillaridan iborat bo'lib hech qanday harbiy tartiblarga rioya etmas edi. Qo'shinning katta qismi Qarshidan sharqda Shahrisabz kenegaslaridan himoyalaniş maqsadida saqlanardi.

Qarshi shahri devor bilan o'ralgan bo'lib, ichkarida qo'rg'on mavjud edi. Viloyatda esa o'nlab qo'rg'onlar bo'lgan. Mavjud Gurdshob, Karki, Sherobod va boshqa bir qancha qo'rg'onlar loytuproq devorlar bilan o'ralgan, ichkarida – ko'handiz (Sitadel) – qal'a bo'lgan. Harbiy harakatlar chog'ida aholi himoyalaniş uchun qo'rg'onga to'planishib turishgan, garnizonlarda 10 tadan 200 tagacha askarlar saqlangan.

Amir Haydar Buxoroga kelgach, Muhammad Hakimbiyga qo'rg'on va qal'alarni doim bekam-ko'st saqlash, devorlarni yetti metr gacha yetkazish, Navro'z kunlari xavfsizlik kunlarini kuchaytirish, qo'rg'on burchaklarida yashash xonalarini qurishga buyruq berib xatlar yozgan.

Qarshi viloyatida harbiy qismlar quyidagicha shakllantirilgan: Saroy urug'idan 500 nafar, ulardan 100 nafari askarlikka, 400 kishi qora ishlar uchun, aymoq jamoasi 300 kishi, arab, o'z qavmlaridan 20 kishidan, qo'shchilar – 50, qatag'on – 6, arlot – 10, yag'du – 20, do'rmon – 4, panjobiy – 20, qorluqlar – 15, xitoyliklar faqat shogirdpeshalikka – 13 kishi, siroblar – 12 kishi doimiy xizmatda bo'lishlari shart edi.

Amir Haydar o'zining bir maktubida Muhammad Hakimbiyga "Yaxshi qobiliyatli shogirdpeshalarni navkarlikka o'tkazing, lekin ularning soni 500 tadan oshmasin, qobiliyatsiz shogirdpeshalarni uyiga haydab yuboring" deb yozadi.

Shogirdpeshalar asosan garnizon va qo'rg'on ichidagi yumushlarni bajarishar edi. Qoracheriklar esa haddan tashqari urushga ko'p jalb etilgan, ba'zan shu tufayli ular o'rtasida noroziliklar kelib chiqqan.

Qo'qon xonligida ham harbiy harakatlar vaqtida qo'shinga jalb etiluvchi yordamchi bo'linmalar – "qoraqozon" va "qoracherik" tartibiga keltirilib, yangi nomuntazam yordamchi bo'linma "qilquyruq"qa asos solindi. Qo'shinda "shogirdpeshalar" bo'linmasi mavjud bo'lib, unga boshqa bo'linmalarning yosh, iqtidorli, o'ziga to'q vakillari saralanib olinib ularga turli jang uslublari, harbiylarning boshqarish san'ati o'rgatilgan.

Buxoro xonligi qo'shinidagi dastalarda askarlar soni bir xilda bo'lmagan. Har qaysi urug' va hudud mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib yoki amirlikdagi nufuziga qarab qo'shin soni belgilangan. Bundan tashqari

qo'shin tarkibida turli davlatlar fuqarolari hisoblangan harbiy asirlar, qullar va boshqa toifa vakillari ham mavjud edi.

Amir Nasrullo (1827-1860) davrida qo'shin tuzilishi quyidagicha qo'rinish olgan edi:

Harbiy asirlardan iborat 80 kishilik guruh, 700 kishilik harbiy bo'linma, ular 7 dastaga bo'linib boshida ellik boshi, bu guruh ham o'nliklarga bo'linib, dahboshi boshqargan va yuzboshiga yordamchi harbiy mansabdor hisoblangan.

Ta'kidlash joizki, Nasrullo mang'it amirlari ichida birinchi bor piyoda sarbozlar tarkibidan to'pchilardan iborat doimiy harbiy bo'linmaga asos soldi.

Amirlikda to'plar bundan ham oldin bo'lishiga qaramasdan ulardan alohida guruh, O'g'lon va Talipoch darvozalari oldida to'pchilarning kazarmalari barpo etilganligi aytib o'tadilar.

Amir Nasrullo tashkil egan to'pchilar tarkibida 14 barabanchi, 14 naychilardan iborat musiqachilar guruhi mavjud bo'lib, har bir yuzlikda ikkita turk namunasidagi barabanchi, 4 ta surnaychi, 6 ta trubachi faoliyat ko'rsatgan. Shunday bo'lsada, amir Nasrullo davrida doimiy qo'shin soni manbalarda turlicha keltiriladi.

Bundan tashqari amir Abdulahadxon davrida keksaygan, kasalmand sarbozlarni qo'shin tarkibidan ozod etish ishlari ancha jonlangan.

Qo'shin tarkibi. Qo'shinning asosiy tarkibini asosan sarbozlar tashkil etib, ularning soni 1868 – 1873 yilgi Buxoro – Rossiya bitimiga ko'ra 12 mingdan oshmasligi kerak bo'lgan.

Amir Muzaffar davridan boshlab sarbozlar ikki guruhga bo'lingan:

1. Shanbegi sarbozlar – bu guruh sarbozlari haftaning shanba va yakshanba kunlari harbiy mashg'ulotlarga qatnashgan.

2. Seshanbegi sarbozlar - bu guruh sarbozlar seshanba, chorshanba va payshanba kunlari harbiy mashg'ulotlarga qatnashgan.

12 ming kishilik sarbozlarning 6 minge "Seshanbegi", ya'ni 6 minge esa "Shanbegi" deb nomlangan. Har ming kishilik sarbozlar guruhi dastalarga bo'linib, sarkardalar boshqargan.

Har bir dastalar ham o'z navbatida 5 ta "Baydoqqa" bo'linib har bir baydoqqa 200 tadan sarbozlar xizmatda bo'lishgan. Baydoqlar 2 ta yuzlikga (yuzlikni yuzboshi boshqargan) 4 ta 50 kishilik guruhga (panjohboshi boshqargan) bu guruh esa dahboshi boshqaruvida bo'lgan 5 tadan harbiy bo'linmaga bo'lingan.

Qo'shin safiga qabul qilish qoidalari deyarli butun sulola hukumronligi mobaynida o'z an'anaviyligini saqlab kelgan. XX asr boshlari, aniqrog'i 1905 – 1920 yillarda yangi tipdagi harbiy qismlarning tashkil etilganligi bois bu an'ana biroz buzilgan.

Qo'shin tarkibiga qabul qilishning turli tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalambor jinoyatchi, o'g'ri, mahkumlar ota-onalar o'z farzandlari ustidan shikoyatlari uchun, qochoqlar evaziga ularning kafilliklari hisobidan sarbozlar qabul qilinganligini aytib o'tish lozim.

Xususan, Buxoro xonligi tarixiga oid hujjatlarning birida: – “Hazrati Sayyidimning muborak boshlariga tasadduq bo'lay! Hazrati amiri g'ufroonishon davrlarida Nosirxon, afg'on yasovuli, oliy zindonga qamalgan edi. Oliy farmoyishga binoan Chorjuyga kelib sarbozlar safiga qo'shildi. Har yili u 50 man g'alla olib hursandchiligidan janob oliylari xaqlariga duo qilmoqda. Uning ko'chi Buxoroi Sharifga qolgan. Mazkur qulingiz, Qoravulbegi janob oliy hazratimni benihoya duo qilib bandalik arzimni bildiramanki, Oliy davlatxonaning quli bo'laman. Qulingiz Buxoroi Sharifga borib navkarlarinigiz safida xizmat qilib, ahlu ayoli bilan birgalikda zoti Oliyini duo qilamiz deb umid qilyapti. Men bir ojiz notavon qulingiz shu sababdan oliy marhamatingiz va roziligingiz ne tariqa bo'ladi degan andisha arzini bildirdim ” deyilgan. Ushbu ma'lumotdan ko'rinadiki, sarbozlarning bir qismi mahbuslardan tashkil etilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, sarbozlikka qabul qilinayotgan paytda unga bir kishidan 3 kishigacha kafil bo'lgan, mabodo askar xizmatdan qochsa, to topilgunga qadar uning kafillari harbiy xizmatga jalb etilgan. Aksariyat hollarda sarbozlikka qabul qilinadigan vaqtda unga uchta kafil tayinlanilgan. Bu hujjat qozi ishtirokida rasmiylashtirilib muhr bosilgan. Xizmatdan qochgan sarbozlar o'rniga uch kafilning xizmatga jalb etilishi quyidagi maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin edi:

- qo'shin tarkibida tartib intizomni saqlab turish;
- qo'shindan qochgan, kafilsiz va bedarak yo'qolgan sarbozlar o'rnini to'ldirish;
- mamlakatda vatanparvarlik ruhining pasayib ketganligi, harbiy xizmatni sharaf emas, balki, davlat majburiyati deb bilish;
- harbiy xizmatning og'irligi;
- harbiy xizmatning obro' va e'tibori yo'qligi;
- daromadi va tiriklikning og'ir sharoiti.

Qo'shin tarkibiga sarbozlikka qabul qilinganlar toifasiga otanalarining o'z farzandlari ustidan qilgan arzlariga asoslanib chaqirilganlarni ham ko'rish mumkin.

Shuningdek, amirlikda o'zga yurtlardan panoz izlab kelganlar, muhojirlar hisobiga ham qo'shin safi to'ldirilib borilgan. Bundan tashqari, ko'ngillilar hisobidan ham qo'shin safi to'ldirib borilgan.

Amirlik qo'shinlari tarkibini o'rganish jarayoni shuni tasdiqlaydiki hatto, 1920 yilga qadar ham ham harbiy xizmatchilar orasida qullar mavjud bo'lgan. Ma'lumki, Buxoroda sarbozlar dastasi dastlab qullardan tuzilgan bo'lib, ular umrlarining oxirigacha harbiy xizmatni o'tashlari majburiy bo'lgan. Nihoyat, 1886 yil amir Abdulahad farmoniga muvofiq boshqa qullar kabi bular ham ozodlik vasiqalarini olish huquqiga ega bo'lganlar. Ma'lumotlarga qaraganda, sarbozlarning ko'pchiligi o'z ozodlik vasiqalarini qo'lga kiritmay amirga bu masalada qayta-qayta murojaat qilishni davom ettirganlar. Qul askarlar alohida o'nliklarda xizmat qilishgan.

Garchi erkin sarbozlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab doimiy qo'shin ko'rinishini olgan bo'lsada, tinchlik vaqtlarida ular shahar tozaligini saqlash, obodonchilik va xatto dehqonchilik ishlari bilan ham mashg'ul bo'lishgan. Bunday sarbozlar harbiy mashq va jang vaqtlaridagina harbiy kiyim hamda qurol-yarog' bilan ta'minlangan. Amir Muzaffar hukumronligi davriga qadar ular tinch vaqtlarda qurol-yarog'larini o'z uylariga olib kelishgan. Shu davrdan boshlab ularning harbiy kiyimida ham o'zgarishlar ro'y bergan. Boshlarida qora uzun shapka (qalandarlarnikiga o'xshash), oq bo'zdan shim, qishda harbiy mundir (kulucha) Buxoro sarbozlarining ko'rinishlarini tashkil etgan. Shim va mundir ikki yilda bir bor almashtirilgan. Oyoq kiyimini har bir sarboz o'zi bilan olib kelishga majbur bo'lgan. Amir Abdulahadxon davriga kelib harbiylarga ikki yilda bir juft etik beriladigan bo'ldi. Harbiy Mundir "Kulucha" yoki "yopiq" bosh kiyimi esa "qo'lochin" deb yuritilgan. Sarbozlar pogonlarida dasta raqami yopishtirilgan edi.

Amir Muzaffarxon vafotidan so'ng amir Abdulahadxon sarbozlar sonini 2000 nafarga qisqartirdi. Shanbegi sarbozlari 4 dasta (4000 kishi) ni, seshanbegi sarbozlari ham shunchani tashkil etdi. Ayniqsa, bu davrda sarbozlarning yana bir guruhi ajralib chiqdi. 4000 shanbegi sarbozlaridan 2000 nafari beshotar miltiq bilan qurollanib ularga "dumbalapur" (ya'ni o'q miltiqning orqa tomonida joylashgan, shuni ham aytib o'tish joizki amirlikda "dumbalapur" nomli to'plari ham mavjud bo'lib ular egalari

ham dumbalapur deyilgan) deb nom berildi. Yuqorida aytib oʻtilganidek qisqartirilgan sarbozlar turkumiga Turkiston general – gubernatorligi tasarrufidan qabul qilingan (asosan Qoʻqon, Jizzax, Samarqandlik)lar kirib ular gubernatorlik bilan kelishuvga asosan ozod etilishi kerak edi. Amir Abdulahadxon hukumronligi davrida rus asirlaridan qabul qilingan sarbozlar deyarli ozod etilgan edi.

Tayanch iboralar.

Toʻlgʻama, pistirma, asosiy jang qurollari, harbiy mansablar, yollanma qoʻshin, jang taktikalari, muntazam qoʻshin, toʻfang, oʻtachar qurollar, sarboz, qoracherik, artileriya, Nasrulloxon harbiy islohotlari, Abdusamad va Muhammad Tabriziy, shanbegi, stshanbegi, dahanapur, dumbalapur.

Nazorat savollari.

1. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida harbiy harakatlar va qoʻshin tarkibida qanday oʻzgarishlar boʻldi?
2. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida harbiy mansablar tarkibida qanday oʻzgarishlar boʻldi?
3. Nasrulloxon qanday asoslarda va kimning yordamida harbiy islohotlar oʻtkazgan?
4. Xonlik qoʻshin tarkibining ijtimoiy tabaqalar boʻyicha shakllantirish holatlarida asosiy eʼtibor nimaga qaratilgan?

BUXORO XONLIGI DIPLOMATIYASI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

Reja:

1. Rossiya bilan diplomatik munosabatlar va savdo aloqalari.
2. Buxoro-Hindiston munosabatlari (XVI-XVII-XVIII asrlar)
3. Usmonli turklar va Buxoro diplomatik munosabatlari
4. Buxoro xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari, tashqi savdo va savdo soliqlari

Rossiya bilan diplomatik munosabatlar va savdo aloqalari. Abdullaxon II tomonidan 1585- yilda Muhammad Ali boshchiligida, 1589- yilda Doʻstum boshchiligida Moskvaga yuborilgan. Elchilar Moskva hukmdori tomonidan iliq kutib olingan. Bu ikki elchilik oldiga oʻrtadagi savdo-sotiq munosabatlarini tartibga solish vazifasi yuklatilgan edi. Elchilar Rossiya podshosi Fyodor Ivanovichga Abdullaxon II ning

buxorolik savdogarlar uchun Moskva davlatidagi barcha shaharlarda erkin savdo qilish imkoniyatini yaratish, Qozon va Astraxanda doimiy bozorlar ajratish iltimos qilingan xatini keltirgan. Rus podshosi bu iltimoslarni to'liq bajarganligi o'sha davr hujjatlarida o'z aksini topgan.

Buxoro va Rossiya o'rtasidagi do'stona aloqalar XVI asr oxirida, xususan Sibir xonligining ruslar tomonidan bosib olinishi tufayli biroz buzilgan bo'lsada, amalda butunlay to'xtab qolmadi. 1589- yili Moskvada bo'lgan Buxoro elchisi Do'stum orqali Abdullaxon II ruslarning Sibir xonligidagi tajovuzini qoralagan va o'z noroziligini bildirgan edi. 1589-yildayoq Buxoroga tatar millatiga mansub Boybo'ri Toychiev boshchiligidagi Moskva elchilari keladi va buxorolik savdogarlarga Sibir shaharlarida katta imtiyozlar yaratishga rus hukumati tayyor ekanini bildirib, ikki o'rtadagi siyosiy kelishmovchiliklarni biroz yumshatishga erishdi.

XVII asrda Buxoro va Moskva davlati o'rtasidagi elchilik aloqalari yanada rivojlandi. Mazkur davrda Buxoro va Xiva elchilari 26 marta Moskvaga tashrif buyurgan bo'lsalar, rus elchilari 9 marta Buxoro va Xivaga kelganlar. Masalan, 1619- yilda Imomqulixonning Odambiy boshchiligidagi elchilari Moskvada, Rossiya podshosi, Romanovlar sulolasining birinchi vakili Mixail Fyodorovich huzurida bo'ldi. Bu elchilik missiyasiga javoban podsho Mixail Fyodorovich tomonidan Ivan Danilovich Xoxlov boshchiligida elchilar Buxoroga jo'natiladi. Lekin bu elchi Buxoroda ushlanib qolganligi va quruq qo'l bilan qaytarilganligi uchun Sibir (Tyumen shahri) orqali 1622- yilda Tobolskka kelgan va Moskvaga borishni mo'ljallagan Buxoro elchisi Balik Chobakov sovuq kutib olinib, rus podshosining Imomqulixonga yozgan xati bilan Buxoroga qaytarib yuborilgan. Bu xatda rus podshosi o'rtadagi aloqalarni davom ettirish taklif etib, elchilarni Moskvaga uzoq Sibir orqali emas, Astraxan orqali yuborishni taklif qilgan.

1716- yil fevralda Buxoro xonligi elchisi Xonquli to'pchiboshi Astraxanga keldi. U bilan birga savdogar Asan bobo, ikki yasovul, xotini va bolalari ham kelgan edi. Buxoro xoni Abulfayzxon Rossiya podshosi Pyotr I (1672-1725)ga 36 nafar rus asirlarini ham ozod qilib yuborgan edi. Buxoro xoni Astraxan ober-komendanti Chirikov nomiga yozilgan yorliqda o'zaro yaxshi qo'shnichilik aloqalari va savdo-sotiq aloqalarini davom ettirish maqsadida elchi yuborayotgani bildiradi. Shuningdek, ushbu elchilik orqali Rossiyaning Kaspiy dengizi sharqiy qirg'oqlarida shahar-qal'alar qurish rejasini qo'llab-quvvatlashini ham bildiradi. Demak,

Buxoroda Pyotr I tomonidan Kaspiy dengizi qirg'oqlarida qal'a-istehkomlar qurilayotgani haqida xabardor bo'lganlar.

1716- yil 16- martda Pyotr I tomonidan Abulfayzxon nomiga yozilgan yorliqda A.Bekovich-Chyerkasskiy ekspeditsiyasi "Rossiya davlati va Buxoro xonligi uchun umumiy manfaatlarga asoslangan zarurat" tufayli yuborilganligi va shuning uchun ham A.Bekovich-Chyerkasskiy hurmatini joyiga qo'yishni so'ragan. Ushbu yorliqni A.Bekovich-Chyerkasskiy Xiva missiyasini yakunlagach, Buxoro xoniga yetkazishi ko'zda tutilgan edi.

1716- yil aprelda A.Bekovich-Chyerkasskiy ekspeditsiya tayyorgarligini ko'rish jarayonida Astraxanda Buxoro elchisi Xonquli to'pchiboshi bilan uchrashgan va bu to'g'rida Pyotr I ga xat yozgan. Unda Xonquli to'pchiboshining iltimosiga ko'ra, Rossiyaga dushmanlikda, Turkiya bilan aloqada deya gumon qilinayotgan buxorolik va xivalik asirlarni ozod qilishni so'ragan. Bu paytda Pyotr I Sharqiy Prussiyada edi. Xatni olgan Pyotr I uning iltimosini qondirmagan. Biroq A.Bekovich-Chyerkasskiy Xonquli to'pchiboshiga buxorolik va xivalik asirlarni ekspeditsiya yakunlangandan so'ng ozod qilishga va'da bergan.

Buxoro elchisini Rossiya poytaxtida kutib olish va qabul marosimlari ham o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Buxoro elchisi Peterburgga oz masofa qolganda tashrif bo'yicha ruxsat berilishini kutib to'xtashi lozim edi. Belgilangan kunda elchi va uning hamrohlari uchun uchta kareta yuborilgan. Rossiya devonxonasi vakili elchi va uning hamrohlarini sog'salomat etib kelganlari bilan qutlagandan keyin o'zini senatorlar tomonidan kutib olishga yuborilganini hamda mehmonlarni ajratilgan joyga qadar kuzatib qo'yishini bildirgan. Qabul qilingan tartibga ko'ra, kelgan elchi va uning hamrohlari Rossiya devonxonasi vakilini tik turgan holda eshitishlari, unga minnatdorchilik bildirishlari, shoh va vazirlar salomatligini so'rashlari kerak edi. Bir ozdan keyin elchi Rossiya devonxonasi vakili bilan birinchi karetaga, Buxoro savdogari va rus amaldori ikkinchi karetaga, oxun va tilmochoch uchunchi karetaga o'tirishgan. Elchilik sekinlik bilan yura boshlagan, chunki birinchi kareta yonida tilmochoch ham yurib, elchi Rossiya devonxonasi vakili bilan suhbatlashib ketgan. Elchini poytaxtga kirib kelishi bilan uni yo'lning ikki tomonida juda ko'p miqdordagi olamon, piyoda askarlar polki to'plar yonida saf tortib kutib olganlar.

Buxoro elchisi Xonquli to'pchiboshi 1717- yil 26- iyunda Peterburgga yetib kelgan bo'lsa-da, uni qabul qilish 3- iyulga belgilangan.

Senatorlar tomonidan qabul qilingan Xonquli to'pchiboshiga Buxoro xonining maktubini topshirishi so'ralganida u qat'iylilik bilan "Yorliqni xonning xohish-irodasiga ko'ra, shaxsan podshoh Pyotr I ga topshiriladi", degan. Shu boisdan ham Xonquli to'pchiboshini Pyotr I poytaxtga qaytganidan so'ng 1717- yil 20- oktabrda qabul qilgan. Pyotr I bilan uchrashuv uchun elchiga Rossiya devonxonasi o'rinbosari Shafirov karetsi, savdogar Asan boboga esa senat kotibi karetsini yuborilgan. Buxoro elchisi sovg'a-salomlarini 12 nafar askarlar ko'tarib borgan. Bu tantanali jarayonni kuzatishga chiqqan aholi ko'chalarni to'ldirib yuborgan. Abulfayzxonning sovg'asidan tashqari qabul tartib-qoidasiga ko'ra elchi va savdogarning ham alohida sovg'alari topshirilgan. Sovg'alar ichida eng qimmatbahosi sifatida Buxorodan ozod qilib yuborilgan rus qullari e'tirof etilgan. Qabul Senatning yuqori palatasida bo'lib, eshik ro'parasidagi baland joyda Pyotr I tik turgan holda elchini qabul qilgan. Elchi eshikdan kirib, tiz cho'kkan va xon nomidan egilib salom bergan. Xonquli to'pchiboshi Pyotr I ni shvedlar ustidan qozongan g'alabasi bilan qutlagan hamda sovg'alarni topshirgan. Shundan so'ng Xonquli to'pchiboshi "Ishonch yorlig'i"ni topshirgan. "Ishonch yorlig'i"ni Pyotr I ning ishorasi bilan devonxona o'rinbosari Shafirov qabul qilgan. "Ishonch yorlig'i"da Abulfayzxon Xonquli to'pchiboshi elchi sifatida yuborilgani, u Rossiya urf-odatlarini yaxshi bilishi, Buxoro hukumati o'zaro yaxshi qo'shnichilik munosabatlari hamda savdo-sotiqni rivojlantirishdan manfaatdor ekanligi ta'kidlangan. Yorliqdan tashqari podsho nomiga yozilgan xat ham bitilgan bo'lib, unda Astraxanda buxoroliklar asirda ekanligi, Buxorodan ozod qilib yuborilgan 36 nafar rus qullari evaziga ularni ozod qilish so'ralgan edi.

Bu paytda Rossiya poytaxtida Xivaga yuborilgan A.Bekovich-Chyerkasskiy ekspeditsiyasining halokatidan xabardor edilar. Shu boisdan ham Xonquli to'pchiboshi graf Gavril Ivanovichga xat yozib, mazkur qirg'inbarotga Buxoro davlatining hech qanday aloqasi yo'qligini, aksincha Abulfayzxondan maktub olgan bo'lib, unda xon Xivaga rus asirlarini ozod qilish bo'yicha sa'y-harakatlar qilayotgani, Agarda Xiva xoni asirlarni ozod qilmasa, Buxoro davlati urush qilishga ham tayyor ekanligi yozilganini qayd etgan.

Xonquli to'pchiboshi elchiligi Buxoro xonligi va Rossiya davlati o'rtasida savdo-sotiqni rivojlantirish borasida ham yutuqqa erishgan. Jumladan, Pyotr I shu yili Buxoro xonligi tovarlaridan rus shaharlarida boj olmaslik haqida farmon bergan.

Xonquli to'pchiboshi elchiligi 1718- yil martga qadar Peterburgda bo'lgan. Elchilik ortga qaytishida Astraxanda ma'lum muddat ushlab turilgan. Chunki Pyotr I asli kelib chiqishi italiyalik bo'lgan Florio Benevenini elchi qilib tayinlab, Buxoroga birgalikda borishiga qaror qilgan edi.

Rus elchiligini Buxoro xonligiga yuborishga sabablardan biri Abulfayzxonning ushbu masalada o'z elchisi Xonquli to'pchiboshi orqali murojaati edi.

Pyotr I dastlab o'z javob xati-yorlig'ida, 1718- yil 18- martida Buxoroga elchini "Astraxandan Buxoroga bemalol borish" imkoniyati bo'lganda yuborishini qayd etgan edi. Ammo Xonquli to'pchiboshi elchiligini Astraxanga qaytishiga qadar, ya'ni 1718- yil 5- iyuliga qadar Rossiya hukumati rejalari o'zgarib, Rossiya elchisini Buxoroga Xonquli to'pchiboshi bilan birga yuborishga qaror qilgan. Shu maqsadda fors va turk tillarini biladigan F.Benevenini Buxoroga elchi qilib jo'natishga qaror qilingan. Ushbu elchilik bilan shaxsan Pyotr I va uning yaqin yordamchilarini shug'ullangani podsho hukumatining bu elchilikka alohida e'tibordan dalolat beradi. 1718- yil 9- iyulda Pyotr I imzosi bilan tasdiqlangan "Ishonch yorlig'i"da F.Beneveni elchi tariqasida yuborilayotgani, do'stlik va umumiy manfaatlar yo'lidagi sa'y-harakat ekanligi tasdiqlangan. F.Beneveni elchiligining asosiy tarkibi 8 nafar bo'lib, shuningdek xizmatkorlar hamda ko'pgina harbiy qo'riqchilar kuzatuvida edi. Mazkur elchilikdan ko'zlangan maqsad va vazifalar 1718- yil 13- iyulda G.Golovkin va P.Shafirovlar tomonidan imzolangan, 7 banddan iborat quyidagi maxfiy yo'riqnomada o'z aksini topgan edi:

1. Elchi etib tayinlandi. Astraxanda Buxoro elchisiga qo'shilib, tayinlangan mamlakatga birgalikda jo'nash.
2. Yo'lda, ayniqsa Buxoro xonligi hududida, hamma iqtisodiy va geografik o'ziga xosliklarni eslab qolish. Buxoroliklarga sezdirilmagan holda Kaspiy dengizi ulardan qaysi tomonda joylashgani, qanaqa kemalarga egaligi, shaharlar va ularning mudofaa qobiliyatini aniqlash.
3. Diplomatik qoidalarga rioya etilishini qat'iy ta'minlash. Pyotr I shon-sharafiga ziyon yetkazmaslik. Elchini qabul qilish odatlarini so'rab-surishtirish va Buxoro xonligi Eron elchiligiga qanday izzat-ikrom ko'rsatsa, Rossiya elchiligiga ham undan kam bo'lmagan hurmat ko'rsatilishi talab qilish hamda unga erishish.

4. Buxoro xonligi harbiy-siyosiy strategiyasiga jiddiy e'tibor qaratish. Qal'alar, undagi qo'shinlar miqdori, harbiy qo'shinlar tarkibi va ularning holatini aniqlash.

5. Buxoro xonligining ichki va tashqi holatini aniqlash. Xonning kuch-qudratini, xalq ustidan nazorati qay darajada ekanligi, aholisi qo'zg'olon va isyonlarga moyil yoki moyil emasligi, boshqaruv shakli, Eron, Xiva va Turkiya bilan o'zaro munosabatlarini hamda qaysi tomondan harbiy tahdid borligi, qaysi davlat bilan do'stona munosabatda ekanligini aniqlash. Elchi mumkin qadar ko'proq Buxoro xonligi tashqi siyosatiga ta'sir o'tkazishi zarur.

6. Rus – Buxoro savdo munosabatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish zarur. Buning uchun buxoroliklar qanaqa tovarga ega va ularni qayerga sotishini, Buxoro bozorlarida Rossiyaning qaysi mahsulotlariga ehtiyoj borligini aniqlash, ko'chmanchilar hujumi xavfi bor-yo'qligini o'rganish.

7. O'rta Osiyoda oltin qazib olish haqidagi ma'lumot to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash. Qaysi daryolarda oltin borligi, qancha miqdorda oltin olish imkoniyati borligi, kon yoniga borish mumkinligini aniqlash. Shuningdek, maxfiy tarzda Buxoro xoniga qo'riqlash uchun bir necha yuz yoki undan-da ko'proq miqdordagi rus kishilaridan iborat gvardiya taklif qilish. Maqsadlarni amalga oshirish yo'lida Xonquli to'pchiboshi va uning odamlari bilan do'stona aloqada bo'lish.

Umuman olganda, F.Beneveni elchiligiga yuklatilgan vazifa Rossiyaning O'rta Osiyodagi siyosatini, xususan A.Bekovich-Chyerkasskiy ekspeditsiyasi zimmasidagi vazifani davomi edi.

Elchilik Buxoroga 1721- yili etib keldi. F.Beneveni zimmasiga Turkistonga oid harbiy va diplomatik ma'lumotlar yig'ish, ayniqsa Xivaga qarshi Rossiya – Buxoro ittifoqini tashkil etish, bu xonliklar bilan urush bo'lgan taqdirda qancha askar va to'plarni ishga solish mumkinligi, ularning joylashgan yerlarini aniqlash vazifasi yuklatilgan edi. Shuningdek, u Buxoro xoni Abulfayzxonga maxsus rus otryadini taklif etishi hamda Turkiston o'lkasida oltin zahirolari mavjud joylarni o'rganishi lozim edi. F.Beneveni Buxoroda 1721-1724- yillari faoliyat ko'rsatib, Buxoro xonini Xiva xonligini qo'llab-quvvatlamaslikka ko'ndiradi. F.Beneveni elchiligi xodimi N.Miner savdogar niqobi ostida bir necha bor Hirot, Balx va Badaxshonga borib keladi. U amalda elchi F.Benevenining topshirig'ini bajarib, to'plagan ma'lumotlarini Peterburgga yetkazish ishlari bilan ham shug'ullangan.

Mazkur davrda Buxoro xonligi va Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalarida buxorolik Ernazar Maqsudov alohida o'rin tutadi. 1761- yilda savdo karvoni orqali kelgan E.Maqsudovga elchilik talablariga rioya qilinmagani bois Orenburgdan Peterburgga borishga ruxsat berilmagan. 1774- yilda yana u elchi sifatida kelganida Peterburgga qadar borishga muvaffaq bo'lgan va Rossiya imperatritsasi Ekaterina II qabulida bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, E.Maqsudovning mohir diplomatligi tufayli Rossiya imperatritsasining hurmat-e'tiboriga sazavor bo'lgan. Uning 1780- yilgi elchi sifatidagi tashrifi chog'ida Peterburgda yuqori darajadagi e'tibor bilan qabul qilingan. 1780- yil 18- avgustida Rossiya imperatori Buxoro amiriga yozgan xatida Rossiya ilgariidek Buxoro bilan o'zaro munosabatlarni tinch-totuvlikka asoslangan hollarda olib borish hamda savdo aloqalaridan har ikki tomon foydalanishi hamda so'ralgan metall bilan ta'minlanish qayd etilgan edi. Ammo yana Buxoro savdogarlariga nafaqat Orenburgda, balki Rossiyaning boshqa shaharlarida ham savdo qilish bo'yicha so'rovi qondirilmaydi. Chunki Buxoro savdogarlarining Rossiyaning markaziy shaharlarida erkin savdo qilishlari rus savdosi uchun zarar keltirishi qayd etilardi.

1780- yili rus savdogarlari istak va talablariga muvofiq Buxoroda savdo vakolatxonasini ochish maqsadga muvofiq deb topildi. Shu munosabat bilan Orenburgdan Buxoroga 1780- yili Rossiya davlati va umumiy manfaatlaridan kelib chiqib, Buxoroda savdo vakolatxonasini ochish uchun M. Bikchurin boshchiligidagi maxsus elchilikni Orenburgdan Buxoroga yubordi. M.Bikchuringa yuklatilgan vazifalar qatorida Orenburg va Buxoro oralig'idagi yo'lni har tomonlama o'rganish ham bor edi. M.Bikchurin ko'zda tutilgan hamma vazifalarni bajargani holda, Buxoro amirining Rossiya savdo vakolatxonasini ochishga roziligini ololmay qaytdi.

Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'rtasidagi diplomatik aloqalar Buxoro xonligiga nisbatan sustroq ahvolda edi. Xiva xonligi Rus davlatiga o'z elchiligini kamroq jo'natgan. 1750- yili Xiva xoni nomidan elchi bo'lib kelgan Ashurbek Orenburgda o'zini Peterburgga yuborishlarini so'ragan. Ammo tashqi ishlar davlat kollegiyasi 1750- yil 13- avgustida bergan topshirig'ida elchini Orenburgdan Xivaga qaytarish, yorlig'i va sovg'alarini tashqi ishlar davlat kollegiyasi ixtiyoriga topshirish buyurilgan edi. Chunki rus hukumati Orenburg general-gubernatorlarining Turkiston xonliklari va Rossiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan xabardorligini hisobga olib, ularga turkistonlik elchilarni Peterburgga

yuborish yoki yubormaslik masalasini mustaqil hal qilish huquqini berilgan bo'lib, ular ayrim elchilar masalasini Orenburgning o'zidayoq hal qilar edilar.

1761- yili Temirg'ozi Is'hoq Tangriberdiyev Xivadan Orenburgga elchi sifatida etib keladi. U bilan birga elchilik tarkibida yana 5 kishi bor edi. Elchi Tangriberdiyev boshchiligidagi elchilar bilan savdo karvonida 40 ta tuya yuk bo'lib, bu Orenburgdagi yarmarkaga mo'ljallangan edi. Xiva elchisi 1761- yil sentabrda Orenburgga kelib, Peterburgda imperator bilan uchrashish xohishi borligini bildiradi. Uchrashuvdan maqsad tegishli yorliqni topshirish va o'zaro karvon savdosini rivojlantirish edi. Ammo elchiga Peterburgga yuborish bo'yicha ruxsat berilmaydi. Shu bilan birga Xiva savdogarlarini hech qanday to'siqlarsiz Orenburgga kelishlariga ruxsat berilgan.

XIX asr boshlaridan Rossiya hukumati O'rta Osiyo xonliklariga nafaqat diplomatik, balki maxsus ilmiy ekspeditsiyalarni ham yubora boshladi. Rossiya elchiliklari tarkibida, endilikda arxeologlar, tarixchilar, vrachlar va boshqa mutaxassislar ham bor edi. Ularga nafaqat ilmiy vazifalarni bajarish, balki O'rta Osiyo to'g'risida u yoki bu ma'lumotlarni to'plash ham yuklatilgan edi.

Ammo ayni paytda Buxoro, Xiva, Qo'qondan Rossiyaga nisbatan e'tibor faqatgina savdo munosabatlariga qaratilishi davom etardi. Ayni paytda Rossiya hukumati savdo qatori O'rta Osiyoni tubdan o'rganishga kirishgan edi. O'zaro munosabatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro va Rossiya, Xiva va Rossiya, Qo'qon va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda tenglik, sherikchilik alomatlari to'laqonli ishga tushmagan edi. Masalan, 1793- yili Orenburgga Buxoro xonligidan elchi bo'lib kelgan Shohmurod Fayzullabek Maqsudovni Peterburgga borib, imperator qabuliga yorlig'ini topshirishga ruxsat berilmadi. Bunga sabab qilib, elchiga berilgan yorliq diplomatik yozishmalar qoidasiga rioya qilinmaganligida deb ko'rsatildi. Ammo aslida gap boshqa yoqda edi... Buxorolik savdogar Do'stmuhammad Boykishev elchi Shohmurod Fayzullabek Maqsudovni Buxoro amirining josusi deb ma'lumot yetkazgan edi. 1795- yili Shohmurod Fayzullabek Maqsudovni Orenburgdan chiqarib yubordilar, chunki Buxorodan Eshmuhammad Boykishev elchi bo'lib kelgan edi. U imperatorga fil va yorliq keltirib, Buxoro amirining 600 pud mis sotib olish haqidagi iltimosini ham yetkazdi. Oradan bir yil o'tib, Orenburgga Buxorodan yangi elchi ya'ni Maxsum Doniyolov yorliq bilan kelgan. Ushbu elchi Buxoro amirining imperatordan harbiy yordam berish

bo'yicha iltimosini keltirib, xususan Buxoroga 10 ming qo'shin va 50 ta to'p berishlarini so'ragan. Ammo bu elchilik ham Orenburgdan Peterburgga o'tkazilmagan va Buxoroga qaytib ketishiga to'g'ri kelgan. Ammo shuni qayd etish lozimki, M. Doniyolovdan avvalgi elchi Eshmuhammad Boykischev Xo'ja Nazarboyev bilan Peterburgga borishga, imperator huzurida bo'lishga muvaffaq bo'lgan. Rossiya imperatori Buxoro amiri so'ragan 600 pud misni berishga qaror qilgan va shuningdek, amirga bir sandiq kumushdan yasalgan oshxona anjomlari, otaliq va elchiga bir sandiqda kumushdan yasalgan choy idishlari hadya etilgan. Eshmuhammad Boykischev Orenburgda nafaqat elchilik, balki savdo ishlari bilan ham shug'ullangan. Bu yo'nalishdagi xizmatlari uchun Orenburg general-gubernatori G.S. Volkonskiy tomonidan oltin medalga tavsiya etilgan edi.

Rossiya hukumati O'rta Osiyo xonliklari bilan diplomatik aloqalarda o'z elchilarini musulmonlardan tayinlashga e'tibor qaratgan. Bunday holat o'zaro munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etgan.

1799- yili Orenburgga birdaniga Buxorodan ikkita elchi - Ma'sumxon Mirza Abdurasul va mulla Miraloviddinlar kelishgan. Ularga Peterburgga borishga ruxsat berilgan. Elchilar Buxoro amiri Shohmurodning yorlig'ini imperatorga topshirganlar. Unda Buxoro savdogarlariga taqiqlar ko'payib ketgani, xususan savdo karvonlarini Rossiyaning markaziy shaharlariga borishiga ruxsat berilmayotgani qayd etilgan. Ammo bu shikoyat imperator tomonidan yana qoniqtirilmagan.

1801- yili Buxoro amiri Haydar E. Boykischevni Orenburgga yuborib, elchi tariqasida Peterburgda imperator qabuliga jo'natgan. Unga Peterburgga borishga ruxsat berilgan. Elchi tomonidan amirning Aleksandr I ni taxtga o'tirishi munosabati bilan yuborgan sovg'asi – beshta tulpor va tabrik maktubi keltirilgan. Amir Haydar yana Rossiya imperatoridan harbiy yordam berishlarini so'rab, ko'chmanchilardan himoya qilishga hamda Xivaga hujum qilish uchun kerakligi ta'kidlangan. Amir Haydar o'z maktubida Orenburgda savdo qiluvchi buxorolik savdogarlar uchun hayvon boqishga yer ajratishni, buxorolik fuqarolarga Makkaga hajga borishda imkoniyat berishni, buxoroliklarning Orenburgdagi uylarini harbiy qo'riqchilardan ozod qilishni so'ragan. Imperator huzurida bo'lgan elchi E. Boykischev ham o'z shaxsiy iltimosini izhor etib, o'g'li Xo'ja Nazarboyga maslahatchi mansabini berishini, qarindoshi Ashur Muhammadga kollej ro'yxatga oluvchisi mansabini berishlarini so'ragan. Aleksandr I amir Haydar iltimosini qondirish bo'yicha 1803- yil 3- martida

Orenburg general-gubernatoriga buxoroliklarni Makkaga borishlariga monelik qilmaslik, ularga pasport berish, buxoroliklar hayvon boqishi uchun Ural bo'ylaridan qulay yaylov ajratish, savdogarlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatma bergan. Shuningdek, Buxoro amiriga qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan oltin soat va ikki to'p, uning vazirlariga chinni choy idishlari, 20 arshin parcha, 10 arshin movut va 5 arshin atlas bergan. Berilgan yorliqda Buxoro amiri Haydarga o'zaro do'stlikni rivojlantirishni taklif qilgan holda, harbiy yordam masalasini javobsiz qoldirgan.

1803- yili Rossiyaga Buxorodan navbatdagi Mirgalaiddin Mirmuhammad Aminov boshchiligida 25 kishidan iborat elchilik kelgan. Buxoro elchisiga Peterburgga borishga ruxsat berilgan. Orenburg general-gubernatori G.S.Volkonskiy Buxoro elchisini Peterburgga kuzatib borish uchun 16 kishini ajratgan. Imperatorga tortiq qilingan arg'umoqlar uchun ham 10 kishi jalb qilingan. Peterburgda elchi vitse kansler A.Chartoriyskiy tomonidan qabul qilingan. M. Aminov Orenburgdan 15 pud po'latni xarid qilishga hamda Buxoroga o'zi va boshqa amaldorlar Astraxanda uylangan tatar xotinlarini olib ketishga ruxsat so'ragan. Elchining bu iltimoslari qondirilgan. Buxoroga qaytgan elchi M.Aminovni amir buyrug'iga asosan hibsga olingan va uni sotqinlikda ayblangan. Ma'lum tekshiruvlardan so'ng M.Aminov aybdor emasligi aniqlanib, ozod qilingan.

Buxoro amirining bunday harakatidan M.Aminov o'zini haqoratlangan hisoblab, ishonchli odamlari orqali rus imperatoriga Rossiya fuqaroligini qabul qilishini so'ragan va Rossiya uchun foydali ma'lumotlar berishini qayd etgan. 1810- yil 14- mayida Rossiya hukumati farmoniga binoan M.Aminov Simferapolda otliq tatar polkiga xizmatga qabul qilingan. Bunday holatlar ko'p marta sodir bo'lgan. Masalan, mansabdor maslahatchi Do'stmuhammad Boykischevning o'g'li Yoqub chegara komissiyasida tilmoch bo'lib, ruslarga xizmat qilgan.

O'zaro munosabatlarda o'ziga xos nozikliklar ham bor edi. Masalan, Orenburg general-gubernatori G.S.Volkonskiy 1807- yili Buxoroga yangi savdo, diplomatik ekspeditsiya yuborgan. Ushbu ekspeditsiyaga savdogar tatarlar - Ahmad Munasipov va Abdulnosir Subxonqulovlar boshchilik qilganlar. Ushbu elchilik ekspeditsiyasi bilan Buxoro amiriga sovg'alar qatori maktub ham bor edi. Orenburg general-gubernatori Buxoro amiridan qaysi tartibdagi yozishmalar orqali elchilarni qabul qilish bo'yicha o'zaro shartnoma tuzish zarurligini taklif qilgan. Bundan maqsad o'zaro elchilar almashuviga, vakolatiga ishonch bo'lishi ko'zda tutilgan

edi. Elchi tatarlar zimmasida yana Buxoro qo`shinlari ahvolini ham aniqlash ham yuklatilgan edi. Orenburgdan yuborilgan elchilar keltirgan maktub bilan tanishgan amir, elchilarni qabul qilishdan bosh tortgan. Chunki general-gubernatorni davlat boshlig`iga murojaati tenglikka asoslanmagan edi. Buxoro amirining fikricha, “qadim zamondan hukmdor hukmdorga xat yozadi, vazir esa vazirga” aqidasiga amal qilinishi lozim edi.

Shunday hollar ham uchrardiki, Rossiyaga Buxorodan keladigan elchilar amirning vakolatisiz, soxta yorliqlar bilan ham kelganlar. Masalan, G.Navro`zjonov va M. Muhammad Shariflar 1807- yili Orenburgga Buxoro amiri yorlig`i bilan elchi sifatida kelganlar. Ammo G.Navro`zjonov va M.Allayorovlarning yorliqlari soxta bo`lib chiqqan. Shundan keyin M.Allayorov tezda Buxoroga qaytgan. Ammo G.Navro`zjonov Buxorodagi qarindoshlariga xat yozib, unga haqiqatan ham Buxoro elchisi degan yorliq yuborishlarini so`raydi. 1807-1809- yillar davomida G. Navro`zjonov savdo ishlari bilan shug`ullanib turgan. 1809- yil boshlarida Orenburgga buxorolik savdogar S. O`zbekxo`jayev G.Navro`zjonovga yorliq olib kelgan. Ammo baribir G.Navro`zjonov elchi sifatida tan olinmay, 1811- yili Buxoroga qaytgan.

1809- yil 17- oktabrda Orenburgdan A.Subxonqulov va uning yordamchisi B. Rahmonqulov boshchiligida Rossiya elchiligi Buxoroga yo`l olgan. Ushbu elchilik zimmasiga kimlar va qaysi muddatga savdo uchun Buxoroga kelayotganini, amaldorlardan Amudaryo va Sirdaryoda kema qatnovini yo`lga qo`yishga xohish bor-yo`qligini aniqlash hamda Buxoro amiriga Rossiya imperatorining elchilar nomiga bergan yorlig`ini, tashqi ishlar vaziri N.P.Rumyansev va G.S.Volkonskiyning ikkita maktubini topshirishlari kerak edi. Shuningdek, A.Subxonqulov zimmasiga Buxoroga boradigan yo`l masofasi, dam olish joylari, turli xalqlar, xususan qoraqalpoqlarning Rossiyaga munosabatini aniqlash vazifasi ham topshirilgan edi. 1810- yil 28- yanvarda A.Subxonqulov Buxoro amiri Haydar tomonidan qabul qilingan. Amir Haydar Rossiya imperatori tashqi ishlar vaziri N.P.Rumyansevn, Orenburg general-gubernatori G.S.Volkonskiylarning tegishli tarzdagi yorliq va xatlari bilan tanishib chiqib, faqat imperatorga javob xati yozgan hamda qolgan xatlarga ham javob ushbu maktubda ekanligini ta`kidlagan. Buxorodan qaytgan A.Subxonqulov tomonidan yig`ilgan materiallar Davlat kengashi a`zolarida qiziqish uyg`otib, uni Peterburgga hisobot uchun chaqirilgan.

Buxoro-Hindiston munosabatlari (XVI-XVII-XVIII asrlar).

Boburiylar davlati Buxoro xonligining janubiy qo'shni davlati bo'lib, bu ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy munosabatlar qizg'in dovom etib kelgan. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy iqtisodiy diplomatik munosabatlar asosan XVI-asrning 70 yillaridan boshlab muntazam ravishda dovom etib kelgan.

Bu haqida N. Nizomiddinovning XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari kitobida diplomatik va iqtisodiy munosabatlar haqida keng mulohaza yoritilgan. Ikki davlat o'rtasida ilk elchilik munosabatlari bir necha marta bo'lgan. Demak ulardan – 1572 yili Hindistonga Abdullaxonning birinchi elchisi Xo'ja Oltamish yuboriladi. Keyingi ikkinchi elchilik ham Abdullaxon II tomonidan yuborilib. Bu safar Abdiraxm boshchiligidagi elchilar yo'boriladi. Keyingi elchilar esa 1579 -yili Abdullaxon saroyiga sunniy mahzabdagi Mirza Po'lat boshchiligida hind elchilari yuborilgan. Uzoq yillardan so'ng Akbar Buxoroga elchi yuborishga qaror qiladi. 1597- yili 17 mayda Hindistondan Buxoroga Xo'ja Ashraf Naqshbandiy boshliq elchilar yo'lga chiqadi". Demak XVI asrning ikkinchi yarmidan XVII asrning boshlarigacha, Shayboniylar so'lola hukumronlik yillari yani Abdullaxon II davrida Buxoro xonligi bilan Boburiylar davlati o'rtasida olib borilgan elchilik munosabatlar muntazam ravishda dovom etib turgan. Bunda har ikki davlat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarining yo'lga qoyilishida manfaatdar bo'lganligini bilish mumkin.

Keyingi elchiliklar esa Ashtarxoniylar so'lolasi hukumronlik davri bilan bog'liqdir. Ashtarxoniylar hukumronlik qilgan davrda ham Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasida qizg'in diplomatik aloqalar mavjud bo'lgan. Ulardan – Hindistonga 1632- yili Vaqqos Hoji, 1633- yili Tarbiyatxon boshchiligida hind elchilari Balxgacha, uzoq vaqtdan so'ng Buxoro xonligidan Xo'ja Ahmad al- Husayniy 1661- yili 27 nayabr, undan so'ng esa Kuchakbek 1663- yili hind shohi qobulida bo'lganlar. Buxoro xonligiga esa 1665- yil iyulda Mustafaxon Hofi elchiligi qabul qilingan. 1669- yili 11- may Hindistonga Buxorodan Rustambiy boshchilik elchilar kelgan, unga javoban 1670- yili may oyi Hindistondan Yakkatozxon elchiligi, so'ng 1671- yili Buxorodan Muhammad Sharif elchiligi Hindistonga, 1685- yili Buxoroga Zabardastxon, 1688-1689- yili Nazarbiy Hindistonga, 1714-1715- yili Sultonbiy elchiligi Hindistonga" kelgan. Bu kabi oliy darajadagi elchilik munosabatlar esa, birinchi navbatda siyosiy, iqtisodiy savdo munosabatlarning manfaatlarini ko'zda tutganligini bilish

mumkin.

Buxoro xonligi bilan Boburiylar davlati iqtisodiy (savdo) munosabatlarida asosan tovor mahsulotlarni Hindistondan dorivorlar, har xil boyoqlar, choy va Buxoro xonligidan esa quruq va ho'l mevalar asosiy mahsulotlar hisoblanganligini keltirib o'tish joiz. Olimlarning aniqlashicha Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasidagi savdo munosabatlar esa asosan 3 xil asosiy shakli mavjud ekanligini e'tirof etiladi.

1.Xususiy savdo.

2.Xonlikning maxsus vakillari vositachiligida olib boriladigan savdo.

3.Podshohlar o'rtasidagi bir-birlariga to'hfa va hadiyalar yuborish yo'li bilan mol ayirboshlash.

Xususiy savdogarlar, asosan xalq ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovor mahsulotlari bilan savdo qilganlar. Bunda quydagi ma'lumotlarda ham tasdig'ini topadi. Ular XVI-XVIII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda, Hindistondan Buxoro bozorlariga turli xil matolari (jomavar, chire, gujorat,) lak va boyoqlar keltirilgan, Buxorodan Hindistonga ho'l va quruq mevalar, ot, tuya, ipak matolari, sukno, qunduz terisi, har xil chinnilar, zig'irpoyadan to'qilgan rus matosi va boshqalar keltirilgan.

Demak xususiy savdogarlar xalq orasida yurganligi bois raiyat xalqining extiyoji uchun zarur bo'lgan tovor mahsulotlari bilan savdo qilishganligini tasavur qilish mumkin. Lekin u yoki bu davlat ularning havfsizligi taminlamagan.

Yo'qorida savdoning ikkinchi shakli esa birinchisidan tubdan farq qilgan. Bu xildagi savdogarlar maxsus farmon bilan boshqa bir o'lkalarga yuborilganligidir. Ularga asosan xonlar, juyboriy shayxlar, saroy amaldorlari va mansabdor shaxslarga yuklatilgan. Demak quydagi asarda keltirilishicha bularga asosan saroy extiyojlari uchun turli xil quruq va ho'l mevalar, shuningdek matolar (kimxob, zarbob,) nodir buyumlar, qo'nduz po'stinlari, morj tishi, chinni asboblar, qipchoq otlari, tez yurar tuyalar, ov qushlari va boshqalar buyum mahsulotlar bilan savdo qilishganini keltirib o'tadi. Unda bu shalkda savdo esa saroy amaldorlari uchun savdo qilganligi ma'lum bo'ladi. Bundan tashqari bu shalkdagi savdogarlarga esa, keng imtiyozlar berilgan hamdir.

Uchunchi shakldagi savdoda esa xon, podshoh, yoki amirlar tomonidan uyushtirilgan. Bu shakldagi savdo sovg'a solom, hadya to'hfalar yuborish yo'li bilan olib borilgan, bu esa Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasidagi iqtisodiy savdo munosabatlarida muhim

ahamiyat kasb etganligini bilish mumkin.

Ulardan Hindistonga kelgan Imomqulixon elchisi Abdirahimxo'ja turli sovg'a-salomlar bilan birga Jahongirga bir yirik la'l tuhfa qilgan. Jahongir ham Abdirahimxo'jaga 40 ming rupiya pul va har biri 1500, 1000, va 500 misqol og'irlikdagi uchta oltin "kavkabi toli" hadya etgan. Demak yo'qorida keltirilgan tuhfalarda asosan qimmatboho, la'l, olmos bilan almashinib turganligini bilish mumkin.

Yana bir elchilik munosabatlarda Abdilazizxon tomonidan hadiya qilib yuborgan qimmatli 40 ming rupiyalik la'l evaziga, Avrangzeb elchisi Mustofoxon Abdilazizxon saroyiga bir lakx va ellik ming rupiya qimmatiga barobar oltin suvi yuritilgan egar jabduq, jamdar quroli, qimmatboho qilich, qalqon, o'qdon, bir fil va turli matolar keltirgan .

Endigi savdoda esa asosan qurollar, har xil matolar va xon uchun zarur mol- tovor mahsulotlar bilan savdo qilishganini bilish mumkin.

Xulosa o'rnida Buxoro xonligi va Hindiston (Boburiylar sulolasi hukmronligi davrida) o'rtasida olib borilgan elchilik munosabatlar va iqtisodiy munosabatlar bir-biriga chambarchas holda olib borganligini bilish mumkin.

Usmonli turklar va Buxoro diplomatik munosabatlari. Uzoq o'tmishga taqalgan O'rta Osiyo va Usmoniylar davlatlari o'rtasidagi siyosiy munosabatlar Usmoniylar sultonlarining tashabbusi natijasida XVI asrda qayta jonlandi. Eronning Usmoniylar davlatiga qarshi tajovuzlar siyosatini bartaraf qilish uchun 1514-yil avgust oyida Usmoniylar sultoni Salim I (Yovuz)ning (1512-1520) Muhammadbek orqali Shayboniylar hukmdori Ko'chkinchixonga (1510-1530) yuborgan maktubi ikki davlat o'rtasida siyosiy munosabatlarning o'rnatilishiga yo'l ochdi. Usmoniylar sultoni Sulaymon (Qonuniy) (1520-1566) va Shayboniylar hukmdori Ubaydulloxonning (1533-39) Eronga qarshi birgalikda kurashish maqsadida qilgan harakatlari bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning kuchayishiga olib keldi. 1529-yildagi Usmoniylar Avstrya urishi usmoniylardan Eron masalasini ikkinchi o'ringa surishni taqazo qildi. Lekin 1533-yil Usmoniylar davlati Avstrya bilan sulh shartnomasi imzolanganidan so'ng Eron masalasiga yana o'z etiborini qaratdi. 1548-yil Shayboniylar hukmdori Abdulatif (1540-1551) Sulaymon Qonuniyning Eronga qarshi birgalikda kurashish taklifini qabul qilib undan qurol yaro'g' yuborishni so'raydi. Tadqiqodlarda ko'rsatilishicha Istanbuldan yuborilgan qurol-yarog'lar Samarqandga yetib kelganda Abdulatif vafot

etgan edi. Natijada uning Usmoniylar bilan birga Eronga qarshi harbiy yurish rejasi amlga oshmadi.

1556-yilda Shayboniylar hukumdori Baroqxon (1540-1556) Istanbulga elchilari Muboriziddin Qutlug' Fulodiy va Nizomiddin Ahmadlarni yuborib jo'natilgan qurol-yarog'larni olganligini va mamlakat ichkarisidagi siyosiy vaziyat barqarorlashgan Eronga yurish boshlashi mumkinligini ma'lum qiladi. Ammo, Sulaymon I Eron bilan Amasiya shartnomasi imzolanganligi (1555yil) tufayli harbiy yordam bera olmasligini bildiradi. Sulaymon I ning bunday javobi Shayboniylar va Usmoniylar davlati o'rtasidagi siyosiy munosabatlar XVI asrning oxirlariga kelibgina qayta jonlanishiga sabab bo'ladi. Usmoniylar sultoni Murod III (1574-1595) Buxoro xoni Abdullaxon II ga (1583-1598) qurol yarog' yuborib Safaviylarga qarshi birgalikda kurashishni taklif qiladi. Abdullaxon II Usmoniylar sultonining taklifiga rozi bo'ldi. Eronga qarshi urush davom etayotgan bir paytda Safaviylar Usmoniylar sultoni bilan sulh tuzishga muvoffaq bo'ldi. Usmoniylarning urushdan chiqishi Shayboniylar bilan siyosiy aloqalarining susayishiga sabab bo'ldi. Natijada ma'lum bir mudatgacha bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda turg'unlik davri hukm surdi.

1639-yilda Usmoniylar sultoni Murod IV (1623-1640) Ashtarxoniylar hukumdori Imomqulixon (1611-1642) elchi yuborib Eronga qarshi birgalikda hujum qilishni taklif qiladi. Uning taklifiga Imomqulxon qanday javob berganligi haqida manbalarda ma'lumot uchramasa ham shunisi ma'lumki bu davrda Imomqulixon va Eron shoxi Abbos o'rtasida yaxshi munosabatlar yo'lga qo'yilgan. 1690-yilda Ashtarxoniylar va Usmoniylar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirish maqsadida Subxonqulixon (1681-1701) Sulton Sulaymon II (1687-1691) huzuriga elchilarni yuboradi. Shundan so'ng manbalarda ko'rsatilishicha sulton Ahmad II ning (1691-1695) elchisi mustafo Choush Subxonqulixon huzurida bo'lgan.

XVIII asrning oxirlariga kelib Usmoniylar davlati O'rta Osiyo xonliklari bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor edi. 1779-yilda Buxoro amiri Doniyolbiy (1759-1784) Ernazar Masud o'g'lini dastlab chor Rossiyasidagi so'ngra esa Usmoniylar davlatidagi elchisi qilib tayinlaydi. Ernazar Masud o'g'lining zimmasidagi asosiy vazifasi o'sha vaqtlar musulmon dunyosidagi qudratli davlat Usmoniylar bilan aloqani mustahkamlash bo'lgan. Ernazar Masud o'g'lini Yekaterina II buyrug'i bilan Usmoniylar davlati chegarasigacha maxsus soqchilar kuzatib

qo'yadi. Usmoniylar sultoni Abdulxamid I (1774-1789) Doniyolbiyning elchi orqali bildirgan, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash zarurligi to'g'risidagi fikirlarni maqullaydi. Doniyolbiy 1783-1784 yillarda ikkinchi marta Usmoniylar sultoni Abdulhamid I huzuriga elchi Muhammad Sharifni jo'natadi. Bunga javoban 1786 yilda sulton Abdulhamid I huzuriga elchisi Mahmud Said og'a orqali Buxoroga yo'llagan maktubida chor Rossiyasi bilan savdo-sotiq aloqalarini olib borayotgani uchun o'rtadagi munosabatlarning tiklanishidan manfaatdor emasdi. Shuning uchun Buxoro amiri Shohmurod (1785-1800) elchiga: "Moskov kabi qudratli davlat birla kuchlarimiz teng emasdur. Ayni vaqtda Ruslar bilan mujodalaga kirolmaymiz. Bizning hozirgi vaqtda Dushmanimiz Erondir" deb javob beradi. Mahmud Said og'a esa: "Hozir sultonimizning dushmani Moskovdir, Eron ila nizomiz yo'qdir"-deb o'z yurtiga qaytib ketadi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek bu davrda Buxoro xonligi va Usmoniylar davlati manfaatlari hamohang emasdi. Chunki Buxoro xonligi chor Rossiyasi bilan Usmoniylar davlati esa Eron bilan ayni vaqtdagi mavjud munosabatlarni o'zgartirishni xohlamas edi.

1789-yilda Usmoniylar sultoni Salim III (1789-1807) ham chor Rossiyasiga qarshi birgalikda kurashish niyatida Buxoro xonligiga o'z elchilarini yuboradi. Sultonning taklifini keskin rad qilmagan Shohmurod Eron tufayli haj masalasida yzaga kelgan muammolarni birgalikda bartaraf qilish niyati borligini ma'lum qiladi. 1792 yilda Rossiya bilan sulh tuzgan Usmoniylar O'rta Osiya davlatlarini ularga qarshi harakatlarga da'vat etmaslikka majburiyatini oladi. Buxoro hukmdori Amir Haydar (1800-1826) devonbegi Eshmuhammad va Mirzo Muhammad Yusuf qo'rchiboshini maktub bilan Istanbulga yuboradi. Maktubda Amir Haydar O'rta Osiyodagi siyosiy vaziyat xususida to'xtalib Mahmud II dan (1808-1839) shariatga doir kitoblar jo'natishni so'raydi. Ushbu yozilgan maktubning yozilgan vaqti aniq emas, lekin A.A. Semyonov unda qayd etilgan Rossiyaning Fransiya ustidan g'alaba qozonganligi haqidagi jumlagi asoslanib u 1815- yildan keyin yozilgan bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Mahmud II elchisi Xasan Chalabiydan Buxoroga 32 jild kitob yuboradi, zero Usmoniylar sultoni ham ikki davlat o'rtasiagi o'zaro aloqalar rivojlanishining tarafdori bo'lgan. Chor Rossiyasi qo'shinlari Buxoroga bostirib kelayotgan bir payt Buxoro amiri Muzaffarxon (1860-1885) Buxoro muftiysi Xo'ja Muxammad Porsoni Istanbulga yordam so'rab yuboradi. Buxoro elchisi 1867-yil 24-sentabrda Usmoniylar sultoni

qabulida bo'лади lekin elchi sultondan ijobiy natija olmaydi. 1868-yilning aprel oyida amir Muzaffarning ikkinchi maktubi haj safaridan Istanbulga qaytgan Muhammad Porso qo'liga tegadi. U amir Muzaffarning 1868-yil 7-febralda yozilgan jami 14-kishi imzolagan forsha maktubini Usmoniylar sultoniga topshiradi. Usmoniyalr sultoni Abdulaziz bu maktubni muhokama qilmasdan bir qator siyosiy masalalarni hal qilish uchun Yevropaga boradi. U yerdan qaytgach amir Muzaffarning maktubi davlat devonida muhokama qilinadi. Devon Buxoro uchun zarur mutaxassislar va asbob uskunalar yuborish kerak degan qaror qabul qildi. Va ikki davlat o'rtasidagi masofaning uzoqligi orada boshqa davlatlarning joylashgani uchun harbiy yordam berishning imkoni yo'qligini bildirdi.

O'rta Osiyoda chor Rossiyasi hukumronligi to'la o'rnatilgach, hukumat ma'murlari o'lkani Usmoniylar davlati bilan ijtimoiy siyosiy munosabatlar olib borishiga imkon bermaslikka xizmat qildi. 1910-yilda Buxoroning 56-ulamosi maxsus xat bilan Usmoniylar davlatiga murojaat qilib chor Rosssiyasi hukumronligidan xalos qilishni so'ragan.

XX asrning boshlarida Usmoniylar davlatidagi siyosiy faollik O'rta Osiyoga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Ba davrda Usmoniylar bilan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ma'rifiy aloqalar yanada rivojlandi. Arxiv xujjatlarida bu davrdagi ma'naviy ma'rifiy aloqalarga Turkiston ziyolilari boshchilik qilganligi O'rta Osiyoda tuzilgan "Tarbiyayi atfol" jamiyati 1911-yil 15-ta 1912-yil 10-ta talabani Istanbulga yuborilganligi boshqa bir ma'lumotga ko'ra, faqat Buxoro xonligidan 1910-1913-yillarda 75 o'quvchi Istanbulga tahsil olish uchun yuborilganligi ko'rsatib o'tilgan.

Buxoro xonligining tashqi iqtisodiy aloqalari, tashqi savdo va savdo soliqlari. O'rta Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi munosabatlar, savdo aloqalari tarixi uzoq zamonlarga borib taqaladi. Volgabo'yi orqali Rus savdogarlari ham, O'rta Osiyo savdogarlari ham ikki mintaqada o'rtasida savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaganlar. XVI asrda jahondagi yirik davlatlar tomonidan dunyoni bo'lib olish boshlangan davrda Rossiya Qozon, Astraxan, Sibir xonliklarini zabt etadi. Natijada Rossiya va o'zbek xorliklari bir-biriga bevosita qo'shni bo'lib qoladi. Bu holat ularning o'zaro munosabatlarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratdi. O'rta Osiyoning savdo-hunarmandchilik doiralari o'z mahsulotlarini, ayniqsa, ipak, paxtadan to'qilgan matolarni talab qilayotgan Rossiya bilan savdo-tijorat munosabatlarini rivojlantirishdan g'oyat manfaatdor edi. Rossiyaning movut, temir, mis, mo'yna, charm va boshqa mollari O'rta Osiyoda xaridorgir edi. Savdo-sotiq ishlari uchun

qulay shart-sharoit yaratishda o'zbek xonliklari va Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari muhim o'rin tutardi.

Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Buxoro xoni Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga erishmoqchi edi. Chunki podsho Ivan Grozniy (1533-1584) davrida Rossiyaning mavqei kuchaya bordi. Ivan Grozniy davrida Qozon xonligi (1552), Hojitarxon (Astraxan) xonligi (1556), Volga bo'ylari va G'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Bu hol Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi.

Volga atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiya bo'lib qolgandi. Bu hol ko'p jihatdan qozon tatarlari, orenburgliklar va boshqirdlar bilan din va til yaqinligi bilan izohlanar edi. Shuning uchun ham Abdullaxon II tomonidan 1557 – 1558-yillarda Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar Astraxan orqali Moskvaga borib, Ivan Grozniy huzurida bo'ladilar. Ular o'z xonlari nomidan savdogarlarning Volga bo'ylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar. Elchilar Moskvadan juda ko'p o'q-dori, ov qushlari va matolar bilan qaytganlar.

Ayni paytda, Rossiya ham Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik avvalo Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan esa, Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bunda birinchi navbatda Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olingan edi. 1555-yili Moskvada tashkil etilgan va ingliz-rus iqtisodiy aloqalari rivojiga xizmat qiluvchi "Moskva savdo kompaniyasi" Rossiya orqali Sharqqa yo'l ochish uchun o'z vakilini 1558-yili Xiva va Buxoroga yuboradi. Antoniy Jenkinson boshliq elchilar rus podshosining guvohnomasi bilan 1558-yili Buxoroda keladi. Elchi Antoniy Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan qabul qilinadi. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini chuqur o'rganadi va o'z taassurotlarini "Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat" nomli esdaliklarida bayon etadi.

Antoniy Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o'rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yiladi.

Antoniý Jenkinson sayohatining maqsad va vazifalari tarixchilar tomonidan bir qadar o'rganilgan, ammo tadqiqotchilar bu masalaga har xil yondashganlar. Masalan, Yu. A. Sokolov, "Moskva savdo kompaniyasi"ning asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, Rossiya Hindistonga Sharq bilan savdo aloqalari olib borgan yo'llari orqali kirib borishi lozim edi, deb hisoblab, quyidagicha yozgan: "Inglizlarning Rossiya orqali Hindistonga kirib borish yo'lini qidirib topish ishiga kompaniyaning eng faol vakillaridan biri Antoniý Jenkinson asos solgan".

Demak, A. Jenkinsonning O'rta Osiyoga sayohat qilishidan asosiy maqsad, xonliklar orqali Hindistonga boradigan eng yaqin va qulay yo'lni topishdan iborat bo'lgan. U O'rta Osiyoda savdo ishlarini yo'lga qo'yish niqobi ostida Buxoroga borishga ruxsat olgan.

Rus olimi S. V. Jukovskiy Jenkinsonning Buxoroga borishi haqidagi fikrlarini bayon qilib, quyidagicha yozadi: "Jenkinson chindan ham Ivan Grozniyning ishonchiga sazovor bo'la olganmi, Ivan Grozniy esa inglizlarga yoqish uchun uni O'rta Osiyoga borishiga ruxsat berganmi, buni aniq aytish qiyin. Jenkinsondan balki podsho Ivan Grozniy foydalangandir va 1557-yilda Rossiyada erkin savdo qilishlari uchun ruxsat so'rab, hadya va tortiqlar bilan Moskvaga kelgan Xiva va Buxoro elchilik missiyasiga javob tariqasida uni Buxoro va Xivaga elchi qilib yuborgan bo'lsa kerak".

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Jenkinson Moskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi va bu borada S. V. Jukovskiyning ikkinchi fikri haqiqatga yaqin bo'lsa kerak, ya'ni rus podshosi O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini o'rnatish maqsadida ingliz savdogari Jenkinsonga rasmiy yorliq bergan. Jenkinsonning Rossiya nomidan Xiva va Buxoroga jo'natilishi Rossiyaning O'rta Osiyo savdosida ma'lum bir manfaati bo'lganini tasdiqlaydi va Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga yo'l ochgan.

1558-yil 23-dekabrda Antoniý Jenkinson Rossiya podshosi Ivan IV ning ishonch yorlig'i bilan Buxoroga keladi va 26-dekabrda Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan qabul qilinadi.

"26-dekabrda, - deb yozadi Jenkinson, - men xon huzurida bo'lish to'g'risida farmon oldim. Xonga rus podshosining yorlig'ini topshirdim. Xon meni juda yaxshi qarshi oldi va o'z huzurida bo'ladigan ziyofatga taklif etdi. Meni bir necha marta huzuriga chaqirtirib olib, o'zining xilvatxonasida podshoning kuch-qudrati, turk sultoni to'g'risida,

shuningdek, mening mamlakatim va uning qonunlari hamda diniy e'tiqodimiz haqida men bilan bafurja suhbatlashdi...”.

Antoniya Jenkinson Buxoroga qilgan sayohatini yozib qoldirgan. Jenkinsonning xatlarida Buxoroning o'sha zamondagi Rossiya to'g'risida qanday tasavvurda bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar bor. Bu xatlardan o'sha zamondagi Buxoro to'g'risida ham tasavvur hosil qilish mumkin. Unda u XVI asrdagi Buxoroni tavsiflaydi. Elchi Buxoroda savdoning holati bilan tanishadi.

Jenkinson: “Buxoro shahrida savdogarlarning har yilgi yig'ini bo'lib turadi, u yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa davlatlardan katta karvonlar bilan savdogarlar tashrif buyuradilar”, - deb yozib, yana “ilgarilari yo'llar xavfsiz bo'lgan paytda Xitoydan ham katta karvonlar” kelganligini qo'shib qo'yadi.

Buxoroning dunyodagi savdo markazlaridan biri ekanligini tan olgan ingliz sayyohi bu shahardagi chet el savdogarlari tomonidan olib boriladigan savdoning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltiradi. Jenkinson bu savdogarlarning faqirlarcha kiyinganliklarini, ularning juda kam mol keltirishlariga qaramay, bu mollarning 2-3 yillab sotilmay yotishini alohida eslatib, kelajakda bu yerda foydali savdo olib borishni kuchaytirish uchun arziqli hech qanday umid yo'qligini ham aytib o'tadi.

Jenkinsonning bu gaplariga ishonish biroz qiyin. Aftidan kelajakda savdoda raqobatchi bo'lishi mumkin bo'lgan savdogarlarni bu savdodan chalg'itmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak.

1959 yilning sentyabr oyida Jenkinson Moskvaga qaytgan va u bilan birga Buxoro, Balx, Urganch elchilari ham birga bo'lishgan. Antoniya Jenkinsonning missiyasini S. V. Jukovskiy “professor Bartold ta'kidlaganidek, o'zbek xonliklari va Rossiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning boshlanishi deb hisoblash kerak”, - deb yozgan edi.

Tarixchi P. P. Ivanov missiyani baholab, “Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni Jenkinson kashf etmagan. Jenkinson bilan Moskvaga kelgan savdo karvoni 1000 tuyadan iborat bo'lgani, avvaldan Moskva – O'rta Osiyo savdo munosabatlari an'anaviy darajada bo'lganidan dalolatdir”, deb yozgan edi. Haqiqatdan ham, 1556 yilda Astraxan bosib olinganda, u erda O'rta Osiyo savdogarlari bo'lgani ma'lum. Ular o'z tovarlari bilan Moskva davlati ichkarisigacha kirib borganlar. Bu borada, P. P. Ivanovning mulohazasi haqiqatga yaqin.

Jenkinsonning maktublari Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlari qadimdan borligini tasdiqlaydi. Ammo Buxoro va kelgindi

savdogarlarning kambag'alligi to'g'risidagi gapga qo'shilib bo'lmaydi. O'sha davrda Rossiyada ko'pgina boyliklarni o'z qo'liga kiritib olgan savdogarlar bor edi. Masalan, Stroganovlar shu qadar boy edilarki, ular davlatga aksari qarz berar va davlat ehtiyojlari uchun ko'p pullarni ehson qilardilar. Podshoning ularga bergan yorlig'iga binoan, ular o'z ehsonlarini qaytib olmas edilar. 1558 yili Jenkinson Buxoroga sayohat qilgan mahalida, Ivan Grozniy Stroganovlarning iltimosiga binoan, Kama daryosining etagiga qarab 14,6 chaqirim o'rmon, o'tloq erlarni ularga in'om qilgan.

Ma'lumki, Stroganovlar sibiriy xalqidan bevosita sotib olingan mo'yna-savsar va tuzfurushlik bilan katta savdogarchilik qilar edilar. Bu mo'yna-savsarlar ular uchun xaddan tashqari ko'p foyda manbai edi. Stroganovlar Buxoro bilan oldi-sotdi qilardilar.

Buni Stroganovlarning, to'rt odamimizni savdo-sotiq ishlari uchun Buxoroga borishiga ruxsat bering, deb Ivan Grozniyga yozgan yorlig'idan bilish mumkin. Jenkinsonning boy Stroganovlar gumashtalarini "kambag'al-qashshoq" deb aytishi durust bo'lmasa kerak.

Jenkinson Rossiyadan Buxoroga turli hayvonlarning tasvirlari, jundan to'qilgan matolar, oshlangan qo'y terisi, yog'och idish-tovoqlar, egar-jabduqlar olib kelinishini hamda Buxorodan esa paxta va paxtadan tayyorlangan mahsulotlar, ipakning turli xil navlarini va boshqa ko'plab narsalarni olib ketishlari mumkinligini bildiradi. Jenkinson Rossiyadan keltiriladigan tovarlarni birma-bir ko'rsatib, mo'yna-savsarni hech bir tilga olmaydi. Holbuki o'sha zamonda bunga talab juda yuqori bo'lgan va azaldan mo'yna-savsar Rossiyadan chiqariladigan asosiy buyumlardan biri hisoblanib kelgan. Mo'ynafurush Stroganovlar G'arbiy Evropaga chiqarganlari singari, Buxoroga ham mo'yna yuborib turganlari aniq va ravshandir.

Jenkinsonning ana shu noto'g'ri ma'lumotlariga qaramasdan, uning maktublari asosida XVI asrda Buxoroga yuborilgan birinchi rus elchisining ahamiyatini na uning taassurotini tasavvur qilish mumkin. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini "Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558 yilgi sayohat" nomli esdaliklarida bayon etgan.

Abdullaxon elchilari 1583 yilda Moskvadan o'q, dori, ov qushlari, matolar olib kelganlar. Bunday elchiliklar 1589, 1595 yillarda ham qaytarilgan. 1589 yil Abdullaxon Muhammad Ali boshliq elchini Rossiyaga yuborib, rus podshosi Fyodor Ivanovichga o'zining nomidan bir

qancha sovg'a-salomlar va hadyalar tarkibida 40 pud nil buyog'ini ham tortiq qilgan.

1583 yildan 1600 yilgacha Moskvaga Buxorodan besh marotaba elchilar yuborilgan. Ularning asosiy maqsadi diplomatik munosabatlar o'rnatish edi. Ivan IV tomonidan 1574-yilda chiqarilgan yorliqda rus savdogarlariga buxoroliklar bilan bojsiz savdo-sotiq ishlari olib borishga ruxsat berilgan. Buxoroda qimmatbaho qurol-yarog' ishlab chiqarish katta o'rin tutgan. Buxoro sovut, qalqon, oltin va kumushdan o'yma qilib, o'rtasiga qimmatbaho toshdan "ko'z" yasalgan dubulg'a, shuningdek, Buxoro kamonlari (ba'zan bularga ham tilla suvi berilib bezatilardi), bo'yalgan va oltin suvi berilgan po'lat va mis tulunboslar, "iyakdan tikilgan va oltin qadalgan" sovutlar ishlab chiqarish bilan dong'i taratgan edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Antoniy Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o'rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yilgan. Ikki hudud o'rtasidagi savdo har ikki tomon uchun ham muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Abdullaxon II davrida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar rivojlana borgan. XVI asrda Osiyoda uchta harbiy-siyosiy kuch: shayboniylar, safaviylar va boburiylar kurash maydoniga chiqqan bir paytda, Abdullaxon II o'z davlatining siyosiy ahvolini yaxshilash maqsadida Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilgani Buxoro xonligining XVI asrdagi siyosiy va iqtisodiy qudrati yuqori darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

XVII asr mobaynida Rossiyada markazlashgan davlat tarkib topa bordi. Asr oxiriga kelganda Rossiya Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Butunrossiya bozori shakllandi. Bu omillar Rossiyaning Buxoro xonligi bilan savdo munosabatlarini yanada rivojlantirishni hayotiy zaruratga aylantirib qo'ydi. Natijada, XVII asrda Buxoro xonligi va Rossiya o'rtasida savdoda tovar ayirboshlash hajmi ortdi (100 ming so'mni tashkil etdi).

To'g'ri, Rossiya elchilari Buxoro xonligi bilan nafaqat savdo aloqalarini kengaytirish masalalarini, ayni paytda Rossiya davlati manfaatiga xizmat qiluvchi boshqa masalalarni ham hal etishlari kerak edi. Xususan, 1620-yilda Buxoroga yuborilgan Rossiya elchisi Ivan Danilovich Xoxlov savdo va elchilik aloqalarini yanada rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda, xonlikdagi rus asirlarini ozod qilish, Buxoro xonligining tashqi siyosiy ahvoli to'g'risida ma'lumot to'plash, Rossiyaning kuch-qudratiga

xonni ishontirish, Buxoro xonligi qurolli kuchlari, xonlikning xazinasini ahvolini batafsil aniqlash, Buxoro – Xiva munosabatlarini ham taftish qilib chiqishi lozim edi. I. D. Xoxlov o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajargan.

XVII asrda Moskva davlatining iqtisodiy va siyosiy manfaati uning O'rta Osiy davlatlari bilan o'zaro aloqalarini rivojlantirish uchun asos bo'lgan edi. Rus davlati savdoni rivojlantirish va rus qullarini ozod qilish, Rossiya bilan Hindiston o'rtasida savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish maqsadida, qolaversa, XVII asrdan boshlab Rossiya O'rta Osiyo bilan savdo qilish uchun eng yaqin va qulay savdo yo'llarini topish maqsadida O'rta Osiyo xonliklariga elchilarni jo'nata boshlagan. Elchilarga berilayotgan topshiriqlar va ularning keltirgan xabarlar O'rta Osiyoning Hindiston bilan savdo aloqalarini o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega edi. Aytish joizki, XVII asrda O'rta Osiyoga jo'natilgan rus elchilarining ma'lumotlarini o'rganish O'rta Osiyoning Eron bilan aloqalari haqidagi ilmlarni ancha kengaytiradi. Masalan, 1620 yilda Buxoroga kelgan I.Xoxlov elchiligining ma'lumotlari katta ahamiyatga egadir.

1620 yili Buxoro xoni Imomqulixonning elchiligiga javoban 1620 yil 26 may sanasi bilan tasdiqlangan yorliq bilan Ivan Xoxlov O'rta Osiyoga yuborilgan. I. Xoxlov 1600 va 1613 yillarda Eronga diplomatik topshiriqlar bilan borgan va bu sohada ma'lum tajribaga ega salohiyatli kishi bo'lgan.

Xoxlovning aytishicha, "Buxoro eri ikkiga bo'lingan bo'lib, noiblarning biriga Buxoro, ikkinchisiga Balx tekkan. Balx Eron va Hindiston bilan chegaradosh. Balx noibi Nodir Hindiston va Eron bilan raqobatda bo'lib, hind shohi Nodirdan boyliklarini tortib olgan va korxonalarini sindirgan, savdogarlarni Balx va Buxoroga qo'ymagan. Hozirda ular o'rtasida tinchlik va savdo munosabatlari o'rnatilgan. Buxoro ham Toshkent bilan urush holatida. qizilboshlar shohi Abbas hind shohi Boburiy Salim bilan urushib, undan Qandahorni tortib olgan".

Chor Rossiyasi Hindiston bilan yaqin savdo aloqasi o'rnatish maqsadida 1646 yil N.Сыроежkin bilan V.Tushkanovni Hindistonga elchi qilib jo'natadi. Elchilarga berilgan topshiriqlarda Hindistonga qaysi mamlakatlardan qanaqa tovarlar keltirilishi va ularning narx-navosi haqida ma'lumot to'plash aytilgan edi.

1646 yil rus podshosi Aleksey Mixaylovich Anisim Gribovni Eron orqali Buxoroga elchi qilib yuboradi. Elchiga Astraxandan Hindistonga qaysi savdo yo'li orqali borish qulay, ya'ni Urganch orqalimi, Buxoro yoki Eron shaharlari orqalimi ekanligini bilish topshirilgan edi. Bu vaqtda

Hindiston Balxni bosib olganligi sababli Buxoroga nisbatan adovatda bo'lgan.

1647 yil dekabrda Anisim Gribov Isfaxonda ekanligida Eronga Xasan Kushbegi boshchiligida Buxoro elchilari kelgan edi. Uning yozishicha, elchilar Eron shoxiga Buxoro xonining sovg'asini, ya'ni oltin qulfli oltin sandiq olib kelishgan. Sandiqchada qimmatbaho toshlar bo'lgan. A.Gribov Buxoro elchilarining qabul marosimi jarayoni haqida quyidagicha yozadi: "sandiqtadan so'ng xuroson terilari, echki juni, salla, qimmatbaho kamarlar, bir o'rkachli 50 ta tuya, 26 ta yo'rg'a va boshqa narsalar keltirgan edi... Eron shohi Abdulazizxon elchilariga boshqa xonlar bilan bir qatorda o'tirishga ijozat bergan edi".

A.Gribov Buxoro elchilarining kelish sababini so'rab bilgan. Ma'lumotlarga ko'ra elchilar maxfiy topshiriq bilan kelishgan, ya'ni Buxoro xoni Abdulaziz Eron shoxi Abbosga Nodirmuhammadga yordam bergani uchun minnatdorchilik bildirgan va o'zining Eron bilan do'stlik munosabatlari o'rnatishga tayyor ekanligini va Eron shohiga Qandaxorni egallashda yordam berajagini bildirgan.

Ko'p o'tmay Eron shoxi Buxoroga chopar jo'natib, Buxoro bilan do'stlik munosabatlari o'rnatishga va Mo'g'ul imperiyasiga qarshi Abdulaziz bilan urushga borishga roziligini bildirgan.

1648 yil mart oyida Abdulaziz Eron shoxi Abbos bilan Qandahorga hujum qilishga tayyor ekanligi haqidagi xabarni etkazish maqsadida, Eronga o'z elchisini jo'natadi. 1648 yil 13 martda Eron shoxi elchi bilan birga Qandahorga urushga jo'naydi va 1649 yil fevral oyida uni bosib oladi.

XVII asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning Hindistonni o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib boradi. Hindiston bilan Eron o'rtasidagi urushlar natijasida Eron orqali savdo to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas, shuning uchun Rossiya O'rta Osiyo orqali savdo qilishga intiladi. Shu maqsadda 1669 yil Boris Andreevich va Semen Ivanovich Pazuxinlar elchiligi Buxoro, Balx va Urganchga jo'natiladi. Bu elchilarga ham eng qulay yo'lni topish topshirig'i berilgan edi, bundan tashqari ular o'sha davrdagi Buxoro, Xiva xonlarining Eron shohi, Turk sultoni va Hindiston shohi hamda Gruziya bilan qanday siyosiy munosabatlarda ekanligi haqidagi ma'lumotlarni yig'ishi kerak edi. Elchilar Astraxandan O'rta Osiyo orqali Dehligacha 4 oy-yu 2 haftada borish mumkin deb xabar bergan edi. Pazuxinlar Buxoro bilan Balx o'rtasida o'zaro kelishmovchiliklar bo'lib turganligi sababli Balxga borish niyatidan

qaytgan edi. Hattoki Pazuxinlarning xabar berishlaricha, Buxoro bilan Balx o'rtasida ziddiyatli holat sodir bo'lgani uchun ular o'rtasidagi savdo aloqalari ham to'xtagan edi.

Medvedev orqali berib yuborilgan Subxonqulixonning Aleksey Mixaylovichga yozgan maktubida, agar Aleksey Mixaylovich elchilarini Balxga, Hindistonga va boshqa davlatlarga jo'natsa, u holda u bu elchilarni himoya qilib O'rta Osiyo erlari orqali o'tkazib yuborishini bildirgan edi.

Pazuxinning ma'lumotlari O'rta Osiyoning Hindiston bilan diplomatik va savdo aloqalarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish mumkinki, Buxoro bilan Balx o'rtasidagi urush tufayli Hindiston bilan Buxoro o'rtasidagi aloqalar zaiflashib qolgan, lekin butunlay to'xtab qolmagan bo'lishi kerak.

Rossiyaning O'rta Osiyo bilan aloqalari Moskvadan tashqari boshqa markazlar bilan ham o'rnatilgan. 1670 yili 16 kishi bilan Tabolskga kelgan Buxoro elchisi Mulla Farrux Buxoroning Eron bilan savdosi hamda u erdan keltiriladigan mollar va ularning narxleri haqida qisqacha ma'lumot beradi. So'ng ular Moskvaga jo'natilgan bo'lib, shox ularni juda tantanali ravishda qabul qilgan. 1671 yilda elchilik mahkamasida Mulla Farrux so'rov qilinadi. So'rovda "ular da kindyaki, zandonachi va kitayki gazlamalari mavjud, lekin kamok deb ataluvchi gazlama va atlas (o'ng yuzasi guldor ipak gazlama) lar kam, borlari ham oddiyroq. Selitra (mineral tuz) ularning davlatida ko'p bo'lib, eronnikiga nisbatan sifatli, ularni botmon bilan sotishadi, bir botmonini bir yarim pudga teng, botmonni ular 5 oltin buxoro puliga sotishadi, Buxoro tiyini ruslarning 5 tiyinig a teng. Jami 25 rus oltiniga teng bo'ladi. Paf deb ataluvchi ipak matosini 2 rubldan sotib olishgan. Mulla Farrux Buxoro bilan Xiva oralig'idagi masofani 17 kunlik yo'ldan iborat deb hisoblaydi. Hindistonda har turli gulli matolar hamda toshlar ko'p. Keyingi safar Elchilik mahkamasining rahbari A.S.Matveev buxoro elchisi Mulla Farruxdan Buxoroning Hindiston bilan savdo aloqalari va Buxoroda talabgor bo'lgan hind tovarlari haqida ma'lumotlar so'ragan. Mulla Farrux Buxoroda ipak matosi, kindyaki, kitayki, kamki matolari to'qilishi, kumush va qalayi ma'danlari, lal toshlari, selitra olinishini, boshqa tovarlar esa Hindistondan keltirilishini aytadi. U Buxoro bilan Hindiston o'rtasidagi doimiy savdo aloqalari o'rnatilganligini, u erdan qimmatbaho toshlar, durlar va har xil guldor matolar keltirilishini ma'lum qilgan. Buxoro elchisi o'z nutqida Buxoroda rus tovarlariga, masalan: qilich, qora tulki, oqsuvsar, movut, baliq tishlariga talab kuchli ekanligini eslatib o'tadi.

I. G. Nizamutdinov Mulla Farrux elchiligining ahamiyatini yuqori baholagan. Ayniqsa, elchi keltirgan ma'lumotlarning Buxoro bilan Hindiston o'rtasidagi savdoning darajasini aniqlashda va Buxoro aholisining hind tovarlariga bo'lgan talablarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan edi.

1675 yili rus podshosi Aleksey Mixaylovich V. A. Davudov bilan Muxammad Yusuf Qosimovni Buxoro va Hindistonga elchi qilib jo'natadi. Aleksey Mixaylovich Daudov orqali Buxoro xoni Abdulazizga yorliq berib yuboradi. Yorliqda ikki davlat o'rtasidagi ilgari do'stona munosabatlar, rus elchilari orqali rus qullarining jo'natib yuborilganligi eslatiladi va undan o'z mulklari orqali Hindistonga Qosimovni o'tkazib yuborishni iltimos qilgan edi. Podsho o'z elchilariga, Hindistonga boradigan eng yaqin savdo yullarini topishni buyurgan edi. Jumladan, Qosimov elchiligiga Amudaryodan rus savdosi uchun foydalanish imkoniyatlarini o'rganish topshirilgan. Elchilarga Buxoro xonining Turkiya, Eron va Hindiston hukmdorlari bilan aloqalarini ham o'rganish topshirilgan edi. Elchilarga berilgan topshiriqlardan Moskva hukmdorlarining Hindiston davlati bilan yaqin do'stona aloqalar o'rnatishga harakat qilganligi ko'rinib turibdi. Ammo Qosimov elchiligi ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi. Shunday bo'lsada, elchilarning Hindistonga yuborilishining o'zi Moskva davlatining O'rta Osiyo orqali Hindiston bilan eng yaqin munosabatlar o'rnatish istagi borligidan dalolat beradi.

Rus hukumati turli yo'llar bilan Sharq mamlakatlari haqida, jumladan, O'rta Osiyo haqida ma'lumotlar to'plashga harakat qilgan. Shu maqsadda, 1675 yili elchixonada hindistonlik Chenay Makarandev va Bagare Leleevlar so'roq qilinadi. Bir vaqtning o'zida Boris va Semen Pazuxinlarning ma'lumotlari ham tekshiriladi. Suhbat chog'ida hindlar Boris Pazuxinlar ro'yxatida ko'rsatilganidek, Hindistonga Astraxan orqali yo'l cho'l orqali o'tganligi sababli uzoq va yurish qiyin, yo'lda qaroqchilar ko'p bo'lib, karvonlarga hujum qilib turadi, deb ta'kidlashgan. SHuning uchun ularning fikricha, Hindistonga Buxoro orqali borish qulay. Ular Astraxandan Buxoroga va undan Balx orqali Hindistonga boradigan yo'l marshruti haqida habar beradi.

XVIII asrda O'rta Osiyoning qo'shni Sharq davlatlari bilan aloqalarini o'rganishda rus manbalari alohida ahamiyatga ega. Chunki rus manbalarida iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tahlil qilish, savdo yo'llarini o'rganish uchun qilingan harakatlar, hamda qaysi mamlakatdan

qanday mollar qancha miqdorda keltirilganligi haqidagi ma'lumotlar batafsil berilgan. Rus manbalari deganda, biz rus elchi va elchiliklarining hisobotlari, Buxoro, Xiva va Hind elchilari hamda savdogarlarining so'rov ma'lumotlarini tushunamiz. Shu bilan birga shoh va podshohlar hamda xonlarning bir — birlariga tortiqlari, sovg'alari ham muhim dalil hisoblanadi. Chunki shular orqali O'rta Osiyoning Hindiston bilan Rossiya o'rtasidagi savdodagi tutgan o'rnini belgilash mumkin. Shuning uchun XVIII asrda rus diplomatlari, savdogarlari va O'rta Osiyoda bo'lgan rus olimlarining faoliyatlari muhimdir.

XVIII asrda, ya'ni Petr I hukmronligi yillarida Rossiyaning O'rta Osiyoga qiziqishi kuchayadi. O'rta Osiyo Rossiyani Sharqning savdo — iqtisodiy markazi, Rossiyadan Hindistonga boradigan asosiy yo'llardan biri ekanligi bilan o'ziga jalb qilardi.

1714 yili Petr I Sibir gubernatori knyaz Gagarindan Erketi shahrida (ya'ni Yorkend) oltin qumlar borligi xususida xabar topadi. Erketi bu davrda Jung'or xonligiga bo'ysunganligi aytiladi. Gagarin Pyotr I ga bu shaharni bosib olib, Yorkend yo'lidagi Yamishchev ko'li bo'yida qal'a qurishni tavsiya qilgan.

Petr I Gagarinning xabaridan so'ng unga xat yozib, Yamishev ko'li bo'yida, iloji bo'lsa undan ham yuqorida shahar qurish, daryoda kemalar qatnashi mumkin bo'lgan joygacha suzib borib, so'ng Yorkendga borib, uni egallashni topshirgan edi. 1714 yilda Irtish daryosining yuqori oqimi bo'ylab podpolkovnik Buxgols ekspeditsiyasi uyushtiriladi.

Peterburgga kelgan Xiva elchisi ham Gagarinning ma'lumotlarini tasdiqlab, Amudaryodan ham oltin olinishini aytadi. Elchi, agarda rus davlati o'zining odamlarini Xivaga jo'natsa, Xiva xoni ularga oltinni topishga yordam beradi, deb ishontirgan edi. Shundan so'ng Petr I bu xabarni muhim bilib, tezlikda ikkala joyni ham tekshirtirish uchun ekspeditsiya jo'natgan edi. Shunday qilib, Petr I har ikkala ekspeditsiya o'z maqsadiga erishmagan taqdirda ham, Hindiston uchun yo'l ochilishiga va savdodan ko'plab oltinlarni qo'lga kiritishiga ko'zi etgan edi. O'rta Osiyo Rossiya uchun Hindistonga olib boradigan vositachi davlat bo'lib qolgan edi.

Rus manbalarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, uzoq vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan bahs XVI- XVII asrlarda O'rta Osiyo Rossiya uchun — Hindistonga kirib borish yo'lida bir vajmi, yoki rus hukumatining manfaatlariga xizmat qiladigan Sharqning muhim mintaqasi - yirik savdo markazimi, degan savolni tug'dirdi. XX asrning

boshlarigacha bo'lgan ko'plab tarixchilar birinchi nuqtai nazarning tarafdorlari bo'lib, ular Rus podsholari O'rta Osiyoga jo'natadigan elchilarining aksariyatiga rus qullarini sotib olish va Hindistonga boradigan eng yaqin, qulay va xavfsiz savdo yo'lini topish topshirilgan, deb hisoblaydilar.

Sovet adabiyotida bu kabi nuqtai nazarni E.V.Bunakov, P.P.Ivanov, D.M.Lebedevlar qo'llab quvvatlaganlar. Ularning fikricha, Hindistonga kirib borish ruslar uchun natija bermagan taqdirda ham, O'rta Osiyoga boradigan yo'l ma'lum bir ma'noda na faqat topildi, balki o'zlashtirildi ham.

Fikrimizcha, ikkinchi qarash haqiqatga yaqin ko'rinadi. Masalan: O'rta Osiyoga Rossiyaning munosabati masalasi tarixchi N.B.Baykova asarida o'z aksini topgan. Muallif inqilobgacha bo'lgan tarixchilar va yuqorida nomlari tilga olingan olimlarni to'g'ri tanqid qilgan. N.B.Baykovaning fikricha, O'rta Osiyo xonliklariga boradigan savdo yo'llari XVI asrdayoq Rossiyaga ma'lum bo'lgan. Uning ta'kidlashicha, Rus davlati Hindistonga boradigan yo'lni qidirib O'rta Osiyoga boradigan yo'lni ochgan va o'zlashtirgan. Aslida esa O'rta Osiyodagi Xiva va Buxoro bozorlarida rus savdogarlari hind savdogarlari bilan uchrashganlar, rus hukumatiga qulayroq yo'lni, ya'ni hindlar uchun odatiy bo'lgan Astraxan, Kaspiy dengizi va Eron orqali boradigan yo'lni ko'rsatganlar.

1717 yil Pyotr I Amudaryo orqali Hindistonga boradigan yo'lni topish maqsadida Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini O'rta Osiyoga yuboradi. Rus podshosi ekspeditsiyaga bergan ko'rsatmasida, "Xiva xonidan kema olib Kojina degan savdogarni Amudaryo orqali Hindistonga jo'natish va kema borishi mumkin bo'lgan joyga qadar suzib borish, so'ng yo'lni davom ettirib daryolar, ko'llar, suv va quruqlik yo'li, ayniqsa, suv yo'lini yozib borish, va Hindistondan shu yo'l bilan ortga qaytish, agarda Hindistondan Kaspiy dengiziga boradigan undan ham yaxshi yo'lni eshitsa, o'sha yo'l bilan kelish va uni ham yozib borish", topshirilgan edi.

Pyotr I ning ikkala ekspeditsiyasi ham mag'lubiyat bilan yakunlangan. Buxgolsni Irtyshning yuqori oqimida jung'orlar haydab yuborgan bo'lsa, Bekovich-Cherkasskiy esa Xiva xoni tomonidan tor-mor keltirilgan edi.

XVIII asr boshlarida Buxoroda siyosiy vaziyat juda og'ir bo'lgan. Xon hokimiyati nomigagina saqlanib qolgan edi. 1721-1725 yillarda O'rta Osiyoda bo'lgan Florio Beneveni ekspeditsiyasi bu siyosiy holatning guvohi bo'lgan. Bu ekspeditsiya Buxoro xonining rus podshosidan elchi

yuborishini so‘rab qilgan murojaatiga javoban jo‘natilgan edi. Elchilikdan ko‘zlangan asosiy maqsad, 1718 yil 13 iyuldagi “Ko‘rsatma”da Buxoro xonligining ichki ahvolini to‘la-to‘kis o‘rganish, deb belgilangan edi. Bundan tashqari, Buxoro xonligining qo‘shni SHarq davlatlari bilan savdo munosabatlarini o‘rganish, hamda rus-buxoro savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlarini topish vazifasi ham o‘rin olgan edi.

Florio Benevenining ekspeditsiyasi XVIII asr boshlarida Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqidagi ma‘lumotlarni kengaytirishga xizmat qilgan. U Buxoro xonining ichki va tashqi savdo rivojiga to‘sqinlik qilgan kuchli o‘zbek qabila boshliqlari bilan kurashishiga to‘g‘ri kelganligini yozadi. Uning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, xivaliklar, buxoroliklar va afg‘onlar uzoq vaqtdan buyon eronlik qizilboshlar bilan urush holatida bo‘lgan.

Beneveni Buxoroning Eron bilan aloqasiga doir ma‘lumotlarni berar ekan, u 1722 yil ko‘p savdo karvonlari Mashhaddan Buxoroga, Hirot va Isfahonga jo‘natilganligi, lekin ularning bari turkmanlar yoki afg‘onlar tomonidan talanganligini, oqibatda Balx orqali bo‘ladigan savdo to‘xtab qolganligi, to‘rtinchi yil Kobul, Laxor va Hindiston shaharlariga karvonlar qatnamay qo‘yganligini yozadi.

Beneveni o‘zining xizmatkori Minerni oltin va kumush konlarining joylashgan joyini topish va aniqlash maqsadida savdogar qiyofasida Balx va Badaxshonga jo‘natadi. Uning xabariga ko‘ra, u erda ko‘proq buxoriy tovarlar sotilib, savdogarlar bu tovarlar uchun Badaxshon aholisidan tillo va kumush quymalari ko‘rinishida haq olganlar. Minerni Balx va Badaxshon bozorlaridagi rus tovarlari hayron qoldirgan: ular nina, oyna, qaychi, munchoqlar, suvsar, qunduz, los mo‘ynalari va terisi, yashil, qizil va to‘q zangori movutlar edi. Uning yozishicha, Badaxshondan Balx orqali Mashhadga oltin va kumush orilgan karvonlar bir yilda 2, 3 va hatto 4 marta borgan. Xurosonda bular oltin va kumush tangalarga aylantirilib, unga O‘rta Osiyo uchun Eron mollari sotib olingan.

XVIII asrning birinchi yarmida Rossiyaning O‘rta Osiyo bilan savdo aloqalari kengaya boradi. Rus savdosini O‘rta Osiyo xonliklari tovarlari bilan yanada ko‘proq hamda keyinchalik Turkiston va Qozoq dashti ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida Orenburg shahrining qurilishi boshlab yuboriladi. N.I.Neplyuev, P.I.Richkov va K.M.Tevkelev rahbarligida Hindiston bilan savdoni yo‘lga qo‘yish maqsadida maxsus kompaniya tashkil qilinadi. Orenburg ekspeditsiyasi rahbari, mashhur rus geografi I.Kirilov Buxoroni Osiyoning savdo markazi sifatidagi ahamiyatiga yuqori

baho berib, uning qo'shni Sharq davlatlari bilan aloqalardagi rolini ta'kidlab o'tgan edi.

Orenburg ekspeditsiyasining a'zolari Orenburg shahrining qurilishiga juda katta umid bog'lagan edilar. Bu shahar orqali Xiva, Buxoro, Toshkent, Turkiston, Hindiston bilan savdo aloqalarini o'rnatishga, Amudaryo va Sirdaryodan oltin va qimmatbaho metallar olinishini ko'zlagan, hattoki kelajakda O'rta Osiyo hamda Jung'oriyani Rossiya tarkibiga qo'shib olishni niyat qilgan edilar.

1735 yil Kirilovning so'roviga binoan Astraxandan Ufaga hind savdogari Maravgi Baraev taklif qilingan. Savdogar Hindistondan O'rta Osiyo xonliklari orqali Astraxanga boradigan yo'l haqida ma'lumot bergan. Uning aytishicha, yaqin vaqtlargacha Eron va Buxoro orqali Rossiyaga 200 savdogar kelib savdo qilishar edi. Biroq keyingi paytlardagi Erondagi qaltis vaziyat va Buxoro yo'lida savdo karvonlarining talanishi oqibatida savdogarlar soni 80 taga qisqarib ketgan. Baraev, agarda yo'llarda xavf-xatar bo'lmaganda edi, Hindistondan Buxoro orqali Rossiyaga keluvchi savdogarlarning soni 600 kishiga etgan bo'lishi mumkin edi, deb taxmin qilgan.

1736 yili I. K. Kirilov Rossiya imperatori Anna Ioanovnaga yozgan taqdimotida, Buxoro bilan Xo'jand o'rtasidagi siyosiy vaziyatning og'irlashganligi sababli taxminan 300 kishidan iborat bo'lgan hind savdo kompaniyasi vakillarining aksariyati Buxoroni tashlab vaqtincha Kobulga ketib qolganligini ma'lum qilgan. Imperator Anna Ioanovna Kirilovga yozgan javob maktubida Maravgi Baraevni Hindistonga Buxorodan ketib qolgan savdogarlarga murojaat qilib, ularni o'z faoliyatini davom ettirish uchun Buxoroga yoki Orenburgga taklif qilishni, topshirgan edi. Baraev o'z navbatida yurtdoshlarini yangi Orenburg yo'nalishida savdo qilishga ko'ndirishni o'z zimmasiga olgan edi.

Mashhur rus geografi P.I. Richkov Buxoroning Hindiston bilan savdo aloqasida Orenburgning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. U, butun SHarqiy Hindistonda yashayotgan xalqlar rus va boshqa g'arb tovarlarini faqat Orenburg va Buxoro orqaligina to'g'ridan-to'g'ri va arzon narxda bu qadar ko'p miqdorda va arzon narxda sotib olishi mumkin, deb ta'kidlagan edi.

Yangi Orenburg yo'nalishining ochilishi Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan savdoni rivojlantirishiga, hamda to'g'ridan-to'g'ri rus-hind savdosini yo'lga qo'yishga imkon berdi. Orenburg orqali savdo karvonlari qatnay boshlaganligining birinchi o'n yilligidayoq ko'zlangan maqsadga

erishildi. Rossiyada diplomatik topshiriqlarni bajarib yurgan buxorolik savdogar Imnazar Maksyutov Oʻrta Osiyo va hind parchasi, qimmatbaho toshlar va boshqa tovarlarni Orenburgga olib borgan. Shu tovarlarni Orenburgga olib kelganligi, buxorolik va hindistonlik savdogarlarni Orenburg savdosiga tortganligi sababli rus hukumati savdogar Maksyutovni bir necha marta mukofotlagan.

Shunday qilib, rus elchilarining Oʻrta Osiyoning qoʻshni davlatlar bilan diplomatik va savdo aloqalarini oʻrganishdagi faoliyati, Orenburg shahrining qurilishi va undan koʻzlangan maqsad tez kunda natijasini koʻrsata boshlagan. Bu harakatlar natijasida qoʻlga kiritilgan daliliy materiallar kelajakda ilmiy ishlar yozilishiga ham ijobiy asos boʻlib xizmat qilgan. Haqiqatdan ham, sovet davrida elchilarning keltirgan maʼlumotlari jamlanib, “Hujjatlar toʻplami” koʻrinishiga keltirilib nashr qilingan. Bu toʻplamlar Oʻrta Osiyo va Hindiston savdo munosabatlarini oʻrganishda katta ahamiyatga ega boʻlgan.

Yuqorida taʼkidlangan maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, Orenburg shahri qurilgandan keyin Oʻrta Osiyo bilan Hindiston oʻrtasidagi savdo munosabatlari yanada rivojlangan. Oʻrta Osiyo bozorlariga koʻplab qimmatbaho hind tovarlari oqib kela boshlagan. Oʻrta Osiyoda turli mamlakat xalqlari savdo qilishgan va oʻzlarining karvon saroylariga ega boʻlishgan. Buxoroda xivalik, qoʻqonlik, afgʻon va rus savdogarlari bilan bir qatorda hindlar ham oʻzlarining karvon saroylariga ega boʻlishgan. Buxoro savdogarlari hind tovarlari va kimmatbaho toshlarni Orenburgga va undan ham nariga olib borib sotishgan.

Rossiyaning Oʻrta Osiyo bilan savdo aloqalarini rivojlantirishida Orenburg gubernatori I. I. Neplyuevning xizmati katta. U 1742 yilda Orenburg ekspeditsiyasining komandiri etib tayinlanganidan boshlab Orenburg shahrini mustahkamladi, Qirgʻiziston orqali Xiva va Buxoroga boradigan yoʻlning xavfsizligini taʼminlash choralarini koʻrdi. V. N. Vitevskiy oʻz asarida Neplyuevning Orenburgni Rossiyaning sanoat markaziga aylantirish, Buxoro erlarini nazoratda ushlab turish, rus tovarlari uchun Buxoro, Badaxshon, Balx va Hindistonga boradigan yoʻllarni qidirib topishga oʻz eʼtiborini qaratganligini taʼkidlagan. I. I. Neplyuyevning Orenburgdagi faoliyati natijasida hind savdogarlari Buxoro va Balxga kelib Orenburgdan keltirilgan rus tovarlarini jadal sotib ola boshlagan. Hattoki, savdoning bu qadar jadallashganini koʻrgan Neplyuyevda karvon savdo yoʻlini Rossiyadan to Hindistongacha uzaytirish fikri tugʻilgan.

1751 yilda I. I. Neplyuev Peterburgda Tevkelev hamkorligida Rossiyaning Hindiston bilan savdo aloqalari oʻrnatish tugʻrisidagi loyihani ishlab chiqqan edi. Ammo bu loyiha amalga oshmay qolgan. Ular har yili kichik savdo karvonlarini Hindistongacha joʻnatishni rejalashtirgan edilar. Oʻsha paytda Rossiyada Orenburgdan Hindistonga boradigan uchta karvon yoʻli maʼlum boʻlgan, birinchisi Balx., ikkinchisi Badaxshon va uchinchisi Qandaxor orqali yoʻl. I.I.Neplyuevning fikriga koʻra, Qandahor hokimlarining oʻzaro urushlari natijasida uchinchi yoʻl ancha xavfli boʻlgan.

Shunday qilib, I. I. Neplyuevning faoliyati Rus davlatining Oʻrta Osiyoning qoʻshni Sharq davlatlari bilan tashqi aloqalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni bilishga intilishidan dalolat beradi.

XVIII asr oʻrtalarida Buxoroning qoʻshni Sharq davlatlari bilan aloqalari haqidagi muhim maʼlumotlar yirik rus sharqshunos olimi V.V.Velyaminov-Zernovning “Istoricheskie izvestiya o Kirgiz-kaysakax i snosheniyax Rossii so Sredneyu Azieyu so vremeni konchini Abul-Xayr xana (1748-1765 gg.)” nomli asarida ham oʻz aksini topgan. Bu asar Oʻrta Osiyoning, jumladan, Buxoro va Xiva xonliklarining qoʻshni davlatlar bilan savdo aloqalarini oʻrganish uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Asarda XVIII asrning 50-yillarida Buxoroda yashagan yunon savdogari Nikolay Grigorevning hikoyasi berilgan. Uning soʻzlariga qaraganda, buxorolik savdogarlar har yili Afgʻoniston orqali Hindistonga borib, u erdan hind tovarlarini keltirishgan. Hind savdogarlari esa oʻz navbatida hind tovarlari bilan Buxoroga kelishgan. Buxoro bilan Hindiston oʻrtasidagi savdo aloqalari toʻxtovsiz davom etib turgan. Buxoro bozorlari lapis-lazur, lal, zumrad kabi qimmatbaho toshlari bilan shuxrat topgan. Grigorev, Badaxshon aholisi qimmatbaho toshlar va tilloni qidirib topish hamda qazib olish bilan shugʻullangan, deb yozadi.

Grigorev hikoyasida Buxoroning Eron bilan aloqalari xususida ham fikr bildirilgan. Uning yozishicha, Buxoroga Erondan kumush va mis keltirilgan. Bundan tashqari, Buxoroga Eronning turli tumanlaridan savdogarlar kelib, bu erda savdo yarmarkalarini oʻtkazishgan. Buxoroliklar har yili yoki xoxlagan vaqtida Eronga, jumladan, Mashxad va Isfahon hamda Hindistonning Lahor va Dehli shaharlariga savdo bilan borishgan. Grigorev, buxoroliklar Hindistonga zotdor otlarni, Eronga esa Qirgʻizistonning tuya va qoʻylarni haydab borib, savdo qilganliklari haqida xabar beradi. Uning yozishicha, Hindiston va Erondan Buxoroga ipak,

parcha matolari, zarbop, paxta matolari, tillo olib kelingan. U Hindistonda ipak va paxta matolar juda arzon bo'lganligini va buxoroliklar ularni tilloga sotib olishganligini yozgan.

XVIII asrning o'rtalari Sharq xalqlari tarixida katta siyosiy kurashlar davri bo'lgan Eronda Nodirshox boshchiligidagi kuchli davlatning vujudga kelishi va uning Buxoro, Hindiston kabi mamlakatlarni bosib olishi kuzatiladi. Mamlakatda sodir bo'lgan urushlar O'rta Osiyoning Sharq davlatlari bilan savdo aloqalarining yomonlashishiga olib keldi. Lekin, ayrim savdogarlar shunday holatda ham o'z faoliyatlarini davom ettirib turgan. Mashhur rus olimi va davlat arbobi A.I.Levshin "Описание киргиз-казачих, или киргиз-кайсацких орд и степей" nomli asarini yozishda Orenburg ilmiy guberniya komissiyasining materiallaridan foydalangan. Asarda Nodirshoxning o'limidan so'ng uning boyliklari butun Osiyo bo'ylab tarqab ketganligi ta'kidlanadi. Jumladan, buxoroliklar, xivaliklar va qirg'iz-qozoqlar chegaradagi rus qal'alariga hind rupiylari va boshqa sharq tangalari yoki quymalari bilan to'ldirilgan qoplarni olib kelgan. Levshinning ma'lumotlariga ko'ra, besh-olti yil mobaynida Orenburgning o'ziga 50 pudgacha oltin, hamda 4000 pud kumush keltirilgan.

Buxoro bilan Hindiston o'rtasida davom etayotgan jadal savdo va Rossiyaning savdo-iqtisodiy aloqalarida buxoroliklarning roli haqida noma'lum muallifning "Известие о песошном золоте в Бухарии, о чиненных для онаго отправлении и о строении крепостей при реке Иртыше, которм имыана Омская, Железная, Ямисhevская, Семипалатная и Усткменегорская" nomli maqolasi yozilgan. Maqolada Rossiya-Buxoro va Rossiya-Hindiston savdosining kelajagi haqida fikr bildirilgan. Unda har yili Rossiyaning chegara shaharlariga, asosan, Orenburg va Astraxanga savdo karvonlarining kelib turishi, ular nafaqat Buxoroda tayyorlangan ipak va ip gazlamalar, balki Hindistonda ishlab chiqilgan turli tovarlarni, jumladan, qimmatbaho toshlar, tillo va kumushni keltirishi ta'kidlangan. Bu ma'lumotlar Buxoro bilan Hindiston o'rtasida savdo aloqalarining beto'xtov davom etib turganligidan dalolat beradi.

1776 yil mashhur rus tadqiqotchisi I.G.Georgining "Opisanie vsekh v Rossiyskom gosudarstve obitayuyix narodov, tak je ix jiteyskix obryadov, verovaniy, obiknoveniy, jilih, odejd i prochix dostopamyatnostey" nomli kitobi nashr qilingan. Asarda asosan Rossiya imperiyasida yashovchi xalqlar bilan bir qatorda ayrim Rossiyaga chegaradosh xalqlar tarixi ham yoritilgan. I.G.Georgi Buxoro xonligining qo'shni xalqlar bilan aloqalari

masalalarini yoritishga alohida e'tibor bergan. Uning yozishicha, chorvachilik buxoroliklarning xo'jalik turlaridan biri hisoblanadi. Buxoro otlari yaxshi bo'lib, hindlar ularning har birini 30 dan 80 buxoro chervonigacha narxda sotib oladi, deb yozgan edi. Buxoro savdogarlari Hindiston, Eron, Xitoy, Rossiya bilan savdo qilgan. Buxorolik savdogarlar Hindistonga, asosan, Kalkutta va Multonga savdo qilish uchun borgan. U erdan o'zlarinikidan ham yaxshi ipak va ip gazlamalar, dur, ziravor, etmak ildizlari, zumrad, yoqut, damlama uchun ishlatiladigan hind shafrani (zafaron guli) va boshqalar keltirganlar. Erondan Buxoroga barxat, kamar keltirgan, buxoroliklar esa o'z navbatida Eronga Xitoydan keltirilgan kumush va reven (quritilib ko'ncilikda ishqor sifatida ishlatiladigan ravoch) jo'natgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyada O'rta Osiyo xonliklari, jumladan, Buxoro xonligi haqida ko'p ma'lumotlar to'plana boshlagan. Rus soldati F.Efremov "Devyatiletnee stranstvovanie" nomli kitobida o'zining to'qqiz yil sayohat qilib, Buxoro, Eron, Xorazm, Farg'ona, Qarshi, Tibet va Hindistonda bo'lib, Afrika janubini aylanib Angliyaga va undan Rossiyaga borganligi haqida yozadi.

Efremov Buxoro xonligida paxta etishtirish masalasi bilan qiziqadi. U xonlik xo'jaligining qorako'l terisi eksporti bilan bog'liq bo'lgan qo'ychilik sohasini kengroq yoritishga ahamiyat bergan. "Ma'lumki,- deb yozadi Efremov, Buxoro qorako'l terisi eksporti orqasidan shuhrat topgan va xon xazinasiga katta daromad keltirgan".

Muallif Buxoroni Osiyoning yirik savdo markazi ekanligini ta'kidlaydi. U buxoroliklarning mamlakat ichki savdosida faol qatnashishini, u erda ko'plab savdo rastalari va karvon-saroylari mavjudligini eslatib o'tadi. Efremovning tassurotlari Buxoro xonligi tashqi savdosining taraqqiyot darajasini belgilashga yordam beradi. Ma'lumotlarga boy va shu bilan birga Buxoroning kelajagi haqidagi Efremovning asari XUSH asrdagi Evropa fani uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Rossiyaning Hindiston bilan savdosida vositachi rolini o'ynagan Buxoro to'g'risida tarixchi-iqtisodchi M.D.CHulkov qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Uning yozishicha, buxoroliklar savdo qilish uchun Rossiyaga borgan va u erdan rus tovarlarini olib kelib, bir qismini O'rta Osiyoda sotgan, qolgan qismini esa Hindiston va Eronga olib borgan.

Chulkov boshqa mualliflar kabi Orenburg qurilganidan so'ng u erga tillo va kumush tangalar oqib kela boshlagan, ularning aksariyati hind, eron va buxoro tanga pullari bo'lgan edi, deb yozadi. O'rta Osiyodan ip matolar, ipak parcha matolari, parda va kanop surp, buxoroning kulrang va qora rangli qorako'li, lyapis-lazur va boshqa qimmatbaho toshlar olib kelina boshlagan. Uning ta'kidlashiga ko'ra, buxorolik savdogarlar Orenburga hind tovarlari, jumladan, malmal, ip, ipak va yarim ipak matolar olib kelishgan.

Chulkov Orenburg savdosini tahlil qilib, Rossiya Sharq mamlakatlari – O'rta Osiyo, u orqali esa Hindiston va Eron bilan savdo qilgan, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, O'rta Osiyo va uning qo'shni davlatlar bilan aloqalarini yanada rivojlantirish uchun Rossiyada Sharq xalqlari manfaatlariga mos keladigan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalasini ko'tarib chiqqan. Is'tedodli rus iqtisodchisining fikri rus savdo doiralarining manfaatlarini ifoda qilardi va Rossiyaning qo'shni Sharq davlatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatish istagidan dalolat berardi.

Chulkov ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro, Xiva va Turkmanistondan Rossiyaga tillo, kumush, hind va boshqa mamlakat mollari, lazurit toshi (ko'k rangli qimmatbaho tosh), buxoro va sheroz qorako'li, parcha, har xil bo'z, toshlar, olmos, yoqut, lal, zumrad, darmana urug'i va boshqa tovarlar keltirilgan. Shunday qilib, Chulkovning bergan ma'lumotlari ko'rib o'tilayotgan davrda Orenburg Rossiyaning boshqa sharq davlatlari bilan savdo aloqalarida alohida o'rin eallaganligini va hattoki, Rus savdosining sharq davlatlari bilan aloqalarida asosiy savdo markazi rolini bajarganligini tasdiqlaydi. Lekin shu narsani eslatib o'tish joizki, na Chulkov va na undan oldingi mualliflarning asarlarida Orenburgga qancha miqdorda qanday tovarlar olib kelinganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar aniq berilmagan.

T.S.Burnashev Rus hukumatining topshirig'iga ko'ra, 1794 yili Buxoroda bo'lgan edi. U Buxoroda bo'lgan vaqtida u erga savdo qilish uchun Afg'oniston, Eron, Hindiston va boshqa yurtlardan kelgan turli millat vakillarini ko'rgan. Burnashev Buxoroda joylashgan bozorlar to'g'risida yozib qoldirgan. Agarda Efremovning sayohati davrida Buxoroda 4 ta g'isht karvon-saroy bo'lgan bo'lsa, Burnashev davrida ularning soni 9 ta bo'lgan. Karvon-saroilar sonining ortib borishiga e'tiborni qaratsak, Buxoroning tashqi iqtisodiy aloqalarining o'sib borganligi to'g'risidagi taasurotga ega bo'lamiz.

Burnashevning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro Hindiston va Eron dan tillo, kumush va hind malmali olgan. Buxoro Eron ga qorako'l terisi va boshqa tovarlar eksport qilgan. Burnashev Buxoroga keltiriladigan chet el tovarlaridan qirqdan bir miqdorida boj solig'i olinishini eslatib o'tadi. Rus savdogarlari esa o'z mablag'idan yigirmadan bir miqdorida soliq to'lagan.

Burnashevning ta'kidlashicha, Buxoro tog'larida tillo va kumush ko'p bo'lishiga qaramasdan, buxoroliklar ularni Hindiston, Eron va Xitoydan, mis, qalayi va temirni Rossiyadan olishga harakat qilgan. Uning ma'lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, Buxoroga chetdan tillo, kumush va boshqa ma'danlar keltirishining sababi, buxoroliklar hali tog'lardan bu ma'danlarni qazib olishning yangi texnologiyalarini bilmasligi oqibatidir.

Burnashev mamlakatning siyosiy ahvoli haqida yozib, amir Shoxmurod Hindiston, Eron, Qo'qan, Xo'jand, Toshkent va Xiva bilan harbiy to'knashuvlarda bo'lganligi, 1795 yili Buxoro Eron bilan jang qilib, juda ko'p eronliklarni asir olganligi va ularni Buxoroda qul qilib sotganligi haqida ma'lumot beradi.

Shunday qilib, XVIII asr rus elchilari, sayyohlari, turli tadqiqotchilari asarlarida Buxoro xonligining ichki va tashqi savdo aloqalari to'g'risida xilma-xil ma'lumotlar to'plangan va umumlashtirilgan. Ayniqsa, P.I.Richkov va M.D.Chulkov asarlarida O'rta Osiyoning, asosan, Buxoro xonligining qo'shni sharq davlatlari bilan savdo aloqalarining rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib Buxoro xonligi qo'shni davlatlar bilan, umuman olganda tashqi savdoda va elchilik munosabatlarda o'tgan asrlardagiga nisbatan samaraliroq bo'lganligini xulosa qilishimiz mumkin.

Tayanch iboralar.

Antoni Jenkinson, Ivan Grozniy, Abdullaxon II, Volga-Kaspiy savdo yo'li, Ivan Xoxlov, Odambiy, Xoja Nafas, Pyotr I, Bikovich-Cherkasskiy, Ivan Buxgols, Xonquli to'pchiboshi, F.Benevini, Milner, Sulton Salim I, 300 turk askari, Murod IV, "Tarbiyati atfol", teziklar, Xoja Ashraf Naqshbandiy, Vaqqos Hoji, Tarbiyatxon, Xoja Ahmad ak-l-Hisayniy, Mustafoxon Xoji, Rustambiy, tranzit savdo, savdo turlari, soliqlar va bojxona.

Nazorat savollari.

1. Buxoro xonligining Rossiya davlati bilan diplomatic va savdo iqtisodiy munosabatlar o'rnatishiga sabab bo'lgan omillar?
2. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari olib borilgan karvon yo'llari haqida ma'lumot bering.
3. Buxoro xonligining Usmonli tirkalar davlati bilan diplomatik munosabatlarining o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'lgan?
4. Buxoro-Hindiston diplomatik munosabatlarining asosiy yo'nalishlarini sanab bering.

BUXORO HUKMDORLARI SHAXSIY FAZILATLARI VA VORISLARI

Reja:

1. Shayboniylar hukmdorlari (Shayboniyxon, Ubaydulloxon, Abdullaxon II va boshqalar)
2. Ashtarxoniylar sulolasi vakillari (Imomqulixon, Ubaydullaxon II, Abdulazizxon, Subhonqulxon, Abulfayzxon).
3. Mahg'itlar – Muhammad Rahimbiy, Shohmurod, Haydar, Nasrulloxon, Muzaffarxon, Sayid Olimxon.

Shayboniylar hukmdorlari (Shayboniyxon, Ubaydulloxon, Abdullaxon II va boshqalar). Shayboniylar sulolasining asoschisi sulton Muhammad Shayboniyxon ibn Budoq sulton ibn Abulxayrxon (1451–1510), «Shayboniylar sulolasi» asoschisi (1500-1510), Abulxayrxonning nabirasi, Budoq sultonning o'g'li. Tug'ilganda unga turkiylar odatiga ko'ra ikki ism - Muhammad (arabcha) va Shayboniyxon (turkiycha) ismlari qo'yilgan. Abulxayrxon unga Shohbaxt deb laqab qo'ygan. Shayboniyxon g'oyat katta jismoniy kuchga, harbiy tashkilotchilik qobiliyatiga ega edi. «Boburnoma» asarida esa u «Shayboqxon», ya'ni «kuch-qudrat egasi» deb ataladi. Shayboniy yollanma qo'shin boshlig'idan xon darajasiga ko'tarilgan tarixiy shaxsdir. U nafaqat sarkarda balki, Shohbaxt, Shoyboq, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan g'azal, ruboiylar bitgan shoir hamdir Shayboniyxonning adabiy me'rosidan bizgacha bir nechta o'zbekcha g'azal, ruboiy va «Bahr-ul xudo» (1508-yil 14-may Bastom, Domg'omda yozib tugallangan) nomli dostoni va 1507-1508- yillarda yozilgan o'g'li valiaxd Temur sultonga atalgan pand-nasihatlardan iborat kitobi mavjud (uning yagona nusxasi hozir Turkiyada saqlanadi). U yoshligida otasi Budoq sulton va onasi Qo'zibegimdan yetim qolgach,

otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalanadi. Keyinchalik Shayboniyga Turkiston va O‘tror hukmdori Muhammad Mazid tarxon homiylik qiladi. Shayboniy yoshligida Buxoro madrasasida ta‘lim oladi. Shayboniy Dashti Qipchoqqa qaytib borib lashkar to‘plashga muvaffaq bo‘lgan. U buyuk davlatni tiklash yo‘lida xatti-harakatni dastlab o‘z qo‘shini bilan temuriylarga yollanma qo‘shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan boshlagan. Dastlab Shayboniy parchalangan Amir Temur davlatining shimoliy chegarasida noyiblik qilayotgan homiysi Mazid tarxondan uni o‘z xizmatiga olishni so‘raydi.

Avvaliga bu taklifga rozi bo‘lgan Mazid tarxon tezda Shayboniyni o‘z hokimiyatiga xavf solishi mumkinligini anglab yetadi. Natijada, u Shayboniyni Buxoro hokimi Darvish Muhammad tarxon ixtiyoriga jo‘natib yuborish orqali undan qutuladi. Chunki, Darvish Muhammad bunday yordamga muhtoj edi. Uning xizmatidan boshqa hukmdorlar ham foydalanganlar. Shayboniy o‘z qo‘shini bilan Mo‘g‘iliston, Movarounnahr hamda Xorazm hukmdorlariga xizmat qilib, ularning qo‘shnilariga va ichki raqiblarga qarshi kurashdi. Bu kurashlarda Shayboniy o‘zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qiladi.

Uning bunday turmush tarzini yozma manbalarning mualliflari «qozoqlik» ya‘ni «o‘z xalqi va qavmidan ajralib ketgan odamlar, taxt uchun kurashda yengilsa-da, ammo o‘z huquqidan voz kechmagan va o‘z tarafdorlariga boshchilik qilib, muxoliflari bilan qulay fursat poylab kurashadigan sulola vakili» deb atashgan edi. Turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olishiga imkon berdi. Movarounnahr hukmdorlari va zodagonlari uning xizmatidan eng ko‘p manfaat ko‘rishi natijasida Shayboniy Movarounnahr zodagonlari orasida mashhur bo‘lib ketgan edi.

Shayboniy ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatini qayta tiklash yo‘lida kurash olib borgan, biroq „o‘zbek-qozoq“ qabilalari tomonidan kuchli qarshilikka duch kelgan. Bu qabilalar Shayboniyxonni qo‘llab-quvvatlagan qabilalarni asta-sekin janubga tomon siqib chiqarganlar. Shayboniy bobosi Abulxayrxon vafotidan so‘ng parokanda bo‘lib ketgan qabilalarni birlashtirdi va beayov qonli urushlar natijasida 1480-yilda ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldi. 1487-1488-yillarda Sayram, O‘tror va Turkiston shaharlarini hamda qo‘rg‘onlarni egallab, Movarounnahr yaqinida mustahkam o‘rnashib oldi. Bu qo‘rg‘onlar kelgusida unga Movarounnahrni istilo qilish uchun tayanch vazifasini o‘tagan.

Shayboniyxon ko'chmanchilarning jangovar an'analari bilan O'rta Osiyo shaharlarining madaniy yutuqlarini birlashtira olishi uning istilochilik yurishlari muvaffaqiyatli chiqishiga yordam berdi. Shayboniyxon 1497-yilda Movarounnahrda o'zining dastlabki yurishini uyushtirgan. U katta kuch bilan Samarqandga yurish qildi, lekin shaharni ololmasdan, Qarshi va Shahrisabzga hujum qilib katta o'lja bilan qaytib ketgan. Shayboniyxon 1499-yildan Movarounnahrni zabt qilishni boshladi. 1499-yilda u jangsiz Buxoroni va 1500-yilda temuriylar davlatining poytaxti bo'lmish Samarqandni egallaydi va Sulton Ali mirzoni (1483-1501) qatl ettiradi. 1501-yilda esa Boburni Ko'hak daryosi bo'yidagi jangda yengib, Samarqandda uzil-kesil o'rnashib oladi. U endi katta qo'shin to'plab butun Movarounnahr hududlarini egallash uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Shayboniyxon 1503-yilda Sirdaryoning yuqori tomoniga yurish qilib, Mahmudxon, Ahmadxon va Bobur boshchiligidagi mo'gullar, ularning ittifoqchilari bo'lgan qalmoqlarning birlashgan kuchlariga duch keldi. Arxiyon shahri yonida bo'lgan shiddatli jangda ularni tormor keltirib, Toshkent va Shohruxiya shaharlarini ishg'ol qildi. Bu shaharlar hokimligiga amakilari Ko'chkunchi sulton bilan Suyunchxo'jani tayinladi. 1504-yil bahorida Farg'onani ishg'ol qildi. Samarqand shahri – Shayboniyxon davlatining poytaxti etib belgilandi. Shundan so'ng Shayboniyxon ishg'ol qilgan hamma viloyatlarga qarindosh urug'laridan yoki o'zbek qabilalarining yuqori tabaqa vakillaridan hokimlar tayinlaydi. Shayboniyxon Movarounnahrda o'z ahvolini yaxshilab olganidan keyin 1504-yilda Xusravshoh hukmronlik qilib turgan Qunduz shahrini bo'ysuntirdi, so'ngra Xuroson va Xorazm sultoni Husayn Boyqaro (4138-1506) davlatini zabt etishga hozirlik ko'rdi.

1504-yilda Shayboniyxon Buxorodan Xorazmga yurish boshladi. O'n oy davom etgan qattiq va shiddatli qamaldan keyin 1505-yilning avgust oyida Urganch egallandi. O'sha yili kuzda Shayboniyxon qo'shinlari Xuroson tuprog'iga bostirib kirib Maymana va Farobga yetib bordi. 1506-yilda esa Balxni, 1507-yil may oyining boshlarida Shayboniyxon Hiroti ishg'ol qiladi. Shundan so'ng Hirot o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi. Xurosonning bo'ysuntirilishi bilan amalda Muhammad Shayboniyxon butun mintaqani yagona bir markaz – Samarqand qo'l ostida birlashtira oldi.

1508-yil bahorida Shayboniyxon Jon ostonalarida temuriylarning so‘nggi qo‘shinini tor-mor keltirib, ularning O‘rta Osiyodagi barcha ildizlariga barham beradi. Shu tariqa, u XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab temuriylar amalga oshira olmagan vazifani bajara oldi. Shayboniy 1501-yilda yuz bergan «Saripul jangi» bilan Movarounnahr taxtini olgan bo‘lsa, «Marvichak urushi» bilan butun Xurosonni o‘z tasarrufiga kiritdi. 1508-1509-yillarda o‘zbek qo‘shinlari qozoqlar ustiga hujum qilib, har gal qo‘llari baland kelgan. Shunday qilib, Shayboniyxonning temuriylarga qarshi 1500-1509-yillarda olib borgan shiddatli urushlar oqibatida Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o‘z ichiga olgan «Shayboniylar davlati» vujudga keldi.

1510-yilda Shayboniyxon Safaviylar daylatining hukmdori Ismoil Safaviydan (1502-1524) Marv yaqinidagi Murg‘ob daryosi qirg‘og‘ida, Tahrirobodda mag‘lubiyatga uchraydi, eron safaviylari Shayboniyxonni qo‘lga olishadi. Shoh Ismoil buyrug‘iga ko‘ra, 1510-yil 12-dekabrda uning kallasi olinib, po‘sti shilinadi, po‘sti ichi somon bilan to‘ldirilib, Safaviylarning G‘arbdagi dushmanlari bo‘lmish Usmonli turklar hukmdori Sulton Boyazid II huzuriga jo‘natiladi. Shayboniyxonning bosh chanog‘i esa shoh Ismoil uni oltin bilan qoplab, bazm-u jamshidlarda unga may quyib, qadah o‘rnida foydalangan. Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufaga dafn qilingan. Shayboniyxonning hayot tarixida e‘tiborga molik uch muhim nuqta bor. U avvalo, O‘rta Osiyoliklarning ichki kuchlariga tayanib yurishlar qilgan va oqibatda chegarasi Amudaryo doirasidan juda uzoqqa cho‘zilgan bir mamlakatni barpo etgan buyuk sohibqironlarning oxirgisi edi. Bundan keyingi jangovar yo‘lboshchilar, mahorat va hirslari qanchalik katta bo‘lsada, bu boradagi baxt-omadga erisholmadilar. Ikkinchidan, bundan keyin O‘rta va G‘arbiy Osiyoda qabilalar urushi qat‘iy tugadi. O‘zbeklar Turon yaylovidan janubiy g‘arbga tushgan qavmlarning eng so‘ngi qabilasi bo‘ldilar.

Uchinchidan, ilk Amu va Sir daryolarining narigi tarafidagi musulmonlar bilan G‘arbiy Osiyodagi din qardoshlari o‘rtasida juda yaqin bo‘lmasada, doimiy bir aloqa bor edi. Temuriylarning inqirozi va halokatlari bilan bu aloqa tamom bo‘ldi. Xususan, Safaviylarning shialikni quvvatlashlari sababli aloqa uzilishi yanada chuqurlashdi. Shayboniyning ko‘chmanchi qavmlari bilan bu o‘lkaning shimol tarafiga yurishi, bunda tamomila ma‘lum diniy-ijtimoiy o‘zgarish qilgan (shialik tarqalishi) vaqtlarga to‘g‘ri kelgani uchun Movarounnahr yanada tezroq mustaqil

bo'lib oldi: juda qadim zamonlardagi kabi Movarounnahrning suv hududi Turon bilan Eron orasida asosiy bir chegara holini oldi.

Shayboniyxon ruhoniylar ulamolariga katta hurmat, hatto bolalarcha itoat qilib, barcha urush safarlarida o'zi bilan barobar kichkina go'zal kutubxonasini olib yurar, Temur kabi bu ham Damashq va Halab ulamosi bilan diniy munozaralarga qatnashgan. Qur'onning ba'zi bir oyatlari haqida Hirotning peshqadam tafsirchilari bo'lgan Qozi Ixtiyor va Muhammad Yusufga e'tiroz bildirgan edi. Shayboniyxoning islom dini borasida yaxshi bilimga ega ekanligini hatto Bobur ham tan oladi. Shuning uchun bo'lsa kerak Shayboniyxon o'zini chin musulmonlar, ya'ni sunna mazhabidagi musulmonlarning boshlig'i va ularning himoyachisi deb hisoblardi. Shuning uchun ham Shayboniylar davrida yashagan olimlar xususan, shoir va tarixchilar uni "Xalifa ur-Rahmon" va "Imom az-Zamon" ya'ni "davr imomi" va "tangrining yerdagi xalifasi" deb ulug'laganlar. Bu nom Shayboniyxonga Hirot olingan yili (1506) berilgan.

Shayboniyxon maorif va madaniyat haqida o'z davrining ruhidan to'la xabardor va hatto maorif jihatidan oldinga Temur shahzodalarning aksaridan past emas edi. Zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo'lgan. Chunki uning she'rlari buyuk bir iqtidor va go'zal tabiatga molik ekanini, u ham turkiy ham forsiy ham arabiy tillardan asosli suratda voqif ekanini ko'rsatmoqda. Sulton Husayn Boyqaroning vafotidan keyin bir siqim donga muxtoj qolgan ko'pgina ulamolar Shayboniydan panohtopdilar. U ulamolarni xizmatga olib, munosib vazifalar berdi. Buxoro, Samarqand, Toshkentda masjidlar, madrasalar solishga amr etdi. Hatto harbiy yurishlarda ham o'z atrofida bir necha ulamo bo'lgan va bular unga hurmat hamda sadoqat ko'zi bilan qarashgan.

Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islohotlar o'tkazdi. Birinchidan u davlat boshqaruvida suyg'ol tizimini joriy etdi, ya'ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o'z farzandlariga, qarindosh-urug'lariga, birodarlariga, qabila boshliqlari bo'lgan sultonlarga topshiradi. Xususan, Balx – Sultonshohga, Hisor – Mahdi va Hamza sultonlarga, Andijon – Jonibek sultonga, Qunduz – Ahmad sultonga, Hirot – Jonvafobiya, Marv – Qo'biz naymanga, Toshkent – Suyunxoja, Xorazm – Kepakbiy qushchiga, Samarqand va Kesh Muhammad Temurga, Buxoro va Qorako'l – Mahmud sultonga, Turkiston esa Ko'chkunchixonga taqdim etilgan. Samarqand poytaxt

sifatida xon taxtiga o'tqaziladigan joy hisoblangan. U yerda xon sharafiga xutba o'qitilgan va pul zarb etilgan.

Ikkinchidan, u mamlakatda yer-suvni qaytadan taqsim qildi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar.

Uchinchidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazdi. Keyingi 10 yil ichida soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqdi.

To'rtinchidan, Shayboniyxon 1507-yilda pul islohotini o'tkazdi. Bunga ko'ra mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil – 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda bu islohot markaziy hokimiyatning siyosiy va iqtisodiy mavqeini kuchaytirishga, mahalliy hokimlar mavqeini esa kuchsizlantirishga, dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va aholi mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

Beshinchidan, Shayboniyxon ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazdi. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmiy, diplomat qobiliyatiga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra, ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Ta'limning qiyu bosqichi maktab hisoblandi va bolaga 6 yoshidan ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda ikki yil o'qigach o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi. Madrasada 3 bosqichli ta'lim joriy etilgan bo'lib, uning har bir bosqichida 8 yildan o'qilardi. Shunday qilib, o'qish 26 yil davom etardi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu kabi va boshqa tadbirlar o'z mohiyatiga ko'ra markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, Shayboniy xonlari va beklari hukmronligi kuchayishiga xizmat qilishi zarur edi.

Ko'chkunchixon ibn Abulxayrxon (1510-1530) Shayboniylar sulolasidan bo'lgan xon. Abulxayrxon va Robiya Sultonbegim (Ulug'bek mirzoning qizi) ning farzandi, Shayboniyxonning amakisi. Shayboniyxon tomonidan Turkiston viloyati hokimi etib tayinlangan (1503-1509) va 1510-1530 yillarda Movarounnahrni idora qilgan. Shayboniylarning

Movarounnahrni bosib olish uchun qilgan yurishlarida faol ishtirok etgan. 1512-yil 28-apreldagi jangda Shayboniylar Bobur bilan uning ittifoqchisi safaviylar qo'shinini tor-mor qilib, Samarqand taxtini qo'lga kiritdilar va Ko'chkunchixon hukmronligi qayta tiklandi. Uning davrida Shayboniylar Safaviylar bilan urushib, ikki marta (1514 va 1529) Hirotni egallaganlar, Bobur saltanati poytaxti Agra shahriga elchilar yuborilgan. Elchilar Bobur tomonidan tuhfa bilan kutib olingan. Ko'chkunchixon nomi tarixda xongina emas, adabiyot, fan va madaniyat homiysi sifatida ham qolgan. Uning davrida ko'p asarlarni o'zbek yiliga tarjima qilish bobida katta ishlar qilingan: fors tilidan o'zbek tiliga Rashiduddin „Jome at-tavorix“, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“ asarlari tarjima qilingan, Buxoroda Abdulazizxon kutubxonasi ochilgan, masjid, madrasa, xonaqohlar ta'mirlangan.

Ubaydulla Sulton, Ubaydiy (1489-1540) 1533-1539 yillarda Buxoro xoni bo'lgan Shayboniylar sulolasi vakili. Muhammad Shayboniyxonning jiyani, Mahmud Sultonning o'g'li. To'liq ismi Abulg'oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog' Sulton ibn Abulxayrxon. Otasining iltimosiga ko'ra, unga Xoja Ubaydulloh Ahror o'z ismini bergan. Tasavvuf bo'yicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono Muhammad Jozidan olgan. Unga o'z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro'zbehon, Maxdumi A'zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Xususan, unga davlat arbobi va sarkarda amir Abdulla Yamaniy (Buxoroda Mir Arab nomi bilan mashhur bo'lgan) harbiy san'atdan saboq bergan va o'ziga murid qilib olgan.

Xorazm va Buxoro hokimi bo'lgan otasi Mahmud Sulton Qunduzda vafot etgach (1504), unga O'rusbek Do'rmon (1512-yilda Ko'li Malikda bo'lgan jangda o'ldirilgan) otaliq qilib tayinlangan. Ubaydullaxon amakisi Shayboniyxonning Xorazm (1505), Balx (1506), Hirot va Mashhad (1507)ga qilgan harbiy yurishlarida qatnashgan.

Dastlab safaviylar qo'shinining Movarounnahr ichkarisiga bostirib kirishidan cho'chigan Ubaydullaxon va Muhammad Temur Sulton (Shayboniyxonning o'g'li) shoh Ismoil I bilan elchilar almashib, sulh tuzishga uringanlar. Shayboniylar sulolasining xoni Ko'chkunchixonning asosiy noibi (1510-yildan) va Buxoro hokimi (1504-yildan) sifatida Ubaydullaxon dushmanga qarshi kurashga otlangan. 1511-yilda bo'lgan jangda yengilgan Ubaydullaxon va Ko'chkunchixon, Samarqand hokimi Suyunchxo'jaxon, shuningdek, Muhammad Temur Sulton va Jonibek

Sulton o'z yaqinlari bilan Turkiston shahriga chekinadilar. 512-yil 28-aprelda Ko'li Malik jangida Ubaydullaxon g'alaba qozonib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. 1512-yil bahorida Ubaydullaxonning shijoati natijasida Movarounnahr yana Shayboniylar qo'liga o'tdi. Biroq Ismoil I yuborgan Najmi Soniy boshchiligidagi 60 ming kishilik safaviylar qo'shiniga suyangan Bobur 1512-yil kuzida G'uzor va Qarshini egallaydi. Najmi Soniy qo'shini G'ijduvonni qamal qilishga kirishdi. Ubaydullaxon va Jonibek Sulton Karmanaga; Ko'chkunchixon va Temur Sulton Miyonqolga chekinib, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rishadi. 1512-yil 24-noyabrdagi G'ijduvon jangida Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin g'alaba qozongan. 1513-yil yanvarda Ubaydullaxon boshchiligidagi qo'shin Xurosonga harbiy yurishlar qilib, safaviylarga kuchli zarbalar berdi.

1513-yil 11-martda Ubaydullaxon Marvni egallaydi. Bu orada Ubaydullaxon Xorazmni ham egallab, o'g'li Abdulazizxonni hokim qilib tayinlaydi. Uzoq davom etgan harbiy to'qnashuvlardan so'ng Mashhad, Hirot (1529) va boshqa shaharlar egallandi. Ubaydullaxon Hirotidagi murakkab vaziyatni tartibga solish (bu yerda shialarning ta'siri kuchayib ketgan edi) va uning Buxoro bilan aloqalarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratgan. Ko'chkunchixon vafot etgach, uning o'g'li Abu Saidxon davrida ham Ubaydullaxon noiblik vazifasida qolgan.

1533-yilda Abu Saidxon vafotidan so'ng, turkiy an'anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug'i Ubaydullaxon Buxoroda Shayboniylar sulolasining xoni qilib ko'tarilgan. Poytaxt ham Samarqanddan Buxoroga ko'chirilib, davlatning nomi rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb atalgan. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei kuchaydi. Buxoroda Mir Arab madrasasi, Mirak Said G'iyos bog'i, Ko'hak (Zarafshon) daryosi ustida Mehtar Qosim ko'prigi va boshqa inshootlar qurildi.

Ubaydullaxon yassaviya va naqshbandiya tariqatlariga e'tiqod qilib, shayx sifatida muridlar ham tarbiyalagan. Ubaydullaxon «Ubaydiy», «Qul Ubaydiy», «Ubaydulloh» taxalluslari bilan o'zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o'z ichiga olgan kulliyoti keyinchalik Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan (1583). Ubaydullaxonning turkiy devonida 310 g'azal, 430 ruboiy, 11 tuyuq, 18 masnaviy, 7 muammo, 2 yor-yor mavjud. Shuningdek, devondan diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi "Omonatnoma", "Shavqnoma", "G'ayratnoma", "Sabrnoma" manzumalari o'rin olgan. Forsiy devonida

esa 163 gʻazal, 418 ruboiy, 7 qitʻa, 1 fard, 1 masnaviy, 1 tarjeʻband va 3 muammo bor. Arab tilidagi merosi 35 ga yaqin gʻazal, qitʻa va fardlardan iborat.

Ubaydullaxon Ahmad Yassaviy asos solgan hikmatnavislik anʻanasini rivojlantirgan. Undan 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat etib kelgan. Ubaydullaxon ijodida diniy-tasavvufiy gʻoyalar yetakchilik qiladi. Ubaydullaxon oʻzbek va fors adabiyotidagi yirik ruboiynavislardan hisoblanadi. Uning bu 2 tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. Xususan, oʻzbek adabiyotida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydullaxon nomi bilan bogʻliq. Shoir sheʼrlarida oʻzbek tilining boy imkoniyatlaridan, oʻziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan.

Ubaydullaxon Buxoro yaqinida joylashgan Bahouddin majmuasidagi Dahmai shohon (Shohlar dahmasi)dagi Shayboniylar xilxonasida dafn etilgan. Ubaydullaxon kulliyoti yagona nusxada Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar fondida, «Devoni Ubaydulloxon» qoʻlyozmasi Turkiyaning Nuri Usmoniya kutubxonasida, «Masoil us-salot» nomli terma bayozi Koʻniyodagi Izzatquyun xususiy kutubxonasida saqlanadi.

Navroʻz Ahmadxon ibn Suyunchxoja (1551-1556) Shayboniylar sulolasidan boʻlgan xon. Abulxayrxonning nevarasi, Toshkent hokimi Suyunchxojaning kichik oʻgʻli. Otasi vafotidan soʻng Toshkent hokimi (1525-1551) soʻngra Movarounnahr xoni (1551-1556). U yoshligida Vosifiydan sheʼriyat, musiqa, ashula, vazn va nazmdan taʼlim olgan. Ayni vaqtda chavandozlik va harbiy mashqlar bilan koʻproq shugʻullangan. Baroqxon XVI asr oʻrtalarida Buxoro xonligida kuchayib ketgan feodal kurashdan foydalanib, Movaronnahrni qoʻlga kiritib oldi. Soʻngra qoʻshin bilan Shayboniixonning jiyani Muhammad Rahimni Buxoro ustiga otlantirdi. Lekin Muhammad Rahim yoʻlda toʻsatdan vafot etdi. Uning oʻgʻli Burxon sulton otasiga qarashli harbiy qismlar va mulozimlari bilan Buxoro ostonasiga yetib keldi. Ayni shu vaqtning oʻzida Baroqxon Toshkentdan, Abdulatifxon esa Samarqandda Buxoro ustiga qoʻshin tortib, oxir-oqibat uni egalladilar (1540). Baroqxon Burxon sultonni Buxoroni boshqarishda vaqtincha hukmdor boʻlib turgan Muhammadyor sultonga sherik qilib qoʻydi. Ittifoqchilar (Baroqxon va Abdulatifxon) Burxon sultonni ham oʻzlariga qoʻshib Miyonqol hukmdorlari Iskandarxon va Abdullaxonga qarshi yurish boshladilar. Abdullaxon Miyonqolni Baroqxonga qoldirib, Balxga ketishga majbur boʻldi va u yerdan turib amakisi Balx xoni Pirmuhammadxonning yordami bilan Baroqxonga

qarshi uch marta (1553,1554,1555) qo'shin tortdi, lekin har gal mag'lubiyatga uchradi. Baroqxon Abdullatifxon vafotidan keyin 1551-yilda Samarqandni ham egalladi. Shunday qilib, 1551-1556-yillari Baroqxon Movarounnahrni Navro'z Ahmadxon nomi bilan idora qildi. U o'z nomidan pul zarb ettirdi. Movarounnahrning ko'pgina shaharlarida uning nomi xutbaga qo'shib o'qildi. U obodonchilik ishlariga e'tabor bergan, madrasalar qurdirgan ("Baroqxon madrasasi"- 1531/32-XVI asrning 2-yarmi). Hofiz Tanish Buxoriyning „Abdullanoma“ asarida qayd etilishicha, Baroqxon 1556-yilda Zarafshon daryosidan boshlangan Darg'om kanalining bosh inshooti – Ravotxoja to'g'onini tuzattirish uchun kelgan va shu yerda to'satdan vafot etgan. Uning davrida Movarounnahr bilan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Sibir o'rtasida savdo-sotiq, elchilik munosabatlari rivojlangan.

Pirmuhammadxon ibn Jonibek sulton (1556-1561), 1546-1567 yillarda Balx hokimi bo'lgan. Uning davrida Balx hokimligi kuchayib to'liq mustaqil xonlikka aylangan. Buxoro xoni Abdulaziz (1540-1550) Balxning mustaqilligini barham berish maqsadida katta harbiy yurishga o'tlangan, biroq bu safar unig vafoti tufayli qoldirilgan. Buxoro taxtiga Muhammadyor sulton o'tqazilgan. Pirmuhammad ta'ziya bildirish uchun Buxoroga kelib, turli nayranglar bilan taxtni egallab olgan (1550-y. 18-avgust). Biroq amaldorlar va ulamolarning aksariyati uni qo'llab quvatlamagan. Jo'ybor xojalaridan Xija Muhammad Islom ham uni tan olmagan.

Pirmuhammadxon shundan so'ng Buxoro taxtiga o'z kishisi – Shayboniylardan Umarg'ozni Sulton (O'zbekxon)ni o'tqazishga ko'p uringan. U Buxoro oily hukmdori sifatida bir yilcha turgan, lekin amirlar va eshon Xoja Muhammad Sultondan ko'mak ololmagach, Buxoroni tark etishga, taxtni yana Muhammadyor Sultonga qaytarishga majbur bo'lgan. Movarounnahrdagi ichki nizolar kuchaygan davrda (1551-56-y.) Pirmuhammad jiyan Abdullaxonni (Abdullaxon II) Navro'z Ahmadxonga qarshi kurashini quvvatlab turgan.

Navro'z Ahmadxonning o'limidan foydalangan Abdullaxon Buxoroni egallagan. Pirmuhammad nomiga xutba o'qilgan. Pirmuhammadxon 1561-yil 18-aprelgacha Shayboniylarning oliy xoni bo'lib qolgan, garchi uning nomiga xutba o'qilgan va tanga pullar zarb qilingan bo'lsada, u faqat nomiga xon edi. Badahshon va Balxdagi notinchliklar tufayli Pirmuhammad Balxni tark etib, Buxoroga kela olmasdi. Shuning uchun 1557-yildan amalda Abdullaxon hukmronlik

qilgan. Badaxshon hokimi temuriy Sulaymonshoh 1560-yil avgustda Balxga yurish qilganda Pirmuhammadxon Abdullaxon II dan yordam soʻragan. Chashmai koziron degan joydagi jangda Shayboniylar gʻalaba qozongan. Bundan ruhlangan Pirmuhammadxon Toxaristondagi Qunduz va Toliqon shaharlarini egallash maqsadida 1560-yil 5-sentabr oyida yurish qilgan. 1561-yilda Pirmuhammadxon bilan Abdullaxon II oʻrtasida ixtilof yuzaga kelgan, bunga sabab Pirmuhammadxonning Buxoroni Abdullaxon II dan tortib olib, evaziga Balxni bermoqchi ekanligi boʻlgan. Biroq bunga Pirmuhammadxonning oʻgʻli Dinmuhammad sulton norozi boʻlib, otasiga qarshi isyon koʻtargan. Xoja Muhammad Islom ham bunga qarshi chiqqan. Abdullaxon II Karmanadan otasi Iskandarxonni keltirib taxtga oʻtqazgan (1561-yil may) va Pirmuhammad nomini xutbadab chiqarib tashlagan.

Pirmuhammadxon faol ichki va tashqi siyosat yurgizgan. Uning davrida Balx xonligi Abivard, Marv viloyati va Termiz hisobga kengaygan. Janubdagi Gurzuvon va Garchiston viloyatlari chegaralari mustahkamlangan.

Iskandarxon ibn Jonibek Sulton (1561-1583) Shayboniylar xoni. Uning onasi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon (Boburning togʻasi)ning qizi boʻlgan. Iskandarxon 15 yoshida Samarqand sugʻdiga qarashli Ofarinkent (Miyonqol) nohiyasida hokimlik qilgan, otasi favot etgach (1539), Karmana hokimi boʻlgan. 1561-yil Iskandarxon oʻgʻli Abdullo sulton (Abdullaxon II) Buxoroni egallab amakisi Pirmuhammad (Balx hokimi) oʻrniga otasi Iskandarxonni butun oʻzbeklarning xoni (xonlar xoni) deb eʼlon qilgan. Iskandarxon yoshligida jangari, irodali kishi boʻlgan esada – keyinroq taqvoga juda berilib ketgan. Shariat ahkomlariga toʻla rioya qilgan, lochin oviga mohir boʻlgan, deyarli davlat ishlariga aralashmagan, shu sababli Nisoriy „Muzakkiri ahbob“ni bosh xonga emas, Abdullaxon II ga bagʻishlagan va Iskandar Sultonni faqat oliy hukmdor sifatida madh etgan. U taniqli tasavvuf olimi, Mahdumi Aʼzam Kosoniyning muridi va shogirdi edi. Iskandarxonni darvishlar podshohi (podshohi darvishon) deb ham atashgan.

Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon (1583-1598) Oʻzbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining Shayboniylar sulolasidan eng yirik hukmdor (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, maʼrifat, madaniyat homiysi boʻlgan. Toshkent hokimi Baroqxon (Navroʻz Ahmadxon) bilan Koson yonida (1548), Moʻgiliston xoni Abdurashidxon va Shayboniylardan Doʻstum

sultonlar qo'shiniga qarshi Forob yonida (1554) jang qilgan. Yosh Abdulla sulton o'zining hukmdor sifatidagi butun g'ayrat shijoatini 1551-yil Karmanada namoyish etgan, viloyatga Toshkentdan Baroqxon va Samarqanddan Abdullatifxon hujum qilganlar, Iskandar sulton Amudaryo ortiga qochgan. Abdulla sulton otasi vazifasini o'z zimmasiga olib bu hujumni muvaffaqiyatli qaytargan. Keyingi yillarda (1552-1556) o'z mulkini G'arbga – Buxoro tomonga va janubi-sharq – Qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu say-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, xatto 1556-yilda u ota meros mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'lgan. U amakisi, Balx hokimi Pirmuhammaddan harbiy yordam olib va piri Xoja Muhammad Islom ko'makida Baroqxon, keyinchalik uning o'g'illari Darveshxon va Bobo Sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan. Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) vafot etgach (1556), darhol Karmana va Shahrisabzda o'z hukmronligini tiklaydi, 1557-yili mayda Buxoroni qo'lga kiritadi va uni o'z poytaxtiga aylantiradi. 1561-yilda otasi - Iskandarxonni davlat boshlig'i - xon deb e'lon qilib, uning nomidan mamlakatni o'zi boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortgan Shayboniy sultonlar bilan kurashib, Balx (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Sayram, Turkiston (1583) va Farg'ona (1583) ni egallaydi. 1582-yilda Dashtga yurish qilib, Ulug'tog'ga qadar borgan. 1583-yilda otasi Iskandarxon vafot etgach mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi ko'tarilgan Maymana va Garchiston (1583), shuningdek, Badaxshon (1585) dagi g'alayon, tartibsizliklarni bostirgan. Xorazmga ikki marta yurish (1594 va 1596) qilib, u yerda markaziy hokimiyat hukronligi qayta tiklangan. Abdullaxon II safaviylar bilan Xuroson, Gilon uchun kurashib o'z tasarrufiga kiritgan. Sharqiy Turkistonga qilingan yurishda Qashqar va Yorkent viloyatlarini olgan. Boburiylar ham Badaxshon, Shimoliy Afg'oniston va Xuroson uchun Abdullaxon IIga qarshi kurashganlar. Abdullaxon II bunga qarshi Sind (1583), Kashmir(1586) ni egallab davlatning janubiy chegaralarini mustahkamlagan. Abdullaxon II davrida mamlakat hududi Qashqardan Orol va Kaspiy dengizlari sohillarigacha, Turkiston va Sayramdan Xurosonning sharqiy qismigacha bo'lgan yerlardan iborat edi. Abdullaxon II hayotining so'ngi yillarida o'g'li Abdulmo'min bilan chiqishmay qolgan. Ular o'rtasidagi munosabatlar keskinlashganidan habar topgan qozoq xoni Tavakkalxon Toshkent viloyati va Toshkent – Samarqand oralig'idago yerlarga bostirib kirib, unga qarshi yuborilgan qo'shinni

yengan. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganida o'g'li Abdulmo'min 1598-yil 8-fevralda amir Muhammad Boqibiy bilan kelishib otasi Abdullaxon II ni zaharlab o'ldiradi. Abdullaxon II faol tashqi siyosat olib borgan. Uning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash, ayniqsa pul islohati o'tkazish yo'lidagi faoliyati natijalari keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. U ko'plab turli inshootlar qurdirgan. Uning davrida mamlakatda shaharsozlik, adabiyot, ilm-fan taraqqiy etgan. Buxoro madaniyat, ilm-fan markaziga aylangan. Hofiz Tanish Buxoriyning „Abdullanoma“ („Sharafnomayi shohiy“) (1584-1589), Amin Ahmad Roziyning „Haft iqlim“ (1583), Mutribiyning dunyo xaritasi ilova qilingan „Taskirati shuaro“ (taxminan 1593-1595) va boshqa ilmiy asarlar yaratilgan. Buxoroda mashhur Abdullaxon madrasasi tashkil qilingan. Hasanxo'ja Nisoriyning „Muzakkiri ahbob“ asari Abdullaxon II ga bag'ishlangan. Abdullaxon II ning o'zi ham istedadli shoir bo'lib, „Xon“ taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan.

Abdulmo'min ibn Abdullaxon (1582-1599) Balx va Badaxshon hokimi (1582-1598). 1598-99-yillarda Buxoro xoni bo'lgan. 1589-yildan otasi Abdullaxon II bilan munosabatlari keskin yomonlashgan. Chunki Abdullaxon II Hirotni Safaviylardan qaytarib olgach, uni o'z o'g'li qolib, Qulbobo Ko'kaldoshga in'om qiladi. Buning ustiga u Xurosondagi noiblari – Qulbobo ko'kaldosh, Dinmuhammad sulton va boshqa;arga yozma farmon jo'matib, Abdulmo'minga itoat etmaslikni va xatto biror qulay fursatdan foydalanib uni jisman yo'q qilishni buyuradi. Shuningdek, u Niso, Obivard va Durun hokimi Nurmuhammadxonni qollab- quvvatlab uni Abdulmo'minga qarshi urushga undaydi. Bundan darg'azab bo'lgan Abdulmo'min 1597-yilning kuzida otasiga qarshi bosh ko'tarib, Balx va Badaxshon qo'shini bilan Amudaryo bo'yiga kelgan. Abdullaxon II ning qo'shini Nasaf (Qarshi) atrofida joylashgan. Abdullaxonga ko'makka viloyat hokimlari – masalan, Axsi va Andijon hokimi O'zbek sulton o'z qoshinlarini yuborgan. Buxoro va Balx ulamolari aralashuvi bilan Abdulmo'min va Abdullaxon II o'rtasidagi nizolarga vaqtincha barham berilgan.

Abdulmo'min otasi Abdullaxon II vafot etgach, Buxoroga qaytib taxtni egallagan. Taxtga o'tirganidan so'ng, otasining yaqin kishilari hamda o'zining Farg'ona va Toshkentdagi barcha Shayboniy qarindoshlarini zolimlarcha qatl ettirishi mamlakatda isyon ko'tarilishiga olib kelgan. U Eron safaviylari bilan Xuroson uchun kurashni davom

ettirgan. Abdulmo‘minning taxtga o‘tirganidan olti oy o‘tgach, Zomindan Samarqand tomon kelayotganda otasining amirlaridan biri – Abdulvose‘ uni otib o‘ldiradi. Abdulmo‘min mo‘ng‘ullar vayron qilgan Balx qal‘asini qayta qurdirgan, Balxdagi Xoja Abu Nasr Porso mozorida hashamatli ko‘shk bunyod ettirgan.

Pirmuhammad ibn Sulaymon sulton (1599–1601) Shayboniylar davlatining so‘ngi hukmdori. Abdulmo‘minning amakisi. Dastlab Balx hokimi bo‘lgan. Abdulmo‘min o‘ldirilgach, Buxoro xonligi taxtiga o‘tqazilgan va davlatni 1601-yilgacha idora etgan. Uning davrida markaziy hokimiyat nihoyatda zaiflashgan. 1601-yili Samarqand hokimi Boqimuhammadni poytaxt ixtiyorida tutish niyatida taxminan 50 ming qo‘shin bilan unga qarshi chiqadi. Pirmuhammad Bog‘i shamol atrofida mag‘lubiyatga uchraydi. Buxoro taxti esa Boqimuhammad qo‘liga o‘tib u xon deb ko‘tariladi. Shu tariqa Shayboniylarning bir asrlik hukmronligiga nuqta qo‘yiladi. Mamlakat va davlat tig‘inini endi yangi sulola – “Ashtarxoniylar” o‘z qo‘llariga oladilar.

Ashtarxoniylar sulolasi vakillari (Imomqulixon, Abdulazizxon, Subhonqulxon, Ubaydullaxon II, Abulfayzxon). Tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida hokimiyat tepasiga ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar natijasida turli kuchlarning kelishi, o‘z navbatida, jamiyat hayotida keskin o‘zgarishlarni ro‘y berishiga hamda muayyan islohotlarni amalga oshishiga olib keladi. Binobarin, Buxoro davlatida ham hokimiyatning shayboniylardan sulolasidan ashtarxoniylar vakillari qo‘liga o‘tishi ma‘lum bir omillarning ta’siri ostida ro‘y bergan. Buxoro davlatchiligi tarixida sodir bo‘lgan ushbu jarayonlarning mazmun va mohiyatini o‘rganishda ilmiy jamoatchilik o‘rtasida turli xil yondashuvlar ilgari suriladi.

Boqimuhammad ibn Jonibek sulton (1601–1605) Ashtarxoniylardan bo‘lgan Buxoro xoni. Shayboniylar sulolasining so‘nggi vakili Pirmuhammadxon (1598-1601) 1599-yilda Boqimuhammadni alohida xizmatlari uchun Samarqand hokimi etib tayinlagan. Shunday bo‘lsada u tez orada o‘z mavqeini mustahkamlab olib, Pirmuhammadxonga itoat etmay qo‘ygan va hatto unga qarshi urushga hozirlik ko‘ra boshlagan. 1601-yil uyunda Pirmuhammadxon Samarqand yaqinidagi Bog‘i Shamol degan joyda Boqimuhammad bilan jang qilib, mag‘lubiyatga uchragan. So‘ng, Boqimuhammad Buxoroga kirib, xonlik taxtini egallagan. Shu tariqa Buxoroda yangi sulola – “Ashtarxoniylar” hukmronligi boshlangan.

Boqimuhammad o'z hukmronligi davrida xonlik hududi yaxlitligi saqlab qolish o'ziga qadar o'tgan xonlar qo'lidən chiqargan yerlarni dushmandan qaytarib olish maqsadida ko'plab urushlar qilgan.

Abdullaxon II o'limidan so'ng turkmanlar yordamida Buxoroga bo'ysunmaslik yo'lini tutgan Xorazm masalasini Tinch yo'l bilan hal etdi. Chunonchi, Boqimuhammad Balx taxtiga da'vo qilib isyon ko'targan (1601 fevral) ashtarxoniylar - Abbas sulton va Rahmonquli sultonlarni mag'lub etgan (1602-yil bahor) va Balxga o'z ukasi Valimuhammadni hokim etib tayinlagan. Eron shohi Abbas I Balxni bosib olish, so'ngra Boqimuhammadni taxtdan ag'darib, uning o'rniga Shayboniylardan Muhammad Salim sultonni o'tqazish va bu bilan Buxoro xonligida Ashtarxoniylar hukmronligiga chek qo'yish maqsadida katta qo'shin bilan yurish qilganda, Boqimuhammad Amudaryo bo'yidagi Puli Xataba degan joyda unga peshvoz chiqib (1602-yil iyul), Eron qo'shinini butunlkay tor-mor keltirgan. Shoh Abbas I esa qolgan-qutgan askarlari bilan arang qochib qutulgan. 1603-yil 25-martda Boqimuhammad temuriylardan Kobul hokimi Muhammad Hakim badiuzzamon bosib olgan Qunduz shahrini uch oy qamal qilgach, yana qayta qo'lga kiritgan. Boqimuhammad endilikda Xurosonda ham Buxoro hokimiyatini tiklash maqsadi yo'lida harakat qila boshladi. Xuroson yurishi 1604-yilga mo'ljallangan edi. Ammo, 1604-yilda Qozoq xoni Keldimuhammadning qo'shinini Buxoro hududidan haydab chiqara oldi. Buning uchun esa ancha vaqt zarur bo'ldi. Buning ustiga Boqimuhammadxon 1605-yilda vafot etdi.

Boqimuhammad mamlakatni idora qilish tizimi va soliqlarni tartibga solish, qo'shinni qayta tashkil qilish kabi qator islohatlar o'tkazgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik, obodonchilik ishlariga katta e'tibor bergan.

Valimuhammad ibn Jonibek sulton - Ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xoni (1605-1611). Akasi Boqimuhammadxon davrida Balx noibi (1599-1605). Boqimuhammad vafotidan so'ng Buxoro taxtiga o'tqazilgan. Valimuhammadxondan so'ng Balx hokimi bo'lgan Nadrmuhammadxon boshliq mahalliy amaldorlar Imonqulixonni Buxoro taxtiga o'tqazish uchun Valimuhammadxonga qarshi fitna uyushtirganlar. 1611-yilning bahorida Valimuhammadxon Imonquli va Nadrmuhammadxonlar bilan bo'lgan kurashda yengilgach Imonqulixon Buxoro xoni deb e'lon qilingan. Valimuhammad esa ikki o'g'lini olib Eron shohi Abbas huzuriga qochib borgan. Amirlar Boqimuhammadxonning o'g'li Imonqulixonni taxtga o'tqazganlar.

Valimuhammad Abbos yordamida Movarounnahrni qaytarib olishga harakat qilgan. Tarixchi Muhammad Yusuf munshi „Tarixi Muqimxoniy“ asarida yozishicha, shoh Abbos Imomqulixonga qarshi kurashish uchun Valimuhammadxonga 80 ming kishilik qizilboshlilar qo‘shinini bergan. Biroq Samarqand atrofidagi Bog‘i Shamolda bo‘lgan jang (1611-yil avgust)da Imomqulixon g‘alaba qozongan, Valimuhammad asir olinib qatl etilgan.

Ashtarxoniylar sulolasining uchinchi vakili Imomqulixon (1611-1642) hukmronlik davri davlat xokimiyatining bir oz bo‘lsa-da kuchayishi, siyosiy barqarorlikning o‘rnatilishi, o‘zaro ichki nizolarga chek qo‘yilishi bilan izohlanadi. Uning davrida Buxoroda Labihovuz, Nodir-devonbegi xonaqosi va madrasasi, Registonda Poyanda masjidi qurildi.

Imomqulixon Buxoro taxti da‘vogarlaridan biri, Obivard hukmdori ashtarxoniy Dinmuhammadxonning katta o‘g‘li edi. Lekin unga to‘liq ota tarbiyasini olish nasib etmadi. XVII asr boshlarida Dinmuhammadxon Buxoro taxtini qabul qilish uchun Obivarddan Buxoroga kelayotganda yo‘lda o‘ldirildi. Unga qadar, ya‘ni «qizilboshlar» bilan shiddatli janglar ketayotgan paytda Imomqulixon o‘z onasi va ukasi Nadrmuhammadxon bilan birgalikda Obivarddan Movarounnahrga jo‘natilgan edi.

XVII asrning 10-yillariga qadar Imomqulixon Buxoro xonligi siyosiy hayotiga aralashmadi. Bu davrda amakilari Boqimuhammadxon (1601-1605), Valimuhammadxon (1605–1611) birin-ketin mamlakatni boshqarishdi. Valimuhammadxon Buxoro taxtini egallab, Shohbek ko‘kaldoshni Balx noibi etib tayinlagandan so‘ng, ko‘p o‘tmay Imomqulixon va Valimuhammadxon o‘rtasida ixtiloflar kelib chiqdi va Valimuhammadxonga qarshi fitna tayyorlana boshlandi. Chunki Valimuhammadxonning Balxdagi noibi Shohbek ko‘kaldosh Balx ahliga behad zulm qilayotgan edi. Fitnadan xabar topgan Valimuhammadxon Eron podshosi shoh Abbos huzuriga shoshildi va undan harbiy madad olib, jiyani Imomqulixonga qarshi ot surdi. Amakisining «qizilboshlar» bilan til biriktirganini eshitgan Imomqulixon juda xafa bo‘ldi va din peshvosi Xo‘ja Hoshimiy ruhiy madadiga suyanishni afzal ko‘rdi. Valimuhammadxon bilan Imomqulixon o‘rtasida bo‘lib o‘tgan janglarda Valimuhammadxon mag‘lub bo‘lib, asirga tushdi. Uni Imomqulixon oldiga olib kelishdi va Imomqulixonning buyrug‘i bilan kallasi tanasidan judo qilindi. Imomqulixonning 38 yillik hukmronligining ibtidosi o‘z amakisi Valimuhammadxonni qatl etish bilan boshlandi. Bu voqea 1611 yilda sodir bo‘ldi.

Imomqulixon o'z siyosatini o'rta asrlar uchun an'anaviy bo'lgan o'zga hududlarni bosib olib, mamlakat chegaralarini kengaytirishdan boshladi. 1613 yildagi Toshkent voqealari bunga misoldir. Toshkent voqealari Imomqulixon siyosatidagi xunrezlik va istibdodning eng yuqori pog'onasi bo'ldi. Shimolda yashovchi qozoqlar, qalmiqlar shu yili Movarounnahr hududlariga, jumladan, Toshkentga hujum qilishdi. Imomqulixon qozoqlar va qalmiqlarga qarshi ot surib, ularni Movarounnahrdan quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Zafar quchgan Imomqulixon o'z o'g'li Iskandarxonni Toshkentga hokim etib tayinlaydi. Iskandarxonning Toshkent aholisiga o'tkazgan zulmu zo'ravonliklari, soliqlar miqdorini oshirishi yalpi norozilikni keltirib chiqardi va Iskandarxon o'ldirildi. Bu mash'um xabar Imomqulixonga borib yetgach, u Balxga, o'z ukasi Nadrmuhammadxonga maktub yozib, uni bu voqeadan ogoh etdi. So'ngra katta qo'shin hamrohligida Toshkentga yo'l oldi. Nadrmuhammadxon ham akasiga yordam berish uchun Toshkentga yuzlandi. Aka-ukalar qo'shini birlashib bir oy mobaynida Toshkentni qamal qilib turdi. Shahar darvozalaridan biri yondirib yuborildi va Imomqulixon lashkarlari Toshkentga kirib qirg'in boshlashdi. Yoshu qari baravar tig'dan o'tkazildi. Qirg'in shu darajaga borib yetdiki, mazlumlar faryodiga dosh bera olmagan Imomqulixon lashkarboshilari qon to'kish mislsiz tus olganligini tan olib Imomqulixonga qirg'inni to'xtatishni maslahat berishdi. Imomqulixon bunga javoban shunday dedi: «O'g'limning xuni uchun Toshkent aholisining qoni otimning uzangisiga yetmaguncha qirg'inni to'xtatmayman, deb qasam ichganman». Lashkarboshilar xonni bu yo'ldan qaytarishning boshqa chorasini topishdi. Ular faqih (qonunshunos)larga murojaat qilishdi. Faqihlar esa, Imomqulixonni otda suvi uzangiga yetadigan hovuzga kirishi va hovuz suviga qatl etilgan odamlar qoni aralashtirilishi to'g'risida fatvo chiqarishdi. Imomqulixon shunday qilgach, g'azabi pasaydi va qirg'inni to'xtatdi.

Mamlakat hududlarini kengaytirib, boshqaruv tizimini qo'lga olgan Imomqulixon ichki ahvolni yaxshilashga e'tibor qaratdi. Ba'zan u kechqurunlari kiyimini o'zgartirib shahar aylanishga chiqardi va shu yo'l bilan haqiqiy ahvolni anglashga, mavjud qusurlarni bartaraf qilishga harakat qilardi. Uning tabiatida ilm ahliga, darveshlarga moyillik ham mavjud edi. U olimlar, shoirlar, darvishlar, o'z zamonasining ulug'lari suhbatini yaxshi ko'rgan. O'zi ham so'fiyona she'rlar mashq qilgan. U ayniqsa, shayx Mavlono Yusuf Qorabog'iy suhbatlarini xush ko'rardi.

Mavlono Yusuf Qorabog‘iy Xurosondan Buxoroga kelib, bu yerda Mulloi Nav taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Mirzojon Sheroziyga murid bo‘ladi va Imomqulixon davrida tariqatda kamolotga erishadi. 1643 yilda vafot etib Buxoro atrofidagi Safidmo‘y qishlog‘ida dafn qilinadi.

Shoirlardan Turobiy va Nahliygga Imomqulixonning hurmati baland edi. Shoir Nahliy Imomqulixonga bag‘ishlab madhiya yozadi va buning evaziga uning moddiy muruvvatlaridan bahramand bo‘ladi.

Imomqulixon faoliyatida Jo‘ybor xo‘jalariga munosabat alohida o‘rin tutar edi. U bu xonadon ijtimoiy salohiyatini hisobga olgan holda xonadon vakillari bilan yaxshi aloqa o‘rnatadi. O‘z singlisini Jo‘ybor xo‘jalari vakili Xo‘ja Tojiddinga (1574–1646) nikohlab berib, xon saltanati mavqeini mustahkamlashga harakat qildi. O‘z navbatida Xo‘ja Tojiddin iltimoslarini ham yerda qoldirmasdi. Ba‘zan ohi ovi bilan mashg‘ul bo‘lgan Imomqulixonning bir bor ovi baroridan kelmadi. Bundan darg‘azab bo‘lib o‘z lashkarlariga ov qilinayotgan hudud atroflarida yashayotgan aholining mol-mulki talashga buyurdi. Lekin Xo‘ja Tojiddin aralashuvi bilan aholi mol-mulki g‘orotdan saqlab qolindi. Ayrim davlat lavozimlariga odam tayinlashda Imomqulixon Xo‘ja Tojiddin maslahatlarini olib turgan.

Jo‘ybor xo‘jalarining boshqa bir vakili – Muhammad Yusuf Xo‘ja (1593–1651) bilan Imomqulixon munosabatlari juda yaxshi edi. Unga Imomqulixon tomonidan ko‘plab in‘omlar qilingan. Lekin xo‘jazodalarning boshqa bir vakili Abdurahim Xo‘ja (1575–1628) bilan Imomqulixon o‘rtasida o‘zaro kelishuv amalga oshmadi. Ular o‘rtasida yuz bergan ixtilof oqibatida Abdurahim Xo‘ja hajga ketishga majbur bo‘ladi, Mol-mulki esa Imomqulixon buyrug‘i bilan musodara qilinadi. Uning tashabbusi bilan Sumitanda boshlangan madrasa qurilishi oxiriga yetkazilmay qoldi va g‘ishtlari turli maqsadlarda tashib ketildi.

Imomqulixon o‘z hukmronligining oxirgi yillarida ko‘z og‘rig‘i kasaliga chalindi. Tabiblar ham uning bu dardiga shifo topisholmadi. Oxir-oqibat u ojiz bo‘lib qoldi. Buxoro taxtidan voz kechdi va ukasi Nadrmuhammadxonni Balxdan Buxoroga taklif qilib, uni taxtga o‘tqazdi. O‘zi esa Ka‘batulloga hajga ketdi. Umrining qolgan qismini Madinada o‘tkazdi va shu yerda vafot etdi.

Tarixchi Muhammad Yusuf munshiy Imomqulixon hukmronlik davriga quyidagicha baho bergan edi: «Imomqulixon oyoqlari davlat uzangisida bo‘lgan paytda, uning tasarrufidagi biror joyda – na Balxda, na Buxoroda isyon va tartibsizliklar bo‘ldi!» . Shu tarixchi Imomqulixon davrini temuriy Sulton Husayn davriga qiyos qiladi. U Madina shahrida

chorbogʻ, Makkadagi Kaʼbaga kiraverish darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yogʻoch zina qurdirgan. Buxoroda Imomqulixon hukmronligining oqibati shu boʻldiki, uning davrida xon hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Nufuzli amirlar va zodagonlar ham xon hokimiyatiga nisbatan dushmanlik munosabatlarini toʻxtatib turishga majbur boʻldilar. Biroq, shunga qaramay, Imomqulixon mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikning oldini ololmadi.

Nodir Muhammadxon ibn Dinmuhammadxon ibn Jonibek sulton (1592- taxminan 1651) Ashtarxoniylardan boʻlgan Buxoro xoni. 1606-1642-yillarda Buxoro hokimi boʻlgan. Uning davrida mamlakatda ichki nizolar kuchayib, xatto farzandlari (12 ta ogʻli) ham unga boʻysunmay qoʻygan. Bunga uning oʻta takabburligi, milk-mulkka oʻchligi, qaysarligi sabab boʻlgan. Bu esa aholining umumiy noroziligini keltirib chiqargan. Bundan tashqari, Shimoldan koʻchmanchilar mamlakat hududiga hujum qilib uni talon-taroj etmoqda edilar. Nadrmuhammadxon ularga qarshi oʻgʻli Abdulazizni yuboradi. Biroq Nadrmuhammadxondan norozi amirlar harbiy safar chogʻida Abdulazizni xon deb eʼlon qiladilar. Bundan habar topgan Nadrmuhammadxon Balxga ketishga majbur boʻlgan va Boburiy Shohjahondan yordam berishni soʻragan Shohjahon ikki oʻgʻli (Murodbaxsh va Avrangzeb) ni katta qoʻshin bilan Balxga joʻnatib, ularga viloyatni bosib olishni topshiradi. Boburiylarning niyatidan voqif boʻlgan Nadrmuhammadxon ularga qarshi chiqib, Maymana yoʻlida jangda yengiladi va Eronga shoh Abbos II panohiga qochadi va u yerda ikki yarim yilcha qolib ketadi. Boburiylar Balx viloyatini ikki yil gʻorat qilishgan. Mutassil janglar, mamlakatdagi ocharchilik, qattiq qish Hindistonlik askarlarga salbiy taʼsi koʻrsatgan. Shohjahon askarlarini Hindistonga chaqirib olishga majbur boʻladi. Balxni esa Erondan taklif etilgan Nadrmuhammadxonga topshiradi. Bu Nadrmuhammadxonning oʻgʻillarini yana tashvishga solib, ularni birlashishiga majbur qilgan.

Abdulazizxon ukasi Subhonqulini Balxga noib etib tayinlaydi (1651). Nadrmuhammadxon taxtdan voz kechib, Makkaga, haj safariga ketishga majbur boʻladi va yoʻlda vafot etadi. Madina yaqinidagi akasi Imomqulixon qabri yoniga dafn etilgan. Mahmud ibn Vali Nadrmuhammadxon farmoni bilan mashhur asari - „Baxr ul-asror“ („Sirlar dengizi“) ni yozadi.

Abdulazizxon ibn Nadrmuhammadxon (1614-1681) Ashtarxoniylardan boʻlgan Buxoro xoni. Buxoro xoni Nadrmuhammadxonning oʻgʻli. 1626-yildan Xuttalon hokimi, 1630-

yildan Balxning g'arbiy tumanlari hokimi, 1645-yilda bir guruh fitnachi amirlar otasi Nadrmuhammadxonning poytaxtda yo'qligidan foydalanib, Abdulazizni Buxoro xonligi taxtiga o'tkazgan. U markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilgan, mamlakat obodonchiligiga birmuncha hissa qo'shgan. Buxoroda ko'pgina muhtasham binolar qurdirgan (Abdulazizxon madrasasi -1652-yilda qurilgan va b.).

Subhonqulixon ibn Nadrmuhammadxon (1625-yil, Buxoro - 1702-yil 14 -sentabr) Ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xoni. 1651-80-yillarda Balx hokimi. Nadrmuhammadxon Buxoro xoni bo'lgach, o'gli Subhonqulixonni Soli Saroy shahri, so'ngra Balx viloyati hokimi qilib tayinlaydi (1642). Ko'p o'tmay u bu lavozimdan olinib, Kaxmerdga hokim bo'lgan. Subhonqulixonning akasi Abdulazizxon otasini hokimiyatdan chetlashtirib, Buxoro xoni bo'lgach, Subhonqulixon Balxga – otasi huzuriga yo'l olgan. Subhonqulixon Balx viloyatida mustahkam o'rnatilib, 1651-yilda Balx va Badaxshon hokimligini qo'lga kiritgan. Subhonqulixon Buxorodan mustaqil siyosat yuritgan. 1658- yilda Abdulazizxonning piri Abdulg'afforxo'ja vositachiligida Buxoro va Balx o'rtasida tinchlikka erishilib, Subhonqulixon akasi hokimiyatini rasmiy tan olgan. Muhammad Yusuf munshiyning yozishicha, 1680-yil 2-fevralda keksayib qolgan Abdulazizxon Subhonqulixonga Buxoro xonligi taxtini topshirib, o'zi hajga jo'naydi. Subhonqulixon markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun soliqlar miqdorini oshirib, qo'shinini ko'paytirgan. Anushaxonning vorisi Arang Muhammadxon 1687-yili Buxoroga bosqin qilganida Subhonqulixon bu hujumni qaytarish bilan cheklanmay, 1688-yilda o'ldirilgan xon o'rniga Xiva taxtiga o'z noibi Amir Niyoz eshiko'g'aboshi (Shohniyoz)ni o'tqazgan. Shu tariqa Abdullaxon II davridagidek Xiva xonligi yana Buxoroga qo'shib olinadi va mintaqada yagona o'zbek davlati qaror topgan. Subhonqulixon davrida Buxoro xonligining Sharq davlatlari bilan diplomatik munosabatlari yaxshilangan. Boburiylardan Avrangzeb 1689-yilda Zabardastxon, Usmonli Turk sultoni Ahmad II 1691-yilda Mustafo chovush boshchiligidagi elchilarni Buxoroga jo'natgan. 1671-87-yillarda Subhonqulixon bilan Avrangzeb o'rtasida bir necha marta o'zaro maktublar almashilgan.

Subhonqulixon tomonidan Balx va Buxoroda ko'plab me'moriy obidalar, jumladan, Balxda madrasa, Buxoroda Do rush-shifo, Registonda katta hovuz; Arkda Salom xona va jome' masjiti, shuningdek, Aminobodda chorbog' qurilgan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo'lgan. U "Ihyo at-tibbi Subhoniyy"

(“Subhoniy tibbiyoti bo‘yicha davolash”), “Lubb ul-lavoih ul-qamar fil-ixtiyorot” (“Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati”) nomli ilmiy nujumga oid risola yozgan. Subhonqulixon “Nishoniy” taxallusi bilan sheʼrlar bitib, saroyda oʻtkazilgan mushoiralarda oʻzi ham sheʼrlar aytgan. Subhonqulixon Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasidagi Daxmai shohonda (Abdullaxon II qabri yaqinida) dafn etilgan.

Ubaydullo Muhammad Bahodirxon ibn Subhonqulixon (1681-yil - Buxoro - 1711-yil 16-mart) Buxoro xoni, ashtarxoniylar sulolasidan. Subhonqulixonning oʻgʻli. Buxoroda madrasa tahsilini olgan. Subhonqulixon vafoti arafasida valiahd qilib nevarasi Balx hokimi Muhammad Muqimxonni tayinlaydi. Biroq Buxoro ulamolari va qoʻshinning madadiga tayangan Ubaydullaxon II Buxoro taxtini egallaydi (1702-yil sentabr). Balx hokimi Muhammad Muqimxonning otaligʻi hisoblangan Mahmud qatagʻon (Mahmudbiy otaliq) Buxoroga boʻysunmaslikdan tashqari Qubodiyon (1703), Termiz (1704)ni ham Balxga qoʻshib olib, Balxni mustaqil deb eʼlon qilgan. Beklarning saroy fitnasi natijasida Muhammad Muqimxon oʻldirilgach (1707-yil mart), Ubaydullaxon II Balx ustiga katta qoʻshin bilan yurish qiladi va shaharni egallaydi (1707-yil 27 may).

Ubaydullaxon II murakkab sharoitda Buxoro xonligini boshqargan. Iqtisodiy tanazzul va ichki nizolardan tashqari jungʻorlar (qalmoqlar)ning harbiy bosqinlari (mas., Samarqandga hujum, qalmoqlar xurujidan qochgan qozoqlar va qoraqalpoqlarning Movarounnahr hududi (Toshkent va boshqa joylar)ga koʻchib kelishi vaziyatni yana ham murakkablashtirgan. Ana Shunday sharoitda Ubaydullaxon II davlatning iqtisodiy negizini mustahkamlashga qaratilgan choralar koʻrgan. Avvalo u maʼmuriy sohada islohotlar oʻtkazib, davlatni boshqarishga oʻrta tabaqa: hunarmandlar va savdogarlarni jalb qilgan. Ubaydullaxon II hatto markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun yirik yer egalarining imtiyozlarini qisqartirgan (mas., Joʻybor xojalari soliq toʻlashga majbur qilingan). Biroq Joʻybor shayxlari katta siyosiy kuch boʻlib, Ubaydullaxon II oʻtkazayotgan siyosat uchun xatarli muxolifga aylanishgan.

Ubaydullaxon II ning siyosiy faoliyatida pul islohoti ham alohida oʻrin tutadi. Ubaydullaxon II pul islohoti oʻtkazish orqali davlat xazinasini toʻldirishni, bebosh amirlar, beklar va urugʻ boshliqlari bilan kurashda oʻz mavqeini kuchaytirish va ayrim mahalliy hokimlarning ayirmachilik intilishlarini bartaraf qilib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intildi. Biroq Ubaydullaxon II ning islohotlari badavlat tabaqalar va ayrim

o'rtahol shaharliklar tomonidan noxush kutib olindi. Ubaydullaxon II ga qarshi g'alayonlar ko'tarildi.

Ubaydullaxon II mamlakatda obodonchilik ishlariga e'tibor qaratgan. U madrasa va Buxoroning g'arbida Xonobod chorbog'i (1709)ni barpo qilgan. Tarixchi Mir Muhammad Amin Buxoriy uning saroyida bosh munshiy bo'lib, Ubaydullaxon II ning siyosiy faoliyati haqida «Ubaydullanoma» (1716) asarini yozgan. Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy» va Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzzxon» asarlarida ham Ubaydullaxon II faoliyati aks etgan.

Ubaydullaxon II saroy fitnasi natijasida Buxoroning Piri Mirza chorbog'ida o'ldirilgan. U Buxoro yaqinida - Bahouddin majmuasidagi Daxmai shohonda otasi Subhonqulixon qabri yonida dafn etilgan.

Abulfayzzxon ibn Subhonqulixon (1695-1747) Ubaydullaxonning inisi. Ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xoni. U hech qanday real hokimyatga ega emas, kundan-kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'lida bir „qo'g'irchoq" hukmdor edi, xolos. Uning davrida keyinchalik mang'itlar davlatining tashkil topishiga sababchi bo'lgan mang'itlar qabilasidan kelib chiqqan Muhammad Hakimbiy katta nufuzga ega bo'lib olgan edi. U vaqtini ko'ngulxushlik ishlariga sarflab, mayxo'rlikka berilib ketdi. Uning yetti farzandi bor edi. Mast chog'ida ularni o'limga mahkum etdi. Hali go'dak bo'lgan Abdulmo'mingina taxt ostiga yashirib, omon qolgan. Xon deyarli davlat ishlarini nazorat qilmay qo'ydi. Shu tariqa, Buxoroda xon hokimiyati barham topdi. Oliy hokimiyat amalda oliy qo'shbegi bo'lib olgan Jovshon qalmoq qo'lga o'tdi. Markaziy hokimyatning zaiflashuvi feodal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Xiva, Badaxshon amalda mustaqil bo'lib oldilar. Bu ahvol tashqi dusjmanlarning Movarounnahrda bostirib kirishga qulay imkoniyat yaratdi. Abulfayzzxon davrida o'zaro nizolar kuchaygan, mamlakat chuqur iqtisodiy-siyosiy tanazzulga yuz tutgan. Bu davrga kelib xonning ahvoli shu darajaga yetib bordiki, uning farmonlari saroydan tashqariga chiqmagan. Nodirshoh qo'shinlarining Movarounnahrda qilgan yurishlari natijasida Abulfayzzxon taxtdan ag'darilgan. Muhammad Rahimbiy buyrug'i bilan 1747-yilda Abulfayzzxon Mir Arab madrasasi hujralaridan birida o'ldiriladi.

1924-yilda Abdurauf Fitrat unga bag'ishlab "Abulfayzzxon" dramasini yaratgan.

Abdulmo‘min ibn Abulfayzxon (1738-yil - Buxoro - 1751-yil) Ashtarxoniylardan bo‘lgan Buxoro xoni. Abulfayzxonning o‘g‘li. Abulfayzxonning yetti farzandi bor edi. U mast chog‘ida ularni o‘limga mahkum etadi. Hali go‘dak bo‘lgan Abdulmo‘mingina taxt ostiga yashirib, omon qoladi. Abulfayzxon o‘limidan so‘ng (1747), Abdulmo‘minni Muhammad Rahim otaliq taxtga o‘tqizadi va o‘ziga kuyov qilib oladi. Buxoroda turgan eron shohi Nodirshohning ukasi Aliqulixon boshchiligidagi qo‘shin o‘z yurtiga jo‘natib yuborilgan. U taxtga o‘tqizilgan bo‘lsada amalda hokimyat butunlay mang‘itlar qo‘lida, ya‘ni Muhammad Rahim qo‘lida bo‘lgan. Biroq oradan 4 yil o‘tgach, Muhammad Rahim kuyovi Abdulmo‘minni ham o‘ldirib, taxtga Abulfayzxonning kichik o‘g‘li Ubaydullaxon III ni o‘tqazadi (1751).

Ubaydullaxon ibn Abdulmo‘minxon (1751–1754) Ashtarxoniylar sulolasining so‘ngi hukmdori. Davlat boshqaruvida hech qanday ro‘l o‘ynamagan edi. Davlat boshqaruvi butunlay mang‘itlar qo‘lida bo‘lgan. U mang‘itlar amiri Muhammad Rahimbiyga tamomila bo‘ysungan. Muhammad Rahimbiy buyrug‘i bilan taxtdan voz kechgan. Uning keyingi hayoti haqida ma‘lumotlar saqlanib qolmagan.

Tarixiy manbalardan ma‘lumki, ashtarxoniylar sulolasi hukm surgan davrda, ayniqsa, uning oxirgi vakillaridan biri Abulfayzxon hukmronligi yillarida (1711-1747) davlatda o‘zboshimchalik, boshboshdoqlik, o‘zbek qabila-urug‘lari o‘rtasida hokimiyat uchun kurash, ayrim hududlarning mustaqillikka bo‘lgan intilishlarining kuchayishi bilan bog‘liq holatlar Buxoro davlatini ham ichki ham tashqi siyosatda to‘la tanazzul yoqasiga olib kelgan edi. Jamiyat hayotida bunday muammolarning yuzaga kelishiga asosiy sabablardan biri – ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxonning davlatni boshqarishdagi rolining pasayganligi va uning yetarli boshqaruv qobiliyatiga ega emasligida edi.

Sharqshunos Anke fon Kyugelgen ma‘lumotlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ashtarxoniylarning so‘nggi vakillari davlatni boshqarish, uni mustahkamlash va davlatning ichki hamda tashqi xavfsizligi masalalariga jiddiy e‘tibor qaratmaganlar. Buning oqibatida joylardagi ichki siyosiy nizolarni hal etish va Eron davlati tomonidan bo‘lgan tashqi xavf oldida mamlakat ojiz bo‘lib qolgan edi.

Shu bilan birga, ob‘ektiv sabablar bilan bir qatorda, mamlakatda bunday xavfli vaziyatning yuzaga kelishiga quyidagi uchta sub‘ektiv omil va voqyealar ham muayyan darajada o‘zining ta‘sirini o‘tkazgan:

Birinchidan, xonlikning muhim hududiy markazlaridan biri hisoblangan hamda mamlakatning asosiy iqtisodiy, ma'rifiy va harbiy resurslari joylashgan Samarqand bekligini xonning asosiy raqiblaridan biri bo'lgan Rajab Sulton boshqaruviga o'tishi;

Ikkinchidan, nomusulmon bo'lgan jo'ng'orlar quvg'inidan qochgan qozoq ulamolariga nisbatan xon hokimiyati tomonidan yetarli e'tibor bo'lmaganligi va buning oqibatida musulmonlar o'rtasida katta obro'ga ega bo'lgan ushbu ulamolarning yetti yil davomida sarson-sargardonchilikda bo'lishlari aholining xonga bo'lgan hurmat e'tiborini yo'qolishiga olib kelgan;

Uchinchidan, xonning bevosita yo'l qo'yib berishi natijasida Ibodullo xitoy va uning tarafdorlari tomonidan muqaddas qadamjo hisoblanadigan Xo'ja Bahovuddin xonaqosining vayron etilishi aholining kuchli noroziligini kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Binobarin, 1721–1722 yillarda Samarqandning Rajab Sulton boshqaruviga o'tishi nafaqat Buxoro xonligiga qarshi qaratilgan g'alayon sifatida, balki mamlakat zaiflashuvining asosiy sabablaridan biri sifatida baholanadi. Qozoq va qoraqalpoqlarning 1723 yildan 1730 yilgacha davom etgan isyonining asosiy sababchilaridan biri ham Rajab Sultonning yaqin kishisi Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy Kenagas edi. Buning oqibatida, Abulfayzxon va uning harbiy qo'shini isyonchi kuchlar oldida himoyasiz qolgan edi. Mamlakatda tinimsiz davom etayotgan g'alayonlar natijasi o'laroq hamda o'sha davrda ro'y bergan tabiiy ofatlar (surunkasiga uzoq muddat yomg'ir yog'ishi) sababli haydaladigan yerlarning dehqonchilik uchun yaroqsiz ahvolga kelishi va o'z navbatida aholining katta qismini Samarqand va Miyonqol hududlarini tark etishga majbur etgan. Sharqshunos Anke fon Kyugelgenning ma'lumotlariga ko'ra, otaliq lavozimida faoliyat yuritgan Muhammad Hakimbiy (Muhammad Rahimning otasi) isyonchilar va ichki dushmanlar bilan tinchlik yo'lida muzokaralar olib borishi natijasida muayyan muddat davomida barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo'lgan. Shu bilan birga, yuqorida nomi tilga olingan Ibodullo xitoy o'z tarafdorlari va boshqa xitoy-qipchoq urug'iga mansub bo'lgan aholi bilan birgalikda Miyonqolda amirga qarshi qo'zg'olon ko'targan va buning oqibatida bir qator shaharlar vayrona holatga tushib qolgan. Bunday vaziyatda Abulfayzxon Ibodullo xitoyning qilmishlariga yarasha jazo berish o'rniga, aksincha, uni devonbegi ("devonxona boshlig'i") lavozimiga tayinlagani xalqning haqli ravishda

Abulfayzxon xokimiyatiga nisbatan noroziligini va unga qarshi borish ruhiyatini keltirib chiqargan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Muhammad Hakimbiy Abulfayzxon hukmronligi davrida davlat hokimiyatiga qarshi chiqqan qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan. Bundan ijobiy tarzda foydalangan Muhammad Rahim davlat hokimiyatini egallashga qaratilgan faoliyatini mustahkamlay borgan.

Hokimiyatning ashtarxoniylar qo'lidan mang'itlar qo'liga o'tishida yana bir asosiy va muhim omil bu tashqi-siyosiy vaziyat hisoblanadi. Xususan, Eron shohi Nodirshohning tashqi-siyosiy faoliyati asosan Buxoro xonligini o'z ta'sir doirasiga olishga qaratilganligi, o'z navbatida, xonlikda davlat hokimiyatini tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Mahg'itlar – Muhammad Rahimbiy, Shohmurod, Haydar, Nasrulloxon, Muzaffarxon, Sayid Olimxon. Eron shohi Nodirshohning o'g'li Rizoquli 1737–1738 yillarda ashtarxoniylar qo'shini bilan Qarshi bekligida va Shulluk vohasida to'qnashib, o'zbek qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratadi. Shu bilan birga, uzoq maqsadlarni ko'zlagan Nodirshoh asirga olingan o'zbek qo'shinlariga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatadi va otaliq Muhammad Doniyolbiyni asirlikdan ozod etadi. Yuqoridagilar bilan cheklanmasdan, Nodirshoh o'g'li Rizoqulining nomaqbul harakatlari uchun Abulfayzxondan uzr so'rab, undan an'anaga ko'ra sulh tuzishni taklif qiladi.

Ikki davlat hukmdorlari Amudaryo qirg'oqlarida uchrashib, Eron va Turon mamlakatlari o'rtasida barqaror ittifoqni mustahkamlashga kelishib oladilar. Mazkur uchrashuvda Muhammad Hakimbiy va uning o'g'lini ozod etilishi ikki davlat o'rtasidagi barqaror tinchlikni o'rnatishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ikki davlat o'rtasida tinchlik muzokaralarini o'tkazishda Muhammad Hakimbiy va uning o'g'li Muhammad Rahimlarning xizmati katta bo'lgan. Bunday vaziyatdan unumli ravishda foydalangan Muhammad Rahim hokimiyatni egallash uchun Nodirshoh bilan samimiy munosabatda bo'lishga intiladi.

Nodirshoh Muhammad Rahimning hokimiyatni boshqarishga bo'lgan qobiliyatini ko'rib, unga o'z o'g'li kabi yondashadi hamda hokimiyatni egallashda amaliy yordam ko'rsatadi. Xususan, Nodirshoh Muhammad Rahimga o'z harbiy kuchini mustahkamlashi uchun askarlar sonini 6000 dan 18000 gacha ko'paytirishiga hamda Muhammad Hakimbiyning vafotidan so'ng uni otaliq lavozimini egallashiga imkoniyat tug'dirib beradi.

Shu bilan birga, Nodirshoh Abulfayzxon davlatidagi ichki g'alayonlarga o'z munosabatini bildirib, ularni oldini olish va qarshi kurashish lozimligiga alohida e'tibor qaratadi hamda davlat boshlig'ini ushbu jarayonlarga befarq bo'lmaslikka chaqiradi. Xususan, Nodirshoh ushbu masalada xonga yozma ravishda murojaat etib, Abulfayzxonning siyosatini qattiq tanqid qiladi. Ayrim manbalarda, aksincha, Nodirshohning xonga nisbatan hayrihoh ekanligi hatto unga ehtirom ko'rsatib, uni o'z xizmatiga olishlik istagi borligini bildirganligi to'g'risida gap boradi. "Shu maqsadda Nodirshoh ikki asosiy huquqiy hujjat – farmon(yorliq)ni qabul qiladi. Birinchisi, Abulfayzxonni o'z lavozimidan ozod etish va uning o'rniga o'g'li Abdulmo'minni xon etib tayinlash haqida, ikkinchisi, Muhammad Rahimni Movarounnahr sultoni (amir ul-umaro) etib tayinlash haqida edi". Biroq Abulfayzxon Nodirshoh xizmatida faoliyat yuritish taklifini rad etadi.

1743 yilning dekabr oyida Nodirshoh o'n ikkita shia mazhabiga mansub bo'lgan imomlar va sunniylik mazhabiga mansub bo'lgan eron, afg'on va Movarounnahr ulamolarini e'tiqodning har qanday vaziyatida "kelishuv"ga erishish mumkinligiga undash maqsadida to'playdi. Uchrashuvda Bog'dod shahrining qozisi Abdullo as-Suvaydiy yig'ilish bayonini olib borish uchun hakam sifatida tayinlanadi. Uchrashuvga yetmishta eron, yettita afg'on va yettita Movarounnahr muftiylari, qozilari va imomlari tashrif buyurgan. Sunniylar tarafidan vakil sifatida mashhur Buxoro qozisi hamda Ko'kaldosh madrasasining mudarrisi Xodi Xo'ja ibn Alouddin, shialar tarafidan esa Nodirshohning diniy va huquqiy masalalar yuzasidan muallimi mullaboshi Ali Akbar so'zga chiqqanlar.

Mazkur uchrashuvda har doimgidek sunniylarning shialik aqidasiqa qaratilgan da'volari ustunlik qilib turgan. Munozara davomida shia mazhabining vakillari Ali Akbar va uning safdoshlari dastlabki ikki xalifa Abu Bakr va Umar safdoshlarini kamsitishni, vaqtinchalik nikoh masalasini hamda Hazrat Ali Muhammad Payg'ambarning yolg'iz vorisi ekanligini tan olishni rad etish to'g'risidagi kelishuvga rozi bo'lganlar. Sunniylik vakillari o'z navbatida shialik ta'limotini, ya'ni to'rt asosiy huquq maktablari qatorida ja'fariya mazhabini tan olishga tayyor ekanliklarini bildirganlar. Yig'ilishning yakunlovchi qismida ishtirok etgan ulamolar yagona kelishuvga imzo qo'yganlar.

Mazkur kelishuv g'oyaviy jihatdan ulamolar o'rtasidagi muayyan barqarorlikni qaror toptirgan bo'lsada, amalda diniy oqimlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar keyinchalik ham davom etgan.

Mavjud adabiyotlarda Buxoro davlatida ashtarxoniylar sulolasining inqirozga uchrashi va hokimiyat tepasiga mang'itlar sulolasi vakillarining kelishi to'g'risida turli xil yondashuvlar ilgari surilgan. Xususan, R. Grausset, S. Beker kabi xorijlik olimlar oxirgi joniylar yoki ashtarxoniylar 1758-yilgacha hukmronlik qilganliklari va oxirgi ashtarxoniylar Abulg'ozixon ekanligi to'g'risida fikr bildiradilar. Shundan kelib chiqib, mang'itlar hokimiyat tepasiga 1785 yilda kelganliklari va uning birinchi hukmdori Shohmurod ekanligi to'g'risida ma'lumot beradilar.

Milliy adabiyotlarda ham ushbu masalaga turlicha yondashiladi. Xususan, II jildlik O'zbekiston halqlari tarixi kitobida shayboniylarga qarindosh bo'lgan ashtarxoniylar sulolasi (joniylar) hokimiyatni 1601-yildan 1753-yilga qadar boshqarganligi haqida so'z yuritilib, shunday deyiladi: "joniylarning so'nggi vakili Abulg'ozi qat'iyatli emas edi. U Shohmurodga otaliq lavozimini egallash va amalda hokim bo'lishga rozilik berishini so'rab bir necha marta murojaat qildi. U ko'p marta rad javobini bergach, nihoyat rozi bo'ldi, vazirlik (1785–1800) lavozimini egallab, qo'zg'olonlarni tinchitdi va davlatda tartib o'rnatdi. So'ng Abulg'ozini taxtdan ag'darib 1785-yilda o'zi taxtga o'tirdi".

Mazkur ma'lumotdan ashtarxoniylar sulolasi 1785 yilgacha hukmronlik qilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Muhammad Rahimbiy vafotidan keyin 1758-yilda uning yosh nevarasi Fozil To'ra taxtga o'tiradi, unga Muhammad Rahimning katta amakisi Doniyolbiy otaliq tayinlanadi. Muhammad Rahimning o'limi haqidagi xabar viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi harakatlarini kuchaytirib yuboradi. Buxoroga yurishlar boshlangan bir vaziyatda Doniyolbiy ularga qarshi qo'shin tortishga majbur bo'ladi va uzoq davom etgan muzokaralardan keyin viloyat hokimlari bilan Fozil To'rani taxtdan chetlatish haqida kelishib olinadi.

Taxtga nomigagina ashtarxoniylardan Abulg'ozi (1753-1785) o'tqaziladi, lekin otaliq Doniyolbiyning o'zi (1758-1785) amalda haqiqiy hokim bo'lib qolaveradi. Ashtarxoniylar Abulg'ozi amalda hokimiyat egasi bo'lmasa ham rasman xon sifatida tan olingani uchun ushbu sulolaning 1785 yilgacha hukm surganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Ushbu jarayonlar haqida tadqiqot olib borgan tarixchi olim Sh.Vohidovning yozishicha, Buxoro davlatida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mang'it sulolasining namoyandalari hukmronlik qilgan. Ushbu sulolaning asoschisi Rahimbiy ibn Hakimbiy Xudoyor bo'ladi. Rahimbiy Abulfayzxon o'limidan so'ng uning o'g'illari Abdullo va

Abdulmo‘minga otaliqlik qiladi (1747), keyin 1756 yili sayidlar, xo‘jalar va ruhoniylar tarafidan Buxoroda xon qilib ko‘tarilgan bo‘lsa ham, u o‘zini “noib-ul-hukumat” – hokim o‘rinbosari, deb bilgan. Rahimbiy Abulfayzxon qiziga uylangan edi. 1756 yili Muhammad Rahimbiy o‘lgandan so‘ng o‘rniga amakisi Doniyolbiy otaliq hukumatni qo‘lga oladi. U xonlikka da’vo qilmay, avval Fozil To‘rani keyin Abulg‘oziy degan kimsani xon qilib, o‘zini ularga noib deb e‘lon qiladi. Uning o‘g‘li Shohmurod 1785 yili Buxoroda amir-ul-mo‘minin nomi bilan taxtga ko‘tariladi. U amakisining xotini Abulfayzxon qiziga uylanib, keyin chingiziylarga qo‘shildi. Amir Shohmurod vafotidan keyin amir Haydar, amir Husayn, amir Umar, amir Nasrullo, amir Muzaffar, amir Abdulahad, amir Olimxonlar Buxoro xonligida hukmronlik qilganlar”.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mazkur masalalar yuzasidan mamlakatimiz huquqshunos olimlari yetarli izlanishlar olib bormaganlar. Davlat va huquq tarixi masalalari bilan shug‘ullanuvchi olimlar Buxoro davlatchiligi shakllanishida o‘ziga xos o‘rin tutadigan ushbu davr to‘g‘risida qisman to‘xtalib o‘tadilar, xolos. Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda amalga oshirilgan tarixiy-huquqiy tadqiqotlarda davlat boshqaruvining ashtarxoniylar qo‘lidan mang‘itlar boshqaruviga o‘tishi tarixiy-huquqiy jihatdan asoslanmagan. Masalan, M. A. Hamidova o‘zining “O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmasida “davlat boshqaruvi Abulfayzxon o‘limidan so‘ng mang‘itlar qo‘liga o‘tgan” degan jumla bilan kifoyalangan.

Prof. Z. Yu. Muqimov davlat boshqaruvining ashtarxoniylar qo‘lidan mang‘itlar qo‘liga o‘tishining asosiy sababi sifatida Muhammad Hakim otaliqning hokimiyatni o‘z qo‘liga olishi va Eron shohi Nodirshohning o‘zbek xonliklari yerlariga bostirib kirishini ko‘rsatadi.

Milliy davlatchilik tarixi masalalari bilan shug‘ullangan Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” asarida ashtarxoniylar hokimiyatining zaiflashuvi hamda mang‘it hukmdorlari boshqaruviga o‘tishiga sabab bo‘lgan omillar xususida to‘xtalib o‘tilmasdan, ko‘proq Muhammad Rahimning davlatni boshqarish faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

Professor D. A. Alimova va akademik E. V. Rtveladzelar Nodirshohning O‘rta Osiyoga bostirib kirishi va Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzganligi xususida ma’lumot, A. Sagdullayev va O‘.Mavlonovlarning tadqiqotlarida Abulfayzxon hukmronligi davrida mang‘it urug‘i vakillarining hokimiyatga intilishi kuchayganligi hamda

Muhammad Hakimning Nodirshoh xizmatiga kirib o'z avlodlariga hokimiyatni egallash uchun yordam berganligi to'g'risidagi fikrlar o'z ifodasini topgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlarning asarlarini tahlil qilish va mavzuga oid boshqa bir qator tadqiqotlarni o'rganish asosida xulosa qilish mumkinki, davlat hokimiyatini ashtarxoniylar qo'lidan mang'itlar boshqaruviga o'tishiga sabab bo'lgan omillar ularda atroflicha tahlil etilmagan. Ushbu davr to'g'risida birmuncha haqqoniy va keng ma'lumot berishi mumkin bo'lgan tarixiy manbalar yetarli bo'lishiga qaramasdan Buxoro davlatchiligi taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan mazkur davr tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan. Biz tomonimizdan dastlabki manbalarni o'rganish va tahlil etish asosida hokimiyatning ashtarxoniylar sulolasidan mang'itlar sulolasiga o'tishiga sabab bo'lgan omillar sifatida tashqi siyosiy vaziyat, Abulfayzxon hukmronligi yillarida davlatda o'zboshimchalik, boshboshdoqlik singari illatlarning kuchayib ketishi ko'rsatildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Buxoro davlati hokimiyatining ashtarxoniylar hukmronligidan mang'itlar vakillariga o'tishiga ham ichki ham tashqi-siyosiy omil muhim rol o'ynagan. Xususan, so'nggi ashtarxoniy Abulfayzxonning davlat boshqaruvi masalalarida ichki ziddiyatlar va o'zboshimchaliklarni o'z vaqtida bartaraf eta olmasligi hamda tashqi-siyosiy vaziyatni to'g'ri anglab yetmasligining oqibatlari ham ta'sir etgan. Shu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib hudud birligini mustahkamlash, mamlakatni tashqi xavflardan oldini olish maqsadida mang'it urug'i vakillari Muhammad Hakimbiy va Muhammad Rahimlarning mohirona xizmatlari ham alohida ahamiyatga egadir.

Doniyolbiy otaliq (Doniyolbiy ibn Xudoyorbiy) (1758-1785) Muhammad Rahimbiyning amakisi, mang'itlarning nufuzli biylaridan bo'lib, otaliq lavozimida ishlagan. 1758-yil 24-martda Muhammad Rahim vafotidan so'ng uning o'g'illari bo'lmaganligi uchun xonlik taxtiga voyaga yetmagan nabirasi - Fozilto'ra o'tqazilgan, Miyonqol hokimi bo'lgan Doniyolbiy unga otaliq qilib tayinlangan (1758-1785). Bundan norozi bo'lgan viloyat hokimlari, kenagas, yuz, bahrin, burhut va saroy qabilalari amirlari markazlashgan hokimiyatga qarshi isyon ko'tarib, 10 ming yigitni qurollantirib, Buxoro tomonga yurishgan. Ularga qarshi chiqqan Doniyolbiy isyonkor viloyat hokimlari bilan bir bitimga kelishgan. Unga ko'ra, Fozilto'rani taxtdan tushirib, o'rniga Ashtarxoniy shahzodalardan bo'lgan Abulg'ozi xonlik taxtiga o'tqazilgan (1758-1785). Doniyolbiy

ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmdorlikni o'z qo'lida saqlab qolgan. Doniyolbiy otaliq davrida ham o'zaro urushlar davom etib, Karmana, O'ratepa, Nurota, Sherobod, Boysun va boshqa joylarda mahalliy kuchlar bosh ko'tarib, poytaxt izmidan chiqishga harakat qilganlar. 1781-yil Rossiya hukumati Buxoro bilan savdo bitimini tuzishga taklif etganida Doniyolbiy bu bitimni 92 o'zbek qabilasi boshliqlari roziligisiz imzolay olmasligini bildirgan. Bu holat Doniyolbiy davrida Buxoro xonligi siyosiy markazlashuv darajasi Muhammad Rahim davridan ancha past bo'lganini bildiradi. Bu tabiiy suratda Buxoro shahri aholisining noroziligiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari Doniyolbiy qo'shin ta'minoti uchun ko'plab qo'shimcha soliqlar joriy etib, bu bilan poytaxtdagi hunarmandlar va savdo ahlini o'ziga qarshi qo'yib qo'ygan edi. 1784-yil Buxoroda qo'zg'olon ko'tarilib, unda mingga yaqin kishi o'ldirilgan.

Doniyolbiy hokimiyatni shaharliklar obro'-etibori baland bo'lgan o'g'li Shohmurodga topshirishga majbur bo'ldi. Buxoro xonligini birlashtirish markazlashtirish uchun kurashni Shohmurod davom ettirgan. Mang'itlardan bo'lgan Buxorolik tarixchi Muhammad Yoqubning yozishicha: "Doniyolbiy sahiy va muruvvatli hokim sifatida mashhur bo'lgan, lekin davlat (moliya) ishlari bilan qiziqmagan. Biron ishni boshlashdan oldin ishning ko'zini biladigan kishilar bilan maslahatlashgan". Doniyolbiy xonlik unvonini qabul qilmagan, u otaliq unvoni qanoatlangan. Doniyolbiy davrida me'moriy yodgorliklardan "Xalifa Xudoydod" majmuasi (masjid, madrasa, sardoba va mozor, 1777-yil) qurilishi boshlangan.

Shohmurod ibn Doniyolbiy (1749-1800) yoshligidan xudojoy, porso bo'lib o'sgan. 1785-1800 yillarda Buxoro amiri sifatida mamlakatni idora qilgan. Madrasani bitirib, darvishlik suluki soliklaridan biriga aylanadi. Shuning uchun xalq uni hurmat bilan "amiri ma'sum" (begunoh amir) unvonini bergan. Shohmurod darvishona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda hammollik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratgan. Uning xalq orasida obro'si katta bo'lganligi uchun Doniyolbiy uni o'ziga valiahd etib tayinlashga majbur bo'lgan. O'n nafar ukalaridan birortasi ham Shohmurodni yoqtirmas edi. Amirlik taxtiga chiqqach, ukalarining har biriga bittadan viloyat hokimligini topshiradi. Markaziy hokimyat mustahkamlash ishiga qattiq bel bo'g'lagan hukmdor edi.

Mangʻit namoyondalar orasida Shohmurod ham shaxs, ham arbob sifatida alohida oʻrin tutgan, desak xato boʻlmaydi. Zolim qoʻshbegi va qozikalon Nizomiddinni qatl ettiradi. Harbiy ishlar, qozilik ishlarini shariat qonunlari asosida tashkil qiladi. Hokimiyat boshqarish tartiblarini isloh qilib, siyosiy tarqoqlikka barham beradi. Shohmurod oʻz faoliyatida ommaga tayanib ish tutgan. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. Oʻzi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirgan. Jumladan, bir yilda bir olacha chopon, bir boʻz koʻylak kiygan. Boshiga olti gazli boʻz salla, oyogʻiga echkiterisidan tikilgan saxtiyon mahsi hamda kovush kiygan. Marv yaqinida Islomobod shahrini qurdirgan.

XVIII asrning 20-yillarida boshlangan oʻzaro kurashlar natijasida Samarqand talangan, vayrona holiga tushib qolgan edi. Amir Shohmurod esa koʻplab quruvchi, koshinpaz va naqqosh ustalarni tevarak atrofdan olib keltirib, Samarqand shahrini qayta tiklashni buyurdi. Qayta qurilajak shahar tarhini Amir Shohmurodning oʻzi chizib bergan. Amir Shohmurod bundan tashqari, Gʻuzor tumanida madrasa va masjid qurdirgan. Shahar markazida olti qirrali Chorsu qurilib, “Toqi musaddas”deb atalgan. Samarqandning har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarrisarlarni Shohmurodning oʻzi tayinlagan. Talabalar va mudarrisarlarning maoshi uchun vaqf yerlari va mulklar ajratgan.

Amir Shohmurod baʼzi islohatlar oʻtkazib davlatni mustahkamlashga erishdi: Boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi. Otasi Doniyolbiy davrida joriy etilgan turli soliqlarni bekor qilgan.

Rais mansabini va qoʻshin tarkibida qozi askar lavozimini joriy qildi. Otasi davrida qisqartirilgan vaqf yerlari miqdorini oshirdi. Bu bilan islom ruhoniylari eʼtiborini qozondi. Mamlakat iqtisodini yoʻlga qoʻyishda Shohmurod oʻtkazgan pul islohoti muhim ahamiyat kasb etdi. Shohmurod sof kumushdan tanga zarb qilishni buyurdi. Kimning kumushi boʻlsa, zarbxonaga topshirib, evaziga yangi tangalar – pul olishi mumkin edi. Ilgari zarb qilingan tangalar bekor qilindi. Yangi pul tijorat ishlari rivojiga yoʻl ochib berdi. Barcha viloyatlarga yangi hokimlar tayin qildi, har shahar va qishloqqa qozi tayinladi. Bu bilan hokimlar oʻz boshimchaligiga barham berdi. Shohmurodning oʻzi qozilarga dastur boʻladigan fiqh haqida “Ayn ul-hikmat”nomli risola yozdi va ilgari surulgan qoidalarni barcha viloyatlarga joriy qildi. Shohmurod joriy qilgan qonun boʻyicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa jamiyatdagi martabasidan qatʼi nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi.

Shariat qonunlarini amalga tatbiq etish maqsadida raislik (muhtasib) mansabini joriy qildi.

Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishini, karvon yo'llarining xatarsizligini ta'minladi. Pul islohoti esa tijorat ravnaqiga sabab bo'ldi. Zarafshon vodiysi, Amudaryo havzasi va Qashqadaryo vohasi qadimgidek obod bo'ldi. Davlat mablag'i hisobidan anhorlar chiqarilib, tashlandiq yerlar obod etildi. Natijada, davlat xazinasida tushum ko'paydi.

Amir Shohmurod 1789-1790-yillari Marvda o'z hokimiyatini o'rnatib, marvliklarning bir necha o'n minglik kishini Samarqand va Buxoroga ko'chirtiradi. Shundan so'ng, eskidan Samarqand yoki Buxoro (ya'ni poytaxt ma'nosida) izmida bo'lib kelgan Balx, Maymana, Andxud kabi viloyatlarni ham qaytarib olish payiga tushadi. Ammo bu oson emas edi. Zero, 1747-yildan boshlab Balx, Badaxshon, Andxud, Maymana, Sharqiy Seiston, Balujiston, Sind, Kashmir, Panjob kabi viloyatlarni o'z tasarrufiga olgan Afg'oniston hududida tashkil topgan durroniylar sulolasi namoyondasi Temurshoh ham bo'sh keladiganlardan emas edi.

Mang'itlar sulolasining namoyandasi bo'lgan Shohmurod Buxoroda(1785-yilda) xalq qo'zg'olonidan keyin taxtga o'tirib, hokimiyatni o'z qoliga olgan. Shohmurod qo'zg'olonni bostirish uchun Buxoro aholisiga yon berishga majbur bo'ldi: u shahar aholisiga tantanali ravishda Tarxon yotrlig'i topshirdi. U muoliyaviy, ma'muriy, harbiy va sud islohotlarini o'tkazishga majbur bo'ldi. Pul muomalasida, soliq ishida sud va ma'muriy boshqaruv ishlarida ma'lum tartib o'rnatishda hamda savdogarlarni va hunarmand kosiblarni o'zlarining mulklariga feodallar tomonidan qilinayotgan tazyiqlardan birmuncha qutqarish orqali davlat hokimiyatini mustahkamlashga intildi. Nomiga xon qilib ko'tarilgan Abdulg'oz nomidan 1785-yilda Shohmurod tomonidan o'tkazilgan pul islohoti ilgari qadri past tangalardan tashqi ko'rinishi boshqacha bo'lgan kichikroq va vazni kamroq bo'lgan to'la qimmatli kumush tangalarni chuqarishdan iborat bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda, u bemalol tanga zarb ettirish tizimini joriy etdi.

Shohmurodning bu islohoti XVII-XVIII asrlarda pul muomalasiga ko'p putur yetkazgan chayqovchilikka va tangalarni buzishga yo'l qo'ymasligi lozim edi. Shariatga to'g'ri kelmaydigan yorg'u, boj, tarx, tushmol, yasoq, oliq va soliq deb ataladigan bir necha soliqlarni, shuningdek, ilgari xonlar hunarmandlardan olishga odatlanib qolgan o'lponlarini va ularga yuklayotgan tekin mehnat majburiyatlarni bekor qildi. Biroq, daromadlar kamayib ketgankigi va katta qo'shin saqlab turish

zarur bo'lib qolganligi buni aholidan "Jul" deb atalgan va shariatga also ta'luqli bo'lmagan pul solig'ini tez olib turishga majbur bo'ldi. Shohmurod ma'muriy islohotni Buxoroning oliy amaldorlari Davlat qushbegini va Nizomiddin qozikalonni o'z qo'li bilan qatl etishdan boshladi. So'ngra viloyatlarning beklari va qozilari olib tashlanib, ularning o'rniga yangi amirning hamfikrlari tayinlanadi.

Amir Haydar ibn Shohmurod (1800-1826)ning hukmronlik yillarida mamlakatda notinchlik hukm suradi, ya'ni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida bo'lgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik - xonlikka aylangan Xiva va Qo'qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi va mamlakatda har 3-6 oyda uzluksiz ichki urushlar va qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Miyonqol, Shahrisabz, Karki, Marvdagi mahalliy kuchlar yana o'z boshimchalik qila boshlaganlar. Chunonchi, Marvni boshqarib turgan Dinnosirbek (amirning ukasi) Xiva xoni Eltuzar (1804-1806) ko'magiga ishonib, bosh ko'taradi. Amir Haydar uchun bu nihoyatda havfli holat edi. Chunki, bu shunchaki bir viloyatning markazga bo'yin egmasligi emas, balki rasmiy sulola namoyondasining mintaqadagi raqiblardan – xivaliklar bilan til biriktirib, oliy taxtga qarshi harakati edi. Shuning uchun ham Amir Haydar unga qarshi lashkar tortadi. Dinnosirbek bas kelolmay Mashhadga qochadi. Shohmurod davrida bo'lganidek Amir Haydar Marvni egallagach, mahalliy aholining bir qismini Zarafshon vodiysiga ko'chirtirib, bu yerga turkmanlarni o'rnashtiradi. Buxorodagi ichki ziddiyatlardan Xiva xonligi bundan keyin ham foydalanishga ko'p uringan. Xususan Dinnosirbekka yordam berish bahonasida Buxoro xonligi hududiga kirib borgan Eltuzarxondan so'ng 1821-1825-yillari Amir Haydar Miyonqolda xitoy-qipchoqlar isyonini bostirish bilan o'vorligida Xivaliklar Chorjo'y va Marvga harbiy yurish uyushtiradilar. Xivaliklar xatto Marvni zabt etishga ham muvaffaq bo'lganlar. Bungacha ham amirlikning Sharqiy qismida ancha yo'qotishlar va o'zgarishlar bo'lgan. Masalan, Qo'qon hukmdorlari 1805-yili Xo'jandni, 1809-yili Toshkentni, 1816-yil esa Turkistonni ishg'ol etib, xonlik doirasiga kiritadilar. 1806-1813-yillari O'ratepa, 1806-yili Jizzaxga, 1821-yili Samarqandga tahdid solganlar. Xullas, Amir Haydar hukmronligi ancha tahlikali bo'lib, markaziy hokimiyat qudrati susaygan.

Nasrulloxon ibn Amir Haydar (1806-yil 1-iyun – 1860-yil 21-sentabr) otasi Amir Haydar hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. 1826-yili Amir Haydar vafot etgach bir necha oy mobaynida Nasrulloning ikki akasi - Husaynva Umar almashinildi. Birinchisi zaharlandi, ikkinchisi

esa o'ldirildi. Shu yili (1826) Amir Haydarning uchinchi o'g'li shavqatsizligi uchun "Amiri qassob" laqabini olgan Nasrulloxon taxtga o'tirdi. Akalari o'limidan keyin taxtga o'tirgan Nasrulloxon qisqa vaqt ichida taxtga da'vo qilishi mumkin bo'lgan avlodlaridan barchasining bahridan o'tadi. U qo'shinlariga tayangan holda o'zbek feodal zodogonlarini beayov qira boshladi. U yer egalarining mol-mulki va yerlarini musodara, o'zlarini badarg'a qilib, o'ldirtirib yubordi. Bu borada uning eng yaqin yordamchisi rais Rahmonbedi Niyoz edi.

Nasrulloxon o'z hukmronligi davrida islom shariati ko'rsatmalari amal qilgan. Nasrulloxon jasur va dovyurak kishi bo'lganligi bois unga "Bahodir, Botir" unvonlari berilgan. Nasrulloxon davlat hokimyatini mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtirdi. 1837-yilda harbiy sohada islohotlar o'tkazib, o'z qo'shining jangavor holatini yaxshilaydi. Har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar bulimlari va 250 kishilik to'pchilar guruhi tashkil qilingan. Muntazam piyoda qo'shining soni 40 ming kishidan ortiq bo'lgan. Nasrulloxon Xiva va Qo'qon xonliklarini Buxoro atrofida birlashtirishda urungan. Mamlakatning hududiy yaxlitligini tiklash uchun 1840-1842-yillari Qo'qon xonlari tomonidan tortib olingan Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni Buxoro xonligiga qaytardi. Farg'ona vodiysi ulamolarining talabi bilan 1842-yili Qo'qonga yurish qilib xonlik hududini egallagan. Biroq u Qo'qon xoni Muhammad Alixonni (1822-1842) qatl qilish bilan cheklanmasdan, uning onasi (Nodirabegim)ni ham o'ldiradi. Nasrulloxon tomonidan Qo'qonga Ibrohim parvonachi mang'itning noib qilib qoldirilishi salbiy oqibatlarga ham olib kelgan. Noib mahalliy aholiga zulm o'tkazib, soliqlarni ko'paytirdi. Natijada, tez orada Qo'qon qo'ldan ketadi. 1843-yilda Nasrulloxon Marvni ham Buxoroga bo'ysuntiradi.

Shuningdek, Nasrulloxon qo'shini 20 yilda olib borgan 32 ta harbiy yurishidan so'ng 1856-yilda Shahrisabzni uzil-kesil egallagan. Shahrisabz markaziy hokimyatga bo'ysungach, u sulh ramzi sifatida mahalliy hukmdor - Iskandar Vallomaning sinlisi Kenagasxonimga uylangan.

Nasrulloxon hukmronlik qilgan yillar Turkiston mintaqasida Rossiya Angliya manfaatlari o'zaro to'qnashgan davr hisoblanadi. Uning davrida Nasrullon tomonidan Buxoroda Qozi Hasanxo'ja, Olimjonboy, Eshoni Pir, Mirzo Ubayd, Ismoilxo'ja (1829), Ali Chubin, Mirzo Abdulg'affor, Tojiddin madrasalari (1860) qurildi. Xalifa Xudaydod me'moriy majmuasi yakunlandi (1855). Nasrulloxon Buxoroda dafn etilgan.

Muzaffar ibn Nasrulloxon (1819 - Buxoro - 1885) Nasrulloxon o'limidan so'ng 1860-yil 23-sentabridan to o'limiga qadar 1885-yil 12-dekabrgacha Buxoroni idora qilgan. Otasi Nasrulloxon davrida Karmanaga hokimlik qilgan. Amir Nasrullo vafotidan so'ng, Buxoro taxtiga o'tirgan. Otasi tomonidan Karmanaga surgun qilingan kishilarni Buxoroga qaytarib, yuqori lavozimlarga tayinlagan. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamayotgan Hisor, Shahrisabz, Darboz, Ko'lob, Baljuvon bekliklari va Qo'qon ustiga yurish qilib, ularning qarshiligini yengdi (1863-1865). Mallaxon tomonidan taxtdan tushirilgan Qo'qon xoni Xudoyorxon Buxoroga qochib kelganida xonliktaxtini qayta egallashi uchun unga harbiy yordam bergan. Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Rossiya bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etishda umidini uzmay, u 1865 yil iyul oyida Najmiddinxo'ja boshliq ekchilarni Peterburgga jo'natdi. Biroq, ko'zlangan maqasadga erishilmay, ikki o'rtada harbiyharakatlari boshlandi. Muzaffar qo'shini bilan general Romanovskiy boshchiligidagi Rossiya harbiy kuchlari o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv Jizzax bilan Oratepa o'rtasidagi Erjar (Maydayulg'un) da bo'lib, unda Buxoro qo'shini mag'lubiyatga uchragan(1866-y. 8-may). Muzaffar muftiy Muhammad Porso boshchiligidagi elchilarni Afg'oniston va Hindiston orqali yordam so'rab, Istanbulga yuborsa ham rad javobini olgan. 1868-yil 2-3-iyunda Zirabuloq jangida mag'lubiyatga uchragach, 1868-yil 23-iyunda Samarqandda imzolangan Rossiya-Buxoro sulh shartnomasiga ko'ra, Buxoro xonligi Rossiyaga tob' bo'lib qolgan. O'g'li va valiahd Abdulmalik (Katta to'ra) Rossiya bosqini va otasi hukmronligiga qarshi Shahrisabz va Kitobda qo'zg'olon ko'targanda Muzaffar rus qo'shinlari yordamida uni bostirgan. Muzaffar davrida Buxoro xonligining Rossiyaga qaramligi kuchayishi bilan bir qatorda shialarning ta'siri ham ortgan. Buxorodagi Eshon Imlo mozorida dafn etilgan.

Abdulahad ibn Amir Muzaffarxon (1859-yil 16-mart – 1911-yil 6-yanvar davrida Rossiya imperiyasi hukumatining Buxoroda rus siyosiy agentligi ta'sis etib (1886-yil), Turkistonda, jumladan, Buxoro xonligini xom-ashyo ba'zasiga aylantirish va bu yerdagi boyliklarni Rossiyaga tashib ketish maqsadida Amudaryoga ko'prik qurdi, Chorjo'y – Samarqand temiyoli o'tkazildi (1900-1901). Shuningdek, Abdulahad davrida jadidchilik harakati kuchaygan.

Amir Said Olimxon ibn Abdulahad (1881, Karmana – 1944. 28-aprel, Kobul) Mangʻitlardan boʻlgan Buxoro xonligining soʻnggi amiri. 1893-1896 yillarda Peterburgdagi Nikolaev (pajlar) korpusida taʼlim olgan. 1898-yil Qarshi, valiahd sifatida Karmana bekliklariga hokim boʻlgan. Otasi vafotidan soʻng 1910-yil 24-dekabrda Buxoro taxtiga oʻtirgan. Uning davrida Buxoro xonligining Rossiyaga qaramligi yanada kuchaydi. Taraqqiyparvar kuchlar shuningdek, Yosh buxoroliklar qattiq taʼqib qilindi. Birinchi Jahon urushi davrida Rossiya imperatori Nikolay II uni general – leytenant harbiy unvoni bilan taqdirlagan va oʻzining general – adʼyutanti qilib tayinlagan (1915-yil dekabr). Chunki u Rossiyaga katta miqdorda pul bilan yordam bergan edi. Buxoroda 1917-yil aprel namoyishi, xususan, Kolesov voqeasi (1918-yil mart) dan keyin u amirlik hududida 3 ming kishini jadidlikda ayblab, nohaq qatl ettirgan.

1920-yil avgustda Buxoro bosqini natijasida amirlik tuzumi agʻdarib tashlandi. Sentabr oyining oʻrtalarida Olimxon Sharqiy Buxoroga borib, Buxoro xalqining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan mustaqillik kurashiga rahbarlik qilishga urindi. Said Olimxon Hisor viloyatini oʻziga qarorgoh qilib, 6 oy davomida qizil askarlarga qarshi kurashgan. Hisorda yangi hukumat tashkil qilib, buxoroliklarning qizil askarlarga qarshi olib borayotgan jang harakatlarini muvaffaqiyatlashtirishga intilgan. Olimxon Koʻlob, Hisor va Dushanba atrofida katta miqdordagi kuchlarni birlashtirishga muvaffaq boʻlgan. 1920-yil noyabr oyining oʻrtalarida uning qoʻshinlari Boysun, Darband, Sherobodni qizil askarlardan ozod qilishdi. Olimxon ixtiyoriga Fargʻonadan yordamga yuborilgan 4 ming yigit ham Sharqiy Buxoroga yetib keladi. 1921-yil 8-yanvarda Olimxon qoʻshinining miqdori 25 ming kishiga yetgan. Hisordan Koʻlob viloyatiga kelgan Olimxon butun qoʻshinlariga Ibrohimbekni oliy- bosh qoʻmondon qilib tayinlaydi. Biroq, bir qator janglarda magʻlubiyatga uchragach, Olimxon Amudaryoning Chubek kechuvidan Afgʻonistonga oʻtib ketgan (1921-yil 4-mart). Olimxonni Kobulga Afgʻoniston amiri Omonullaxon qabul qilib, doimiy yashashi uchun unga Qalʼaiy Fotuda mahsus qarorgoh ajratib beradi. U Kobulda yashasa ham Buxorodagi ozodlik harakatiga gʻoyaviy jihatdan rahbarlik qilishda davom etdi, qoʻrboshlar va ulamolarga turli maktublar va qimmatbaho sovgʻalar joʻnatib, ularni kurashga ilhomlantirgan. Olimxon Kobulda oʻzining estaliklarini yozib tugallaydi. Umrining oxirida koʻzi ojizlanib qoladi, ogʻir dardga chalinadi uzoq davom etgan hastaliklardan soʻng u Qalʼaiy Fotuda vafot etadi. Kobul atrofidagi “Shahidoni islom”(islom shahidlari) qabristoniga dafn etilgan.

Said Olimxonning xotiralari Parijda fransuz tilida (1929), keyinchalik G'arbda fors tilida, O'zbekistonda o'zbek va rus tillarida (1991), Tojikistonda tojik tilida (1992) alohida kitob sifatida chop qilingan. Olimxon hikmronligi davrida Buxoroda "Olimxon madrasasi" qurilgan, "Sitorai Mohi Hosa" saroyini qurish yakunlangan.

Amir Sayyid Olimxon 1944-yil 29-aprelda 64 yoshida bu foniyl dunyoni tark etdi. Uning taqdiri ancha ayanchli kechdi.

Sayyid Olimxonning farzandlar haqida Majid Hasaniyning aniqlashicha, amirning bir necha xotinlaridan jami 37 ta farzand (16 o'g'il, 21 qiz) tug'ilgan. Shulardan o'nta ma'lum bo'lgan qizlarning ismlari: 1) Shukriya, 2) Muhsina, 3) Xayriya, 4) Muslima, 5) Solixa, 6) Nazokat, 7) Muborak, 8) Muhmina, 9) Sofiya, 10) Uzri. O'gillari: 1) Sayyid Umar, 2) Sayyid Murod, 3) Sayyid Ibrohim, 4) Sayyid Abduraxim, 5) Sayyid Abdufattoh, 6) Sayyid Abdulkabir, 7) Sayyid Azimshoir, 8) Sayyid Mansur (shoir), 9) Sayyid Abdullo, 10) Sayyid Abdulhoji, 11) Sayyid Abdug'affor, 12) Sayyid Hoji, 13) Sayyid Abdusattor, 14) Sayyid Abdurauf, 15) Sayyid Muhammad, 16) Sayyid Orif.

Tayanch iboralar.

Shayboniyxon, homiylik, zodagon, udel tizimi, jangovar an'analar, oliyhimmatlik, valiahd tayinlash an'asi, Balx taxti, mang'itlar, hukmdorlar sifatlari, amirning avlodlari.

Nazorat savollari.

1. Buxoro hukmdorlarining ilmiy ijodkorlik va adabiyot bo'yicha yetakchilik qilgan vakillari haqida ma'lumot bering.
2. Imomqulixon hukmronligi davrida Buxoro xonligining tashqi siyosiy ta'siri qanday jihatlarida namoyon bo'ldi?
3. Hah uch sulolaning so'nggi hukmdorlari faoliyatiga tavsif bering.
4. Buxoroning so'nggi hukmdori va uning avlodlari haqida ma'lumot bering.

BUXORODA QUROLI QARSHILIK HARAKATI

Reja:

- 1. Buxoroda qurolli qarshilik harakati va uning kelib chiqish sabablari**
- 2. Mulla Abduqahhor va Ibrohimbek Laqay harakati**
- 3. Anvar Posho shaxsi va uning qurolli qarshilik harakatidagi ishtiroki.**

Buxoroda qurolli qarshilik harakati va uning kelib chiqish sabablari. Bolsheviklarning bosqinchiligiga qarshi O'rta Osiyoda keng quloch yoygan xalq harakati bolsheviklar tomonidan «bosmachilik» harakati deb, ushbu harakat ishtirokchilari «bosmachilar» deb atala boshlandi. Aslida «bosmachi» so'zi «bosmoq» fe'lidan olingan bo'lib, muayyan hududni bosmoq, talamoq ma'nosini bildiradi. Bu isbot ham, ilmiy talqin ham talab qilmaydigan aksioma. Xuddi mana shu sabab tufayli o'tgan asrning yigirmanchi yillaridan boshlab chiqarilayotgan deyarli barcha ilmiy maqolalarda atamaning yuqoridagi talqini ustuvor mohiyat kasb etib kelmoqda. Bu so'z yurt mudofaachilari va erku imon himoyachilarini xalqqa yomon ko'rsatib, badnom qilish uchun bolsheviklar tomonidan ishlatilib, keyinchalik harbiy va ilmiy-siyosiy muomalaga kiritilgan atamadir. Aslida bosmachi muayyan hududga o'zga yurtdan bostirib kelganlarga nisbatan ishlatilsa to'g'ri bo'ladi. Masalaning ikkinchi tomoniga ham e'tibor qaratish lozimki, o'sha qonli mojarolar avjiga chiqqan yillardagi siyosiy hokimiyatning tamoman falajligi sharoitida ba'zi kriminal elementlar ham qurollanib, ayrim hududlarda talonchilik qilishgan. Bunday kimsalar yurt va imon-e'tiqod himoyasi uchun birlashgan dastalar orasida ham yo'q emas edi. Mana shunday kimsalarga nisbat berilib, aholi orasida ularga nisbatan salbiy kayfiyat uyg'otish maqsadida bolsheviklar yurt himoyasi uchun otlangan butun boshli guruhlarini ham bosqinchi to'dalar, ya'ni bosmachilar deb atay boshlaganlar.

Muammoning yana bir tomoni, bosqinchi atamasi, o'zga yurtdan bosib kelgan guruhga nisbatan ishlatilsa haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Demak, bolsheviklarning o'zlari bosmachilik siyosati tufayli O'rta Osiyo hududlarini bosib olib, o'zlarining harbiy-siyosiy qilmishlarini xaspo'shlash uchun ayrim o'g'ri guruhlar siymosida ushbu salbiy atamani yurt himoyachilariga nisbatan ham qo'llay boshladilar. Sharqiy Buxorodan istiqloлча kuchlarning yo'l boshchilari 1922 yilda Boysun garnizonidagi

bolsheviklar hukumati vakillariga quyidagi talabni qo‘yadi va bu xat Sovet hukumatining Boysundagi vakili Olimjon Akchurinning qo‘liga kelib tushadi: «Boysun shahridagi bolsheviklar vakiliga. Haqiqiy mustaqil Buxoro tuprog‘idagi aholining vakillari bo‘lgan bizlar Sizlarga shuni ma‘lum qilamizki, sizlar vatanimizdan chiqib ketmaguningizcha jangni davom ettiraveramiz deb hammamiz bir qarorga keldik. Hozirgi vaqtda behuda qon to‘kilmasin deb va odamgarchilik qilib sizlarga mamlakatimizdan chiqib ketishni taklif qilayotirmiz. Shunday qilsangiz Sizning do‘stlaringiz bo‘lib qolamiz va o‘zimiz yordam berib sizlarni ochlikdan saqlab qolamiz, aks holda, Sizlar vataningizda ochlikdan o‘layotgan oilalaringiz kabi mahv etilasiz. Hozir biz gunohkor bo‘lmaylik deb odam qonini to‘kishni istamayotirmiz. Lekin xalqimizning istagiga xilof ravishda vatanimizda bostirib kirgan sizlar bilan jang qilishni muqaddas burchimiz deb bilamiz. Bizlar xursandlik bilan bu yo‘lda qonimizni to‘kib, shahid bo‘lishdan qaytmaymiz.

XX asrning 90-yillari boshida O‘zbekiston va Tojikiston matbuotida bosmachilik harakatiga bag‘ishlangan bir qator maqolalar chop etilib, harakatning mazmun-mohiyatiga e‘tibor berila boshlandi. Xususan, «Hayot va iqtisod» jurnalida bosilgan A.Akromovning maqolasida bosmachilik so‘zi bolshevik mafkurachilari tomonidan harakat mohiyatini buzib ko‘rsatish uchun qo‘llanib kelinganligi haqida to‘xtaladi va harakat mohiyatiga e‘tibor qaratish fikrini ilgari suradi. «Zvezda Vostoka» jurnalida Boymirza Hayitning bosmachilik harakati haqidagi asari ushbu harakat proletariat diktaturasiga qarshi milliy ozodlik harakati ekanligi qayd etilib, proletariat diktaturasi Rossiya imperiyasining Turkiston respublikalari bilan olib borgan mustamlakachilik siyosatining davomli ko‘rinishi ekanligi, bosmachilik harakati esa mana shu mustamlakachilik harakatiga qarshi milliy davlatchilik tizimini o‘rnatish uchun olib borilayotgan harakat ekanligi ta’kidlanadi. 90-yillarning o‘rtalariga kelib, O‘zbekiston tarixchi olimlari davrasida ushbu atama harakat mohiyatiga zid ekanligi muhokama qilinib, harakat «istiqlolchilik harakati», ishtirokchilar esa «istiqlolchilar» deb atalishi lozim, degan to‘xtamga kelinadi. Hamda ushbu muammoga aloqador olimlar ovozlari matbuotda ham aks-sado bera boshlaydi.

Lekin, XX asr boshlarida siyosiy-ilmiy elita orasida ushbu harakatningda butunlay ijtimoiy hayotda ijobiy mohiyat kasb etganligiga shubha bilan qarash hollari ham namoyon bo‘la boshlab, olimlar va

tadqiqotchilar harakatga juda ehtiyotkorlik bilan munosabat bildirib boshlaydilar.

O'tgan yetmish-sakson yil mobaynida «bosmachilik» termini Sovet va chet el ilmiy, siyosiy, adabiy va harbiy leksikonida faol qo'llanilib, turg'unlik mohiyat kasb etganligi bois, shu bilan birgalikda O'zbekistonda ushbu mavzuda yaratilayotgan asarlarning ham qo'shni respublikalar hamda chet el ilmiy davralarida ham yaxshi hazm bo'lishi uchun «bosmachilik» atamasi qo'shtirnoq ichida qo'llanilib ketilsa maqsadga muvofiq. Chunki, tarix sahifalaridan joy olgan ushbu termindan voz kechish shartmi, gap atamada emas, mohiyatda, maqsadda. Qolaversa, qo'shtirnoq ichiga olingan har bir so'z, atama aks mazmunni anglatilishi barchaga ayon.

Mulla Abduqahhor va Ibrohimbek Laqay harakati. Mana shu harakatdagi Markaziy siymolardan biri Ibrohimbek haqida turfa ilmiy maqola va nashrlarda, olim va adiblar orasida turlicha qarashlar mavjuddir. Ibrohimbek haqida nisbatan real ma'lumotlarni Said Olimxonning dastlab 1929 yilda turkistonlik muhojirlar tashabbusi bilan Parijda fransuz tilida va Konstantinopolda turk tilida chiqqan asarida o'z ifodasini topgan. Ibrohimbek haqida yanada realroq ma'lumot sobiq SSSR DXK arxividan olingan Ibrohimbekning 1931-1932 yillardagi so'rov protokollari nusxasi Parijdagi aka-uka Mezonneflar Sharq va Amerika kutubxonasi fondida ham saqlanmoqda.

Ayniqsa, sobiq Sovet tuzumi sharoitida nashr etilgan asarlarning barchasida Ibrohimbek qoralanib, voqealar rivoji sobiq hukmron mafkura manfaatlariga moslanib tasvirlanadi va talqin etiladi. Faqatgina to'qsoninchi yillardan so'ng voqealar tasviri va tarixiy siymolarga munosabat nisbatan ob'ektiv mohiyat kasb etib, qo'rboshilar, jumladan Ibrohimbek haqida ham xolis, ob'ektiv yondoshuv asosida qator ilmiy materiallar e'lon qilinib, jarayonlar rivojining real manzarasi davriy nashr va adabiyotlarda o'z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunda harakat mohiyati va unda Ibrohimbek o'rni kabi masalalar doirasida o'zbekistonlik olim Qahramon Rajabov tomonidan yangicha talqinlar ilgari surilmoqda.

Ibrohimbekning haqiqiy siymosini xalqqa tanishtirishda Eshmuhammad Donaxonovning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Asardagi xalqchilik jihatlari va badiiy qiymati «Quyun» qissasining respublikadan tashqarida ham shuhrat qozonishini ta'minladi. Shuningdek, taniqli shoir Asqar Mahkam ham Ibrohimbek va laqaylar

siymosini keng jamoatchilik orasida targ'ib qilishi harakat mohiyati hamda elatning etnoxususiy jihatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibrohimbek siymosidagi ijobiy xususiyatlarni ommalashtirishda hamda elatimiz taqdiri haqidagi tarixiy-etnografik ma'lumotlarni yoritishda Omonulla Olimovning xizmatlarini ta'kidlash muhim. U kishi o'zining «Qora unvon» tarixiy biografik ocherkida harakat ishtirokchilaridan olgan ma'lumotlarga tayanib: «Ibrohimbekning bo'y-basti o'rtamiyonadan baland, keng yelkali, ko'zi tim qora, nigohlari o'tkir, kamsuqum, xotirasi kuchli va jasur yigit bo'lganligi qayd etilgan.

Ibrohimbek siymosiga ijobiy yondoshuv Afg'onistonlik o'zbek va tojik olimlarning asarlarida keng o'rin topib, Ibrohimbek mahalliy o'zbek, tojik, qozoq va turkmanlarni pushtunlar rejimiga qarshi birlashtira olib, qisqa vaqt mobaynida qator harbiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, Afg'oniston shimolidagi ba'zi mintaqalarni vaqtincha bo'lsada egallab, o'z boshqaruv usulini joriy qila olgan qahramon sifatida tasvirlanadi.

G'arb olimlari ham bolsheviklarning O'rta Osiyo hududini bosib olishda yerli xalq tomonidan qattiq qarshilikka uchraganliklarini ta'kidlab, xalq qarshilik harakatidagi Markaziy siymolardan biri Ibrohimbek ekanligini haqli e'tirof etib, harakat yo'l boshchisining siyosiy-harbiy siymosini yaratishga intilishganlar. Jumladan, nemis olimi Reynxard Eyzener Ibrohimbek haqida Sovet tarixnavisligini o'rganib, Sovet ilmiy adabiyotlaridagi Ibrohimbekni «o'g'riboshi», «bosmachi», «avantyurist» kabi nisbatlar tahlilidan kelib chiqib «Ibrohimbek kim bo'lgan?!», degan muammoni o'rta tashlab, arxiv ma'lumotlari asosida jarayonlar rivojini tahlil etgan.

Muhammad Ibrohimbek, 1889 yilda, hozirgi Dushanbe shahridan o'n ikki kilometr uzoqlikda joylashgan Ko'ktoshda tug'ilgan bo'lib, o'zbek millatining laqay elatidan, laqaylarning to'rt urug'idan biri bo'lgan – esanxo'ja urug'idandir.

Ibrohimbekning otasi Chaqaboy Bobo o'g'li qishloq oqsoqoli hamda Ko'ktosh laqaylarining urug' boshlig'i edi. Shu bilan birgalikda Chaqaboy oqsoqolga Buxoro amiri tomonidan – 1870 yilda miroxur va 1894 yilda to'qsabo unvoni berilgan edi. Chaqaboy to'qsabo umrining oxirigacha Ko'ktoshda yashab, 1910 – 1911 yillar atrofida vafot etgan.

U o'z davrining an'analarga sodiq ravishda hamda islom sunnatlariga amal qilgan holda to'rt xotin olgan. To'rt xotindan olti o'g'il, olti qiz ko'rgan. Farzandlarining barchasi turli yoshlarda vafot etib, taqdir

va zamonning qaltis o'yinlariga garov sifatida faqatgina kenja o'g'il Ibrohim omon qolgan.

Ibrohim otasi Chaqaboy to'qsaboning tirikligi paytida musulmoncha maktabda o'qib savod chiqargan. So'ngra sho'rchilik Domulla Muhammadining madrasasida va Hisor madrasalarida ta'lim oladi. U yoshligidan laqaylarda muntazam uchrab turadigan – uloq, ya'ni ko'pkarilarda qatnashib, dadilligi va g'ayratliligi bilan o'z tengqurlari ichida ajralib turgan.

Otasining vafotidan so'ng, zamona zayli bilan hamda o'sha paytdagi og'ir ijtimoiy hayot sabab, Ibrohimning ham turmushi qiyinlasha boshlagan. Garchi, bu davrda u otasi Chaqaboy oqsoqolning do'sti marqa urug'idan bo'lgan Yangibozorlik Imonqulboyning Tuymaxol ismli qiziga uylangan bo'lsada, farzand ko'rmagan. 1919 yilda Hisor begi tomonidan qorovulbegi unvoni bilan taqdirlanib, Ko'ktosh laqaylaridan zakot yig'ilishiga mutasaddi shaxs sifatida vazifaga tayinlangan. Keyinchalik u Abduqayum Parvonachining Bibixaticha ismli qiziga uylangan. 1930 yilda Afg'onistonda Mustafouqul hojining Mayxuvan ismli singlisiga uylanadi. Mayxuvan momo o'tgan asrning yetmishinchi yillari oxirida Afg'onistonning Hilman viloyati Lashkargohida yetmish yoshlardan oshib vafot etadi.

Abduqayum Parvonachining kenja qizi Zumrad momo Qayumovanning guvohlik berishicha Ibrohimbekning Bibixatichadan Fulomhaydar ismli o'g'li bo'lib, taxminan 1932 yillarda to'rt yoshida kasallikdan vafot etgan. Ko'p o'tmasdan Fulomhaydarning onasi ham Dang'ara tumanida o'z opalarining qo'lida vafot etadi.

Buxoro amiri Said Olimxon bolsheviklar va jadidlarning so'l qanoti vakillari tazyiqi ostida Buxoroni 1920 yilning 1-sentyabrida tark etib, Sharqiy Buxoroga yo'l olib, o'zining muvaqqat qarorgohini Hisor bekligidagi Dushanbeni belgilab, olti oy mobaynida Sharqiy Buxoroda davlat ishlarini boshqarishga intiladi.

1921 yilning bahorida Abduqayum Parvonachi Dang'ara atrofidagi Qoratavdagi harbiy amaliyotlar jarayonida ot bosib jiddiy shikastlanadi, natijada harbiy guruhga boshchilik qilishi murakkablashadi hamda o'zining kuyovi va boshqa yigitlarga nisbatan jur'atliroq, xarakterida tashkiliy qobiliyati ustun bo'lgan Ibrohimni o'ziga o'rinbosar etib tayinlaydi. Abduqayum Parvonachining salomatligi sabab, harbiy amaliyotlarda butun faoliyat va mas'uliyat Ibrohimning zimmasiga tushib boraveradi. Xuddi shunday sharoitda Eshon Sulton va boshqa

qo'rboshilarning talabi bilan harbiy faoliyatni davom ettirish hamda Sharqiy Buxorodagi boshqa qo'rboshilarni qo'llab quvvatlash uchun Ibrohim boshchiligidagi laqay qurolli guruhlar Baljuvon bekligi hududidan Hisor bekligi hududiga o'tadilar. Bu davrda Ibrohim bir necha zafarli harbiy amaliyotlarni boshqarib, harbiy va siyosiy jabhada yetarli obro' – e'tibor orttirib ulgurgan edi. Dastlab, asosan laqaylardan iborat harbiy guruhlar tarkibiga boshqa o'zbek elatlari, turkiy elat va tojiklar ham kelib qo'shiladilar hamda ayrim hududlarda alohida guruhlar ham tuzilib, Laqayda ushbu harakat keng yoyiladi.

Qizil armiyaga qarshi Sharqiy Buxoroda harbiy guruhlarining dastlabki tashkilotchilari – Dang'arada Abduqayum Parvonachi, Qizil Mozorda Tog'ay Sari, Baljuvonda Davlatmandbiy, Ko'lobda Ashur to'qsabo, Darvozda Eshon Sulton, Dushanbeda Rahmon Dodoxh, Qorateginda Fuzayl Maxsum (Fuzayl Maxdum), Hisorda Temurbek, Surxonda Xurrambek, Laqayda Ibrohimbek edilar. Qo'rboshilarning ichida o'zining jasurligi va botirligi bilan Ibrohimbek tez orada qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, voqealarni chetdan kuzatayotgan Said Olimxonning e'tiborini jalb etib, Ibrohimbekni umidlantiruvchi maktublar jo'nata boshlaydi.

Har qanday harakat dastlab muayyan hududda, muayyan kuch yoki etnik birlik doirasida shakllanadi. Sharqiy Buxoroda Davlatmandbiy, Abduqayum Parvonachi, Tog'ay Sari, Barotbek, Ismatbek, Ortiq qo'rboshi, Xurrambek va boshqalar rahbarligida etnik va hududiy belgilariga qarab shakllangan qurolli guruhlar Ibrohimbek siymosida yagona kuch sifatida birlashib, etnik va hududiy qobig'idan chiqib, ozodlik harakati sifatida mohiyat kasb eta boshlaydi. To'g'ri tan olish ham kerakki, ushbu kuchlar tarkibida ba'zan o'zaro ixtiloflar ham bo'lib turdi, lekin yagona markazlashgan hokimiyatning yo'qligiga qaramasdan, Ibrohimbek tomonidan kuchlarni yagona qo'mondonlik ostiga birlashtirishga harakat qilindi.

Ibrohimbek qo'shini qisqa vaqt ichida ulkan zafarlarga erishib, qo'shin tarkibini mustahkamlash uchun maxsus chaqiriqlar, maktub va talabnomalar orqali aholini yurt mudofaasiga jalb qila boshlaydi hamda atrofida tuzilayotgan barcha kichik guruhlarini birlashtiradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Ibrohimbekning harbiy-siyosiy jabhada tashkilotchilik va strategik qobiliyatining ustunligi bois:

1. Sharqiy Buxoroda mustaqil harbiy faoliyat olib boruvchi barcha guruhlarini yagona qo'mondonlik ostiga yig'ishga muvaffaq bo'ldi;

2. O'z qo'shinida qat'iy intizom o'rnatishga erishish bilan bir qatorda ularning harbiy maydondagi botirligini ham ta'minlay oldi;

3. Eng asosiysi, siyosiy kollaps sharoitida o'zi nazorat qiluvchi hududlarda o'ziga xos boshqaruv usulini joriy eta oldi.

Ibrohimbekning dovrug'i butun Buxoroni qamrab olib, mamlakat tashqarisida ham yirik harbiy-siyosiy figura sifatida e'tirof etila boshlanadi. Markaziy va Farbiy Buxorodan, shuningdek, Fijduvon, Pirmast, Vobkent, Xo'ja Orif, Xutfar, Vang'oze, Qorako'l tumanlaridan aholi Ibrohimbekka vakillar jo'natib, Ibrohimbekning kelib ularning ham bolsheviklarga qarshi kurashlariga rahbarlik qilishini so'rashadilar. Ibrohimbek o'z navbatida aholining ushbu tilak va takliflarini Said Olimxonga yetkizadi. Olimxon bu davrda Kobulda o'z atrofida bo'lgan Mulla Abdulqahhorni Markaziy va Farbiy Buxorodagi fuqarolarning bolsheviklarga qarshi kurashiga rahbarlik qilishi uchun jo'natadi. Mulla Abduqahhor Kobuldan Sharqiy Buxoroga kelib Ibrohimbek bilan uchrashadi va Markaziy Buxoroga yo'l olib, u yerda harakat rahbarligini o'z qo'liga olib, yirik muvaffaqiyatlarga erishadi.

Anvar Posho shaxsi va uning qurolli qarshilik harakatidagi ishtiroki. Anvar Posho 1881 yil 14 iyunda Turkiyaning Istanbul shahrida tug'ilgan. Yosh turklar inqilobining faol ishtirokchisi, «Ittihad va taraqqiy» partiyasi rahbarlaridan biri sifatida faoliyat yuritgan. 1903 yildan Istanbul Bosh shtab akademiyasini bitirgan. 1909-1911 yillarda Berlinda Turkiyaning harbiy attashesi bo'lgan. Turkiya, Makedoniya, Kavkaz, Germaniya, Rossiya, Turkistondagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan.

1908 yili Turkiyada davlat to'ntarishiga rahbarlik qilib, Sulton Abdulhamid II hokimiyatiga chek qo'ydi, Turkiyaning chet davlatlar tomonidan bo'lib tashlanishiga barham ber-di. 1913 y. yanv.da «Hurriyat va ittihad» partiyasini hukumatdan chetlatdi. Tal'at posho hamda Jamol posho bilan birga norasmiy uchlik tuzdi, butun hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Turkiyaning Germaniya bilan harbiy ittifoq tuzishi va 1-jahon urushiga qo'shilishi tashabbuskori bo'ldi, bosh qo'mondon-sultonning noibi sifatida urushda turk qo'shinlariga qo'mondonlik qildi.

Turkiya urushda yengilgach, Anvar posho avval Germaniya, Rossiyaga va nihoyat 1921 yilning kuzida Buxoroga keldi va Turkiston istiqloqlachilari tarafiga o'tganini e'lon etdi. Bolsheviklarga qarshi kurashga qo'shilgan Anvar posho 1922 yilning 4 avgust kuni kichik bir

guruh bilan Boljuvonga kirib kelgan qizil qo'shinga qarshi hujum vaqtida shahid bo'ldi.

Said Olimxon Buxoro taxtidan ayrilgan so'ng taxtni qaytarib olish uchun kurashdi. Sovetlar bosqiniga qarshi Buxoro mustaqilligi va ozodligi uchun kurashgan asosiy kuch amir Sayid Olimxon boshchiligidagi kuchlar bo'ldi. Buxoro amiri o'ziga sodiq kuchlar bilan poytaxtni tark etgach Boysun viloyatiga qarshi Bandor va Darband atroflarida bosqinchi qizil askarlar bilan jang qilib Hisor viloyatiga chekindi. Bu yerda u olti oy moboynida dushmanga qarshi jang olib bordi. "Jang boshida,- deydi Said Olimxon, harbiy vazir tog'am Muhammad Saidbek Parvonachi va urush qo'mondoni Abdulhafiz Parvonachi, Ibrohimbek biy askar boshliqlari edilar. Shu bilan olti oy davomida kurash va jang yuz berib, oxiri bolsheviklar jamoasi o'zlari paydo qilgan mazkur urushga majbur bo'lishib, Moskvadan anchagina askar va harbiy qurollar yig'ib keldilar. Shu bilan ular birdan Islom lashkari ustiga hujum boshladilar. Islom askarlarida harbiy anjom va qurollar kam bo'lganligi jihatdan o'n oy davomida urushib jang qildilar, so'ngra bu bandayi ojiz yordam va madad so'rash harakatida xorijiy davlatlarga murojaat qildim". Buxoroning markaziy qismlaridan shoshilinch chekinayotgan Said Olimxon qarshi va G'uzordan ham o'tib, Boysun bekligi hududiga kirib bordi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, sobiq amir Said Olimxon yaxshi qurollangan 300 kishilik otliqlar, shu jumladan, Afg'oniston hukumatining vakili Muxammad Akbarxon boshchiligidagi 100 ta afg'on sarbozi himoyasi ostida 1920-yil 10-sentyabrda Boysunga yetib kelishdi. Biroq Said Olimxon o'z xotiralarida Boysun to'g'risida so'z yuritmay, balki Qo'rg'ontepaga borganligini tilga oladi. Holbuki, Qo'rg'ontepaga u sal keyinroq borgan.

Boysun begi Said Ahmad «Kutilmagan mehmon»ni biroz hayratlanib, qarshilaydi. Said Olimxon bu yerda sanoko'i kunlar bo'lishiga qaramasdan, u «Boysun viloyatiga qarashli Bandardan to Darbandgacha dushman oldini olish uchun istehkomlar qurdiradi». Ammo orqadan yetib kelgan qizil askarlarning hujumiga uning sarbozlari dosh bera olmaydi. Darband va Sayrobda bo'lgan janglardan so'ng, Said Olimxon «Buxoroning sharqi bo'lgan Hisor viloyatiga» junaganligini o'z memuarida yozib qoldirgan. U Hisor va Denovga yangi hokimlarni tayinlaydi.

O'z vaqtida Yosh buxorolik jadidlarning mamlakatda demokratik islohotlar o'tkazish haqidagi takliflariga keskin salbiy munosabat bildirgan

sobiq amir endi bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi mustaqillik kurashini tashkil qilishga urindi. Darhaqiqat, qisqa fursat ichida Said Olimxon boshchiligidagi qo'shin safiga Sharqiy va O'rta Buxorodan ko'plab vatanparvarlar kelib qo'shildi.

Said Olimxon Dushanbe va Qoratog'da ham bo'lgach, Hisor shahrini o'ziga qarorgoh qilib belgilaydi. Sharqiy Buxorodagi Ibrohimbek Davlatmandbek Fuzayl Maxdum, Eshon Sulton, Tog'ay Sari, Avliyoqulbek, Abdurahmonbek Alimardonbek kabi nufuzli kishilar, boshliqlari va beklari, yirik din arboblari. sobiq amir huzurida to'planishdi. Ular Sharqiy Buxoroni qizil askarlar qo'liga topshirmaslik yangi hokimiyatni tan olmaslik va unga buysunmaslikka qaror qildilar.

Said Olimxon o'z lashkarlarining boshlig'i qilib, harbiy vazir bo'lgan tog'asi Muhammad Saidbek Parvonachini, shuningdek Abdulhafiz Parvonachi va Ibrohimbekni tayinlaydi. "Hisor viloyatida bolsheviklarga qarshi olti oy davomida kurash va jang olib bordim", deb yozgan edi u. Muntazam armiyaning mavjud emasligi, qurol-yarog'larning yetishmasligi, zamonaviy harbiy mutaxassislarning deyarli yo'qligi va boshqa qator qiyinchiliklarga qaramasdan qisqa muddat ichida Sharqiy Buxoroda qizil askarlarga qarshi tura oladigan katta miqdordagi harbiy kuchlar to'plandi. Said Olimxon Ko'lob, Hisor va Dushanbe atrofida katta miqdordagi kuchlarni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1920-yil noyabr oyining o'rtlarida uning qo'shinlari Boysun, Darband va Sherobodni egallashdi. 1920-yil noyabrida Said Olimxon Dushanbedagi Esserton orqali Buyuk Britaniya qiroli Georg V ga quyidagi mazmunda maktub yo'llaydi: "Bunday mushkul paytda Oliy hazratlari o'z ezguligi va oliyjaobligini ko'rsatadi hamda menga do'sttona yordam sifatida davlat qarzi hisobidan 100 000 funt sterling, 20 ming miltiq, o'qlari bilan 30 ta to'p va zarur jihozlari bilan 10 ta aeroplan jo'natadi deb ishonaman". Amir shuningdek 2 ming qurol yarog'li askar so'raydi. Biroq amirning iltimosi natijasiz qoldirildi.

Sherobod tumani va Angor qishlog'idan atigi 6 chaqirim shimoli-sharq, shimol va shimoli-g'arbda joylashgan qishloqlarda dushmanning 8000 kishisi joylashgan. Josuslik ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro amiri ruslarga qarshi muqaddas urush e'lon qilgan, uning chaqirig'i Sharqiy Buxoro Qishloqlarining aholisi tomonidan hayrihoxlik bilan kutib olinmoqda. Sovet qo'mondonligi hali 1920-yil oktyabr oyining oxirlaridayoq Sharqiy Buxoroni bosib olish uchun maxsus ekspeditsiya jo'natishni rejalashtirgan edi. 9 noyabrda 1-armiya qo'mondoni

G.V.Zinovyevning buyrug'i bilan Buxoro hududidagi barcha sovet harbiy bo'linmalari va qal'alardagi garnizonlar Buxoro gruppaga qo'shinlari tarkibiga kiritildi. Uning yaqin oradagi vazifasi qilib, Hisor ekspeditsiyasini o'tkazish belgilandi.

1920-yil 17-dekabrda Hisor ekspeditsiyasi qismlari diviziya komandiri Marsov boshchiligida Qarshidan yo'lga chiqishdi. Ular 20-dekabrda jang bilan Darbandni egallashdi.

Afsuski, kuchlar teng emas edi. Avval ham yozib o'tilganidek bu paytda Buxoroda zamonaviy qurol-yarog'lar va jangovar texnika bilan qurollangan qizil armiyaning 70 ming tajribali jangchisi bor edi. Arxivlardagi hujjatlar 1920-yildagi kuchlar nisbatini ana shunday ifodalaydi. Bu holni Said Olimxon ham tushunmasligi mumkin emas edi. Istiqlolchilar qo'shinida qurol-yarog' yetishmagan. 1920-yil kuzida sovet rejimi Qrimda Vrangel armiyasi ustidan g'alaba qozongach, asosiy e'tiborni Turkiston mintaqasiga, shu jumladan, Buxoro respublikasiga qaratdi. Buxorodagi qo'zg'olonchilarga qarshi Rossiya markazidan ketirilgan yangi harbiy qismlar, saralangan va janglarda chiniqqan qizil askarlar tashlandi. Aynan ushbu holat O'rta Buxorodagi qo'zg'olonni yanada avj olib ketishiga yo'l qo'ymadi.

Qizil askarlarning katta miqdordagi harbiy kuchlari istiqolchilarning ham o'z qo'shinini yaxlit qo'mondonlik ostiga birlashtirishni taqozo qilar edi. Bu davrda Said Olimxon Farg'ona vodiysidagi istiqolchilik harakati bilan aloqani yo'lga qo'ydi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, Farg'onadan 4000 yigit Sharqiy Buxoroga yetib kelgan. Hisordan Ko'lob viloyatiga kelgan Said Olimxon butun qo'shinlariga Mulla Muhammad Ibrohimbek Devonbegi (Ibrohimbek laqay) va Davlatmandbek Devonbegini lashkarboshilar qilib tayinladi.

Qisqa muddat ichida Said Olimxon o'z armiyasi miqorini yanada ko'paytirdi. 1921-yil 8-yanvardagi razvedka ma'lumotlariga qaraganda, "Buxoro amiri qo'shinining miqdori 25000 kishiga yetgan, uni safarbar qilinganlar hisobidan 50000 kishiga yetkazish mo'ljallanmoqda. Qo'shin turli miltiqlar, bir nechta plummyotlar va 8 ta to'p bilan qurollangan. miltiqlar yetarli darajada, lekin o'q-dori yetishmaydi. O'q-dorini muntazam ravishda yetkazib berish uchun Hisorda o'q-dori zavodi ishga tushirildi. Zavod ishini 4 ta avstriyalik boshqarmoqda ... Amir Afg'oniston tomonidan beriladigan yordamga katta umid bog'lamoqda, unga jang olib borishi uchun yetarli miqdorda qurol-yarog' va harbiy instruktorlar jo'natish va'da qilingan".

Bu orada qizil armiyaning katta miqdordagi otliqlar polki va boshqa qismlar Said Olimxon tomonidan boysunliklarga yordamga yuborilgan 10 ming kishilik armiyaning Bandixon darasida mag'lubiyatga uchratdi. Boysun yonidagi janglarda istiqbolchilar qizil askarlarning diviziya komandiri Marsovni o'ldirishdi. Ammo ular oqibat natijada Boysunni tashlab chiqishga majbur bo'lishdi.

Boysundagi janglarda istiqbolchilar mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar ham, ular Denov yonida katta miqdordagi kuchlarni to'plashdi. 1921-yil 13-fevralda jo'natilgan qizil askarlarning josuslik ma'lumotlariga qaraganda, "Denov, Yurchi shaharlari va atrof qishloqlar qarshilik Bo'ri boyvachcha boshchiligida 5000 kishilik qo'shin to'plandi. Bu qo'shin tarkibida taxminan 500 kishilik turkman, 200 kishilik afg'on, 300 kishilik Farg'ona bosmachilari bo'lib, qolganlari Buxoro amirining doimiy sarbozlari, turk va sherbachcha polklari, mahalliy aholi vakillari edi. ...Bu paytda uning oldiga Qobuldan 10 kishilik afg'onlarning delegatsiyasi tashrif buyurdi va tez orada amirga madad kelishini ma'lum qilishdi".

"Izvestiya" gazetasi o'sha kunlarda ushbu satrlarni yozgan edi: "... Amir hukmronlik qilayotgan hudud kundan-kunga qisqarmoqa. U bahorga kelib, yo tog'larga chiqib ketishi, yo Buxoro hududini tark etishi lozim bo'ladi. Uning ixtiyorida faqat Sharqiy Buxoroning Hisor, Dushanbe, Fayzobod viloyatlari qoldi. Uning ixtiyorida faqat 600 askar bor".

Bu voqealardan so'ng Said Olimxonning qarorgohi Dushanbe shahriga hujum boshlandi. 20 -fevralda u shaharni tashlab chiqqach, avval Ko'lob viloyatiga chekindi. 1921-yil 4-martda Said Olimxon Chubek degan joydan Afg'oniston davlatiga o'tib ketdi.

Said Olimxon qizil askarlarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida Hisordan Ko'lob viloyatiga, u yerdan 1921-yilda Afg'oniston poytaxti Kobulga yetib keldi. U yo'l-yo'lakay Sharqiy Buxoro hududida bo'lgan chog'ida sovetlarga qarshi vatan mustaqilligi va ozodligi uchun kurashga ko'z tikkan kuchlarni qo'llab-quvvatladi, ularga madad va maslahatlar berdi. Jumladan, Sayid Olimxon Ko'lob viloyatida bo'lganida sovetlarga qarshi kurash olib borgan ozodlik fidoyilari Mulla Muhammad Ibrohimbek devonbegilar bilan uchrashganligi va dushman bilan bo'ladigan istiqboldagi jang rejalarini ishlab chiqqanligini takidlaydi.

na qo'rboshilardan yordam so'raydi. Boymirza Hayitovni ma'lumotiga ko'ra Said Olimxon Shermuhammadbekdan yordam so'rab 500 nafar otliqni oladi. Boysunda sovetlar bilan bo'lgan jangdan so'ng 72 nafari halok bo'ladi.

Afg'oniston amiri Omonullaxon Said Olimxonni yaxshi qarshi oldi. Amir sarbozlariga Mozori Sharif va Xonoboddan joy ajratildi. Uning o'ziga esa amirning Kobul yaqinidagi Qal'ayi Fatudan joy ajratildi. Dastlabki payitda bu yerda Sayid Olimxon bilan birgalikda Karmana beki Yovqochbek, Sherobod beki Abdulhafizbek, Mirfattohbek udaychi, amirning savdo bo'yicha Londondagi vakili bo'lib ishlagan Yusufboy Muqimboyev, Qori Mizrob, harbiy vazir Ibrohimbek, Abdullabek to'qsoba, A'zamhoji va boshqalar bo'lgan.

Said Olimxon bu davrda harbiy kuch va qurol-yarog' so'rab, Afg'oniston amiri huzuriga o'z ishonchli vakillarini jo'natdi. Afsuski, Afg'onistondan yetib kelgan yordamchi kuchlar, qurol-yarog' va harbiy aslahalar ham unchalik ko'p emas edi. Bundan tashqari, Said Olimxon hali Sharqiy Buxoroda ekanligidayoq o'z vakillari orqali bolsheviklarga qarshi kurashish uchun harbiy yordam so'rab Yevropa mamlakatlariga, xususan, Angliyaga bir necha marta murojaat qildi. Afsuski, uning bu iltimosiga Angliya va Yevropadagi boshqa davlatlar sovuqqonlik bilan qarab, hech qanday amaliy yordam ko'rsatishmadi.

Istiqlolchilik harakati tez orada Sharqiy Buxorodan O'rta Buxoroga ham tarqaldi. F.Xo'jayevning e'tirof qilishicha, "o'zbek qabilalari ... boshliqlari tomonidan Sharqiy Buxoroda boshlangan bosmachilik harakati Buxoroning boshqa qismlarida ham qo'llab-quvvatland". Bosqinchi qizil askarlar va Buxorodagi yangi hukukumatga qarshi ko'tarilgan katta qo'zg'olonlardan biri "O'rta Buxoroning sobiq Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Chiroqchi bekliklarida boshlandi. Bu to'rtta beklik O'rta Buxoroning atrofi tog'lar bilan o'rab olingan, aholisining deyarli hammasi o'zbek qabilalaridan iborat bo'lgan bitta katta rayonni tashkil etgan edi".

G'arbiy Buxorodagi istiqlochlilik harakatini yanada faollashtirish maqsadida bu yerga Said Olimxon Sharqiy Buxoro orqali o'z vakillarini yubordi.

Mulla Abdulqahhor qo'rboshi Qizilqum cho'llarida qizil askarlar bilan bo'lgan to'qnashuvlarning birida 1924-yilning oxirida o'ldirildi. Said Olimxon yozganidek, uning ikki ukasi: Metan Polvon va Naim Polvon sal oldinroq shahid bo'lishgan edi.

1924-yil oxirlarida Buxoro va Karmana viloyatlaridagi istiqlolchilar asosan mag'lubiyatga uchradilar.

Said Olimxon Angliyaning "Manchestr Gardian" gazetasida jahon jamoatchiligiga qarata murojaatnomasida "...Men kim, Buxoroning o'tmishdagi va hozirdagi qonuniy hukmdoriman, shu kunlarda

mujohidlarning ham yo'lboshchisi hisoblanaman, mamlakatdagi ahvol to'g'risida adolatni sevuvchi, tinchlikni istovchi barcha kishilarga murojaat etib, bu masalaga o'z munosabatini izhor qilishni so'rayman" deb murojaat qilgan. Bundan tashqari Sayyid Olimxonning bu murojaatnomasi xalqaro maydonda katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Mazkur maktub Jenevadagi Millatlar Ligasiga, Gaagadagi Xalqaro tribunalga, Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya va boshqa davlatlarning boshliqlariga jo'natildi. Buyuk Britaniya hukumati sho'ro hukumatiga rasmiy bayonot bilan murojaat ham qildi. Sho'rolar vakili Krasin bilan lord Kerzon o'rtasida ushbu masalada muzokaralar ham bo'lib o'tdi. Ammo, sho'rolar tomoni Said Olimxonning barcha da'volarini asossiz deb isbotlashga urindi.

Buxoro xonligi taxtini qaytish uchun ochiq kurashdagi mag'lubiyatdan so'ng Ingliz razvedkasi SSSR ga qarshi qo'poruvchi kuchlarni birlashtiruvchi muhojirlar siyosiy tashkilotni yaratishga yordam berdi. Biroq 30-yilarning birinchi yarmidayoq inglizlarni turkistonlik muhojirlar siyosiy oqimini birlashtirish borasidagi olib borgan ishlarida Said Olimxonni nomi e'tibordan chetda qoldi. Chunki Amirning muhojirlar orasidagi nufuzu pasaygan edi. Keyinchalik yapon, turk, nemis, razvedkasi tomonidan qiziqish uyg'otdi. Nemis razvedkasining Afg'onistondagi buxorolik muhojirlar muhitida faoliyati 1941–1943-yillarda kuchaydi. Muhojirlar "Faol" nomli mahsus markaz tuzishdi. Lekin Stalingrad mag'lubiyatdan so'ng Afg'oniston hukumati bu markaz a'zolari qamoqa olishdi.

Tayanch iboralar.

Qurolli qarshilik harakati, istiqloлчаilik, "bosmachilik", urug' boshlig'i, boshqaruv, harbiy dasta, siyosiy kollaps, Mulla Abduqahhor, Ibrohimbek Laqay, Anvar Posho, Sayyid Olimxonning qarshilik harakatidagi roli, Qal'ai Fotu.

Nazorat savollari.

1. Buxoroda qurolli qarshilik harakatining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat bo'ldi?
2. Qurolli qarshilik harakatida Sayid Olimxonning o'rnini qanday bo'lgan?
3. Anvar Poshoning Sharqiy Buxoroda qarshilik harakatlariga rahbarlik qilishiga sabab bo'lgan omillar?
4. Ibrohimbek Laqay harakatining sabab va oqibatlari nimalarda namoyon bo'ldi?

BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASINING TAQDIRI

Reja:

- 1. BXSРning tashkil etilishi, konstitusiyasi va ma'muriy tuzilishi**
- 2. BXSР da ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va o'ziga xos xususiyatlari**
- 3. F.Xo'jayev va yosh buxoroliklar harakati**

BXSРning tashkil etilishi, konstitusiyasi va ma'muriy tuzilishi.

XX asr boshlarida Rossiya imperiyasiga qaram bo'lgan Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan bekliklarga bo'lingan. Amirlik aholisi 3 mln. kishini tashkil qilardi. Aholi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

Rossiyadagi 1917- yil fevral voqealari, Turkiston o'lkasi va Xiva xonligida bolsheviklar olib borgan siyosat Buxoro xonligiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Buning asosiy sababi, amirlikda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar edi. Misol tariqasida, «Yosh buxoroliklar»ning mamlakatda islohotlar o'tkazish talabi bilan chiqishi natijasida amir Olimxon 1917- yil 7- aprelda manifest e'lon qildi. Lekin keyinchalik ulamolar talabi bilan namoyishga chiqqan «Yosh buxoroliklar» ruhoniylar va madrasa mullavachchalari tomonidan toshbo'ron qilindi, Fayzulla Xo'jayev va uning ayrim safdoshlari zo'rg'a Kogon shahriga qochib, omon qoldilar.

Shu tariqa Buxoro jadidlarining Buxoro xonligida demokratik islohotlar o'tkazish uchun qilgan harakati noxushlik bilan tugadi. Undan so'ng, 1918- yil martda Turkiston ASSR XKS soveti raisi F. Kolesovning Buxoroga bosqini barbod bo'lishi natijasida jadidlar yana quvg'in ostiga olinib, Samarqand va Termizga ketishga majbur bo'lishdi.

Shunday sharoitda amir Olimxon va bolsheviklar bir-biriga qarshi zimdan urushga tayyorgarlik ko'ra boshlashdi. 1919- yil boshlariga kelib amir sarbozlari soni 25 ming nafarga yetdi. Shu bilan birgalikda amir Olimxon Afg'oniston bilan harbiy-iqtisodiy bitim tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qonga botirilib, Xiva xonligi tugatilgandan so'ng, bolsheviklar 1920- yilning avgust oyi oxirlarida Buxoro xonligiga bostirib kirdi. 1920- yil 2- sentabrda amir taxtdan ag'darildi. Poytaxt bosib olingach, hokimiyat Muvaqqat Butun Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi ixtiyoriga o'tdi. Inqilobiy Qo'mita tarkibiga

Ahmadjon Abdusaidov (rais), Fayzulla Xo‘jayev, Muinjon Aminov, Olimjon Akchurin, Abdulhamid Oripov, Sobir Yusupov, Mukammil Burhonov, Hoji Hasan Ibrohimov, Muhammadjon Qulmuhammedov a'zolar edi.

Inqilobiy Qo‘mita o‘sha kuniyoq manifest e‘lon qildi. Aslida bu manifest bolsheviklar tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yilgan edi. Unda jumladan, mustaqil Buxoro davlatining tuzilganligi, shuningdek, amirlikdagi mavjud yerlar davlat yerlariga aylantirilishi, soliqlar tartibga solinishi, yerlar esa yersiz va kam yerli dehqonlarga bo‘lib berilib, ularni mehnat qurollari bilan ta‘minlanishi, sud ishlarini tartibga solish, ta‘lim tizimini yangilash, o‘lim jazosini bekor qilish, inson huquqlari himoya qilinishi yozilgandi.

Butunrossiya MIK va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bo‘yicha komissiyasining 1920- yil 10- sentabrdagi qarori bilan RSFSR hukumati va RKP(b) MKning Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi vakili etib Turkiston komissiyasi raisining o‘rinbosari V.V. Kuybishev tayinlandi. B. Kuybishev BXSr hukumati boshlig‘i Fayzulla Xo‘jayevga ishonch yorlig‘ini topshirdi, unda «RSFSRning asosiy talabi Buxoro davlati mustaqilligini hurmat qilishini, barcha rus fuqarolari va tashkilotlarini ham Buxoro mustaqilligini hurmat qilishga undashdan iborat» ekanligi ta‘kidlangan edi. Amalda esa V. Kuybishev Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarga ochiqdan-ochiq aralashib, sovet andozasini o‘rnatishga harakat qildi.

1920- yil 14 sentabrda Eski Buxoroda Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Inqilobiy Qo‘mita va Buxoro Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti (BKP MK)ning umumiy yig‘ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro Inqilobiy Qo‘mitasi (Markaziy Revkom) tuzildi. Rais Abdulqodir Muhitdinov bo‘lib, ularning hammasi kommunistlar edi. Shuningdek, 11 kishidan iborat hukumat - Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi tuzildi. Hukumat raisi etib Fayzulla Xo‘jayev saylandi.

1920- yil oktabr oyida amirning yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosada Butun Buxoro xalq vakillarining I- qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda Buxoro Xalq Respublikasi tuzilganligi e‘lon qilindi. Shu tariqa Buxoroda bolsheviklar yordamida jadidlar siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Galdagi vazifa mamlakat iqtisodiyoti ustidan ham hukmronlikni qo‘lga kiritish edi.

1920- yilning kuzida BXSReda ma'muriy-hududiy tuzilish o'tkazilib, u viloyatlar, tumanlar, kentlar va qishloqlarga ajratildi. Biroq respublikadagi mavjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatga binoan ma'muriy-hududiy bo'linish o'zgarib turgan. 1922- yil avgustda BXSReda Buxoro, Karmana, Qarshi, Shahrisabz, Sherobod, Karki, Chorjo'y viloyatlariga bo'lingan. 1923- yil BXSReda ma'muriy-hududiy bo'linishiga o'zgartirish kiritilib, u 8 ta viloyat (Buxoro, Karmana, Nurota, Chorjuy, Qarshi, Shahrisabz, Sherobod, Karki), 28 ta tuman va Sharqiy Buxoroga bo'lingan. 1924- yil 1 oktabrdagi ma'muriy-hududiy bo'linishga ko'ra viloyatlar o'rnida okruglar tashkil qilindi. Okruglar o'z navbatida 15 viloyat, 48 ta tuman, 195 ta kent va ko'plab qishloqlarga bo'lindi.

Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki kundanoq iqtisodiy islohotlarni «sotsialistik» qolipda olib borishga harakat qildi. 1920- yil 11 oktabrda Butun Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi oziq-ovqat razvyorstkasini o'tkazish to'g'risida qaror chiqardi. Unga ko'ra Sharqiy Buxorodan tashqari butun respublikadan 1908000 pud g'alla, 852 ming pud arpa, 321 ming pud jo'xori, 338 ming bog' beda) 1160000 pud kishmish yig'ilishi kerak edi.

BXSReda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va o'ziga xos xususiyatlari. BXSReda o'tkazilishi mo'ljallangan oziq-ovqat razvyorstkasiga sinfiy jihatdan yondashilmaganligi uchun 1921- yil 20-yanvardagi Buxoro Inqilobiy qo'mitasi qarori bilan u qayta qabul qilingan. Unga ko'ra oziq-ovqat razvyorstkasi kam yerli va yersiz xo'jaliklarga nisbatan emas, iqtisodiy jihatdan boy xo'jaliklardan olingan.

Buxoroga qizil armiyaning bosqini va istiqloqlilik harakatlari davrida iqtisodiy hayot izdan chiqdi. Biz buni quyidagi holatlarda ko'ramiz:

1. Harbiy harakatlar natijasida tashqi savdoda, ya'ni chet elga mahsulot chiqarish juda kamayib ketgan. Chetga sotilgan xom ashyo arzon narxda sotilganligi uchun ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirgan.

2. Respublikadan chet elga xom ashyo sotish kamayganligi uchun chetdan mahsulot kirib kelishi to'xtab qolgan. Respublikada temir, gazmol, yigirilgan ip, yog'och mahsulotlari yetishmagan.

3. Qo'y go'shti va guruch tanqisligi yaqqol sezilgan chet eldan mahsulot kirib kelishi to'xtab qolganligi natijasida ichki iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kamayib ketgan. Masalan, temir kamligi

natijasida qishloq xo'jalik asbob-uskunolari ishlab chiqarish kamayib ketgan yoki qo'y go'shti tanqisligi natijasida aholi ot va mol go'shti iste'mol qilishga majbur bo'lgan. Oqibatda ish hayvonlari va qishloq xo'jalik asbob-uskunolari kamayib, qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazgan;

4. Qorako'l teri va jun mahsulotlari yetishtiradigan chorvadorlar o'zlarining mahsulotlarini arzon narxda sotishi natijasida chorvachilikka ham zarar keltirgan;

5. To'xtovsiz ravishda qog'oz pullarning muomalaga chiqarilishi respublikada pulning qadrsizlanishini yuzaga keltirgan;

6. Tashqi savdo balansining kamayishi kontrabanda (ya'ni yashirincha chegaradan mol olib chiqib ketish va olib kelish) ning ko'payishiga olib kelgan. Masalan, BXSR hududida 1 dona qorako'l teri bahosi 2 afg'on rupiyasi tursa, afg'on savdogarlar chayqovchilardan uni 8-9 rupiyaga sotib olgan. Natijada tayyor mahsulot juda qimmat narxda olib kelingan.

BXSR iqtisodiyotini yuksaltirish maqsadida hukumat xo'jalik sohasida 1921- yil iqtisodiy qonunda qabul qildi. Mazkur qonunda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi quyidagi xo'jalik vazifalarini amalga oshirishni o'zining birinchi vazifasi deb belgilagan:

a) tuz, alebastr, ohak, tosh va boshqa qurilish materiallari, qattiq va suyuq mineral yoqilg'i va moylar, sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan metallar (temir, qo'rg'oshin, qalayi va shu kabilarni) qazib chiqarish;

b) qayta ishlash sanoatida paxta, zig'irpoya tolasi, junni qayta ishlash, paxta tozalash zavodlari, to'quv yigiruv fabrikalari, pilla qurti urug'i va pillakashlik korxonalari, dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari: tegirmonlar juvozkashlik korxonalari, yog' olish, sovungarlik va sham tayyorlash korxonalari, ko'ncilik va kosibchilik, jun to'qish, namat bosish va gilam to'qish korxonalari, metall buyumlar va asboblarni yasaydigan ustaxonalar, g'isht, kulolchilik xumdonlari va idish yasash korxonalari, matbaachilik va shu kabilarni;

v) dehqonchilikda davlatning foydalanmasdan yotgan yerlarini o'zlashtirish va sug'orish, mavjud sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash, o'rmonzorlar va sanoat bog'lari tashkil etish, qurilishbop yog'och va o'tin tayyorlash;

g) chorvachilikda – yilqilarni, qoramollarni va mayda shoxli mollarni, tuyalarni ham qo'lda boqib, mavjud yaylovlardan foydalangan holda ko'paytirish;

d) transport tizimida aloqa yo'llari qurish va shunday yo'llardan har xil yuk tashish vositalarini, avtomobillar, ekipajlar va shu kabilarni saqlash, transport kontrollari, yo'lovchi va tovar bekatlari hamda omborlarni ochish, daryo transporti (paroxodlar, barjalar, qayiqlar)ni qurish va ulardan foydalanish. Yuqoridagi vazifalarni bajarish va ularni pul bilan ta'minlash uchun maxsus komissiya tuzilgan.

Dehqon xo'jaliklarining xonavayron bo'lishi natijasida agrar tarmoqdagi ishlab chiqarish darajasi 1922- yilda 1918- yilga nisbatan dehqonchilikda 40% ga, chorvachilikda 53% ga tushib qoldi, ekin maydonlari deyarli 2 baravar, qorako'l teri yetishtirish 20 baravar, paxta yetishtirish 20 baravarga qisqardi. Ana shu davrda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 50% ga, savdo-sotiq oboroti 75% ga tushib qoldi.

BXSR iqtisodiyotining bu holga tushishiga sabab mamlakat sanoati va qishloq xo'jaligida tayyor mahsulot ishlab chiqarish kamayib ketganligi edi.

1920- yil noyabrda RSFSR va BXSR o'rtasida iqtisodiy shartnoma imzolandi, unga ko'ra amirga tegishli va amirlik davridagi barcha mulklar Buxoro Xalq Nozirlari Sho'rosi ixtiyoriga o'tdi. Ular ichida zavodlar, fabrika va boshqalar ham kirardi. Temiryo'l, telegraf va harbiy ahamiyatga ega ob'ektlar RSFSRga tegishli deb topildi.

BXSR qishloq xo'jaligida hal qilinish kerak bo'lgan asosiy muammolardan biri yer masalasi edi. Chunki amirlik vaqtida yerlar davlat, vaqf va xususiy yerlarga bo'linib, Buxoroda hukumat almashgach, o'sha davrdagi yer qonunchiligida muhim masalalardan biri bo'lib qoldi.

Bolsheviklar BXSRdagi iqtisodiy islohotlarni kommunistik mafkura asosida olib borish maqsadida 1920- yil sentabrdagi manifestda amir va unga tegishli yerlar davlat ixtiyoriga o'tkazilgan edi. Yerlarni yoppasiga davlat tasarrufiga olish va bolshevikcha andozadagi agrar islohot o'tkazish Markazning asosiy maqsadlaridan biri edi. Lekin «Yosh buxoroliklar» yer masalasiga bozor munosabatlariga tayangan holda yondashish tarafdori edi. 1920- yil 21 noyabrda Butun Buxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi raisi A.Muhitdinov tomonidan imzolangan Buxoro Respublikasining yer to'g'risidagi qonuniga ko'ra, amir va uning yaqinlariga tegishli barcha yerlar xalq mulki deb e'lon qilindi.

Qonunda yerlar musodara qilinib, yersiz va kam yerli dehqonlarga bo'lib berilishi ko'zda tutilgandi. Biroq, BKP MKning izchil fikrlovchi rahbarlari tomonidan yer to'g'risidagi masalaga bunday yondoshish keskin tanqid qilindi.

Umuman olganda, yerlardan foydalanish, uni taqsimlash BXSR yer ishlari noziriligiga yuklatilgan. yer ishlari nozirligi 1920- yil sentabrda tashkil qilinib, 6 ta bo'limdan iborat bo'lgan. Bular quyidagilar:

- a) suv xo'jaligi, b) yer ishlari, v) qishloq xo'jaligi,
- g) chorvachilik, d) moliya, ye) xo'jalik bo'limlari.

Suv xo'jaligi bo'limining vazifasi respublikadagi irrigatsiya tarmoqlarini yaxshilash, kanal va ariqlar suvidan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat bo'lgan, yer ishlari bo'limining vazifalariga mamlakatdagi yerlarning umumiy miqdorini aniqlash, yer masalasiga oid shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish, o'rmonlardan to'g'ri foydalanishdan iborat bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi bo'limining vazifalariga aholiga agronomlik yordamlarini berish, aholini qishloq xo'jalik asbob-uskunolari bilan ta'minlash, bog'dorchilik, polizchilik va uzumchilik sohalarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan, chorvachilik bo'limi vazifalariga mahalliy ot zotlari va qorako'l qo'ylarini ko'paytirish, shuningdek, qishloq xo'jalik ish hayvonlarining sifatini yaxshilash, davlat otxonalari va mol fermalarini qurish, sutchilikni rivojlantirish va hokazo.

Demak, bundan ko'rinib turibdiki, yer ishlari nozirligi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning barcha sohalarida islohotlarni, yerlardan to'g'ri foydalanish, chorvachilik va suv xo'jaligi faoliyatini rivojlantirish va to'g'ri yo'lga qo'yish bilan shug'ullangan.

1921- yil 2 fevralda Buxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi yer to'g'risidagi yangi qonun qabul qildi. 1921- yil sentabrdagi Butun Buxoro xalq vakillarining P-qurultoyida yer islohoti haqida masala muhokama qilindi. A.Muhitdinov qurultoyda yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni yoqlab chiqqan.

Lekin shunga qaramasdan yer va yerdan foydalanish bolsheviklar diqqat markazida bo'lgan. Oqibatda yer to'g'risidagi qonun 1923- yil oktabrda bo'lib o'tgan Sovetlarning Umumbuxoro IV qurultoyida ham yangidan qabul qilindi. Unga ko'ra barcha yerlar ishchi-dehqonlar davlatining mulki, deb e'lon qilindi.

BXSRdagi agrar masalalarda vaqf yerlar masalasi alohida ahamiyat kasb etgan. Amirlik davrida vaqf yerlari ijarachilarga berilib, daromadning 10/1 qismi davlat xazinasiga, 10/3 qismi ijarachilarga berilgan. 1920- yil sentabrda Vaqf boshqarmasi tashkil qilinib, vaqf boshqarmasi boshlig'i etib Muhitdin Rafoat tayinlanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1921 avgustga qadar faqat Buxoro shahrining o'zida 208 ta masjid, 215 madrasaga qarashli vaqf yerlari ro'yxatga olingan edi. 1921- yildagi ma'lumotlarga ko'ra, BXSRda 278,5 ming desyatina vaqf yerlar mavjud bo'lib bundan tashqari diniy muassalar ixtiyorida 2110 ta savdo do'koni, 134 mol-mulk, 210 ta uy-joy, 28 ta tegirmon va 50 ta bozor mavjud edi.

1920-1922- yillarda esa vaqfchi dehqonlardan soliq olinmagan. Qurultoyda bu masalaga oydinlik kiritish maqsadida maxsus komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga Musa Saidjonov, Muhiddin Rafiq va Kasiniskiylar kiritilgan.

1922yil A.Fitrat tomonidan 19 modadan yborat vaqf ishlari haqida loyiha ishlab chiqildi. Unga ko'ra vaqf mulklarini qarovsiz qoldirmaslik, ularni hukumat soliqlaridan ozod qilish, ulardan faqat ushr solig'i olish, maorif nozirligi huzurida vaqf mudiriyatini tashkil qilish ko'zda tutilgan edi.

1923yil 5 oktabrda Butun Byxopo vaqf qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda bundan buyon vaqflardan tushayotgan daromadlar maktab va madrasalar qurish, osori-atika va tarixiy binolarni saqlash, tarjima va nashriyot ishlariga sarflanadigan bo'ldi .

Mamlakat qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i dehqonchilik, (paxtachilik, donli ekinlar va polizchilik), chorvachilik, qorako'lchilik, ipakchilik va hunarmandchilik bo'lgan. Ayniqsa, paxta ekiladigan maydonlarni ko'paytirishga juda katta e'tibor berilgan.

Sovet hukumati BXSRda paxtachilikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor berdi. Ma'lumki, Buxoro ko'p zamonlardan buyon xorijga paxta, qorako'l teri, ipak va jun mahsulotlari chiqarib kelgan. Amirlik Rossiya imperiyasiga qaram bo'lgan davrda Buxoro paxta yetishtirishda Farg'ona vodiysidan keyin 2-o'rinda turgan. BXSRda paxtachilikni yuksaltirish maqsadida 1921- yil 20- aprelda Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi o'z yerlarida paxta ekadigan dehqonlarga imtiyozlar berish to'g'risida qaror chiqargan.

1920- yil noyabrda BXSR Savdo va ishlab chiqarish nozirligi huzurida "Buxoro to'quvchiligi" bo'limi ochilgan. Bo'limning vazifasi

respublikadagi paxta sanoatini tiklash, paxtani dehqonlardan sotib olish, dehqonlarga mahsulot bilan yordam berish kirgan. Bo'limning joylarda 12 ta paxta qabul qilish punktlari bo'lgan. Bular Xatirchi, Karmana, Yangiqo'rg'on, G'ijduvon, Vobkent, Laqlaqa, Eski Buxoro, Kogon, Qorako'l, Chorjo'y, Karki, Termizdagi punktlar edi. Bu punktlar tomonidan quyidagicha xom ashyo sotib olingan; mahalliy g'o'za 240 ming pud, amerika navli paxta 67 ming pud. Bundan tashqari sobiq Buxoro xonligidan 700 vagon (ya'ni 370 ming pud) paxta musodara qilingan. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 1921-yilda BXSRRda paxta ekiladigan yerlar miqdori 30 ming tanobni tashkil qilgan.

Birgina paxta ekish mavsumida joylarga urug' yetkazib berish borasida, RSFSR Bosh Paxta qo'mitasi O'rta Osiyoning boshqa respublikalarida bo'lgani kabi, BXSRRda ham paxtaga davlat monopoliyasini o'rnatish va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini asta-sekinlik bilan siqib chiqarishga qaratilgan izchil siyosatni olib bordi. Paxta ekishni yuksaltirish maqsadida BXSRR va RSFSR o'rtasida 1922- yil 19 iyulda shartnoma imzolandi. Shartnomaga muvofiq, sovet Rossiyasi Buxoroga 50 mlrd rubl miqdorida qarz berdi. Ajratilgan qarz birinchi navbatda, paxta maydonlarini ko'paytirish, oliy navli urug'lik chigitni yetkazib berish, irrigatsiya tizimini yuksaltirish va paxtakor dehqonlarga imtiyoz va kreditlar uchun mo'ljallandi.

Umuman olganda, bolsheviklar, BXSRRda paxta maydonlarini kengaytirish orqali, Markazning paxta xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojini Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari hisobiga to'ldirishni maqsad qilgan. Shu maqsadda- yildan-yilga BXSRRda paxta ekiladigan maydonlar ko'paytirib borilgan. Jumladan, 1923- yilga kelib, paxta ekiladigan umumiy yerlar 80 ming tanobni tashkil qilgan. Undan 7,6 mln pud paxta hosili olingan.

Amirlikda qishloq ho'jaligining rivojlantirish uchun suniy sug'orish inshootlari muhim o'rin tutar edi. BXSRRni suv bilan ta'minlash ko'p jihatdan TASSR bilan munosabatlarga bog'liq edi. TASSRning «Samarqand suv idorasi» Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida tuzilgan shartnoma asosida ish ko'rardi. Respublikada qishloq ho'jaligining rivojlantirishga suv tanqisligidan tashqari boshqa omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Masalan, amirlik davrida Birinchi jahon urushi tufayli qishloq xo'jaligi rivojiga putur ketib, dehqonchilikda hosildorlik juda pasayib ketdi. Bundan tashqari,

hukumat almashgandan keyingi dastlabki 2-3- yil qizil armiyaning Buxoro hududiga bostirib kirgan davrida ham qishloq xo'jaligiga jiddiy zarar keltirgan.

Xo'jalikning yana boshqa tarmoqlaridan biri chorvachilik asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanardi. Lekin Buxorodagi voqyealar chorvachilikka ham ta'sir etmasdan qolmadi. Urush- yillarida qo'ylarning qirib yuborilishi; ichki urushlar tufayli qorako'l terilarining xorijga (Rossiya va Germaniya) chiqarishning keskin qisqarishi; davlat tomonidan yuqori boj tizimining joriy qilinishi chorvachilikka ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shu maqsadda hukumat chorvachilikni yuksaltirish maqsadida bir talay ishlar olib bordi. Chunki chorvachilik mahsulotlari, birinchi navbatda qorako'l teri, jun va ichak mahsulotlari chet elga eksport qilinsa, yirik shoxli qoramollar qishloq xo'jalig'ida asqotgan.

Shuningdek, yilqichilikka ham e'tibor berilib, 1921- yil 1 iyunda yer ishlari nozirligining qaroriga ko'ra davlat- yilqichilik fermasi tashkil qilingan. Bu muassasa sobiq amirning otlari va xususiy shaxslarning otlarini sotib olish orqali tashkil qilingan. Unga S.V.Shalos rais, Pilotskiy yordamchi qilib tayinlangan. Sotib olingan otlarga bozor narxida qat'iy qiymat belgilanib, naqd pul va 25% mahsulot berilgan. 1922- yil 27 dekabrda Butun Buxoro xalq vakillarining Sh-qurultoyidagi qarorga ko'ra ish hayvonlari va ularni aholiga yetkazib berish uchun 5 mln tanga mablag' ajratilgan.

Hukumat olib borgan iqtisodiy islohotlar natijasida chorva soni ham oshib borgan. 1923- yil respublikadagi umumiy chorva soni 2.570.000 boshni tashkil qilgan. Respublika hukumati chorvachilikni yuksaltirish maqsadida 1924- yil 30 martda chorva mollari egalarini barcha turdagi soliq va yig'imlardan ozod qilishga qaror kildi. Shuningdek, 1924- yil Rossiya va BXSR hamkorlikda 2 mln rubl mablag'ga ega bo'lgan eksport bo'yicha shirkat tashkil qilindi. Yuqoridagi holatlar albatta Buxoro chorvachiligining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bolsheviklarning Buxoroda olib borgan bosqinchilik siyosati endi rivojlanayotgan sanoatni ham izdan chiqardi. 1921- yil 1 iyundagi ma'lumotlarga ko'ra, BXSRda 4 ta yog' zavodi, 9 ta g'isht zavodi, 5 ta teri zavodi, 3 ta ichak, sopol, qizilmiya ildizi zavodlari, 4 ta un tegirmoni, 2 ta kog'oz fabrikasi, mexanika ustaxonasi, elektrostansiya va ohak korxonasi mavjud bo'lib, ularda 5 mingga yaqin ishchi ishlar edi. Buxoro hukumati sanoatni tiklash muammolarini hal qilar ekan

ishlamayotgan fabrikalarni ishga tushirish maqsadida xususiy sarmoyani jalb qilish, yaroqsizlarini esa hisobga olishga e'tibor berdi. 1923- yilda 32 ta sanoat korxonasi davlat tasarrufiga olindi, lekin bu korxonalarning faqat 6 tasi ishlar edi, xolos, qolganlari yaroqsiz edi.

Buxoroda transport va aloqa tizimi ham vayron bo'lgan edi. Temir yo'lining umumiy uzunligi 533 verstni tashkil qilar edi. Amudaryo orqali o'tadigan 900 verstlik suv yo'li G'arbiy va Sharqiy Buxoroni, shuningdek, Buxoro va Xivani bir-biriga bog'lardi. Amudaryo flotiliyasida 400 ta qayiq mavjud bo'lib, ularning umumiy yuk sig'imi 600 ming pudni tashkil qilar edi. 1924- yilga kelib 40 ta kichik qayiq suzar edi va ularning umumiy yuq sig'imi 30 ming pudni tashkil qilgan. BXSRning ichki rayonlarini bog'lovchi 90 ming verstlik karvon yo'li mavjud bo'lib, shundan 2 ming verstda aravalar qatnar, qolgan 88 ming verstda tuya asosiy transport vositasi hisoblanardi.

1923- yil oxirida BXSR aloqa tizimida bitta radiostansiya, Eski Buxoroda telegraf bo'limi va oltita stansiya mavjud edi. Hukumat yangi telegraf liniyasi va ta'mir ishlari uchun 100 ming so'm ajratdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolsheviklar «Yosh buxoroliklar» yordamida BXSRda siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritishdi. Yosh buxoroliklar F. Xo'jayev boshchiligida kommunistik partiya safiga o'tkazilgach, respublikada kommunistik partiyaning yakkahokimligi o'rnatildi. Undan so'ng, iqtisodiy sohada hukmronlikni o'rnatish va vayron bo'lgan iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida bir qator islohotlar o'tkazdi. Jumladan, «yer to'g'risidagi» qonun qabul qilindi, undan so'ng, barcha yerlar davlat ixtiyoriga o'tkazildi va nazorat ostiga olindi. Qishloq xo'jaligining asosi bo'lgan dexqonchilik va chorvachilik sohasida ham islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, paxtachilikni yuksaltirish, chorvachilikni rivojlantirish, dehqonlarga imtiyozli yordam berish kabi tadbirlar respublika qishloq xo'jaligining rivojlanishiga olib keldi. Paxtachilikni rivojlantirish orqali Markazning paxta xom ashyosiga bo'lgan talabini O'rta Osiyo respublikalari orqali qondirish edi. Shu maqsadda irrigatsiya tizimi rivojlantirildi, paxtakor dehqonlarga moddiy yordam berildi, urug'lik chigit yetkazib berildi.

Chorvachilik ham tanazzulga uchraganligi uchun bu sohaga ham katta e'tibor qaratildi. Chunki, chorvachilik mahsulotlari, birinchi navbatda qorako'l teri, jun va ichak mahsulotlari chet elga eksport qilinsa, yirik shoxli qoramollar qishloq xo'jaligida asqotgan. Shu

maqsadda hattoki, 1921- yil 1 iyunda yer ishlari nozirligining qaroriga ko'ra davlat- yilqichilik fermasi tashkil qilingan. Bu muassasa sobiq amirning otlari va xususiy shaxslarning otlarini sotib olish orqali tashkil qilingan.

Mamlakatda olib borilgan istiqlolchilik harakatlari natijasida mavjud sanoat korxonlari va hunarmandchilik izdan chiqqan edi. 1921-1924- yillardagi olib borilgan chora tadbirlar natijasida sanoat korxonlari va paxta zavodlari qaytadan ishga tushirildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, temir yul, transport, aloqa yo'llari qayta ta'mirlanib ishga tushirildi. Bunga yaqqol misol, yangi telegraf liniyasi va ta'mir ishlari uchun 100 ming so'm ajratilgan.

Lekin, Markaz avvalboshdanoq mamlakatdagi islohotlarni amalga oshirishda ko'rsatmalarni respublikaga yuborgan maxsus vakillari orqali berib turdi. Natijada, mamlakat iqtisodiyoti Markaz manfaati uchun xizmat qilishga moslashtirildi. Tashqi siyosatda ham respublika hukumati bolsheviklar ko'rsatmasi asosida ish olib borishi kerak edi. Xullas, BXSР hukumati mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda olib borilgan tadbirlarda Markaz bilan hisoblashishga majbur edi.

Kolesov voqealarning oqibati shu bo'ldiki, minglab begunoh kishilar qatl qilindi va ta'qib ostiga olindi. Garchi bolsheviklar maqsadlariga erisha olmagan bo'lsalarda, lekin o'z rejalarni amalga oshirishdan voz kechmadilar. Bolsheviklar va Buxoro xonligi o'rtasidagi munosabatlarning keyingi rivoji oydinlashib qolgan edi. Bu voqealardan so'ng Buxoro xonligi o'z mustaqilligini saqlab qolsada, bir kun kelib amirlik tuzumining bolsheviklar tig'i bilan ag'darilishi ma'lum bo'lib qolgan edi.

Sovet hukumati esa Buxoroning mustaqilligini tan olishga va unga tovon to'lashga majbur bo'ldi. Bu to'g'rida amir Sayyid Olimxon o'z xotira asarida quyidagilarni yozgan edi: «Bu urushdan so'ng Lenin va Trotskiy tomonidan bolsheviklarning raisi sifatida Eliava va Broyda degan kishi muxtor vazir bo'lib Buxoroga keldi. U kishi bandayi ojiz bilan so'zlashib, Buxoro mustaqilligini butunlay menga bermoqchi bo'ldi hamda harbiy qurol bilan yordam berishga va'da berdi, hatto yuz yil oldin Buxoro davlatiga qarashli bo'lgan yerlarni menga qaytarib bermoqchi ham bo'ldi. Shu bilan birga ellik ming miltiq, besh yuz to'p-pulemyot, ellik aeroplan, ellik million so'm tillo to'lashga va'da berdi.

Sovet davlati tomonidan Akselrod degan kishi Buxoro davlatiga elchi qilib, tayin etildi. "Afg'oniston davlatiga nisbatan do'stlik

istehkomlarini tuzib, Toshkentdan menga o'n bitta o'qsiz to'p sovg'a qilib yuborishdi. Bolsheviklarning muomalalarini qanday ekanligini shu o'qsiz to'pdan bilib oldim. Bu ojiz banda bolsheviklar va ularning elchilari muomalalarini kelishuvga muvofiq ish olib bormaganliklarini ko'rganimdan so'ng hayolimga bir fikr keldi. Shu sababdan men askar va harbiy qurollarni tayyorlash ishiga kirishdim. Ikki yil ichida Buxoroda harbiy va qurol-aslahalar to'plab, qo'shinlarini urushga tayyor turish darajasigacha olib keldim".

Sovet hukumati bir tomondan Amirni aldash bilan mashg'ul bo'lsa, ikkinchi tomondan shartnomaga xiyonatkorona Buxoroda davlat to'ntarishi yasash uchun Fayzulla Xo'jayev bosh bo'lgan «Yosh buxoroliklar» guruhiga iqtisodiy, ma'naviy va tashkiliy jihatdan katta yordam berib turdi. Bunda asosan ikki maqsad kutilgan edi. Birinchisi Buxoroni tez orada butunlay Rossiyaga qo'shib olish. Ikkinchisi uning ko'p yillik afsonaviy oltin zahirasini qo'lga kiritish edi.

Kolesov bosqini har ikki tomon uchun ham juda katta talofat keltirdi.

Bu Turkiston sovet hukumatining mahalliy musulmonlarga nisbatan Qo'qon fojiasidan keyingi ikkinchi bosqinchilik urushi bo'ldi. Hozircha har ikki tomondan qurbon bo'lganlarning soni to'la aniqlangan emas. Eng so'nggi ma'lumotlarga ko'ra ular bir yarim mingdan besh mingtacha bo'lgan. Shu urushning tashkilotchisi F.Xo'jayevning yozishicha, jami 3000 kishi halok bo'lgan. Buni u Buxoroning so'nggi 6000 yillik tarixidagi «juda ham ko'zga tashlanuvchi qonli dog'», «amir va uning hukumati yo'l qo'ygan buyuk jinoyatdir» deb baholaydi. Bu urushdan jadidlar katta talofat ko'rdilar va badnom bo'ldilar. Buxoro xalqi amirdan F.Xo'jayev va boshqa jadidlarni xoin sifatida osib o'ldirishni talab qildi.

Amir ana shu xalq talabi bilan jinoyatga aloqasi bo'lgan va bo'lmagan jadid va ziyolilardan ko'plarini qatag'on qildi. «Inqilobchilar»ning ko'pchiligi Buxorodan qochib, sovet hukumatining homiyligida asosan Toshkentda, Samarqand va Rossiya shaharlarida boshpana topdilar.

Mutaassib din peshvolari «Buxoro fijasini»ning asosiy aybdor deb barcha jadidlarni ko'rsatdilar. Jadidlarning aksariyat ko'pchiligi hatto, yosh buxoroliklar Markaziy qo'mitasi a'zolarining ham kattagina qismi sovet armiyasining Buxoroga hujumini tashkil etilishiga qarshi bo'lgan edilar.

«Buxoro fojiasi»dan so'ng kommunistlar bag'rida jon saqlagan «Yosh buxoroliklar» firqasi o'n qanotini inqilobiylashuv jarayoni

tezlashdi. Ular hatto, o'zlarining kompartiya tashkilotlarini ham tuzdilar, Qizil armiya safiga kirdilar. Moskvadan «ustoz»larining inqilob maktabidan ko'r-ko'rona saboq oldilar zo'rlik bilan amir hokimiyatini ag'darishga tayyorlandilar.

Buxorolik jadidlarning juda ko'pchiligi esa siyosiy kurashni tark etdilar, maktab, maorif, matbuot va ma'rifat bilan shug'ullandilar.

Kolesovning Buxoroga uyushtirgan harbiy hujumining yengilishi bilan «Yosh buxoroliklar» firqasida parokandalik yuz berdi.

Toshkent va Yangi Buxoro kommunistlari ilojisiz siyosiy muhojirlikda qolgan yosh buxoroliklarni o'z ta'sir doiralariga oldilar, ularni kompartiyaga uyushtirishga yordam berdilar. 1918 yil 17-18 aprelda yosh buxoroliklarning tashabbuskor guruhi yig'ilishi chaqirildi. Unda kommunistik firqa tashkil etish masalasi muhokama qilindi. 20 aprelda esa barcha buxorolik siyosiy muhojirlar va amirga qarshi bo'lgan «Yosh buxoroliklar» firqasi a'zolarining kengashi chaqirildi. Ikki kun davomida bu kengash qatnashchilari jiddiy ravishda qaysi yo'ldan borish kerak degan masala ustida tortishdilar. Bu tortishuv natijasida ular uch guruhga bo'linib ketdilar: yosh buxoroliklar, so'l eserlar va «inqilobiy» guruh. Inqilobchilar guruhi kommunistik firqa tashkil etish va amirni taxtdan ag'darish uchun birlashish zarur deb hisobladilar. Bu fikrga qo'shilmagan ikki guruh norozilik bildirib kengash zalini tashlab chiqib ketdilar.

Buxoroda hokimiyatni kommunistchasiga zo'rlik va bosqinchilik yo'li bilan ag'darib tashlash katta fojialarga sabab bo'ldi va o'zini oqlamadi.

«Yosh buxoroliklar»ning o'zlarida qat'iy dasturiy kurash yo'lining o'zi yo'q edi. «Yosh buxoroliklar» orasida o'zaro mustahkam g'oyaviy birlik yo'q edi. Bu Kolesov bosqinidan so'ng yanada avj oldi. Bu adovat keyinchalik «yosh buxoroliklar» harakati rahbarlari orasidagi shaxsiy adovat va g'arazgo'ylikka aylanib ketdi. Ular o'zaro birlashib, hamjihatlik bilan ish olib borish o'rniga tarqoq holda o'zlaricha ayrim-ayrim guruhlariga bo'linib harakat qildilar. Ammo bu guruhlarning qariyb hammasi ham rus-sotsial demokratlaridan najot kutdilar. Bu Buxoro jadidlarining eng katta xatosi edi.

Usmonxo'ja Po'latxo'jayev boshchilik qilgan «yosh buxoroliklar» rus so'l eser firqasining dasturini qabul qildilar va o'zlarining eser partiyalarini tuzdilar. Bu partiya ikki oygina umr ko'rdi. 1918 yilning iyul oyida Moskvada eserlar partiyasi tugatilib, uning a'zolari sovet hukumati va tashkilotlaridan quvildi. Shundan so'ng «yosh buxoroliklar»ning eser

partiyasi ham tugatildi. Uning a'zolari kompartiya safiga kirdilar. Buxoroda sovetlar hokimiyati o'rnatilgunga qadar «yosh buxoroliklar»ning ikki guruhi, ikki partiyasi (kommunistik va inqilobiy yosh buxoroliklar) faoliyat yuritdi. Bu ikki partiya o'rtasidagi qarama-qarshilik Turkkomissiya va shaxsan Lenin yordamida vaqtincha barham etildi va Buxoro amirini taxtdan ag'darishdan iborat yagona maqsadga bo'ysundirildi. Ammo «yosh buxoroliklar» hokimiyatni egallashgach ikki guruh o'rtasidagi vaqtinchalik birlashuv barham topdi va ular o'rtasida nosog'lom, ikki bir-biriga dushman bo'lgan kurash harakati kuchaydi. Aslida esa har ikkala guruhning ham o'z oldiga qo'ygan maqsadi o'zi bir edi. U ham bo'lsa, Buxoroda amirning cheklanmagan monarxiya tuzumini ag'darib tashlash va sovet hokimiyatini o'rnatishdan iborat bo'lgan.

Har ikkala guruh ham mahalliy muhit, sharoit va xalqning ongi shuuri va qiziqishlariga mutlaqo begona bo'lgan kommunistik firqasiga Abduvohid Burxonov rahbarlik qildi. Bu firqaga Rossiya har jihatdan yordam berib turdi. 1919 yil noyabrda Moskvadagi Sharq xalqlarining kommunistik tashkilotlari Markaziy Byurosi qoshida Buxoro bo'limi tashkil etildi. Moskvada maxsus «tajriba» orttirgan Mirza Muhitdin Mansurov, Salim Muqimov, Musa Aminov va boshqa kommunistlar BKP Markaziy qo'mitasiga yordam berish uchun yuborildi. Bundan tashqari Buxoro Kompartiyasi Rossiya, Turkiston va Yangi Buxoro kommunistik firqa tashkilotlari yordamida mustahkamlandi. Uning «Tong» jurnali va «Qutulish» gazetasi Toshkentdan bosilib ko'p nusxada Buxoroga tarqatilib turildi.

Buxoro kommunistik firqasining Toshkentdan birinchi (1918 yil noyabr), ikkinchi (1919 yil iyun), uchinchi (1919 yil dekabr), Chorjo'yda to'rtinchi (1920 yil avgust) qurultoylari bo'lib o'tdi. Bu qurultoylarda partiyaning tashkiliy va dasturiy masalalari hamda kurash taktikalari muhokama qilindi.

«Yosh buxoroliklar»ning inqilobiy firqa deb atalgan qismiga F.Xo'jayev rahbarlik qilgan. U Toshkentda bir oz vaqt bo'lgach, o'zi va o'z partiyasi oldida turgan maqsadlarni tezroq amalga oshirish uchun yordam so'rab Moskvaga bordi. 1918 yilning yozida uni yo'lda Orenburgda oq gvardiyachi ataman Dutov hukumati qamoqqa oldi. To'rt oy qamoqda o'tirgach undan qochib, oktyabr oyida Moskvaga yetib bordi. F.Xo'jayev «yosh buxoroliklar» partiyasi Markaziy Qo'mitasi nomidan Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Ya.M.Sverdlovga 1919 yil 29 yanvarda maxsus xat yozdi. Xatda u Buxorodagi siyosiy vaziyat haqida,

o'zining qanday qilib Moskvaga yetib kelganligi to'g'risida ma'lumot berdi. Xatning asosiy mazmuni yosh buxoroliklarning inqilobiy partiyasiga moddiy va ma'naviy yordam berish, unga amir hokimiyatini ag'darish uchun qurol so'rash hamda keng miqyosda sotsialistik-targ'ibot olib borish uchun sarmoya ajratish haqidagi iltimosidan iborat bo'ldi. Fayzulla Xo'jayev Sovet Turkistonida muhojirlikda bo'lgan davrda safdoshlarini ishga joylashtirish va moddiy jihatdan ta'minlash bilan faol shug'ullangan. 1918 yil o'rtalaridan to 1920 yil yanvar oyigacha bo'lgan davrda Fayzulla Xo'jayev yosh buxoroliklar partiyasining keyingi taraqqiyoti uchun bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Jumladan u partiyaning yangi dasturini tayyorladi. Bu dasturda Buxoro xonligini ag'darish va uning o'rnida Buxoro demokratik xalq respublikasini o'rnatish kerakligi ta'kidlandi.

1920 yil yanvarida Fayzulla Xo'jayev boshchiligida Toshkentda inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston markaziy byurosi tashkil qilindi. 1920 yil 15 apreldan Fayzulla Xo'jayev muharrirligida "Uchqun" gazetasi chiqa boshladi. 1920 yil iyunida Fayzulla Xo'jayev yosh buxoroliklarning partiyasining navbatdagi yig'ilishini chaqirdi. Yig'ilishda Fayzulla Xo'jayev tomonidan yozilgan dastur qabul qilindi. Dasturda yangi jamiyat va davlat qurilish asoslari ishlab chiqildi. Dasturda bir qancha ilg'or g'oyalar ilgari surilgan edi. Jumladan, Buxoroda yangi usul maktablari ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, yoshlarni Yevropa davlatlariga o'qishga yuborish, Buxoroda demokratiya asosida hukumat tuzish, xorijiy davlatlarning Buxoroning ichki ishlariga aralashishlariga yo'l qo'ymaslik va boshqalar. Dasturda shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, amir va beklarning yerlarini musodara qilib, yersiz dehqonlarga taqsimlash, sug'orish tarmoqlarini davlat tomonidan yaxshilash, haftasiga 8 soatlik ish kunini joriy etish, 18 yoshga yetmaganlarga nisbatan majburiy mehnatni bekor qilish. Yangi tuziljak davlatning sudlov ishlari shariat asosida olib borilishini ham ta'kidlab o'tilgan edi.

1919 yil 16 noyabrda Moskvada «Yosh buxoroliklar» qo'mitasi Turkiston sovet hukumatining Muxtor Vakolatxonasi a'zolari bilan birgalikda kengash o'tkazdi. Unda F.Xo'jayev yozgan yosh buxoroliklar qo'mitasi «Instruktsiyasi»ning loyihasi tasdiqlandi. Bu hujjat «o'ta inqilobiy» ruhda yozilgan bo'lib, unda partiyaning maqsadi qurolli qo'zg'olon bilan amirni ag'darishdan iborat bo'lgan.

Bundan tashqari F.Xo'jayev «yosh buxoroliklar» firqasi Moskva byurosining «Xitobnoma»sini ham yozdi. Bu xujjatda o'zining

«Sotsialistik inqilobga to'la sadoqati va ishonchini ko'rsatdi. Buxoro dehqonlari va sarboz (Askar)larini amirga qarshi kurashga, uning hokimiyatini ag'darishga da'vat etildi. Shu bois F.Xo'jayev Rossiya kompartiyasi va hukumati rahbarlarining hurmat va e'tiboriga sazovor bo'ldi. U 1920 yil yanvarida Rossiya hukumati va partiyasining Turkkomissiya a'zolari bilan birga Toshkentga keldi va Turkkomissiya yordamida amir hukumatini ag'darishga tayyorlandi. 1920 yil 15 aprelda F.Xo'jayev muharrirligida «Uchqun» gazetasining birinchi soni chiqdi. Uning nomi ham, asosiy shiori ham bolsheviklarning lenincha «Iskra» gazetasidan olingandi. «Shunday kun keladiki, o'shanda uchqun alanga oladi». Gazetaning jami soni 5 ming nusxadan 8 ta soni chiqdi. Bu gazeta ham «Qutulish» kabi Toshkentda maxfiy ravishda bosilib Buxoroda tarqatildi.

1920 yil yanvarida F.Xo'jayev Moskvadan qaytib kelgach, iyunning o'rtalarida ilgari kompartiya safiga kirishdan bosh tortgan «yosh buxoroliklar» partiyasining konferentsiyasini chaqirdi. Konferentsiya F.Xo'jayev tomonidan yozilgan dasturni qabul qildi. Dasturda yangi jamiyat va davlat qurilish asoslari ishlab chiqildi, odil sudlov ishlarining asosida shariat qoidalari turishi ko'rsatildi. Bundan tashqari unda yana amirlik tugatilgach, umumiy saylov asosida Ta'sis majlisi chaqirilishi, demokratik xalq jumhuriyati tashkil etish belgilangan edi.

Dasturning asosiy mazmuni RKP(b) dasturidan olingan edi. Shuning uchun ham F.Xo'jayev Mahalliy kommunistik firqa rahbarlari bilan o'zi o'rtasidagi kelishmovchilikni hisobga olib, to'g'ridan-to'g'ri Leninga xat yozdi va o'z firqasini Rossiya kompartiyasiga qo'shib olishni iltimos qildi.

Lenin ushbu xatga ilova qilingan dastur bilan tanishdi va uni RKP(b) Tashkiliy byurosiga topshirdi. Tashkiliy byuro dasturdagi sotsializmga zid bo'lgan g'oyalarni hisobga olib, bu partiyaning Rossiya kompartiyasiga qabul qilishni vaqtincha kechiktirdi.

Nihoyat bu masala Toshkentda Turkkomissiyaning muhokamasiga qo'yildi. Turkkomissiya o'zining 1920 yil 3 avgustdagi majlisida markazning ko'rsatmasiga ko'ra «yosh buxoroliklar»ning inqilobiy guruhi bilan Buxoro kompartiyasini birlashtirish masalasini muhokama qildi. Har ikki tomon o'z faoliyati va asl maqsadi to'g'risida axborot berdi. «Yosh buxoroliklar» o'zlarini kommunistik nuqtai nazarda ekanliklarini ko'rsatib, Buxoroda amir hokimiyati ag'darilganidan keyin kompartiya safiga kirish to'g'risida fikr bildirdilar. Ushbu g'oyani hisobga olgan holda Turkkomissiya bu ikki firqa hozir birgalikda ittifoq tuzib, amirga qarshi

inqilobiy ish olib borishi mumkin degan mazmunda qaror qabul qildi. Bu qaror rus sovet hukumati va kompartiyasining Buxoroga nibatan dushmanlik, bosqinchilik va mustamlakachilik harakatini amaliy jihatdan yangi bosqichga ko'tardi. «Buxoroda revolyutsiya yetilib kelayotganligi sababli qurolli qo'zg'olonni tayyorlash va o'tkazishga rahbarlik qilish uchun Harbiy revolyutsion byuro tuzildi. Byuroga Turkfront bosh qo'mondoni M.V.Frunze, «yosh buxorolik inqilobiylar» markazi byurosi raisi F.Xo'jayev, Sharqda internatsional targ'ibot olib boruvchi kengashning raisi Geller va Turkiston Kompartiyasi vakili N.To'raqulov kiritildi.»

Voqealarning rivojlanib borishi shundan dalolat bermoqdaki Buxoroda hech qanday inqilobiy vaziyat ham, inqilobchilarning o'zi ham bo'lgan emas, u bolshovoylar va ularga aldanib sotilgan bir guruh «mahalliy inqilobchilar» tomonidan sun'iy suratda tayyorlandi. Nomigagina tuzilgan Buxoro «Harbiy inqilobiy byurosi» Turkfront va uning bosh qo'mondoni M.V.Frunzega bo'ysunar va uning buyrug'ini bajarar edi. Shu bois ham bu soxta «Harbiy inqilobiy byuro»ni «qonunlashtirish» maqsadida 1920 yil 16 avgustda Chorjo'yda Buxoro kompartiyasining IV qurultoyi chaqirildi.

Qurultoy asosan ikki masalani hal qildi: 1. Amirga qarshi to'g'ridan to'g'ri urush e'lon qildi: 2. Yosh buxoroliklarning vaqtinchalik ittifoqini tuzdi. Bu ikki firqa o'rtasida amirga qarshi tuzilgan ittifoq g'ayri tabiiy bo'ldi.

Qurultoyda asosiy ma'ruzachi bo'lgan A.Akchurinning yozishicha uni «yosh buxoroliklar» bilan birlashish maqsadida sotqin deb ayblaganlar ham bo'lgan. Abduqodir Muhitdinov boshliq bir guruh kommunist deputatlar hatto qurultoyni tashlab chiqib ketdilar. Bundan ko'rinadiki, qurultoy ikki firqa o'rtasida to'qnashuv maydoniga aylangan, o'ta nomurosasozlikda o'tgan. Lekin shunga qaramay qurultoyga bosh-qosh bo'lgan V. Kuybishev boshliq bolshoviklar ikki qarama-qarshi guruhni amirga qarshi kurashish uchun bir «ittifoqqa» (blokka) birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar. Chunki Turkkommissiya va Turkfront RSFSR va RKP(b) rahbarlaridan «qanday qilib bo'lsa ham Buxoroni egallash, uni Rusiya manfaatiga moslash» haqida aniq topshiriq olgan edida.

Buxoro respublikasi siyosiy tizimi boshida Yosh buxoroliklar partiyasi va kompartiyasi (BKP), keyinchalik boshqa ijtimoiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatdilar, hokimiyatda ko'pchilik Yosh buxoroliklar edilar. Turkiston bolsheviklari ta'siri ostida Yosh buxoroliklar partiyasi BKP bilan qo'shildi,

1920-yil sentabr oyida kompartiya yagona siyosiy partiya bo'lib qoldi. Ammo hokimiyat va boshqa sohalarda Yosh buxoroliklarning reja dasturi amaliyot asosi bo'lishi davom etdi. Rasman ko'ppartiyaviylik tugatildi. BKP a'zolari soni 17 mingdan 1921-yil 1-yanvariga kelib 4 mingtaga tushdi, 1923-yil yozida 1248 ni tashkil qildi. Partiyada tez-tez «chistka»lar o'tkazildi.

Sobiq Yosh buxoroliklar – hukumat rahbarlari, nozirlar, xalq ommasi respublikaning demokratik yo'l bilan rivojlanishi, iqtisodiyot va madaniyatni tiklash, rivojlantirish uchun sa'y-harakatlar qildilar. Ammo dastlabki haftalar va oylarda bolsheviklar, qizil qo'shinlar qo'mondonligi aralashuvi bilan inqilobiy jazo organlari: Tribunallar, CHK (favqulodda komissiya), shtablar qoshida siyosiy bo'limlar tashkil qilinib, shiddatli ish olib borildi, inqilobiy mazmundagi ayrim dekretlar, tadbirlar e'lon qilindi. Jumladan, 1920-yil 9-sentabrda «Yer to'g'risidagi dekret», 11 oktabrda oziq-ovqat razvyorstkasi to'g'risidagi dekretlar e'lon qilindi, tezkorlik bilan militsiya tashkil etildi, bir qator keraksiz sho'balar tuzilib, hokimiyat apparati bo'rttirib yuborildi, inqilobiy ekspropriatsiya o'tkazildi, islom dini, ruhoniylar, masjid-madrasalarga qarshi, vaqflarni yo'q qilish choralari, siyosati o'tkazila boshladi.

1923-yil yozi-kuzida tashqi kuchlar tazyiqi bilan hukumat tarkibi va mavqeida jiddiy o'zgartirishlar qilindi. Shuningdek, konstitutsiyaga ham o'zgartirishlar kiritildi. Siyosiy vaziyat o'zgarib ketdi. Respublikaning ma'muriy bo'linishi o'zgartirildi, 5 ta okrug (Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Turkman va Sharqiy Buxoro okruglari), 48 ta tuman va 195 ta kent tuzildi. Qishloqlarda oqsoqolliklar o'rniga sovetlar tuzishga kirishildi.

1924-yildan boshlab Buxoro respublikasi O'rta Osiyo hududiy qayta qurish jarayoniga tortildi. Buxoro respublikasida g'oyaviy-siyosiy hayot demokratik tamoyillarni joriy qilish, yangi ijtimoiy munosabatlarga o'tishga qaratildi. Yosh buxoroliklar tashkiloti rasman yo'q bo'lsa ham, hokimiyat organlaridagi milliy kadrlar, ziyolilar, aholining boshqa qatlamlari targ'ib qilingan islohotlar g'oyalariga amal qildilar.

Rossiya qo'shinlari mamlakat hududiga kirib kela yotib, yo'l-yo'lakay dehqonlar mulkini shu qadar ko'p taladilarki, bu hol respublika siyosiy-g'oyaviy muhitiga qo'shimcha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yosh buxoroliklarning g'oyalari va BKP siyosati o'rtasidagi jiddiy tafovut ijtimoiy vaziyatni keskinlashtirdi. Buxoro rahbariyati 1921-yil mart oyida qator chet mamlakalar hukumatlariga yo'llagan murojaatnomasida Buxoro xalqi... Yosh buxoroliklar ta'sirida uyg'ondi», deb ta'kidladi. BKPni F.Xo'jayev «Sun'iy tuzilgan partiya», deb atadi. Rossiya va Turkiston

bolsheviklariga tayangan BKPning ayrim rahbarlari zudlik bilan inqilobiy o'zgartirishlarni amalga oshirishni, chunonchi, yerlar, boyliklarni musodara etishni, vaqflarni yo'q qilishni, islom diniga qat'iy hujum boshlashni talab qildilar. 1920-yil oxiri - 1921-yil boshida o'tgan munozarada Buxoro to'ntarishi, yangi hokimiyat mohiyatiga oid demokratik yo'l hamda so'l-ekstremistik yondashuvlar to'qnashdi.

Buxoro respublikasining liberal-demokratik kayfiyatdagi rahbarlari o'z g'oyalarida qat'iy turdilar. Mamlakatda qizil qo'shinlar sonini 15 mingga kishiga kamaytirish, Rossiyaga berilgan oziq-ovqat, paxta va boshqa mollar evaziga narxi teng bo'lgan mollar yetkazib berish masa-lalari qo'yildi. BKPning qator so'l-ekstremistik rahbarlari lavozimlaridan bo'shatilib, chetga ketishga majbur bo'ldilar. «Yer to'g'risida»gi dekret bekor qilinib, ekspropriatsiyalar, razvyorstka, zo'rlik choralariiga barham berildi.

Turkbyuro raisining muovini G.Safarov BXSR ichki ishlariga qo'pol ravishda aralashishga intildi, rahbarlarni ochiq majlisda haqorat qildi. Unga qat'iy tanbeh berildi, RSFSR tashqi ishlar komissarligiga norozilik notasi yuborildi. F.Xo'jayevning qat'iyati bilan Buxoro Chekasi tugatildi, tribunallar, siyosiy bo'limlar tomonidan fuqarolarni jazoga tortish vaqtinchalik to'xtatildi. Islom dini, masjid-madrasalar xizmati, ruhoniylarning faoliyat erkinligi tiklandi, yangi qoziliklar ish boshladi. 1923-yil yozida BXSR qozilarining I qurultoyi bo'lib o'tdi. 65 ta qozilik hududida 528 kishi xizmat qilardi. Yangi sovet sudlari tashkil etildi.

Respublika hukumati va jamoatchiligining demokratik yo'ldan borishi mulkdorlarni yo'q qilish, sinfiy adovat kelib chiqishiga imkon bermadi. Ijtimoiy vaziyat mo'tadil darajada saqlandi.

Rossiyadagi bolshevistik rahbariyat, Turkkomissiya BXSRdagi muhitni va siyosiy kuchlar muvozanatini o'zgartirishga urindi. BKPdagi so'l og'machilikni tanqid qilish bilan birga, asosiy zarbani respublika hukumatiga qaratdilar. Bolshevistik namoyandalar tez-tez Buxoroga qatnay boshladilar. Ularning faol ishtiroki bilan nozirlar Fitrat, M.Saidjonov, M.Aminov, Otaxo'jayev, Sattor Xo'jayev «burjua savdogarlari vakillari» deb lavozimlaridan bo'shatildilar. Mahalliy idoralarda ham «chistka»lar o'tkazildi, Buxoro viloyatida 56 kishi, Karki viloyatida 70 kishi ishdan chetlashtirildi, ularning ko'pchiligi javobgarlikka tortildi. Respublika markazi va g'arbidagi o'nta mahalliy ijroiya qo'mitalarinig raislari ishdan olmdi.

Ammo, keyingi davrda ham aholining, respublika rahbarlarining sa'y-harakatlari fuqarolar totuvligi, ijtimoiy munosabatlarning barqaror kechishiga qaratildi. 1924-yil yozida F.Xo'jayev aholining

qashshoqlashganini e'tirof etib, bundan qutulish tadbirlarini izchil amalga oshirish zarurligini uqtirdi. Turkistondan Q.Otaboyev va boshqalar Buxoroga yuborilib, rahbar lavozimlarga tayinlangan edilar. Hukumat raisi muovini Q.Otaboyev Resppublika iqtisodiyotini ko'tarish, jumladan, pul muomalasini sog'lomlashtirish, byudjet masalalari bilan jiddiy shug'ullandi. BXSРning qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro foydali aloqalarini davom ettirishga e'tiborni qaratdi.

Rossiya kommunistik firqasi bilan «muqaddas ittifoq» tuzgan bo'lsada, F.Xo'jayev ham mustaqillik uchun kurashdi. Fayzulla Xo'jayev topshirig'i bilan Ota Xo'jayev, Soddiq Muhammadiyev va Naimjon Yoqubzodalar Ko'lob viloyatining Baljuvon tumanidagi Qizil armiya va qo'rboshilar bilan «Bitim» tuziladi. Unda «Muborak Buxoro»ni bosib olgan Rossiya qo'shinlari shahardan darhol olib chiqib ketilishi, talab ketilgan mulk va boyliklar Rossiya hukumati tomonidan Buxoroga qaytarilishi, Rossiya davlati «agar o'z hukmini o'tkazish siyosatini to'xtatsa» unga hurmat ko'rsatilishi qayd etiladi. Bu ish uchun F.Xo'jayev Moskvada SSSR Tashqi ishlar noziri Chicherindan qattiq dakki yeydi.

F.Xo'jayev yashirincha jadid tashkilotlarining ishida ham faol qatnashdi. U Buxorodagi «Turkiston milliy birligi», «Milliy ittihadning» ishlaridan to'la xabardor bo'ldi. 1923-yilda u «Milliy ittihad»ning O'rta Osiyo tashkiloti rahbarlarining yig'ilishida Sovet Rossiyasi va Sovet Buxorosi munosabatlariga oid bir hujjatni e'lon qildi. Uni iqtisod, moliya va hozirgi kunning vazifasi masalalari to'g'risida aniq fikrlar bildirgan edi. Hujjatda iqtisodiy masalada «Bugungi kundagi Sovet Rossiyasi va Buxoro munosabatlari sobiq rus saltanati va Buxoro xonligi munosabatlaridan farq qilmay qoldi» deb ta'kidlagan edi.

Moliya masalasida esa quyidagilar yozilgan edi: «Rusiya har xil yo'l bilan bizning pulimiz qiymatini pasaytirish va va shu yo'l bilan o'z pul birligini joriy qilish niyatida. Bizning banklarni yo'q qilib, o'z bankini ochish orqali Rusiyaga bizni to'la tobe qilib qo'ydi».

F.Xo'jayev Buxoro taqdiri bo'yicha o'z qilgan ishlari, xatti-harakatidan qoniqish hosil qilmaydi, afsuslanadi. U ona yurti O'zbekistonning rus-bolshevizm bosqini ostida qolganligidan yurak bag'ri eziladi, o'z onasi-Rayhon Saidmurod qizini quchoqlab, 1935- yilda o'ksib-o'ksib yig'lab aytadi: «Onajon siz meni baxtsiz qilib dunyoga keltirgan ekansiz, men Vatanim, millatim, xalqim uchun jonimni jabborga berib ishlayapman, lekin... men Rusiya buyrug'ini qul misli bajarishdan boshqa hech narsa qila olmayapman!».

F.Xo'jayevning milliy istiqlol yo'lida qilgan xizmatlaridan yana bittasi shuki, u turkiy xalqlar milliy ozodligi va mustaqilligining yirik bayroqdorlaridan biri bo'lgan boshqirdistonlik Zaki Validiy To'g'on va Turkiston jadidlarining sardorlaridan Munavvar Qori Abdurashidxonovlarni o'z qanoti ostiga oladi. Zaki Validiy To'g'on Boshqirdiston milliy hukumati bostirilgach katta umidlar bilan bu yerga kelgan edi. Munavvar Qori esa, Turkistondan surgun qilindi. Shu bois u bilan birga «Milliy ittihad» (yoki «Ittihodi milliy») ham bu yerga ko'chadi. Ularning faolligi natijasida Buxoroda O'rta Osiyodagi turkiy musulmon xalqlarining yashirin milliy ozodlik tashkilotining markazi, ya'ni Munavvar Qori ta'kidlaganidek, «markazlar markazi» - «Turkiston milliy birligi» tashkil topadi. F.Xo'jayev ongli suratda butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib bu tashkilot faoliyati uchun barcha sharoitni yaratib beradi. Tashkilot rahbariyatining majlislari hukumat a'zolarining uylarida maxfiy suratda o'tkazilgan. Bundan tashqari, F.Xo'jayev boshliq hukumat milliy istiqlolni saqlash va mustahkamlashning eng zarur shartlaridan biri milliy mutaxassis kadrlar tayyorlash, maorif va madaniyatni rivojlantirish, milliy yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborish kabi masalalarga katta e'tibor berdi. Shaxsan F. Xo'jayevning fidoyiligi bilan 20 yillarda 23 kishi Buxorodan Germaniyaga o'qishga yuborildi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida ta'lim-tarbiya jarayonini yo'lga qo'yish uchun pedagoglar tayyorlashga alohida e'tibor bilan qaraldi va Buxoroda ikkita o'qituvchilar tayyorlash instituti tashkil etildi. Fayzulla Xo'jayev rahbarligi davrida BXSR 32 ta boshlang'ich va o'rta maktab, 11 dan ortiq bolalar uyi, pedagogik kurslar, hunar maktablari, ikkita musiqa maktabi va savodsizlikni tugatish uchun ochilgan qisqa kurslar muntazam ishlay boshladi.

Fayzulla Xo'jayev bilimli va malakali mutaxassislar yosh respublikani rivojlantirishda muhim ekanligini tushunib yetgan edi. Fayzulla Xo'jayev tavsiyasi bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqa qilish bo'limining boshlig'i Abdulvohid Burhonov Germaniyada tahsil olayotgan yoshlarga rahbarlik qiladi. Fayzulla Xo'jayevning o'zi ularning yashash va o'qish sharoitlaridan doimo xabardor bo'lib turdi va ular uchun kerakli sharoitlarni yaratib berdi. 1922-yilning oxiri – 1923 yil boshlarida Germaniyaga davolanishga borgan Fayzulla Xo'jayev Germaniyaning turli shaharlarida ilm-hunar olayotgan yuzdan ortiq turkistonlik yigit-

qizlar bilan muloqotda bo'ladi. Ularning yashash sharoiti, o'qishlari bilan qiziqadi.

Germaniyada tahsil oluvchi yigit va qizlar uchun Berlinda o'zbek tilida bosmaxonasi tashkil etilib, qancha o'zbek adiblarining asarlari va she'riy to'plamlari arab alifbosida o'zbek tilida chop etilgan.

Fayzulla Xo'jayev Germaniya bilan bir qatorda Rossiyada ham Buxoro yoshlarini ilm-fan yutuqlarini egallashlariga imkoniyat yaratish maqsadida 1923-yilning mart oyida RSFSR Maorif Xalq Komissari A. V. Lunacharskiy ga xat yo'llab, buxorolik 11 nafar yoshlarni Moskvada o'qishlariga sharoit yaratib berishini so'raydi. Shu tariqa 1923-yil 27 martda Moskvada buxorolik yoshlar uchun "Maorif uyi" ochildi. Bu ilm muassasida 200 dan ortiq yoshlar turli mutaxassislik bo'yicha bilim va malakalarni qo'lga kiritdilar.

1923-yildagi ma'lumotlarga qaraganda BXSRda 19 ta madaniy-oqartuv muassasalari, shu jumladan, 17 ta kutubxona va qiroatxona, bir muzey, 2 ta drama truppasi, bir teatr va 4 kinoteatr ishlab turdi. Bu yosh respublika uchun katta ma'naviy-madaniy yutuq edi.

Fayzulla Xo'jayev BXSRda kino sohasining rivojlanishiga boshqosh bo'ldi. 1924 yil Fayzulla Xo'jayevning tashabbusi bilan O'rta Osiyoda birinchi kino tashkiloti,—«Buxkino» tashkil etildi. "Buxkino" o'zining ikki yillik faoliyati davomida bir qancha hujjatli filmlar va "O'lim minorasi" nomli ilk badiiy film yaratdi. Bu o'rinda shuni aytish joizki, Buxoro Xalq Sovet Respublikasida kino san'atini rivojlantirish yo'lida "Buxkino" xodimlari uchun Fayzulla Xo'jayev o'zining shahardagi uyini bo'shatib beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak Fayzulla Xo'jayev boshchiligida BXSR hukumati respublika mavjud bo'lgan to'rt yil mobaynida bir qancha amaliy ishlar amalga oshirildiki, bularning barchasi uning taraqqiyoti uchun xizmat qildi. Bu ishlarda bevosita Fayzulla Xo'jayev va boshqa buxorolik yurt fidoyilarining xizmatlari katta bo'ldi.

F.Xo'jayev va yosh buxoroliklar harakati. Turkiston o'lkasida ilm-ma'rifatni targ'ib qilgan jadidchilik harakati dastlabki paytda savod ishlari bilan shug'ullandilar. Shu asnoda ular olib borgan harakat mohiyat jihatidan ozodlik uchun kurash mazmunida bo'lsada, harakatning dastlabki paytlarida muvaffaqiyatga qozona olmadi. Ammo, xalq orasida ilmu urfonni tarqatish ishlaridan to'xtab qolingani yo'q. Jadidlar, bir tomondan, Turkiston mustaqilligi uchun kurash olib bordilar. Ikkinchi tomondan, ular Turkistonda

demokratik huquqiy davlat qurish uchun intildilar. Bu kurash Jadidchilik mafkurasining asosini tashkil qiladi.

Turkistonning bu ilg'or ziyolilari Turkistondagi idora usuli, boshqaruv shakllari, davlatchilik nazariyasi va amaliyoti bilan faol shug'ullandilar. Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar partiyalari, «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi Ulamo», «Turon» va boshqa jamiyatlarning dasturlarida davlatchilik masalalariga alohida e'tibor berilgan edi. Bu jadidchilikning allaqachon ma'rifatdan siyosatga tomon yo'l tutganligini bildiribgina qolmasdan, balki jamiyatni tubdan o'zgartirish, yurtimizda mustaqillikka erishish uchun kurash boshlanganligini ham anglatar edi.

Ma'lumki, jadidlar islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni, taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlik yo'li bilan, parlament orqali erishishni mo'ljallagan edilar. Ular o'zbek xalqining o'ziga xos milliy xususiyati (mentaliteti), uning samiyimiyliigi, bag'ri kengligi, sabr-toqati, bardoshi va chidamini ham hisobga olgan holda tinch yo'l bilan hokimiyatni qo'lga olishga intilgan edilar. Jadidlar faoliyatidagi bu o'ziga xos milliy g'oya keyinchalik jahoniy ahamiyatga molik hodisaga aylanib, u Hindiston va boshqa mamlakatlardagi milliy-ozodlik kuchlari yo'lboshchilari tomonidan yanada rivojlantirildi.

Hududiy jihatdan yagona bo'lgan O'rta Osiyoda jadidchilik harakati bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsada, o'z oldiga qo'ygan kurash maqsadlari jihatidan ikki xil yo'nalish kasb etgan. Jumladan, Turkistonlik jadidchilar o'z oldilariga boshq maqsad qilib Turkiston o'lkasini Rossiya mustamlakachilaridan ozod qilish va milliy mustaqil davlat tuzishni qo'ygan bo'lsalar, buxoro va xivalik jadidlar hokimi mutlaq-o'z monarxlari bo'lgan amir va xon zulmiga qarshi kurashni bosh maqsad deb bildilar. Rossiya mustamlakachiligi zulmini, uning barcha yaramas va og'ir illatlarini, noinsoniy ko'rinishlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan, uning barcha azoblari yukini yelkasida ko'tarib undan nafratlangan Turkiston o'lkasi xalqlari bosh maqsad qilib ana shu shovinistik mustamlakachilik zulmidan ozod bo'lishni, milliy mustaqil davlat tuzishni bosh maqsad deb bildilar. Bu bosh maqsadning ilhomchilari turkistonlik jadidlar edilar. Buxoro xalqlari uchun mustamlakachilik zulmi yo'q edi. Chunki Rossiyaga yarim mustamlaka, qaram bo'lsada, Buxoro o'z mustaqilligini saqlab qolgan edi. Bu yerda mahalliy boylar va mushtumzo'rlar zulmi kuchli edi. Boylar va amaldorlar amir va xon himoyasida edi. Bugina emas ko'p hollarda amir va xon zulmi hammasidan ham oshib tushar edi. Mehnatkash xalqning arzi-dodini eshitadigan bir kimsa yo'q edi. E'lon

qilingan farmonlar ishlamas va bajarilmas edi. Xalq ommasi hokimi mutlaq-monarx amir va xon o'rniga insofliroq va adolatliroq hukmdorga ega bo'lishni xohlar edi. Xalqning bu intilishi va qiziqishini Buxoro jadidlari idrok etdilar va ko'tarib chiqdilar. Ular shu boisdan ham amir va xonga qarshi kurashni bosh maqsad deb bildilar. Yosh turklar faoliyati Buxoro jadidlari faoliyati uchun namuna va o'lchov mezoni bo'ldi. Shuning uchun ular o'zlarini yosh turklarga nisbat berib «yosh buxoroliklar» deb atay boshladilar. Yosh buxoroliklarning pirovard maqsadlari konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi edi. Ular ana shu konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi doirasida islohotlar o'tkazish yo'li bilan adolatli va insonparvar jamiyat qurish mumkin, deb ishonardilar. Lekin ana shu o'rtacha mo'tadil talablar ham amir tomonidan e'tiborga olinmas edi. Bu talablarni ilgari surganlar hukmron tabaqa kuchlarning juda keskin qarshiligiga duch kelar va shafqatsizlarcha bostirilar edi. Shu boisdan yosh buxoroliklar o'ta yashirin holatda ishlashga majbur bo'lganlar.

Yosh buxoroliklar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot qonuniyatlari taqozosiga ko'ra xalq ommasi o'rtasida tayanch bazaga ega emas edilar, ular o'zlariga ittifoqchilarni chetdan izlanadilar va Rossiya timsolida amir va xon zulmidan ozod bo'lish mumkin, degan tariqda ham turmaydigan va kechirib bo'lmaydigan siyosiy xatoga yo'l qo'yidilar.

1916-1917 yillar oralig'ida yashirin «Yosh buxoroliklar» firqasi va uning 12 kishilik Markaziy qo'mitasi tashkil topdi. Bu siyosiy partiyaning tashkil topishida «Yosh turklar»ning «Ittihodi va taraqqiy» firqasi, Rossiya va Turkistondagi sotsial-demokratik firqalarning ta'siri katta bo'ldi. «Yosh buxoroliklar» firqasining Markaziy Qo'mitasi raisi Abduvohid Burxonov, kotibi Usmon Xo'ja (O'smonxo'ja Po'latXo'jayev), xazinador Muso Saidjonov edi.

Bulardan tashqari firqaning tashkil topib mustahkamlanishida Abdurauf Fitrat (1886-1938), Ota Xo'jayev (1894-1938), Mirkomil Burxonov, Fayzulla Xo'jayev (1896-1938), Sadridin Ayniy (1870-1954), Fazlitdin Maxsum, Abdurahim Yusuf Zoda (1880-1937) va boshqalarning hissasi katta bo'ldi.

«Yosh buxoroliklar» firqasining dastlabki faoliyatiga oid tarixiy hujjatlardan biri Buxoroda o'tkazilishi zarur bo'lgan islohot loyihasidir. Uni 1917 yilda firqa markaziy qo'mitasi nomidan Abdurauf Fitrat yozgan. U, «Yosh buxoroliklar» partiyasi, «Yosh buxoroliklar qo'mitasining Buxoroda islohot o'tkazish loyihasi» deb nomlanadi.

Loyiha o'z vaqtida mahalliy matbuotda bosilganligi haqida aniq ma'lumot yo'q. Biroq uning ruscha nusxasi 1930 yilda S.Dimanshteynning «Revolutsiya i natsionalno'y vopros» («Inqilob va milliy masala») kitobida ilk bor Moskvada chop etilgan. Shundan so'ng tariximizning bu nodir hujjati ushbu kitobdan ko'chirilib, qisqacha inglizcha kirish so'zi bilan 1985 yilda Oksford shahrida O'rta Osiyoni o'rganuvchi jamiyat tomonidan rus tilida nashr etilgan «Musulmon siyosiy partiyalarining dasturiy hujjatlari. 1917-1920 yillar» nomli kitobda qayta bosildi.

Loyihada yer-suv masalasiga katta e'tibor berilgan. Bundan tashqari harbiy masala, moliya ishlari, ichki ishlar va davlat boshqaruv organlari kabi masalalarga unda keng o'rin berilgan.

Loyihada butun haydaladigan yerlar (uch qismga) bo'lingan:

1)Vaqf yerlari (masjid va madrasalarga tegishli yerlar); 2)Soliqdan ozod qilingan yerlar (mulki hur); 3)Soliq olinadigan (mulki hiroj) yerlar.

Hammani ekin ekishga majbur qilish maqsadida barcha ekilgan va ekish mumkin bo'lib, ekilmay qolgan yerlarga ham soliq solish nazarda tutilgan. Shuningdek, «mulki hiroj» yerlariga soliqni kamaytirish hamda «kafson» (amin, oqsoqol va boshqalar uchun) «atafti» (sadaqa), «uchkuna puli» (turli daraxtlar uchun), «cho'p puli» (yaylov uchun) va boshqa ortiqcha harajat chiqimlarni tugatish nazarda tutildi.

Loyihada yana davlat yerlari, bog' va binolarga ishlov berish uchun hashar chaqirish, umuman mehnatkashlar mehnatidan tekin foydalanish ham man etildi. Hashar yo'li bilan faqat suv inshootlari qurish, kanallar qazish, umuman irrigatsiya ishlarini amalga oshirish mumkin bo'ldi. Bunday paytda hasharga kelmaganlarga hatto, soliq solish nazarda tutiladi.

Loyihada qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va mexanizatsiyalash, dehqonlarni sudxo'rlardan qutqarish uchun qishloq xo'jalik bank tarmoqlarini tashkil etish, agronomiya bilimlarini yoyishga katta ahamiyat berildi.

Milliy armiyaga ham «Yosh buxoroliklar» partiyasi katta e'tibor berdi. Loyihada armiya sonini eski rus hukumati Buxoro amiri tuzgan shartnomaga ko'ra 12 ming kishiga yetkazish berilgan. Harbiy xizmat 22 yoshga yetgan hamma uchun majburiy bo'lishi, xizmat muddati esa ikki yil qilib belgilanadi. Shuningdek, harbiy maktablar ochish, askarlarga, ozroq bo'lsada oylik maosh to'lab turish nazarda tutildi. Moliya sohasida ham jiddiy islohat o'tkazishga e'tibor berildi. Buning uchun amirning

mablag'lari umumdavlat mablag'idan ajratilishi soliqdan aniq belgilanishi davlat byudjeti har yili e'lon qilib turilishi ko'rsatildi.

Maorif sohasida davlat mabg'ali hisobiga maktab, oliy o'quv yurtlari ochish, ularni zamonaviy dastur, o'quv qo'llanmalari, o'qituvchilar bilan ta'minlash, davlat va vaqf maktablaridan tashqari shaxsiy maktablar ochilishi dasturda o'z aksini topgan edi. Shu bilan birga o'quv yurtlarini bitirganlarga maorif nozirligi tomonidan diplom berish ham aniq ko'rsatildi. Islohotda davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayot masalalari qamrab olindi. Buni unda ko'rsatilgan quyidagi 10 ta nozirlik isbotlab turibdi: yer ishlari, vaqflar, harbiy ishlar, ichki ishlar, moliya, adliya, militsiya, yo'llar qazib chiqaruvchi va qayta sanoat ishlari, maorif, tashqi ishlar nozirliklari.

Mana shular asosida Nozirlar Kengashi tashkil etilishi kerak edi. Bu nozirlar faoliyatini kuzatuvchi 20 kishilik maxsus Nazorat komissiyasi tashkil etilishi ham nazarda tutildi.

Bu yuqorida ko'rsatilgan masalalar o'sha paytda hal qilinishi amri mahol bo'lsa-da, ular ma'lum dastur holatiga keltirilib, amirga tavsiya etilishining o'zi katta tarixiy ahamiyatga molikdir. Islohotdan kutilgan maqsad yakka amir hukmronligi (monarxiyasi)ni yevropacha konstitutsion monarxiya bilan almashtirish, maorif va madaniyatni, ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirish, ilm-fan va texnikani taraqqiy ettirishdan iborat bo'ladi. Buning uchun «Yosh buxoroliklar» partiyasi dastlab Amir Olimxonga har xil yo'llar bilan tinch demokratik ta'sir va hatto, kuch bilan tazyiq o'tkazishga harakat qildilar. Bularning hammasi Rossiya va Turkistondagi inqilobiy harakat bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Rossiyada fevral inqilobining g'alabasidan so'ng Buxoroda ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat tez o'zgara boshladi. Ruslar yashaydigan joylarda hokimiyat Rossiya Muvaqqat hukumatining Ijroiya qo'mitalari qo'liga o'tdi. 1917 yil 12 martda Yangi Buxoroda (Kogon) ijroiya qo'mita saylandi. May oyining birinchi kunlarida esa Buxoro xonligida ruslar yashaydigan joylardagi ijroiya qo'mitalar delegatlarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Buxoroda juda ajoyib va murakkab ijtimoiy-siyosiy muhit paydo bo'ldi. Bu esa jadidlarda umidvorlikni uyg'otdi. Ma'lumki, Buxoro Rossiyaning yarim mustamlakasi edi. Shuning uchun ham jadidlar ya'ni «Yosh buxoroliklar» firqasi rahbarlari o'z maqsadlarini Rossiya Muvaqqat hukumati orqali amalga oshirish uchun unga telegramma orqali murojaat yuborib, amirni isloh o'tkazishga ko'ndirishni iltimos qildilar. Fayzulla Xo'jayevning ko'rsatishicha, unga «yosh buxoroliklar»ning faollari imzo

chekkan edilar. Rossiya markazidan tezda javob kelmaydi. Sabrsizlik bilan ikkinchi telegramma yuborildi. Uning matni F.Xo'jayev tomonidan yozilgan bo'lib, Fitrat va Saidjonov imzo chekkan edi.

Bunga ham chidamay, «Yosh buxoroliklar» firqasining yangi tuzilgan Markaziy qo'mitasi Fitrat va Usmonxo'ja Po'latxo'jayevdan iborat maxsus delegatsiyani Petrogradga yuboradilar. Ular Orenburgga kelganlarida jadidlar bilan amir o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilish uchun Rossiya poytaxtidan maxsus komissiya yo'lga chiqqanligi haqidagi xabarni oladilar va orqaga qaytadilar.

Ana shundan so'ng Olimxon Rossiya muvaqqat hukumati va uning Buxorodagi vakili Miller hamda mahalliy taraqqiyparvar jadidlar ta'sirida 1917 yil juma kuni 7 aprelda islohot o'tkazish to'g'risidagi «Manifest»ni e'lon qildi. «Manifest» oldin saroyga to'plangan 200 ga yaqin faollar, diniy ulamo va muftilar oldida tantanali ravishda o'qib eshittirildi. Unda saroy amaldorlari va savdogarlardan 15 kishi, Buxorodagi rus shaharlari ishchi va askarlari deputatlari soveti hamda Samarqand sovet hokimiyati vakillari qatnashdi. Ularning orasida Mahmudxo'ja Behbudiy (Samarqand), F.Xo'jayev, chor hukumatining vakili Miller, amir, qozi kalon, amir tomonidan yangidan ma'muriy ishga tayinlangan taraqqiyparvar Sharifjon Maxsum bor edilar.

Manifestda amir sud (qozixona), soliq ishlarini tartibga solish, sanoat va savdoni rivojlantirish, hamda amaldorlari nazorat ostiga olish, poytaxt Buxoroni obodonlashtirish, fuqarolarning sog'lig'i va rohat-farog'ati haqida g'amxo'rlik qiluvchi maxsus komissiya tuzish haqida va'da qilingan edi. Shuningdek, manifestda moliya ishlarini tartibga solish, kirim, chiqimlarni aniq hisoblangan amirlik byudjetini tashkil etish, umuman xalqqa yengilliklar berish, maorif va fan-texnikani rivojlantirish, bosmaxona tashkil etib, bosma matbuotga asos solish, qamoqxonadagi erkin fikrlilarni ozod qilish ko'rsatildi.

Bu manifest Buxoroda siyosiy vaziyatning taranglashuviga sabab bo'ldi. Uni din peshvolari va dindorlar orasidagi o'ta muattassiblar shariat qonunlarni buzish deb qabul qildilar. Taraqqiyparvarlar, ayniqsa, «Yosh buxoroliklar» unda o'zlarining talablari ma'lum darajada hisobga olinganligidan o'ta quvondilar. Shuning uchun ham ularning ma'lum bir «qizillashgan» qismi amirning insofga kelgani uchun unga minnatdorchilik bildirish maqsadida 8 aprel kuni katta ko'cha namoyishi bilan nishonlaydilar. Namoyishchilar «Yashasin Amir Olimxon! Yashasin islohot!» deb yozilgan qizil alvonlarni ko'tarib ko'chalarga chiqdilar.

«Yosh buxorliklar» orasida qat'iy birlik yo'q edi. Ayniqsa, bu F.Xo'jayevning ko'rsatishicha quyidagi ikki masalada keskinlashadi: 1)Kutilayotgan manifestga munosabat; 2)manifest munosabati bilan bo'ladigan namoyish va targ'ibot.

Ana shu masalalar sabab «Yosh buxoroliklar» Markaziy Qo'mitasining 12 a'zosi orasida ajralish yuz berdi. Abduvohid Burxonov o'ta «qizillashgan» F.Xo'jayev guruhi nuqtai nazarini ma'qullaydi. Shundan so'ng yangi Markaziy qo'mita quyidagi tartibda 9 kishidan iborat qilib saylandi: Abduvohid Burxonov (rais), Fitrat (kotib), Usmonxo'ja Po'lat Xo'jayev (xazinachi) va a'zolari: Muhitdin Rafoat, Musa Saidjonov, Ota Xo'jayev, Ahmadjon Abdulsaidov, Fayzulla Xo'jayev va Hamidxo'ja.

F.Xo'jayev va uning bilan hamfikrda bo'lganlar shuningdek, yangi Markaziy qo'mita a'zolari tabiatan «rus inqilobchilari» ta'siriga berilgan, asosiy maqsadga esa faqat Rossiya yordamidagina erishishiga ko'r ko'rona ishongan edilar. Ularning o'z mustaqil mahalliy imkoniyatlarni hisobga olgan, qat'iy yo'li-dasturi yo'q edi.

Asosiy xato ham xuddi mana shundan iborat bo'ldi. Ya'ni Turkiston jadidlari bilan Buxoro jadidlarining o'ziga xos farqi va o'ta so'lligi ham aynan ushbu masalada ko'zga tashlandi.

Turkiston jadidlari yuqorida ta'kidlanganidek bolsheviklarning va'dalariga ishondi, ammo ayni paytda istiqlool bobida mustaqil o'z yo'lini ham tanlab oldi. Bu yo'lning mohiyati Rossiya oldida to'g'ridan-to'g'ri taslimchilikdan holi bo'lgan milliy muxtoriyatchilik asosida hokimiyatni to'la qo'lga olish, millat manfaatini dastlab tinch demokratik va keyinroq esa qurol olib himoya qilishdan iborat edi. Turkiston jadidlari Sovetlar bosqiniga qarshi so'nggi imkoniyatga qadar tik turib kurashdilar. Rossiya harbiy kuch qudratidan cho'chimadilar va o'z jonlarini istiqlool uchun garovga qo'ydilar. Bolsheviklarning jozibali tashviqot-targ'ibotlari, quruq havoyi va'dalari va balandparvoz shiorlariga ko'r-ko'rona ishongan va aldangan Fayzulla Xo'jayev boshliq taslimchilarning kurash taktikasidan mustamlakachi rus bolsheviklari Buxoro xonligini butunlay tugatib, Ittifoq tarkibiga kiritib olishda ustalik bilan foydalandilar.

Rus armiyasi muvaqqat hukumatga tayanib 8 aprel kuni o'tkazilgan «inqilobiy namoyish» xalqimiz maqolida aytilganidek, «qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish»dan boshqa narsa bo'lmadi. Tabiiyki, Islom dinining quvvati bo'lgan Buxoro ko'chalarida qizil alvon va bayroqlar ko'targan «inqilobchi»lar amir, qozi kalon va mutaassib dindorlarni cho'chitib yubordi. Hatto ularning g'azabini oshirdi.

Fayzulla Xo'jayevning iqrор bo'lishicha, jadidlarning keksa ko'zga ko'ringan boshliqlaridan Abduvohid Burxonov va Fazlitdin Maxsum namoyishchilarni qizil alvonlarsiz, ko'chaga chiqishini talab etdilar. Biroq bu haqli talabga hech kim e'tibor bermadi. Buning ustiga-ustak kavkaz va yevropalik boshqa musulmon hamda nomusulmon yoshlar ham qizil bayroq ko'tarib namoyishga chiqdilar. O'tmishda ham bunday hatti-harakat qanday noxush oqibatlar olib kelganligi tarixdan ma'lum. Jumladan, 1745 yilda Nodirshoh armiyasi bilan Buxoroga kelgan lezginlar, usmonli turklar, eronliklar va afg'onlar alohida mahallalarda yashardilar. Ayniqsa, nomusulmon «kelgindi»larning ibodatlarі va bayramlar ma'lum belgilangan joy (cherkov)lar va o'z mahallalari doirasida o'tkazilish shart edi. Ular musulmonlarning hiy-tuyg'ularini haqoratlovchi ommaviy harakat qilishlari, musulmon jamoatchiligi orasida ichimlik (vino) ichishlari va baland ovozda Bibliya o'qishlari va boshqalar mumkin emas edi. Masalan, 1910 yilda buxorolik sun'iy bilan eronlik shialar o'rtasida bo'lgan xunrezlikka shialarning Buxoroda markaziy ko'cha bo'ylab, ashur bayramiga bag'ishlab o'tkazgan namoyishi sabab bo'lgan edi. Bunday voqealar o'tmishda bir emas, bir necha bor yuz bergani ma'lum.

Jadidlar tashabbusi bilan boshlangan namoyish kuni ham «begona kelgindi» va nomusulmonlar ham o'tmish sabog'ini unutib ko'chaga chiqdilar. Namoyishchilarning soni tez orada 5-7 ming kishiga yetdi. Ular o'zbek va rus tilida «Yashasin ozodlik, konstitutsiya, matbuot erkinligi va maktab mustaqilligi!», «Yashasin xaloskorimiz amir!» deb yozilgan alvonlar ko'tarib olgan edilar.

Namoyishchilar Registon tomon yo'l oldilar. U yerda esa 7-8 ming kishi asosan mulla va mullavachchalar jadidchilar namoyishiga qarshi norozi bo'lib to'plangan edilar. Registon maydonida amirning 200 ta piyoda, 300 ta otliq askarlari ham shay qilib qo'yilgan edi.

Bundan xabar topgan jadidlar namoyishchilarni to'xtatib, tarqatib yubordilar. Shu yerda Ota xo'jayev, Xoji Mirbobo Mirmuxsinov, Yusuf Zoda Abduraimdan iborat maxsus komissiya qushbegi oldiga borib, namoyish tinch maqsadda o'tkazilganligini tushuntirmoqchi bo'lganida qo'lga olindi. Shundan so'ng Buxoro ko'chasida to's-to'polon va tartibsizlik boshlandi. Namoyishdan asosan dindorlarning katta qismi norozi bo'lgan edi. Ular mutaassiblik bilan din va shariatni himoya qilib ko'chaga chiqdilar. Buni o'z ko'zi bilan ko'rgan S.Ayniy bunday deb yozadi: «Shanba kuni ertalabdan, soat sakkizu, o'ttizda reaksiya yo'l boshchilar bo'yinlariga bel-bog'larini osib olib qichqirar edi: «Ey

musulmon bandalar! Din yo'qolmoqda, shariat o'lmoqda, endi ayollarning yuzi ochiladi, qizlaringizni nomusi toptaldi, bolalar kofirlarning maktablarida o'qiydi: Din himoyachilari, iymon, din, shariat himoyasiga otlaning, g'azovotga tayyor bo'ling!».

Shu kuni kechqurun, yana S.Ayniyning guvohlik berishicha, Buxoro muftilarining muhrlari bosilgan hujjat tayyorlandi. Unda shunday deyilgan edi: «Bayroq ko'tarib, islohot talab qilgan kishilar hazrati oliylari amirga qarshi chiqdilar. Shuning uchun ham ular gunohkor va isyonchi hisoblanadi. Ularning qonini to'kish xudoga xush keladigan ish, mol-mulk esa hammanikidir». Namoyish qatnashchilari va jadidlardan o'sha kuniyoq 30 kishi qamoqqa olindi va kaltaklandi. Mirbobo va Ayniyga-75, Mirza Nasrullo-150 davra urildi. Keyingi kuni darra zarbidan Mirza Nasrullo vafot etdi.

Namoyish fojia bilan tugadi. Hamma oyoqqa turdi. Jadidlarni ta'qib qilish va jazolash kuchaydi. Bu esa namoyishga rahbarlik qilgan Markaziy qo'mita a'zolari orasida yana ajralishni kuchaytirdi. Qo'mita qayta saylandi. Endi unga Muhitdin Mansurov (rais), Abduqodir Muhitdinov, Muhitdin Rafoat, Abduvohid Burxonov, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Orif Karimov, Mirza Islom Muhitdinov, Fayzulla Xo'jayev, Musa Saidjonov va boshqalar kirdilar.

Markaziy qo'mita yangi Buxoroda turib rus armiyasi va hukumati yordamida amirga tazyiq o'tkazishga, uni jadidlarga nisbatan amnistiya e'lon qilishga, ta'qibni to'xtatishga majbur qilishga harakat qildi. 14 aprel kuni jadidlar rahbarlaridan tuzilgan maxsus komissiya, ertalab yangi Buxorodan kelib, Miller orqali amir bilan uchrashdi. Shu kuni Miller rus aholisini himoya qilish uchun chaqirgan pulemyot rotasi ham Samarqanddan Buxoroga keldi.

Bundan xabar topgan shahar ahli amir saroyini qurshab oldi va jadidlarni dindan qaytgan kishilar sifatida qatl qilinishini talab etdi. Amir bilan suhbat juda qisqa bo'ldi. U vakillardan jadidlarni o'z yo'lidan qaytishi to'g'risida yozma ravishda tushuntirish xati berishni so'radi. Shu bilan birga Nasrullo Qushbegi saroyini o'rab olgan 10 000 kishi jadidlar vakillarini 12 soat ichida qatl qilishni talab qilayotganligi yoki ularni shahardan chiqarib yuborishni so'rayotganligini, amir esa bunga rozi emasligini aytadi.

Shu 14 aprel kuni amir Olimxon manifestni bekor qildi. Jadidlarning vakillari esa aholi tarqab ketgach, soat 12 da saroydan chiqib o'z homiylari bo'lgan bolsheviklar «inqilobchilar» huzuriga–Buxoroga keldilar. «Yosh

buxoroliklar» endi bu yerdagi kommunistlar (Preobrajenskiy, Utkin va Poltoratskiylar) yordamida «qayta tarbiyalanib», «inqilobiy savod» chiqardilar. Fayzulla Xo'jayev guruhi bolsheviklar yo'lini o'z yo'li deb tanladi. Agar ular, «Aprel voqealari»ga qadar amirni saqlab qolgan holda, uning hukmronligini cheklash, islohotlar o'tkazish yo'lidan borgan bo'lsalar, endi esa amirni «inqilob» ya'ni qurol kuchi bilan ag'darish yo'lini tanladilar. Bu bolshevikcha «inqilobiy yo'l» Buxoro inqilobchilarining bu yangi taktikasi kekxa jadidlar tomonidan jiddiy tanqidga uchrab, taraqqiyparvar jamoatchilikning keng doirasiga aqlini ko'p band qildi», deb yozgan edi Fayzulla Xo'jayev. Ko'rinib turibdiki, «Yosh buxoroliklar» ya'ni jadidlarning hammasi ham «inqilobiy» taktik yo'lining tarafdori bo'lmaganlar.

F.Xo'jayev va Preobrajenskiy dekabr oyidayoq Toshkentga kelib, sovet hukumati boshlig'i F.Kolesovdan harbiy yordam so'raydilar. Bu iltimos F.Kolesovni biroz o'ylantirib qo'ydi. Chunki Turkiston sovet hukumati Buxoro xonligining mustaqilligini rasman tan olgan edi.

Shunda «Buxoro inqilobchilari» tavakkalchilik yo'lini tutdilar va faqat qurol va harbiy rahbarlik tomonidan yordam berilsa bo'ldi, Buxoroning 30 ming dehqon va shahar yo'qsillari birdan oyoqqa turadi deb Kolesovning qornini puch yong'oqqa to'ldiradilar.

Firibgarlik va bosqinchilikda ustasi farang bo'lgan F.Kolesov Buxorolik «inqilobchilar»ni qo'llab-quvvatladi va Qo'qondagi «aksilingilobchi» Turkiston muxtoriyati hukumatini bir yoqli qilgandan so'ng Buxoroga «yordam» berishga va'da berdi. Buning uchun ularga doimiy aloqada bo'lib turishni maslahat qildi.

«Inqilobchilar» Buxoroga qaytib, Turkiston muhtoriyatiga qarshi boshlangan sovet hukumatining bosqinchilik urushida g'alaba qozonishini sabrsizlik bilan kutdilar.

Qonxo'r va jallod Fyodor Kolesov Qo'qonda dahshatli qirg'in qilib 10 000 kishini yostig'ini quritgach va'daga vafo qilib Yangi Buxoroga bir necha bor keldi va amirga qarshi urush rejasini F.Xo'jayev va boshqalar bilan birga ishlab chiqdi. Harbiy hujum mart oyining dastlabki kunlariga belgilandi. «Yosh buxoroliklar»ning Markaziy qo'mitasi 200-300 firqa a'zolarini Yangi Buxoroda qurollantirdilar. Amirlik ichkarisidan qo'zg'olonchilar, tashqaridan esa Kolesov hujum boshlashiga kelishib olindi.

«Yosh buxoroliklar» Markaziy qo'mitasi harbiy hujumga tayyorlanib F.Xo'jayev raisligida 7 kishilik Inqilobiy qo'mita tuzildi. Unga Fitrat, Ota

Xo'jayev, Burxonov, Ag'darov, Qori Yo'ldosh Po'latov, Fazlitdin Maxsum a'zo bo'lib kirdilar.

Nihoyat 1918 yil 1 martda Kolesov qo'mondonligida sovet hukumati armiyasi Yangi Buxoroga yetib keldi. Kolesov o'z vagonida «yosh buxoroliklar» bilan kengash o'tkazdi. Unda Buxoroda hokimiyatni yosh buxoroliklar qo'lga olish rejasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan rejaga ko'ra, amir so'zsiz taslim bo'lishi va hokimiyatni to'laligicha yosh buxoroliklardan tuzilgan Ijroiya qo'mitaga berishi lozim edi. Shundagina amir o'z lavozimida qolishi mumkin edi. Agar amir taslim bo'lmasa, keyingi kuni Buxoroga hujum qilib hokimiyatni egallash va amirni qo'lga olish mo'ljallandi. Ushbu reja asosida Amir Olimxonga ultimatum xati tayyorlandi. Xatga Turkiston Xalq komissarlari kengashi raisi Fyodor Kolesov hamda «Yosh buxoroliklar» Ijroiya qo'mitasi raisi Fayzulla Xo'jayev imzo chekdilar. Unda 24 soat ichida yosh buxoroliklarning talablari hech qanday o'zgarishlarsiz qabul qilinishi, mavjud hukumat tarqatilib, hukumatning yangi tarkibi tayinlanishi ko'rsatilgan edi. Agar amir taslim bo'lmay «inqilobchilar» talabini qabul qilmasa, qon to'kilishiga amirning o'zi aybdor bo'lishi ogohlantirilgan edi. Amir Olimxon Kolesov bilan Xo'jayevning ultimatumida qo'yilgan talablarning hammasi birdaniga amalga oshirilsa xalqning noroziligi kuchayishi mumkinligini ko'rsatib, ularni asta-sekin bajarilishiga rozilik berilishini so'raydi.

Amirning iltimosini ultimatumchilar inobatga olmaydilar. Ular Eski Buxoroga hujum oldidan amirdan ikkinchi javob xatini oladilar. Unda amir ultimatumning hamma talablariga to'la rozi ekanligini bildirib, faqat shaharga armiya kiritilmasligini shart qilib qo'yadi. Ammo negadir xatga imzo qo'yilmagan edi. Ana shu narsani bahona qilib 2 mart kuni ertalab Sovet armiyasi Buxoroga harbiy hujum boshladi. Shaharga bosqinchi sovet armiyasining kirishi qiyin bo'ldi. Buxoro shahri uzunligi 25 kilometr, balandligi sal-kam o'n metr, eni esa 6 metrlik devor bilan o'ralgan edi. Uning o'n bitta temir qoplangan yog'och darvozasi bo'lib har kuni kechqurun qulflanib kalitlari amir saroyiga olib borib topshirilar edi.

Amirning otliq askarlari va xalq ommasi Muqaddas Buxoro himoyasiga o'tlanib, bosqinchilarni shahar devorlaridan bir chaqirim (1,06 km) uzoqlikdagi Fatixobod degan joyda to'xtatdilar. Qizil askarlar oddiy kaltak (so'yil), bolta, tesha va pichoq bilan qurollangan shahar himoyachilarini pulemyotlar, to'p va zambaraklardan o'qqa tutdilar, «Pulemyot qarshisida» deb yozadi, buni o'z ko'zi bilan ko'rgan Kolesov

o'lik va tirik gavdalarning uyumi paydo bo'ldi. Pulemyotchilar esankirab otishni bo'shashtirdilar. Bir lahzada yopirilib kelayotgan katta kuch hamma yoqni bosib ketish xavfi tug'ildi. Shunda biz pulemtchilarga tashlanib, ularni otishni davom ettirishga majbur etdik».

F.Xo'jayev va'da qilgan 30 ming mehnatkash amirga qarshi ko'tarilmadi. Aksincha xalq ommasi amirlikni bosqinchilardan himoya qildi. Ular muqaddas Buxoro uchun shahid bo'ldilar. Ma'lum bo'ldiki, Buxoroda hech qanday inqilobiy harakat yo'q edi.

Amir o'z fuqarolarining fidoyiligi va o'z Vataniga bo'lgan sadoqatini ko'rib, ularni himoya qilish uchun juda ustalik bilan taktik hiyla ishlatdi. U «yosh buxoroliklar»ning hamma talablariga rozi ekanligi haqidagi xat bilan birga o'tkazajak islohot matnini ham Kolesovga yubordi. Amir xatda butunlay taslim bo'lishga ham va hatto, qurolsizlantirilishiga ham rozi ekanligini o'z muhri bilan tasdiqlab qo'ygan edi. Bunga to'la ishongan Kolesov askarlarini tezlik bilan Yangi Buxoroga chekinishi uchun buyruq berdi. O'zi ham amirni Buxorodan 12 chaqirim uzoqlikdagi Kogon shahriga taklif etib, u yerga chekindi. Muzokara boshlandi. Ammo muzokaraga amir betobligi uchun kelolmadi deb sabab ko'rsatdilar. Bu paytda yuzaga kelgan fursatdan foydalanib, amirning odamlari va mahalliy xalq yuz chaqirimdan ko'proq masofadagi temir yo'lni buzib, telefon yog'ochlarini yiqitib, simlarini uzib tashladilar. Bosqinchi armiya shu alfozda qopqonga tushib qoldi. Chorjo'y, Marv, Samarqand, va Qarshiga boradigan temir yo'llar buzib tashlangan edi.

Bexatar joyda g'alabani kutib turgan Buxoro inqilobiy qo'mitasi (Fayzulla Xo'jayev, Ota Xo'jayev, Fitrat, Burxonov, Agdarov, Po'latov va Fazlitdin Maxsum) ham Kolesov poezdida orqaga qochishga majbur bo'ldi. Bir necha bor amirning odamlari kelib, ularni hech bo'lmasa, Xo'jayev, Fitrat va Burxonovni chiqarib berishni talab qildilar. Ammo Kolesov bunga rozi bo'lmadi.

Nihoyat, uch kecha-kunduzda Kolesov arang Qiziltepaga yetib keldi. Tez orada Qiziltepada yarash bitimi imzolandi. Bu bitimga 1868 yilda Rossiya bilan Buxoro o'rtasida tuzilgan shartnoma asos qilib olindi. Amir Buxorodagi ruslar yashaydigan joylardagi sovet hokimiyatini tan olish majburiyatini oldi. Shuningdek, amirga buzilgan temir yo'lni tuzatish, o'z armiyasini 12 ming kishidan oshirmaslik hamda sovet hukumatiga yuz vagon bug'doy berish majburiyati yuklandi.

Kolesov voqeasidan so'ng amir o'z raqiblaridan ayovsiz o'ch ola boshladi. Voqealarning guvohi Sadriddin Ayniyni guvohlik berishicha,

amir odamlari, qushbegi va qozi odamlari g'azovot talablar har yerda egnida kamzuli bor odamni jadidlikda ayblab urib o'ldira boshladilar. Bunday qirg'inlar Eski Buxoro, G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako'l, Vag'ng'ozi, kabi atrof tumanlardan tashqari Karmana, Xatirchi, Chorjo'y, Karki, Qarshi, Sherobod va Hisor bekliklarida ham keng yoyildi. Fayzulla Xo'jayevning yozishicha, 1918 yil martdagi Kolesov voqealaridan so'ng amirlikda 1500 kishi jadid sifatida qatl etilgan.

Sadriddin Ayniy "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarida keltirishicha, Mirza Shoh Fayz, Mirza Abdufayz, Mirza Ahmad, Mulla Vafo, Hoji Siroj, Mirza Rahmat, Mulla Sharif, Nizomiddin Sobitiy, Mirxon Abdunosir, Avazbek, Qori Nurillo, Fazliddin Maxzum, Sulaymonxo'ja va Fatxulloxo'jalar amir reaksiyasining begunoh qurbonlari hisoblanadi. Amir va uning amaldorlari farmoni bilan mirg'azablar, jallodlar begunoh kishilarning uylariga bostirib kirib, mol-mulkini taladilar, gunohsiz kishilarni zindonga tashladilar. Voqealarning guvohi va ishtirokchilari Fayzulla Xo'jayev va Sadriddin Ayniy ham amir tomonidan ta'qib ostiga olindilar. Sadriddin Ayniyning yozishicha, Kolesov voqealaridan so'ng ularning Buxoroda qolishi fojeali tus olishi mumkin edi. Shu sababli Sadriddin Ayniy va Fayzulla Xo'jayevlar dastlab Samarqandga, undan so'ng Toshkentga yo'l oladilar.

Tayanch iboralar.

BXSR, ma'muriy tuzilish, manifest, hukumat raisi, Yosh buxoroliklar, F.Xo'jayev, qurultoy, Turkkomissiya, Turkbyuro, mutlaq monarxiya, nazorat komissiyasi.

Nazorat savollari.

1. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Konstitusiyasida Rossiya bilan munosabatlar haqida qanday bandlar bor edi?
2. Yosh buxoroliklar harakatining asosiy maqsadi va ularning dasturlarida qanday masalalar asosiy o`rin egallagan?
3. Fayzulla Xo'jayev va uning safdoshlari taqdiri haqida ma'lumot bering
4. BXSRning xorijiy tashqi iqtisodiy aloqalari qaysi mamlakatlar bilan olib borilgan?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абаева Т. Г. Из истории взаимоотношений государства русского и народов Афганистана (XVII – начало XIX вв.) // Очерки по новой истории Афганистана. Ташкент. 1966. – С. 128-129.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: «Шарқ», 2000.
3. Алимов И. Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши тарихи (1917–1929 й.). – Т.: Фан, 2009.
4. Амир Саид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Тошкент., Фан, 1991.
5. Андреев М. С, Чехович О.Д. Арк Бухары. Душанбе, 1972.
6. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX вв.) – Алматы: Дайк-Пресс, 2004.
7. Арендаронко Г. Бухарские войска в 1880 г. // Туркестанский сборник. 297 том.
8. Байкова Н.Б. Роль Средней Азии в русско-индийских торговых связях (первая половина XIX-вторая половина XVIII в.). Ташкент: Наука, 1964.
9. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и России. Соч. Т.IX. – М.: 1977. – С. 369-370.
10. Бернс А. Путешествия в Бухару: рассказ о плавании по Инду до Лагора с подарками Великобританского короля и отчет о путешествии из Икдии в Кабул, Татарию и Персию, предпринятом по предписанию Высшего правительства Индии в 1831, 32 и 33 гг. лейтенантом Ост-Индийской служба А. Бернсом, I қисм, М. 1848.
11. Веселовский Н.И. Иван Данилович Хохлов: Русский посланник в Персию и Бухару в XVII веке. СПб., 1891.
12. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Тошкент: Фан, 1996.
13. Воҳидов Ш. Бухоро давлатининг бошқарув тизими (манғитлар даври). – Т., 1997.
14. Дженкинсон Антоний. Путешествие в Среднюю Азию в 1558 – 1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке / Пер. с англ. Ю. В. Готье. – М.: ОГИЗ, 1937.
15. Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Пг., 1915.

16. Зиёев Ҳ. 3. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI – XIX асрлар). – Т., 1962.
17. Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI – середина XIX вв.). – М.: ИВЛ, 1958.
18. Исмоилова Б. Бухарский эмират при эмире Ҳайдаре. Худжанд. 2000.
19. Ёўлдошев М. Ё. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. -Т.:Фан, 1959.
20. Ёўлдошев М. Ё. XVI – XVII асрларда Бухоро билан Россия ўртасида элчилик муносабатлари. – Т., 1957.
21. Каримов Р.Ҳ. Файзулла Ҳўжаев атоқли давлат ва жамоат арбоби. // Файзулла Ҳўжаев ҳаёти ва фаолияти ҳақида янги мулохазалар. – Т.: Фан, 1997.
22. Лебедев Д.М. География в России XVII века: (Допетровский период). М.-Л.: Изд-во АН СССР. 1949.
23. Левтеева Л. Г. Присоединение Средней Азии к России в мемуарных источниках. - Т., 1986. – С. 56.
24. Мамедов В. Нечайная революция // Дружба народов. – Ташкент., 1992.
25. Материалы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Часть 1. – Л.: Изд-во АН СССР, 1932.
26. Мирза Абдал Азим Сами. Тарихи Салатини-и мангитийа (История мангытских государей). / Пред. Л. М. Епифановой. – М.: Вост. литер, 1962.
27. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Т.: Янги аср авлоди, 2009.
28. Муҳаммаджанов Р. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.- Т.:Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси,1957.
29. Муқимов З.Ю. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: Адолат, 2004.
30. Муҳаммад Саййид Балжувоний. Тарих-и нофеи. Тоҷик тилидан таржима, сўз боши ва изохлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. - Т.: Академия, 2001.
31. Низомиддинов И. XVI–XVIII асрларда Урта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари. – Т.: Фан, 1966.
32. Ражабов Қ. Хоразм Халқ Совет Республикаси // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 9. – Т.: ЎзМЭ нашриёти, 2005. – Б. 483.

33. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. – Т.: Маънавият, 2002.
34. Ражабов Қ. Бухоро халқ республикаси: монархиядан демократия сари дастлабки қадамлар (1920-1924 йиллар). // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. Даврий тўплам, – №2. – Т.: Шарқ, 1999. – Б. 151-158.
35. Ражабова Р.Я. Ўзбекистон тарихи (1917-1993 йиллар). – Тошкент., Ўқитувчи, 1993.
36. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006.
37. Содиқов Х. Шамсутдинов Р. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. – Т.: Шарқ, 2000.
38. Соколов Ю. А. К вопросу о причинах провала английских устремлений в Восточную Европу, Среднюю Азию и Персию (XVI – XVII вв.) // Труды САГУ. История стран Востока. Вып. 68. – Т., 1955.
39. Султонов Ф., Бозорбоев Ф. Ўзбекистон ҳукмдорлари. – Тошкент.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
40. Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в в первой половине XIX века. Душанбе. 1953.
41. Тухтаметов Т. Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX-начале XX в. - Т., 1966.
42. Файзиев Т. Бухоро феодал жамиятида қуллардан фойдаланишга доир ҳужжатлар (XIX аср.). - Т., Фан, 1990.
43. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. СПб... 1843.
44. Хасанов М., Германов В., Шодиев И. Амир Олимхон фожеаси // Фан ва турмуш. – Т., 1991. – №4. – Б. 26.
45. Хасанов М. Садриддин Айний ва Файзулла Хўжаев. – Т.: 1968.
46. Хасанов М. Файзулла Хўжаев. – Т.: Ўзбекистон, 1990.
47. Холбоев С. Бухоро амирлигининг олтин хазинаси. – Т.: Фан, 2008.
48. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Т.: Шарқ, 1997.
49. Ҳайитов Ш., Бадриддинов С., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920–1924 й.). – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2005.

50. Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома / Ҳ. Бобобеков, Ш. Каримов, М. Содиқов ва бошқ.: Масъул муҳаррир Ш. Каримов. – Тошкент: Шарқ, 2000.
51. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000.
52. Қиличев Ф. Зулматдан садолар. –Т.: Адолат, 1994.
53. Эрматов М. Ўрта Осиё, Россия ва Ҳиндистон халқлари ўртасидаги дўстона алоқалар тарихидан. – Т., 1959.
54. Эркўзиев А.А. Ўрта Осиё ва Ғарбий Европа ўртасидаги иқтисодий алоқалар (XVI – XIX асрнинг биринчи ярми): Тарих фан. номз. дисс... – Т.: ЎзМУ, 2009. – 166 б.
55. J. Wolff. Narrative of a mission to Bouchara in the years 1843-1845 to ascertain the fate of colonel Stoddart and captain Conoly. New York, 1845.
56. Kaye William. Lives of Indian Officers. London. A. Strahan and Co., 1867.
57. Hopkirk Peter. The Great Game On the Secret Service High Asia. London. John Murray. 1990.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Buxoro xonligi tarixi haqida manbalar.....	6
Buxoro xonligi davlat boshqaruvi va mansablar.....	44
Buxoro xonligida harbiy ish va qo`shin.....	65
Buxoro xonligi diplomatiyasi va tashqi iqtisodiy aloqalari.....	75
Buxoro hukmdorlari shaxsiy fazilatlari va vorislari.....	111
Buxoro xonligida qurolli qarshilik harakati.....	148
Buxoro Xalq Sovet Respublikasining taqdiri.....	161
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	195

Anvar ERQO`ZIYEV

«BUXORO XONLIGI TARIXI»
(o`quv qo`llanma)

Muharrir:

Zohid Madrahimiv

Dizayner:

Sherzod Umarov

Sahifalovchi:

Ulug`bek Mansurov

*Mazkur o`quv qo`llanma Namangan davlat universiteti Kengashining
2018 yil 7 noyabrdagi 3-sonli yig`ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.*

«Fazilat orgtex servis» xususiy korxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, A. Navoiy ko`chasi, 72- uy